O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
“MENEJMENT” KAFEDRASI

“IQTISODIY TARAQQIYOT VA SAMARALI BOSHQARUV: XALQARO TAJRIBA, TENDENSIYALAR VA DOLZARB MASALALAR”

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI

(III qism)

(2023 yil 10 - 11 noyabr)

SAMARQAND – 2023

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“MENEJMENT” KAFEDRASI

«Iqtisodiy taraqqiyot va samarali boshqaruv: xalqaro tajriba, tendensiyalar va dolzarb masalalar»

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
MATERIALLARI TO‘PLAMI

(III qism)

(2023-yil 10-11-noyabr)

SAMARQAND – 2023

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

САМАРКАНДСКИЙ ИНСТИТУТ ЭКОНОМИКИ И СЕРВИСА

КАФЕДРА “МЕНЕДЖМЕНТ”

“Экономическое развитие и эффективное управление: международный опыт, тенденции и актуальные проблемы”

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ

международной научно-практической конференции

(часть III)

(10-11 ноября 2023 г.)

САМАРКАНД – 2023

UO‘K: 338.1
T 8
KBK: 65.011ya43

Iqtisodiy taraqqiyot va samarali boshqaruv: xalqaro tajriba, tendensiyalar va dolzarb masalalar// Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2023 yil 10-11-noyabr. Samarqand, SamISI, 2023. – 260 bet.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:
F.U. Tursunov – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

Nashr uchun mas’ullar:
D.X.Aslanova- iqtisod fanlari nomzodi, professor
M.T.Alimova – iqtisod fanlari doktori, professor
B.B.Raxmatov – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
A.E.Tangirov - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
M.E.Ahtamova– iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.
N.A.Usmanova - iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.
Z.K.Raximov - iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.

Sahifalovchi: B.M.Abdumannonov – SamISI “Menejment” kafedrasi assistent-stajyori

Ilmiy – amaliy konferensiya materiallarida “Iqtisodiy taraqqiyot va samarali boshqaruv: xalqaro tajriba, tendensiyalar va dolzarb masalalar”ga oid yo‘nalishlar yoritilgan. Unda “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari”, “Yashil” iqtisodiyot va barqaror rivojlanishning dolzarb masalalari”, “Iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida samarali faoliyat va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlashda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishlari”, “Standartlashtirish va sifat menejmenti: xalqaro tajriba va zamonaviy tendensiyalar”, “Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni innovatsion rivojlantirishning dolzarb masasalari”ni hal qilishga qaratilgan ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarga boy maqola va tezislar o‘rin olgan.

Tezislar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas’ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

Экономическое развитие и эффективное управление: международный опыт, тенденции и направления, связанные с актуальными проблемами, освещены в материалах научно-практической конференции. Он включает “Особенности и тенденции социально-экономического развития регионов”, “Актуальные проблемы «зеленой» экономики и устойчивого развития”, “Направления совершенствования механизмов управления для обеспечения эффективной работы и высоких темпов роста во всех отраслях и отраслях экономики”, “Стандартизации и управления качеством: международный опыт и современные тенденции”, статьи и диссертации, богатые научно-теоретическими и практическими рекомендациями, направленными на

решение актуальных проблем инновационного развития социально-экономических систем.

Тезисы редактируются авторами. Авторы несут ответственность за представленные в них цифры, факты, выводы и рекомендации. Некоторые их мнения могут не соответствовать взглядам организационной группы.

Economic development and effective management: international experience, trends and directions related to current problems are covered in the materials of the scientific and practical conference. It includes features and trends in the socio-economic development of regions, current problems of the green economy and sustainable development, directions for improving management mechanisms to ensure effective operation and high growth rates in all sectors and sectors of the economy, standardization and quality management. : international experience and modern trends, articles and dissertations, rich in scientific, theoretical and practical recommendations aimed at solving current problems of innovative development of socio-economic systems.

Abstracts are edited by the authors. The authors are responsible for the figures, facts, conclusions and recommendations presented in them. Some views of the authors may not coincide with the views of the organizing group.

ISBN: 978-9910-752-13-1

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2023.
© “STEP-SEL” MChJ. Nashriyoti, 2023.

MUNDARIJA

I SHO‘BA. HUDUDLARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI VA TENDENSIYALARI		
И.И.Алимов	ХУДУДЛАРНИ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ХОРИЖ ТАЖРИБАСИНИ ХУСУСИЯТЛАРИ	11-15
A.N.Achilov	O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA ISHLAB CHIQARISH STUKTURASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	15-18
M.S.Ashurov	HUDUDLARNI IQTISODIY TARAQQIY ETTIRISHDA KICHIK INNOVATSION KORXONALARNI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI	19-21
G.A.Abduvohidova	HUDUDLARDA TADBIRKORLIKNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	21-24
Р.С.Собитова	РЕСПУБЛИКАДА САНОАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИ МАҲАЛЛИЙЛАШТИРИШНИНГ ЯГОНА ТИЗИМИНИ ЯРАТИШ ЗАРУРИЯТИ	25-28
A.B.Xushvaqov	MINTAQADA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA AHOLI TURMUSH SIFATINI YAXSHILASH	28-31
Yu.S.Shakirova	KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH HUDUDLARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARIDAN BIRI SIFATIDA	32-35
Э.Шавқиев	МАМЛАКАТНИ СОЦИАЛ-ИҚТИСОДИЙ ЖИҲАТДАН РИВОЖЛАНТИРИШДА САНОАТ ТАРМОҒИНИНГ ЎРНИ	35-38
A.H.Nishonov G‘.A.Artikov	SHAHARLARNI HUDUDLARGA BO‘LISH ORQALI ISTIQBOLLI REJASINI BASHORAT QILISH	38-45
Р.Эргашев	РАЗВИТИЯ КЛАСТЕРА-КООПЕРАТИВА ПЛОДООВОЩНОЙ ПРОДУКЦИИ	45-49
О.Н.Холмуродов	РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА АҲОЛИ БАНДЛИГИ, ФАРОВОНЛИГИ ВА ТУРМУШ ДАРАЖАСИНИ ОШИРИШДА	50-53

	ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИНГ АҲАМИЯТИ	
II SHO‘BA. “YASHIL” IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISHNING DOLZARB MASALALARI		
О.Ю.Ашурова	ЗНАЧЕНИЕ И ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕНОЙ» ЭКОНОМИКИ	54-56
О.Ю.Ашурова	ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СРЕДЕ РЕГИОНОВ	56-60
Ахтамова М.Э. Джамолова Х.И. Жураева М.Ф.	«ЗЕЛЁНАЯ» ЭКОНОМИКА НА ПОРОГЕ СОХРАНЕНИЯ ПРИРОДНЫХ РЕСУРСОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	60-63
А.Д.Равшанов	РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ “ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ” АСОСИДА БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛЛАРИ	63-66
Таджибаев Закир Маликович	ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ОХРАНЫ АТМОСФЕРНОГО ВОЗДУХА	67-71
З.М.Таджибаев Ж.Ж.Ахунов	РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ В ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ	72-75
Ю.М.Хасанова	ИНВЕСТИЦИОННЫЙ КЛИМАТ И ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТЬ РЕГИОНОВ РЕСПУБЛИКИ	75-78
III SHO‘BA. IQTISODIYOTNING BARCHA SOHA VA TARMOQLARIDA SAMARALI FAOLIYAT VA YUQORI O‘SISH SUR’ATLARINI TA’MINLASHDA BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI		
A.M.Soatov	DIVERSIFIKATSIYA VA BOSHQARUV	79-81
D.R.Xoliqov	AHOLIGA XIZMAT KO‘RSATISH SOHALARI UCHUN KADRLAR SELEKSIYASINI TASHKIL ETISH, BOSHQARISH VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘NALISHLARI, USULLARI, MEXANIZMLARI	82-84
B.B.Xudayberdiyev	MARKETINGNING MOHIYATI VA UNING QURILISH ISHLAB CHIQARISHIDAGI AHAMIYATI	85-87
S.I.Xudoyberdiyev	VAQTLI QATORLARNING MATEMATIK MODELI	88-92

B.Shodiyev	QORAKO‘LCHILIKDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA RESURSTEJAMKOR ISHLANMALARNI SAMARALI JORIY QILISHNI TA’MINLASH	93-96
И.И.Эргашев	ХИЗМАТ КЎРСАТИШ КОРХОНАЛАРИДА ИНВЕСТИЦИОН ФАОЛИЯТНИ БОШҚАРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	96-100
M.I.Kamalova	IMPROVEMENT OF MANAGEMENT MECHANISMS TO ENSURE EFFICIENT OPERATION AND HIGH GROWTH RATES OF THE TOURISM SECTOR OF UZBEKISTAN	100-104
Ж.С.Норқулов	ОЛИЙ ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ СОҲАСИДА САМАРАЛИ ФАОЛИЯТНИ ТАЪМИНЛАШДА ИКТИСОДИЙ МЕХАНИЗМНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ	104-109
SH.A.Musaeva F.SH.Usmanov	“SAM ANTEP GILAM” QK MCHJ DA MARKETING BOSHQARUVINING HOLATINING TAHLILI	109-116
М.Э.Ахтамова Р.А.Мухамадиев	ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	116-119
N.R.Murtazayev	O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISH	119-123
И.Ражабалиева	РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИ	123-127
С.А.Абдувохидова	ОРГАНИЗАЦИОННО-ФИНАНСОВЫЙ МЕХАНИЗМ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ В КОММЕРЧЕСКОМ БАНКЕ	127-130
Мирзоулугбек Юсупов Шанк Валентина	ШИРОКОЕ ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СФЕРЕ УСЛУГ СПОРТИВНОГО МЕНЕДЖМЕНТА	130-135
Э.И.Носиров	“ЯШИЛ” ОБЛИГАЦИЯЛАРНИ МУОМА-ЛАГА ЧИҚАРИШ ХУСУСИЯТЛАРИ	135-139
Р.Х.Эргашев	TEMIR YO‘L KORXONALARDA MEHNAT JARAYONLARINI TASHKIL ETISH VA MEHNAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH	139-143

Н.Р.Эргашева	МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА АУТСОРСИНГ ХИЗМАТЛАРИНИ БОШҚАРИШ ҲУСУСИЯТЛАРИ	143-146
Ғ.Ғ.Ўринбоев	ФУҚАРОЛАРНИНГ ДАВЛАТ ПЕНСИЯ ТАЪМИНОТИНИ ТИЗИМИДА МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТНИНГ ҲОЗИРГИ ҲОЛАТИ	146-149
A.A.Muxitdinov	QURILISH MAJMUASIDA KLASTERNI YARATISH JIHATLARI	150-152
IV SHO‘BA. STANDARTLASHTIRISH VA SIFAT MENEJMENTI: XALQARO TAJRIBA VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR		
B.X.Qilichov	SUG‘URTA KLASSLARI BO‘YICHA MA’LUMOT	153-158
N.A.Usmanova	IMPROVING THE QUALITY MANAGEMENT SYSTEM OF HOTEL SERVICES	158-162
A.T.Raxmonova	BIZNES-INKUBATORLAR TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA YAPONIYA AMALIYOTI	162-166
G.T.Samiyeva	IMPORTANT ASPECTS OF THE FOREIGN EXPERIENCE IN GROWING AGRICULTURAL PRODUCTS	166-169
B.Z. Arzimatov R.N.Asqarova	MAHSULOT SIFATIDA STANDARTLASHTIRSH VA UNING HOZIRGI KUNDAGI ROLI	169-171
Б.С.Акбаров	ОРГАНИК ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ МАҲСУЛОТЛАРИ БОЗОРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ БЎЙИЧА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ	171-175
Газиев Хайдарали Ортиқович Мухаммадалиева Рухсора Жўрабоев Абдусалом	МАҲСУЛОТ СИФАТИНИ БОШҚАРИШДА ХАЛҚАРО ТАЖРИБАЛАРНИ ЎРГАНИШ ХАҚИДА	175-178
Х.М.Мисиров	ТЕМИР ЙЎЛ КОРХОНАЛАРИДА ДАРОМАДЛАР ВА ХАРАЖАТЛАР ҲИСОБИНИ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР АСОСИДА ЮРИТИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ	178-188
Ахтамова М.Э. Алибекова Паризода	СТАНДАРТИЗАЦИЯ И МЕНЕДЖМЕНТ КАЧЕСТВА: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ	188-193

	РАЗВИТИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	
А.К.Эшонкулов	ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ ПРИ ПРИМЕНЕНИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ УЧЕТНОГО УЧЕТА ДЕНЕЖНЫХ СРЕДСТВ И ИХ ЭКВИВАЛЕНТОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	193-201
Усмонова Д.И. Усманов Ш.Ш.	“САМАНТЕПГИЛАМ”ҚК МЧЖДА МАРКЕТИНГ-МИКС ЭЛЕМЕНТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ	201-207
V SHO‘BA. IJTIMOIY-IQTISODIY TIZIMLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI		
I.T.Yormatov	O‘ZBEKISTONDA TO‘QIMACHILIK KORXONALARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	208-211
Ибрагимова Г.М.	ФОРМИРОВАНИЕ РЕГИОНАЛЬНОГО СОЦИАЛЬНОГО ПЕНСИОННОГО КЛАСТЕРА	211-213
З.М.Мухаммедова	ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИДА ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ	213-216
Ахтамова М.Э. Шигабеева Динара, Салихова Амина, Исломов Валижон	АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНО- ЭКОНОМИЧЕСКИХ СИСТЕМ	216-220
М.Э.Ахтамова Хамидов Дж.З.	СОВРЕМЕННАЯ РОЛЬ БИЗНЕСА В РАЗВИТИИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА И УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	220-224
М.Э.Ахтамова Синько Юлианна Викторовна	РОЛЬ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ИННОВАЦИЙ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СФЕРЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	224-227
Б.Б.Рахматов	МИНТАҚАВИЙ ИҚТИСОДИЁТНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ	228-230
А.Т.Ахмедова	УПРАВЛЕНИЕ ПРЕДПРИЯТИЕМ В ИННОВАЦИОННОЙ СТРАТЕГИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ	230-233

Ҳ.Н.Очилова	ОЛИЙ ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИЧКИ ИМКОНИЯТЛАРИ	234-238
Хамракулова О.Д	ПРОБЛЕМЫ ИНВЕСТИЦИЙ В ИННОВАЦИОННОМ РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	239-242
Г.А.Абдувоҳидова	АҲОЛИНИНГ ИШ БИЛАН БАНДЛИГИ ДАРАЖАСИНИ ОШИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ВА ОМИЛЛАРИ	242-250
Sh.F.Umirzakova	TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLIYATINI MOHIYATI VA SHAKLLARI	250-252
Н.В.Калимулина	КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ВА ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ	253-258

Алимов Ильхомжон Икромович - ТДТрУ “Ҳисоб ва бизнес” кафедраси доценти, и.ф.н.

ХУДУДЛАРНИ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ХОРИЖ ТАЖРИБАСИНИ ХУСУСИЯТЛАРИ

Аннотация:*Мазкур мақолада халқаро амалиётда амал қилаётган бюджет тизимлари ва бюджет федерализмининг Америка, Германия ва Канада моделларининг моҳияти ҳамда уларнинг ўзига хос хусусиятлари очиб берилган. Мақолада муаллиф томонидан ҳар бир бюджет тизимлари ва бюджет федерализми моделига баҳо берилган.*

Таянч сўзлар: *Давлат, қонун, вазифалар, бюджет, бюджет тузилмаси, бюджет тизими, даромадлар, харажатлар, тақчиллик, профицит.*

Аннотация:*В данной статье расскрывается сущность бюджетной системы и особенности моделей Американского, Германского и Канадского бюджетного федерализма. В статье дана авторская оценка каждому бюджетной системы и моделю бюджетного федерализма.*

Ключевые слова: *Государство, закон, функции, бюджет, бюджетное устройство, бюджетная система, доходы, расходы, дефицит, профицит.*

Abstract:*This article is exposed the nature and feature of budget system and budget federalization of USA, Germany and Canada. The article presents the author’s assessment of the each model of budget federalization.*

Keywords: *State, law, functions, budget, budget system, earnings, expenses, deficit, surplus.*

Халқаро амалиётда даромадларнинг тақсимланиши дастури марказий ҳукумат ваколатлари устунлигига асосланган бюджет даромадларини марказий ҳукумат ва маҳаллий ҳокимият органлари ўртасида тақсимлашдаги ваколатларини тамойилларига асос бўлди. Бюджет федерализми эса ўз моҳиятига асосан хар бир алоҳида олинган давлатлар бюджет тизимидаги барча субъектларининг мўътадил фаолият олиб бориши учун молиявий манфаатларини ҳисобга олган бюджет тизимидир. Бюджет федерализмига асосан маҳаллий бюджетларнинг даромадлари икки гуруҳга: яъни бириктирилган ва мувофиқлаштириладиган даромадларга ажратилади. Маҳаллий бюджетларнинг бириктирилган даромадлари ўз моҳиятига кўра, тегишли ҳудудга амалдаги қонунчиликка асосан, тўлиқ ва доимий тарзда, юқори бюджетни четлаб ўтган холда тушадиган даромадлардир. Бириктирилган даромадларни маҳаллий солиқлар ва йиғимлар ҳамда федерал солиқлардан қатъий белгиланган улуш ва доимий тушадиган солиқлар ташкил этади. Мувофиқлаштириладиган даромадлар эса, маҳаллий бюджетларнинг даромадлари ва харажатларининг мутаносиблигини сақлаб

туриш учун юқори бюджетдан ажратиладиган пул йиғиндисидан иборат. Мувофиқлаштириладиган даромадлар таркибига умумдавлат (федерал) солиқлардан фоизли ажратмалар, дотация, субвенция, субсидия, ҳудудларни молиявий қўллаб-қувватлаш фондидан маблағлар ва ўзаро ҳисоб-китоблар (траншлар) асосида юқори бюджетлардан олинган маблағлар киради.

Халқаро амалиётда бюджет федерализмининг қуйидаги моделлари амал қилади:

1.Бюджет федерализмининг Америка модели;

2.Бюджет федерализмининг Германия модели;

3.Бюджет федерализмининг Канада модели.

Биз қуйида бюджет федерализмининг барча моделларининг моҳияти ва хусусиятларини очишга харакат қиламиз.

Бюджет федерализмининг америка модели АҚШнинг алоҳида штатларига нисбатан кенг мустақиллигига асосланади. Шуни таъкидлаш лозимки, АҚШ бюджет-солиқ тизимида даромадларни горизонтал улушли тақсимланиш амалиёти мавжуд эмас. Бюджет субсидиялари эса штат ва маҳаллий ҳокимият органларининг молиялаштиришдаги улушларининг ҳажмига асосан ажратилади. Бундай молиялаштиришнинг мақсади ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий ҳолатини тенглаштиришга қаратилган эмас. Бундан ташқари, бюджет федерализмининг америка модели энг аввало молиявий барқарор штатларни янада ривожлантиришга қаратилган.

АҚШда штатлари ва маҳаллий давлат органлари ўзларининг мустақил солиқ сиёсатини амалга ошириш ҳуқуқига эгадилар. Шуни таъкидлаш лозимки, штатлар ўзларининг солиқ сиёсати бўйича бир-бирларидан фарқ қиладилар. Масалан, сотувдан олинадиган солиқ АҚШнинг 44-та штатида амал қилади. Лекин, уларнинг ставкалари турлича. Калифорнияда эса бошқа барча штатлардан ташқари ишбилармонлик фаоллиги учун солиқ ундирилади. Ушбу солиқ корхоналарнинг умумий йиллик айланмасига нисбатан 1,0-2,5% ставкада ундирилади. Штатлар федерал солиқларнинг базавий ставкалари устига ўзларининг қўшимча ставкаларини қўшиш ҳуқуқига эгадирлар. АҚШ даги барча штатлар ўзларининг манфаатларидан келиб чиққан ҳолатда маҳаллий солиқларни ва уларнинг ставкаларини мустақил тарзда белгилайдилар.[1]

Бюджет федерализмининг Германия модели учун ҳудудлар (земель) ўртасида молиявий ресурсларни тақсимлашда ягоналилик тамойилини устунлиги характерлидир. Германия Федератив Республикаси бюджет тизими энг аввало федератив бюджетга келиб тушадиган ва сўнгра барча бюджет бўғинлари ўртасида тақсимланадиган “умумий солиқлар”га асосланади. Бундай солиқларга иш ҳақидан олинадиган солиқ, бевосита даромад солиғи, корпорациялар фойдасидан олинадиган солиқ, қўшилган қиймат солиғи ва дивидендлардан ҳамда фоизли даромадлардан олинадиган билвосита солиқ ташкил этади. Лекин шуни алоҳида таъкидлаш лозимки,

[1] Ван Хорн Дж. К. Основы управления финансами. Пер. С англ./ гл. ред. Я.В. Соколов. -М.: Финансы и статистика. 1996.

Германияда акциз солиғи фақатгина федератив бюджетга келиб тушади.

Германия бюджет тизимида алоҳида ерлар (“бой” ва “камбағал” ерлар) ижтимоий-иқтисодий ҳолатини тенглаштириш учун умумий солиқлардан дифференциал нормативлар асосида ажратмалар ажратиш механизми амал қилади. Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, Германияда ҳудудларни молиявий ҳолатни тенглаштириш бўйича самарали механизм амал қилишига қарамасдан, айрим ҳудудлар ҳозирда ҳам молиявий ночор ҳисобланади. Айнан шундай ерларни молиявий қўллаб-қувватлаш учун федерал субсидиялар тизими амалиётга киритилган. Ушбу тизим орқали молиявий ночор ерларнинг солиқ потенциали Германиядаги ўртача солиқ потенциалига етказилмоқда.[2]

Бюджет федерализмининг Канада модели ўз моҳиятига асосан америка моделига ўхшаш. Канадада провинциялар ҳудудий ва маҳаллий солиқлар бўйича қонунлар қилиш ҳуқуқига эга. Қабул қилинган қонунлар асосида ўзларининг мустақил солиқ сиёсатини олиб борадилар. Канадада АҚШдаги сингари федерал ва маҳаллий солиқлар амал қилади. Канадада федерал солиқларга шахсий даромад солиғи, корпорациялар фойдасидан солиқ ва қўшилган қиймат солиғи киради. Провинциялар ва муниципалитетлар федерал солиқларнинг базавий ставкалари устига ўзларининг қўшимча ставкаларини қўшиш ҳуқуқига эгадирлар. Лекин, шуни таъкидлаш лозимки, Канадада солиқларнинг ундирилишнинг ягона тизими мавжуд эмас. Бу энг аввало шахсий даромад солиғи ва корпорациялар фойдасидан олинадиган солиққа тегишлидир.

Бюджет федерализмининг Канада моделининг Америка моделидан энг катта фарқи шундан иборатки, Канадада бюджет федерализми ёрдамида мамлакат ҳудудларини ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришини тенглаштириш ҳамда аҳоли ҳаёт даражасини кўтаришликка алоҳида аҳамият берилади. Бу масала Канадада марказий ва провинция хокимият органларининг умумдавлат аҳамиятига эгадир. Канадада юқори бюджетлардан маҳаллий бюджетларга молиявий кўмак ажратишнинг асосий мезони бўлиб, бу провинцияларнинг молиявий таъминланганлик даражасини мамлакатнинг ўртача даражасидан қай даражада ортда қолганлиги ҳисобланади. Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, Канада хукуматининг провинцияларни молиявий қўллаб-қувватлаш имкониятлари Германиядаги каби кучли даражада бўлишига қарамай, ушбу мамлакатда молиявий ночор провинцияларни имконият даражасида молиявий маблағлар билан таъминлаш фаол амалга оширилиб келинмоқда.[3]

Ўзбекистон Республикасида давлат бюджетини ижроси бўйича эришилган ижобий натижалар билан бир қаторда ўз ечимини кутаётган муаммолар мавжуд. Мамлакатимизда маҳаллий бюджет даромадларини шакллантириш масаласи муҳим аҳамиятга эга. Чунки йилдан йилга маҳаллий

[2] Deborah Schans, Sebastian Schans. Business Taxation and Financial Decisions (Germanu). Springer. 2011.

[3] Боди З, Мертон Р. Финансы. Перевод с английского. 7-ое издание. – М.: Вильямс. 2007.

хокимият органлари ваколатлари кенгайиб, унга мос равишда харажатлари хам ошиб бормоқда. Ҳозирги кунда маҳаллий бюджетлар даромад манбаига эга бўлмаган харажат мажбурияти билан анча қийналиб қолаётганлиги ҳеч кимга сир эмас, бу айниқса, ишлаб чиқариш ҳамда инфратузилма яхши ривожланмаган ҳудудларда яққол сезилмоқда. Бунинг устига, ҳозирги шароитда бюджет даромадларини шакллантиришда маҳаллий солиқларнинг роли сезиларли даражада эмас, асосий қисм маҳаллий бюджет даромадлари тартибга солувчи даромадлар - бюджет тизими бюджетлари ўртасида ажратмалар нормативлари белгиланадиган умумдавлат солиқлари ва бошқа мажбурий тўловлар, шунингдек солиқ бўлмаган тўловлар хисобига шаклланмоқда. Ҳозирги вақтгача республикамизда маҳаллий бюджетларнинг даромадлари ва харажатлари асосан субвенциялар ҳисобидан қопланиб келинган. Хозирги вақтда Қорақалпоғистон Республикаси, Наманган, Сурхондарё, Жиззах ва Хоразм каби баъзи вилоятлар ва кўплаб қишлоқ туманлари бюджетларининг субвенцияда қолиб кетаётгани, яъни республика бюджети ҳисобидан таъминланмоқда. Бундан ташқари Тошкент, Фарғона, Қашқадарё, Навоий ва Бухоро вилоятларининг бюджетлари асосан йирик саноат корхоналари хисобидан қопланиб келинган. Масалан, Тошкент вилоятида мавжуд 14 та туманнинг 7- таси субвенция хисобидан таъминланса, қолган 7 таси йирик корхоналар яъни Олмалиқ тоғ-кон комбинати, Бекобод металлургия комбинати, Бекобод цемент заводи, Охангарон цемент заводи каби корхоналар томонидан тўланадиган маҳаллий солиқлар ҳисобидан қопланиб келиниб келинган. Худди шундай ахволни Фарғона, Қашқадарё, Бухоро ва Навоий вилоятларида ҳам кузатиш мумкин. Бунинг асосий сабаби 2019 йилгача йирик корхоналар соф фойдасидан 8 фоизини ободонлаштириш ва ижтимоий инфратузилмани ривожлантириш солиғи сифатида маҳаллий бюджетга ўтказиб туришган. 2019 йилдан бошлаб мазкур солиқ унификация қилинган ва бекор қилинганлиги натижасида йирик корхоналар жойлашган вилоятлар маҳаллий бюджетлари йирик бюджет даромадидан махрум бўлди.[4] Ушбу омил эса маҳаллий молиянинг таркибий қисми ҳисобланган маҳаллий бюджет билан бирга, хўжалик субъектларининг молиясини уйғунлашган холда ўрганишни ва уларнинг даромадларини ошириш йўналишларини ишлаб чиқишни тақозо этади. Ушбу муаммога ўз диққат – эътиборини қаратган Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев қуйидагиларни танқидий равишда таъкидлаган эди: «Чуқур таҳлилллар асосида ҳар бир ҳудуднинг ўзига хос хусусият ва имкониятлари, талаб ва эхтиёжларини инобатга олган, ҳар бир маҳаллани назарда тутган ҳолда, 2017-2021 йилларда туман ва шаҳарларни комплекс ривожлантириш дастурлари қабул қилинади. Бу дастурларни амалга ошириш натижасида субвенция оладиган 81та туман молиявий жиҳатдан ўзини тўлик

[4] Alimov I. I. Prospective banking reforms are the solution for the economic growth in emerging economies like Uzbekistan. International Scientific Journal “Theoretical & Applied Science” Philadelphia, USA. 21.05.2019. 139-144 s.

таъминлайдиган ҳудудга айланади, шунингдек, 41та туман ва шахар бўйича субвенция даражаси сезиларли равишда камаяди».[5]

Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 30 декабрда қабул қилинган “2023 йил учун Ўзбекистон Республикасининг давлат бюджети тўғрисида”ги ЎРҚ-813-сонли қонунида мамлакатимиз бўйича фақатгина Навоий, Тошкент вилоятлари ва Тошкент шаҳар маҳаллий бюджетларининг даромадлари ва харажатлари мутаносиб равишда қабул қилинган. Республикамизнинг қолган барча вилоятларининг маҳаллий бюджетларида харажатлар даромадлардан кўплиги билан қабул қилинган. Ушбу ҳолат мамлакатимизда маҳаллий бюджетларнинг даромадлар базасини кўпайтириш масаласини кўриб чиқишликни талаб этади.

Фикримизча, республикамизда ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш учун маҳаллий бюджетларнинг даромадларини ошириш мақсадида қуйидаги чора-тадбирларни амалга ошириш мақсадга мувофик бўлар эди:

- республикамизнинг барча ҳудудларида замонавий корхоналар, савдо тармоқлари, умуман инфратузилмани ривожлантиришга маҳаллий ҳокимият ва тижорат банклари томонидан эътиборини кучайтириш лозим;

- республикамизнинг барча шаҳар ва туманларида маҳаллий ҳокимият ва тижорат банклари томонидан кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш ва уни молиявий қўллаб-қувватлашга қаратилган давлат мақсадли дастурларини амалга ошириш ҳамда мамлакатда ишбилармонлик муҳитини сифат жиҳатдан яхшилаш ва пировардида янги иш ўринлари яратиш кўламларини ошириш жараёнларида фаол иштирок этиш.

Юқорида таклиф этилаётган чора-тадбирларни амалга ошириш натижасида шаҳар ва туманларда қўшимча ишчи ўринлари яратиш билан бир қаторда, маҳаллий бюджетларга қўшимча даромадларни олиб келади ҳамда пировард натижада, мамлакатимиз ҳудудларини ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришга ижобий таъсир кўрсатади деб ҳисоблаймиз.

Achilov Abror Niyatqobilovich - Farg‘ona Davlat universiteti, “Moliya” kafedrasi mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori (PhD)

O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA ISHLAB CHIQARISH STUKTURASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining hududiy iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, mavjud korxonalarning ishlab chiqarishni quvvatlarini oshirish va texnologiyalarini takomillashtirish, tayyor mahsulotlar assortimentini ko‘paytirish, sotuv hajmini oshirish uchun amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar yoritilgan hamda ilmiy asoslangan takliflar berilgan.*

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning tarjimai holi va dasturi. Xalq so‘zi 23.11.2016

Maqola asosan Farg‘ona viloyatining Beshariq tumanda sanoat sohasida faoliyat yurituvchi korxonalari korxonalar miqiyosida ularning xudud iqtisodiyotidagi roli va iqtisodiy-ijtimoiy axamiyati to‘g‘risida yoritilgan.

Tayanch so‘z iboralar: *Maxalliy xom-ashyo, ishlab chiqarish, tovar va xizmatlar, tadbirkorlik, innovatsiya, investisiya, eksport, imtiyozli kredit, iste’mol bozori, sotuv hajmi, xarid qobiliyati, monopoliya, raqobat, aholining bandligi, ta’minot, ijtimoiy turmush darajasi, xizmat ko‘rsatish sifati.*

Аннотатсия: *В данной статйе даны предложения и разработаны начуно обоснованные предложения исхода из особенности экономческих обобенностей регионов Республики Узбекистан. Как улучщит производственную мощност производственных предприятий, увелчит количества ассортиментов готовой продуксии а также как улушит товаророоборт выпускайемой продуксии. Статя посвящена роли и социально-экономической значимости промышленных предприятий в Ферганской области Бешарикском раёне на уровне предприятий.*

Ключевыйе слова: *Местное сырё, производство, товары и услуги, предпринимателство, инновации, инвестисия, экспорт, лготный кредит, потребителский рынок, объем продаж, покупателная способност, монополия, конкуренсия, занятост, предложенийе, уровен жизни, качество обслуживания.*

Resume: *This article gives suggestions and develops well-founded proposals based on the characteristics of the economic generalities of the regions of the Republic of Uzbekistan. How to improve the production capacity of industrial enterprises, increase the number of assortments of finished products, and also how to improve the inventory of products. The article is devoted to the role and socio-economic significance of industrial enterprises in the Ferghana region in the Besharik region at the enterprise level.*

Keywords: *local raw materials, production, goods and services, entrepreneurship, innovation, investment, export, soft credit, consumer market, sales, purchasing power, monopoly, competition, employment, supply, standard of living, quality of service.*

Farg‘ona viloyatidagi Beshariq tumani sanoati rivojlangan xududlardan hisoblanadi viloyatimizda 2020-2022 yillarda rivojlantirish bo‘yicha umumiy qiymati 26 trillion 401 milliard so‘mlik 643 ta loyihadan iborat yangi hududiy investisiya dasturi ishlab chiqilgan. Mazkur dastur doirasida 2,5 milliard dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investisiya o‘zlashtiriladi va 31 mingdan ziyod yangi ish o‘rni yaratilishi belgilangan bo‘lib, Beshariq tumanida «Farg‘ona Yasin qurilish mollari» korxonasida 200 million dollarlik loyiha amalga oshirilib, joriy yilda 800 ming tonna va keyingi yildan 1,2 million tonna syement ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilish belgilangan va bunga etarlicha imkoniyatlar va asoslar borligi aytib o‘tilgan. Joriy yilning 12 yanvar sanasida mazkur yirik syement zavodi qurilishi investision loyihasi “Great Amirxan oil” mas’uliyati cheklangan jamiyati va Xitoyning "Shanxi Xiangsheng" kompaniyasi tomonidan bunyod etildi. Bu erda bir kunda 2 ming 500 tonna sifatli syement ishlab chiqarish imkoni bor. Ishga tushirilgan yirik syement zavodi nafaqat viloyat, balki, mamlakatimiz

iqtisodiyotida muhim o‘rin tutishishi shubhasiz. Loyihaning birinchi bosqichida 113 million dollar investisiya o‘zlashtirilib, 300 nafar yoshlar ish bilan ta’minlandi.

Bugungi kunda “Beshariq to‘qimachi tekstil” O‘zbekistonda etishtirilgan paxta xom-ashyosini birja orqali sotib olib, kalava ip ishlab chiqaradi. Korxonani ishlab chiqarish quvvati 150 tonna va ishchilar soni esa 220 tani tashkil qiladi. Korxona tayyor ishlab chiqarilgan mahsulotni 100% Xitoyga eksport qiladi. Bundan tashqari ikkinchi yirik sanoat korxonasi “Beshariq tekstil MCHJ”ni faoliyati to‘g‘risida so‘z yuritadigan bo‘lsak, bu korxona O‘zbekistonda etishtirilgan paxta xom-ashyoni birja orqali sotib olib, tayyor trikotaj matolarini ishlab chiqib, yuzdan ziyod turdagi tayyor maxsulotlar ya’ni sport kiyimlari, bolalar, ayollar va erkaklar kiyimlarini tabiiy matodan ishlab chiqargan. Ishlab chiqarilgan maxsulot Rossiyaga eksport qilinadi va ichki bozorga ham chiqariladi. Korxonada ishlab chiqarilgan maxsulotning 90 foizi eksportga yo‘naltirilgan va ishchilar soni esa 700 dan ortiqni tashkil qiladi. Joriy yilning o‘tgan davrlarida 1 milliard 850 million so‘mlik maxsulot ishlab chiqarilgan va 424 ming dollarlik maxsulot eksport qilingan. Hozirgi kunga kelib bu korxona o‘z ish faoliyatini to‘xtatgan. Bundan tashqari tumanda xorijiy investorlar (Xitoy) davlati tomonidan “Farg‘ona Yasin Qurilish Mollari” MCHJ shaklidagi qo‘shma korxona 2018 yil 31 martda Xitoy Xalq Respublikasining OOO “Shensi Syan Shen” kompaniyasi va O‘zbekistonning “GREAT AMIRXAN OIL”MCHJ bilan xamkorlikda syement zavodi qurildi va 1-bosqichi ishga tushirildi. Syement zavodining 2-bosqichi qurilishi joriy yilning 1-chorak yakuni bilan boshlanishi rejalashtirilgan bo‘lib, 2023 yil yakuniga qadar 90 mln. AQSH dollari miqdorida to‘g‘ridan – to‘g‘ri investisiyalar o‘zlashtirilishi rejalashtirilgan.

Ushbu investision loyihani amalga oshirish uchun aynan Beshariq tuman hudud tanlangani bejizga emas. Bu erda ulkan xom ashyo zaxirasiga ega syement, ohaktosh va tuproq (glina) konlari mavjud [8]. Mazkur loyihaning umumiy qiymati 200 million dollarni tashkil etib, korxonada yiliga 2 million tonna sifatli syement ishlab chiqariladi. Loyihaning ikkinchi boqichi ishga tushgach, 700 nafar mahalliy aholi doimiy ish ta’minlanadi.

Korxonada ishlab chiqariladigan yuqori sifatli syement mahsulotlari nafaqat ichki bozorda sotiladi, balki, uning ma’lum qismi eksport qilinishi ko‘zda tutilgan.

Yana shuni aytish kerakki, tumanimizda Tojikiston Respublikasiga o‘tish posti bor. “Andarxon” xalqaro post xisoblanib kuniga 1500 ta o‘zbek va tojik fuqarolari turli maqsadlarda masalan savdo bo‘yicha o‘tadi. Bu esa o‘rtacha 100 ming dollarlik mahsulotlar eksporti amalga oshirilmoqda.

Tumanda sanoatni rivojlantirish uchun quyidagi imkoniyatlar mavjud:

– tumandagi mavjud xom ashyo 3139 ming. tonna foydali qazilmalardan (shag‘al, izvestnyak, oxak, gips, pardozbop toshlar) mavjud;

– tumanda 455 gektar tutzorlar mavjud bo‘lib, 3,2 ming quti qurt boqiladi xamda 235 tonna pilla etishtiriladi.

Tumanda yuqoridagi mavjud xom ashyo resurslaridan foydalanib, qurilish materiallari (syement, gipsokarton, marmar, g‘isht, gips va keramik plitalar) ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan loyixalarni amalga oshirish imkoniyati mavjud. Qolaversa, 235 tonnadan ortiq etishtirilgan pillani qayta ishlashni yo‘lga qo‘ysa

bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasida aytilganidek hududlarda yalpi hududiy mahsulot o‘sishining o‘rtacha yillik sur’atlari 107-107,3 foizni, sanoat o‘sishining o‘rtacha yillik sur’atlari 108,3-108,9 foizni, qishloq xo‘jaligi o‘sishining o‘rtacha yillik sur’atlari 104,3 foizni va xizmatlar sohasi o‘sishining o‘rtacha yillik sur’atlari 108,1 foizni tashkil etishi bashorat qilingan[6].

Tadqiqotlar natijasida ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishdagi muammolar ko‘rib chiqilganda, ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishda yuzaga keladigan birinchi o‘rindagi muammo bu sanoat sohasida haqiqiy mutaxassis kadrlarni etishmasligidir. Keyingi navbatda tadbirkorlarimiz uchun mahalliy asbob uskunalar ishlab chiqaruvchi korxonalar haqida maьlumotlar bazasining mavjud emasligi. Tuman bo‘yicha kanalizatsiya tizimi, gaz qamrovini etarli emasligi va elektr taьminotining tizimli ravishda uzilishi. Ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yadigan tadbirkor uchun banklarda beriladigan foizli kreditlarning foizi yuqoriligi hamda texnika va texnologiyani olib kirish qiyinligi.

Yuqoridagi muammolardan kelib chiqib fikrimizcha ishlab chiqarishda yuzaga keladigan muammolarni echimi bo‘yicha quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

– ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun **b**irinchi navbatda xaqiqiy mutaxassislarni etishtirish va jalb qilish kerak.

– ishlab chiqaruvchi uchun qolaversa, tumanni savdo aylanmasini va eksportini rivojlantirish;

– tumanning qishloq joylarda transport tizimini yaxshi yo‘lga qo‘yish sifatini oshirish;

– transport xizmatlaridan foydalanish imkoniyati va sifati, yuk va yo‘lovchilarni etkazish tezligini oshirish;

– Andarxon posti (Tojikistonning halqaro Andarxon posti tumanga asosiy chegaradosh hisoblanadi) oldiga “Savdo majmuasi” ni barpo qilish;

– ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yuvchi tadbirkor uchun banklarda beriladigan imtiyozli kreditlarni foizini kamaytirish;

– texnika va texnologiyalarni pul o‘tkazish yo‘li bilan emas balki ichki bozordan tadbirkor uchun qulay bo‘lgan narxda sotib olishi uchun pul mablag‘larini naqd pul ko‘rinishida berilishini ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi.

Tuman miqiyosida ishlab chiqarishni o‘rganish hamda korxonalarda ro‘y berayotgan kamchiliklarni bartaraf etish, korxonaning har bir ishlab chiqarish bosqichi, jarayonlarini puxta tahlil qilish orqali taklif tavsiyalar ishlab chiqildi. Ishlab chiqarilgan takliflarning amaliyotga faol qo‘llanilishi hudud iqtisodiyotini rivojlantirishga aholining bandligini ta’minlashga, ijtimoiy turmush darajasining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

[6] Ўзбекистон Республикасини 2030 йилга қадар ижтимоий-иқтисодий комплекс ривожлантириш ID-9413-сон концепцияси.

Ashurov Maxammadjon Sotvoldiyevich - Farg‘ona politexnika instituti dotsenti, i.f.n.

HUDUDLARNI IQTISODIY TARAQQIY ETTIRISHDA KICHIK INNOVATSION KORXONALARNI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada hududlarda iqtisodiy siyosatning strategik vazifasi hisoblangan tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, uning iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlari va o‘ziga xos jihatlari shu bilan birga hamda hududlarda kichik innovatsion korxonalarni rivojlantirish ahamiyati va xususiyatlari o‘rganilgan. O‘rganish natijalaridan kelib chiqib hududlarda kichik innovatsion korxonalarni rivojlantirish yo‘nalishlari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan, xulosalar shakllantirilgan.*

Kalit so‘zlar: *tadbirkorlik, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, kichik innovatsion korxonalar, innovatsion faoliyat, innovatsion salohiyat.*

Аннотация. *В статье рассматривается развитие предпринимательства, которое считается стратегической задачей экономической политики в регионах, его экономические и социальные возможности и особенности, а также значение и особенности развития малых инновационных предприятий в регионах. По результатам исследования разработаны предложения и рекомендации по направлениям развития малых инновационных предприятий в регионах, сформированы выводы.*

Ключевые слова: *предпринимательство, малый бизнес и частное предпринимательство, малые инновационные предприятия, инновационная деятельность, инновационный потенциал.*

Annotation. *The article examines the development of entrepreneurship, which is considered a strategic objective of economic policy in the regions, its economic and social opportunities and features, as well as the importance and features of the development of small innovative enterprises in the regions. Based on the results of the study, proposals and recommendations were developed for the areas of development of small innovative enterprises in the regions, and conclusions were drawn.*

Key words: *entrepreneurship, small business and private entrepreneurship, small innovative enterprises, innovative activity, innovative potential.*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, unga keng iqtisodiy erkinlik berish bilan tavsiflanadi. Xo‘jalik yuritishning bunday shakli iqtisodiy salohiyatning mustahkamlanishiga yordam beradi, ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy muammolarning echimini ta’minlaydi hamda aholi farovonligining o‘sishiga yordam berishi nuqtai nazardan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikga ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy sohalardagi o‘zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaraladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik kapital taqchilligi sharoitida ko‘p mablag‘ talab qilmaydigan xo‘jalik faoliyati sifatida resurslar aylanmasining

yuqori sur’atlarini ta’minlaydi, iqtisodiyotni qayta qurish, iqtisodiy nobarqarorlik va resurslar cheklanganligi sharoitida iste’mol bozorini shakllantirish va uni to‘ldirish muammosini tez hamda tejamli tarzda hal etadi, mintaqalarning uyg‘un rivojlanishini ta’minlaydi, asosan iqtisodiy o‘sish sur’atlarini, yalpi ichki mahsulot tarkibi va sifatini belgilaydi, yangi ish o‘rinlarini yaratishi bilan ishsizlik muammosini hal etish, bandlik va aholi daromadlarini oshirish masalalarini hal etishda ham etakchilik qiladi. Ular iste’mol talabi o‘zgarishiga tezda moslashadi va shu yo‘l bilan iste’mol bozoridagi zaruriy muvozanatni ta’minlaydi. O‘z ko‘lami jihatdan iqtisodiyotni uzluksizligini va barqarorligini ta’minlashda, raqobat muhitini yaratishda katta o‘rin egallashi bois respublikamiz hamda uning hududlarida iqtisodiy siyosatning strategik vazifasi – kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Shu bilan birga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy rivojlanishning innovatsion modeliga o‘tishga ham yordam beradi. Ushbu jarayonda kichik innovatsion korxonalar alohida o‘rin tutadi.

So‘nggi 15-20 yil ichida dunyoning ko‘plab mamlakatlari, ayniqsa, AQSH va G‘arbda yirik sanoat majmualari va korporatsiyalari doirasidagi ommaviy ishlab chiqarishdan kichik sanoat tuzilmalariga o‘tish boshlandi. Va bu tasodif emas. G'arb biznes tajribasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning innovatsion rivojlanishdagi afzalliklarini aniq tasdiqlaydi. Mutaxassislarning fikricha, Amerika va G'arbiy Evropaning XX asrdagi 58 ta etakchi ixtirolaridan 46 tasi jismoniy shaxslar va kichik firmalarga tegishli. AQSh Milliy Ilmiy Jamg'armasi ma'lumotlariga ko‘ra, yirik korporatsiyalarga (10 000 dan ortiq xodim) qaraganda 500 tagacha xodimi bo‘lgan firmalar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlariga kiritgan bir dollar 24 baravar ko‘proq yangiliklar ishlab chiqargan.

Shu munosabat bilan, mamlakatimizda ham innovatsion rivojlanishning ahamiyatini sezilarli darajada oshirish, shuningdek, sifatli, xaridorgir, raqobatbardosh va arzon mahsulotlar ishlab chiqarishni ta’minlash maqsadida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik faoliyatiga xususiy sektorni jalb etish, kichik innovatsion korxonalarni tashkil etish zarur.

Kichik innovatsion korxonalar iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, chuqur tarkibiy islohotlar orqali uzoq muddatli barqaror o‘sishning poydevorini yaratish, sog‘lom raqobat muhitini rivojlantirish, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish, investitsiya siyosatini yuritishda davlat ishtirokini pasaytirib, xususiy va to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar ulushini oshirish, yuzlab yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishda katta ahamiyat kasb etadi.

Innovatsiyani rivojlanishining xususiy biznesga, jamiyatga, umuman davlatga ta'sirining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- aholi daromadlarining o‘sishi va hayot sifatini yaxshilash;
- YaMM daromadlari va foydalarining o‘sishi;
- iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va yangi tarmoqlarini rivojlantirish;
- yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatlari;
- tengsizlikni kamaytirish;
- kichik va o‘rta biznesning o‘sish sur'atlarini tezlashtirish.

Zamonaviy rivojlanish bosqichida bu kabi vazifalarni hal etishni kichik

korxonalar innovatsion faoliyatini jonlantirish va innovatsion faolligini oshirishga yo‘naltirilgan sharoitlarni yaratmasdan amalga oshirib bo‘lmaydi.

Mamlakatimizda innovatsion salohiyat mavjud, ammo uning rivojlanish darajasini xorijiy davlatlar bilan solishtirib bo‘lmaydi. Buning ko‘plab sabablari bor: qonunchilik bazasidan tortib, yangi mahsulot va xizmatlarni iste'molchilar tomonidan qabul qilishigacha.

Tadqiqot natijasida, O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning innovatsion faoliyatini faollashtirishga to‘sqinlik qiluvchi quyidagi asosiy omillar aniqlandi, xususan: ilmiy-tadqiqot va va tajriba konstruktorlik ishlanmalarni tijoratlashtirish jarayonini tartibga soluvchi iqtisodiy va huquqiy mexanizmning yaxlit tizimi mavjud emasligi; innovatsion jarayonning noaniqlik va iqtisodiy riskning yuqori darajasi;innovatsion faoliyatni tartibga solish va rag‘batlantirishga qaratilgan qonunchilik va me’yoriy - huquqiy hujjatlarning etarli emasligi;yangi tovarlarga (ishlar, xizmatlar) talabning yuqori to‘lovga qobil bo‘lmasligi.

Bunday vaziyatda viloyat va shahar hokimiyatlarining e'tiborini o‘z xududdida innovatsion muhit yaratish maqsadida samarali ishlovchi innovatsion infratuzilma ob’ektlarini shakllanishi va rivojlanishiiga to‘sqinlik qilayotgan aniq sabablarni tahlil qilish zarurligiga qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Umuman olganda, mamlakatda KIK rivojlantirish bo‘yicha quyidagi eng muhim vazifalar belgilab olinishi kerak:

- innovatsiyalar sohasida xususiy kapitalning faoliyati uchun qulay iqlim va real bozor motivatsiyasini yaratish;
- innovatsion faoliyat uchun yuqori darajadagi barqarorlik va adekvat tartibga solishga qodir bo‘lgan me'yoriy-huquqiy bazani yaratish va mavjudlariga o‘zgartirishlar kiritish;
- investitsiyalarga innovatsion yo‘nalish berish asosida investitsiya muhitini yaxshilash.
- jamiyatni eng maqbul texnologik yo‘llar bilan rivojlantirishni asoslash maqsadida ilmiy va innovatsiya faoliyat yo‘nalishlarini ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy texnik bashoratlash;
- umumiy KO‘K bo‘yicha innovatsiyani rivojlanishga doir mamlakat, mintaqa va tarmoq strategiyaarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Abduvohidova Gulshan Akmalovna – SamISI “Menejment’’ kafedrasi assistant-stajyori

HUDUDLARDA TADBIRKORLIKNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya*: Maqolada hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini ko‘paytirish va ish bilan bandlikni ta’minlash imkoniyatlari tahlillar asosida o‘rganib chiqilgan, shu asosida tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar*: Tadbirkorlik, tavakkal qilish, iqtisodiy ahamiyati, bandlikni ta’minlash, mutanosiblik.*

Аннотация: *В статье исследуются возможности увеличения доходов и занятости за счет развития предпринимательства в регионах на основе анализа, на основании которого даются рекомендации.*

Ключевые слова: *предпринимательство, риск, экономическое значение, занятость, пропорциональность.*

Annotation*:The article examines the possibilities of increasing income and employment through the development of entrepreneurship in the regions on the basis of an analysis, on the basis of which recommendations are made.*

Key words: *entrepreneurship, risk, economic importance, employment, proportionality.*

Hududlarda tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchilar uchun keng imkoniyatlar yaratilgandir. Avvalambor, tadbirkor – bu ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish borasida bilim va malakaga ega bo‘lgan, foyda olish maqsadida tavakkalchilik bilan ish ko‘ra oluvchi tashabbuskor shaxs.

Tadbirkorlarning muayyan mahsulotlarni ishlab chiqarish, ish bajarish xizmat ko‘rsatish bo‘yicha faoliyati tadbirkorlik faoliyatini tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunida ta’riflanishicha “Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonuun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat”.

Tadbirkorlik faoliyati asosida bir qator shart va talablar mavjud bo‘ladi.

Birinchidan, tadbirkor tovar va xizmatlar ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish omillarini birlashtiradi va “kotalizator” vazifasini bajaradi.

Ikkinchidan, biznesni yuritish jarayonida u mustaqil qarorlar qabul qilishdek qiyin bir vazifani zimmasiga oladi.

Uchinchidan, tadbirkor – tashkilotchi shaxs bo‘lib yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy qilib, yangi mahsulotlar ishlab chiqarishga intiladi.

To‘rtinchidan, tadbirkor – tavakkal qilishdan qo‘rqmaydigan insondir. U nafaqat o‘z mol – mulkini, vaqti, mehnati bilan, balki o‘z sheriklari, hissadorlari qo‘shgan mablag‘lar bilan ham tavakkal qilishga boradi.

Tadbirkorlik faoliyati to‘g‘risida yuqorida keltirilgan turli xil fikr va yondashuvlarni umumlashtirgan holda, qisqa qilib quyidagicha ta’rif berish mumkin: tadbirkorlik faoliyati – shakli va sohasidan qat’iy nazar, foyda olish va undan samarali foydalanish maqsadiga qaratilgan iqtisodiy faoliyatdir. Tadbirkorlikning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o‘rni va amaliyoti bu soha tomonidan amalga oshiriluvchi vazifalar orqali namoyon bo‘ladi. Bunday vazifalarning turli tumanligi esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining jahondagi barcha mamlaakatlar uchun ham, o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan alohida bir mamlakat uchun ham qandaydir darajada ahamiyat kasb etishidan darak beradi.

Bizga ma’lumki, aynan ana shu ijtimoiy qatlam – ya’ni o‘rta mulkdorlar sinf yurtimizda amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirishimizdan, mamlakatimizning izchil va barqaror rivojlanishidan eng ko‘p manfaatdordir. Shu bois kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bugungi kunda jamiyatimizdagi ijtimoiy

va siyosiy barqarorlikning kafolati va tayanchiga, yurtimizning taraqqiyot yo‘lidan faol harakatlantiradigan kuchga aylanib bormoqda.

Bugungi kunda tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ahamiyati to‘g‘risida so‘z yuritilganda, eng avvalo, uning iste’mol bozoridagi muvozanatni ta’minlash vazifasini ta’kidlash lozim. Uzoq yillik sobiq rejali iqtisodiyot tajribasidan ma’lumki, o‘ta darajada yiriklashgan ishlab chiqarish ehtiyojlar va talab tuzilishidagi o‘zgarishlarga qiyin moslashuvchan, harakatchanlik borasida o‘ta sust hisoblanadi. Bundan farqli o‘laroq, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning eng moslanuvchan, o‘zgarib turuvchi talablariga tez javob beruvchi sohasi hisoblanib, turli ehtiyojlardan kelib chiqqan holda, iste’molchi uchun zarur bo‘lgan mahsulot va xizmatni etkazib berish muammosini zudlik bilan hal etadi. Shu bilan birga, ular aholi ehtiyojlarining o‘zgarishi natijasida mahsulot turlarini o‘zgartirish va ishlab chiqarishga joriy etishni yirik ishlab chiqarishga nisbatan kam harajat qilgan holda amalga oshira oladi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda tadbirkorlikning ahamiyati, ayniqsa, ko‘lami jihatidan katta bo‘lmagan yangi bozorlarni o‘zlashtirishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Mavsumiy, milliy, mahalliy ahamiyatga molik ba’zi mahsulot va xizmatlar talab hajmiga ko‘ra yirik ishlab chiqarish uchun ko‘p ham istiqbolli hisoblanmaydi. Biz kundalik turmushda kerak bo‘ladigan uy-ro‘zgor buyumlaridan tortib ularning ta’siri va shu kabi maishiy xizmatlarni ko‘rsatadigan korxonalarning rolini odatda to‘la tassavur eta olmaymiz.

Tadbirkorlikning ijtimoiy sohadagi xizmatlaridan biri – bu aholining ish bilan bandlik darajasini oshirishdir. O‘z navbatida u mazkur vazifani ikkita asosiy yo‘l orqali bajarishi mumkin: yangi ish o‘rinlarini barpo etish va vaqtincha bo‘sh bo‘lgan yoki ish bilan qisman band bo‘lgan aholini ishga jalb etish, yoki boshqacha aytganda, ikkilamchi bandlikni ta’minlash. Aholining ish bilan bandligi va qo‘shimcha daromad olish imkonini yaratish orqali jamiyatdagi ijtimoiy muvozanatni saqlashga katta hissa qo‘shish mumkin. Ushbu jihatlarni ham alohida e’tirof etgan holda, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Ichki bozorimizni raqobatdosh va sifatli mahsulotlar bilan to‘ldirishda, bugungi kunda biz uchun eng dolzarb masalalardan biri bo‘lmish aholimizni, avvalambor, yoshlarimizni ish bilan ta’minlash va shu asnoda ularning munosib daromad topishi, farovonligining oshib borishiga erishishda ayni shu sohani tez va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish eng asosiy omillardan biri ekanini hech unutmasligimiz darkor”, deb ta’kidlab o‘tganlar.

Keyingi o‘n yillikda jahondagi etakchi mamlakatlar iqtisodiyotidagi kichik biznesning roli sezilarli darajada o‘zgardi. Mazkur sohada YaIMning salmoqli qismi ushbu sohada ko‘proq ishlab chiqarilmoqda, ishchi kuchi aksariyat qismining ish bilan bandligi ta’minlanmoqda, barcha innovasiyalarning yarmidan ko‘proq qismi yaratilmoqda.

Tadbirkorlikning iqtisodiyot rivojidagi muhim o‘rni shu bilan ham belgilanadiki, u aholining ishbilarmonlik faolligini oshirishning, bozor iqtisodiyoti sharoitida hal qiluvchi bunyodkor kuch bo‘lgan tadbirkorlikni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Aynan shu soha tufayli markazlashgan tarzda foydalanishning iloji bo‘lmagan ichki zahiralar – aholining bo‘sh pul mablag‘lari,

moddiy va mehnat resurslarini harakatga tushirish imkoni vujudga keladi. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikga keng yo‘l ochish orqali xalqning ma’naviy qadriyatlarini – milliy hunarmandchilikni yanada rivojlantirishga, unutilgan sohalarni qayta tiklashga imkon yaratiladi.

Milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligi iqtisodiy faoliyat jarayonlari va uning natijalarini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlarda kichik biznes ulushining yuqori bo‘lishiga ham bog‘liq ekani shubhasizdir.Samarqand viloyati tumanlarida 2020-yilda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari haqida ma’lumot aks ettirilgan. Tahlilar shuni ko‘rsatadiki, viloyat bo‘yicha 35022 ta tadbirkorlik subyektlari ro‘yxatga olingan bo‘lib shundan 5,4 foizi o‘z faoliyatini to‘xtatgandir. Eng ko‘p ulush Samarqand shahriga 10646 ta Urgut tumaniga 3068 ta, Pastdarg‘om tumanidan 2936 ni tashkil etmoqda. Iqtisodiyotning turli soha va jarayonlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash muammosi unda faoliyat ko‘rsatayotgan xo‘jalik yuritish shakllarining oqilona nisbatlariga ham bog‘liqdir. Xususan, iqtisodiyotdagi korporativ tizilmalar, transmilliy korporatsiyalar va boshqa turdagi yirik korxonalar bilan kichik biznes va xususiy korxonalar o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik aynan shunday mutanosiblikni taqozo etadi. Kichik biznes sektori iqtisodiyotdagi yirik korxonalar sektorining zarif jihatlarining ta’sirini kamaytiradi, ular uchun samarasiz bo‘lgan jarayonlarni bajarib, yaxlit iqtisodiyotdagi “bo‘shliq”larni “to‘ldirib” turadi.

Milliy iqtsodiyotning raqobatdoshligi iqtisodiy faoliyat jarayonlari va uning natijalarni aks ettiruvchi ko‘rsatkichlarda kichik biznes ulushining yuqori bo‘lishiga ham bog‘liq ekani shubhasizdir.

Kam xarajat hisobiga yangi ish o‘rinlari yaratish imkoniyati, yirik biznes kirib bora olmaydigan bozor segmentlarini egallay olish qobiliyati, ayniqsa, xizmat ko‘rsatish sohasida va uncha katta bo‘lmagan mahalliy resurs bazalarini o‘zlashtirishda juda qulay tashkiliy shakl ekani kichik biznesni rivojlantirishning ahamiyati beqiyosligini ko‘rsatadi. Shu sababli ham kichik biznesni jadal rivojlantirish masalasi mahsulot ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish va shuningdek, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish masalalari bilan chambarchas bog‘liqdir. 304 Shu bilan bir qatorda, kichik korxonalardan foydalanish miqyoslarining kengayishi ko‘p miqdordagi kapital qo‘yilmalarining amalga oshirilishini talab etmaydi, ularni tashkil etish xarajatlari tez qoplanadi. Mahsulot birligi qiymatiga to‘g‘ri keladigan ustama xarajatlar (boshqaruv xarajatlari) yirik korxonalarga qaraganda ancha past. Bularning barchasi xalq xo‘jaligi miqyosida sezilarli tejamkorlikka olib kelishi mumkin. Ishlab chiqarish xarajatlarining nisbatan tejamli bo‘lishi, tabiiyki, daromadning ham yuqori bo‘lishiga olib keladi.

Собитова Раъно Солижоновна - ЎзМУ мустақил тадқиқотчиси

РЕСПУБЛИКАДА САНОАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИ МАҲАЛЛИЙЛАШТИРИШНИНГ ЯГОНА ТИЗИМИНИ ЯРАТИШ ЗАРУРИЯТИ

Аннотация. *Мазкур мақолада мамлакатда импорт ўрнини босиш бўйича амалга оширилаётган ишларнинг муҳимлиги ва уни ривожлантириш масалаларига эътибор қаратилган.*

Калит сўзлар: *маҳаллийлаштириш, импорт ўрнини босиш, саноат кооперацияси, бутловчи буюмлар ва материаллар, ишлаб чиқариш цикли занжири.*

Аннотация.*В данной статье основное внимание уделяется вазможности импортозамешения и его развитию в стране.*

Ключевые слова: *локализация, импортозамешение,промышленная кооперация, комплектующие и материалы, цепочка производственного цикла.*

Abstract. *This articl focuses on the importance of import substitutional ahd its development in the country.*

Keywords: *localization, import substitution, industrial cooperation, components and materials, production cycle chain.*

Маҳаллийлаштириш мамлакат ҳудудига технологияларни кўчириш, мамлакат корхоналарида айрим бутловчи жиҳозлар ва эҳтиёт қисмларни тайёрлаш орқали хорижий техника намуналарини йиғма ишлаб чиқаришга мослаштириш ва ташкил қилиш ҳамда импорт ўрнини босиш жараёни сифатида В.К.Акинфиев, С.Н.Котлярова, Ю.Г.Лаврикова, Л.Лозовский, Б.Райзберг, Е.Стародубцеваларнинг тадқиқотларида ўрганилган[7].

Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида саноат маҳсулотлари ишлаб чиқаришини маҳаллийлаштириш ва унинг самарадорлигини ошириш, импорт ўрнини босиш сиёсатининг ташкилий-услубий механизмини такомиллаштириш долзарб масаладир.

Ўзбекистонда охирги йилларда барқарор ривожланиш ва иқтисодиётни эркинлаштиришга катта эътибор қаратилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев томонидан 2017 йил 7 февралда қабул қилинган 4947-сонли “2017-2021 йилларда Ўзбекистонни янада ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармонида таркибий ислоҳотларни чуқурлаштириш, унинг етакчи тармоқларини модернизация ва диверсификация қилиш ҳисобига миллий иқтисодиётнинг рақобатбардошлигини ошириш мақсадида, энг аввало,

[7] Акинфиев В.К. Выбор инвестиционных решений при трансфере западных технологий в отрасли транспортного машиностроения / В.К. Акинфиев // Управление большими системами. – 2014. – Вып. 48. – С. 151-171; Райзберг Б. Современный экономический словарь [Текст] / Б. Райзберг Л. Лозовский, Е.Стародубцева. – М.: ИНФРА-М, 2006. – 495 с.; Лаврикова Ю.Г. Инновационное развитие строительного комплекса региона на основе кластерного подхода / Ю.Г. Лаврикова, С.Н.Котлярова // Экономические и социальные перемены: факты, тенденции, прогноз. – 2014. – № 3 (33). – С. 169-181.

истеъмол товарлари ва бутловчи буюмлар ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштириш ва импорт ўрнини босишни рағбатлантириш, тармоқлараро саноат кооперациясини кенгайтириш сиёсати давом эттирилмоқда[8].

Ушбу масаланинг бутун муҳимлигини ҳисобга олиб, 2019 йилда саноат кооперациясини ривожлантиришга қаратилган қарор қабул қилинди[9] ва "республикада саноат маҳсулоти ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштириш ягона тизимини яратиш, тармоқлар ва минтақаларда маҳаллийлаштириш жараёнларини жадаллаштириш, ишлаб чиқариш қувватларидан тўла ва самарали фойдаланиш йўли билан бутловчи буюмлар, эҳтиёт қисмлар ва материаллар ишлаб чиқаришни ўзлаштириш ҳамда саноатда кооперация алоқаларини кенгайтириш ва импорт ҳажмини мақбуллаштириш" кўзда тутилди[10].

Республикада саноат маҳсулотлари ишлаб чиқаришнинг юқори ўсиш суръатларига эришилишига тайёр маҳсулотлар, бутловчи қисмлар ва материаллар ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштириш Дастурининг амалга оширилиши ҳам ўз таъсирини кўрсатмоқда[11]. 2022 йилда мазкур дастур доирасида киритилган 2310 та лойиҳа бўйича 49303,9 миллиард сўмлик маҳсулотлар ишлаб чиқарилган бўлиб, жами саноат маҳсулотлари умумий ҳажмининг 8,9% ини ташкил қилди. Маҳаллийлаштириш дастури доирасида ишлаб чиқарилган маҳсулотлардан 638,2 млн. АҚШ долл. миқдорида экспорт қилинди.

Маҳаллийлаштириш дастури доирасида 2021 йилда 12433 та янги иш ўринлари яратилди, 2020 йилга нисбатан таққослаганда, янги ташкил этилган иш ўринлари сони 61,5% га кўпайди. Шу билан бирга, 2020 йилга нисбатан маҳаллийлаштирилган маҳсулотлар экспорти ҳажмининг 2022 йилда 4.5 мартага ўсиши кузатилди.

Маҳаллийлаштирилган маҳсулот асосий ишлаб чиқариш ҳажми (53,0%) ва экспорти (60,4%) республика тасарруфидаги тармоқ корхоналари томонидан таъминланди. Барча иш ўринларининг 68,9% ини яратган минтақа корхоналари маҳаллийлаштириш дастурининг 67,3% га бажарилишида қатнашдилар (1-расм).

---

[8] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йилнинг 2 мартдаги ПФ-5953-сонли "2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясини "Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили" да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида"ги Фармони

[9] 2019 йил 1 майдаги ПҚ-4302-сонли "Саноат кооперациясини янада ривожлантириш ва талаб юқори бўлган маҳсулотлар ишлаб чиқаришни кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори.

[10] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 24 августдаги ПҚ-4426-сонли "Давлат ва хўжалик бошқаруви ҳамда маҳаллий ижроия ҳокимияти органларининг ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштириш ва саноат тармоқларида кооперация алоқаларини жадаллаштиришнинг янги тизимини жорий этиш бўйича маъсулиятини янада ошириш тўғрисида"ги Қарори.

[11] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 10 мартдаги 136-сонли "2020-2021 йилларда ички ва ташқи бозорларда харидоргир маҳсулотларни ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштириш дастури тўғрисида" Қарори.



1-расм. Республика ва минтақа корхоналарининг 2021 йил Маҳаллийлаштириш дастурининг бажарилишидаги улуши[12]

Мамлакатда импорт ўрнини босиш бўйича амалга оширилаётган ишларнинг муҳимлигини қайд этган ҳолда уни ривожлантириш учун қуйидагиларга эътибор қаратиш лозим:

1) Импорт ўрнини босиш – вақт жиҳатдан узоқ давом этадиган жараён бўлиб, унга камида ўн йил керак бўлади. Импорт ўрнини босиш дастурлари доирасида рекорд муддатларда (2 йил) саноат соҳасида хорижий товарлар ўрнига келиши зарур бўлган ўз товарларини ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш режалаштирилмоқда.

2) Ўз ишлаб чиқаришини ривожлантириш учун ҳозирги вақтда катта инвестицияларни амалга ошириш лозим бўлиб, уларни молиялаштиришнинг асосий манбаи корхоналарнинг ўзлик маблағлари ҳисобланади. Марказий банкнинг асосий ставкаси етарли даражада юқори бўлган шароитда саноатда йирик инвестиция лойиҳаларини (янги ишлаб чиқариш қувватларини ишга тушириш, саноатни модернизациялаш, жиддий тажриба-конструкторлик ишларини олиб бориш ва ҳ.к.) амалга ошириш қийин бўлмоқда.

3) Импорт ўрнини босиш мақсадлари учун кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантиришга “узун” кредит пулларни олмасдан туриб, эришиб бўлмайди. Буларнинг ҳаммаси импорт ўрнини босиш сиёсатига тўла куч беришда асосий тўсиқ ҳисобланади.

4) Республика иқтисодиётини ривожлантиришнинг хусусияти ҳозирги босқичда ишлаб чиқариш цикли занжири мамлакат ичкарисида туташади, деб тушунишда, комплекс саноат амал қилмайдиган корхоналар мавжудлигини ҳисобга олиш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йилнинг 2 мартдаги ПФ-5953-сонли “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар

[12] Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика Агентлигининг маълумотлари асосида муаллиф томонидан ҳисобланган.

стратегиясини “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили” да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги Фармони

2. 2019 йил 1 майдаги ПҚ-4302-сонли “Саноат кооперациясини янада ривожлантириш ва талаб юқори бўлган маҳсулотлар ишлаб чиқаришни кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори.

3.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 24 августдаги ПҚ-4426-сонли “Давлат ва хўжалик бошқаруви ҳамда маҳаллий ижроия ҳокимияти органларининг ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштириш ва саноат тармоқларида кооперация алоқаларини жадаллаштиришнинг янги тизимини жорий этиш бўйича маъсулиятини янада ошириш тўғрисида”ги Қарори.

4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 10 мартдаги 136-сонли “2020-2021 йилларда ички ва ташқи бозорларда харидоргир маҳсулотларни ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштириш дастури тўғрисида” Қарори.

5. Акинфиев В.К. Выбор инвестиционных решений при трансфере западных технологий в отрасли транспортного машиностроения / В.К. Акинфиев // Управление большими системами. – 2014. – Вып. 48. – С. 151-171;

6.Райзберг Б. Современный экономический словарь [Текст] / Б. Райзберг Л. Лозовский, Е.Стародубцева. – М.: ИНФРА-М, 2006. – 495 с.;

Xushvaqov A.B. – QarMII “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi tayanch doktoranti

MINTAQADA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA AHOLI TURMUSH SIFATINI YAXSHILASH

Annotatsiya: *Aholi turmush darajasini va sifatini yaxshilash yo‘llaridan biri aholini tadbirkorlikga o‘rgatish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash orqali erishish mumkinligi asoslangan.*

Kalit so‘zlar:*Aholi, turmish sifati, turmush darajasi, xususiy tadbirkorlik*

Аннотация: *Один из путей повышения уровня и качества жизни населения основан на том, что этого можно достичь за счет обучения населения предпринимательству и государственной поддержки.*

Ключевые слова: *Население, качество жизни, уровень жизни, частное предпринимательство.*

Abstract: *It is based on the fact that one of the ways to improve the standard and quality of life of the population can be achieved through training the population in entrepreneurship and state support.*

Key words: *Population, quality of life, standard of living, private entrepreneurship.*

Bizning fikrimizcha, «aholi turmush darajasi» tushunchasi -bu insonlarning yashashi uchun mavjud moddiy va ma’naviy resurslar bilan ta’minlanishi va

iste’molini namoyon qiladi. Insonning turmush darajasi - bu moddiy va ma’naviy ehtiyojlarining rivojlanish darajasi, ta’minlanganlik miqyosi va ularni qondirish uchun yaratilgan imkoniyatlarni aks ettiruvchi kompleks ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Aholining turmush sifati deganda insonning erkinlik farovonligi, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish darajasi hamda inson ma’naviy sog‘ligini har tomonlama namoyon etuvchi tushuncha bo‘lib, uning tarkibiga aholining sog‘liq darajasi va umrning davomiyligi, aholining turmush darajasi, aholining turmush tarzi kiradi. Butun dunyo bo‘yicha aholi turmush darajasini yaxshilash masalasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, BMT ning Bosh assambleyasida 2000 yilda qabul qilingan, «Ming yillik taraqqiyot dasturi»ni hamda 2015 yilda qabul qilingan «2030 yilgacha mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish dasturlari»ni, bevosita dunyo mamlakatlari aholisini iqtisodiy-ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, ekologiya buzilishini oldini olish, aholi salomatligining hududiy holati tahliliga qaratilgan tadbirlarni aytish mumkin.

Aholi turmush darajasini barchamiz aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlar miqdori va iste’mol hajmi miqdorining ortishi yoki kamayishi bilan baholashga odatlanganmiz. Lekin aholi turmush darajasi, bevosita aholi turmush darajasi sifatini baholovchi ko‘rsatkichlar ancha kengroq tushuncha hisoblanadi [1]. Shuning uchun turmush darajasini aholining moddiy va nomoddiy boyliklarga ehtiyojlari darajasi, shuningdek, ushbu ehtiyojlarni qondirish va rivojlantirish uchun jamiyatdagi mavjud sharoitlarni aks ettiradigan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida aniqlash mumkin[2].

Aholi turmush darajasi insonlarning hayotiy ehtiyojlarini ta’minlash me’yori sifatida aholi iste’mol miqdori va sifatini ko‘rsatadi va doimo yaxshilanib boradi. Xo‘p ana shu iste’mol, ya’ni kishilarning ehtiyojini qondirish nimalarga bog‘liq, unga qarab kishilar turmush darajasining to‘qligi, hayotining farovonligi darajasi haqida xulosa chiqarish mumkinmi? Kishilarning turmush darajasi shu jamiyatdagi ishlab chiqarishning rivojlanish darajasiga bog‘liq. Chunki iste’mol ishlab chiqarishga nisbatan hosila[3]. Bu erda milliy daromadning jamg‘arish va iste’mol fondiga bo‘linish nisbati mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot holatiga bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli, aholi turmush darajasi – keng qirrali jarayon bo‘lib, u turli sabablarga bog‘liq (aholi yashaydigan hududdan, ya’ni geografik omildan boshlab, mamlakatda umumiy ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik holat hamda siyosiy ishlarning holatigacha). Aholi turmush darajasiga u yoki bu darajada demografik holat hamda uy-joy-maishiy va ishlab chiqarish sharoitlari ham, iste’mol tovarlarining hajmi va sifati ta’sir ko‘rsatishi mumkin[4].

Tadqiqotlar natijasidan shu ma’lum bo‘ldiki, iqtisodiy adabiyotlarda aholining turmush darajasini belgilaydigan asosiy ko‘rsatkichlar tizimiga bir qator ko‘rsatkichlar kiritilgan. BMT ning xalqaro statistika sohasidagi turmush darajasi ko‘rsatkichlari tizimining oxirgi versiyasi 1978 yilda ishlab chiqilgan va ushbu tizim 12 ta asosiy guruhini o‘z ichiga oladi. Bular: aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot, tug‘ilish, o‘lim, umr ko‘rish davomiyligi, sanitar gigiyenik sharoitlarining mavjudligi, oziq-ovqat mahsulotlarining iste’mol darajasi, uy-joy sharoitlari, ta’lim olish va madaniy imkoniyatlarning mavjudligi, ish

sharoitlari va bandlik darajasi, daromadlar va xarajatlar muvozanati, iste’mol narxlari, transport vositalari bilan ta’minlanganligi, dam olish va xordiq chiqarish imkoniyatlarining mavjudligi, ijtimoiy ta’minot tizimining mavjudligi, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlanganligi kabi ko‘rsatkichlar bo‘lib, ular turmush darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar hisoblanadi[5].

Monografik kuzatishlar natijasida, O‘zbekiston Respublikasida keyingi yillarda kambag‘allikni qisqartirishda va qashshoqlikni oldini olish maqsadida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yuzasidan bir qator ishlar amaliy ishlar bajarilib, ijobiy ko‘rsatkichlarga erishildi:

xususiy tadbirkorlik sub’ektlari uchun qonuniy huquqlar joriy etilib, ularning shaxsiy manfaatdorligini oshirish va manfaatlarini muhofaza qilish tizimi shakllantirildi;

xususiy tadbirkorlik erkinligining kafolatlari tizimi shakllantirildi;

xususiy tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatiga olish va hisobga qo‘yishning engillashtirilgan, raqamlashtirilgan tartibi joriy etildi;

xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining moddiy-texnik resurslarni erkin sotib olishiga birja savdolari orqali erishishga qulay shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratildi;

tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi korxonalar mahsulotlarini majburiy standartlashtirish va sertifikatlash soddalashtirildi;

soliq yukini pasaytirish va soddalashtirish choralari ko‘rildi; statistika va soliq hisobotining qisqartirilgan shakli kiritildi;

xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati erkinlashtirildi;

ish boshlovchi xususiy tadbirkorlar uchun dastlabki sarmoyani shakllantirish va boshqa shakllardagi yangi moliyaviy qo‘llab quvvatlash tizimi joriy etildi va boshqalar

Aholi qashshoqlik darajasi nafaqat daromad va tirikchilikni ta’minlash uchun resurslarning etishmasligi. Inson ochlik va to‘yib ovqatlanmaslik, ta’lim va boshqa asosiy xizmatlardan foydalanishning cheklanganligi, ijtimoiy kamsitish va chetlanish, qarorlar qabul qilishda ishtirok eta olmaslikda namoyon bo‘ladi. 2015 yilda 736 milliondan ortiq odam qashshoqlik chegarasida yashagan. Dunyo aholisining 10 foizdan ortig‘i o‘ta qashshoqlikda yashaydi va sog‘liqni saqlash, ta’lim va sanitariya xizmatlaridan deyarli foydalana olmaydi. Qashshoqlikda yashovchi 25 yoshdan 34 yoshgacha bo‘lgan har 100 erkakka shu yoshdagi 122 nafar ayol to‘g‘ri keladi. 2030 yilga borib 160 millionga yaqin bolalar o‘ta qashshoqlikda yashashi ehtimoli kuchli.

Bizning fikrimizcha, kambag‘allikni qisqartirishda yuqoridagi davlat siyosati har tomonlama xususiy tadbirkorlikni rag‘batlantirishda ham qo‘l keladi. Ya’ni, aytaylik, Qashqadaryo viloyatida tomorqasiga ega bo‘lgan fuqarolarga ekin ekishi mustaqil tanlangan, shuning uchun o‘z-o‘zini band qilish orqali aholi ehtiyojini qondirishga xizmat qiluvchi oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaradi. Bu esa qo‘shimcha daromad qilish hamda kambag‘allikdan chiqish yo‘lidir.

Qashqadaryo viloyatidagi tumanlar bo‘yicha ishlovchilarning o‘rtacha oylik ish haqi haqida so‘rovnoma o‘tkazganimizda quyidagi jadval ma’lumotlari

shakllandi (2.9-jadval).

Ushbu 2.9-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Qashqadaryo viloyatida ishlovchilarning o‘rtacha ish haqi 2018-2022 yillarda o‘rtacha 37 %ga oshgan. O‘rtacha ish haqi yuqori bo‘lgan hududlar 2022 yilda G‘uzor (4132,3 ming so‘m) va Muborak tumanlari (4102,4 ming so‘m) hisoblanadi. 2019 yilda ham ushbu tumanlarda ishlovchilar boshqalariga nisbatan eng yuqori o‘rtacha ish haqiga ega bo‘lishgan.

Eng past ish haqi qayd etilgan tumanlar esa Qarshi, Mirishkor, Kitob, Yakkabog‘, Qamashi, Kasbi, Dehqonobod va Chiroqchi tumanlaridir.

Aholining turmush sifat darajasi ko‘pgina omillarga bog‘liq, ya’ni toza ichimlik suvi bilan ta’minlash, gazlashtirish, elektro energiya bilan ta’minlash va h.k.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Qashqdaryo viloyati aholisini markazlashgan ichimlik suv ta’minotini yaxshilash, ichimlik suvi etib bormagan hududlarni toza ichimlik suvi bilan ta’minlash aholi turmush sifati darajasi ko‘rsatkichdir. Aholi salomatligi ham aynan shu soha bilan bevosita bog‘liq. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlashda global iqlim o‘zgarishi tufayli Qashqadaryo viloyatida quruq fasllar davomiyligini ortishi, tog‘larda qor zahiralari maydonini qisqarishi natijasida suv tanqisligi xavfi yuzaga kelishi ahaoli turmush darajasini pasaytiradi. Ma’lumotlarga ko‘ra, Qashqadaryo viloyati aholisini, ayniqsa ko‘pgina qishloqlarni toza ichimlik suvi bilan ta’minlash dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa Qashqadaryo hududlari bo‘yicha tahlil qilganda suv ta’minotida farqlar kuzatiladi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. G‘oyibnazarov B, Turg‘unov T. Aholi turmush darajasi va uning O‘zbekistonda rivojlanishining statistik tahlili. «Iqtisodiyot va ta’lim» jurnali. 2018. - №3. – B. 89.

2.Социально-экономическая статистика. Учебник для ВУЗов. – М. YUНИТИ-ДАНА. 2002. – С. 581.

3.Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. Ikkinchi kitob. – Toshkent. «Sharq» nashriyoti. 2003. – B. 341.

4. Yаковлев М. Качество жизни населения в РФ. – М: Санскрит, 2009г.

5. G‘oyibnazarov B.K. Aholi turmush darajasini statistik baholash. Monografiya. — Toshkent. «Fan» nashriyoti. 2005. – B. 125.

Shakirova Yulduz Saydaliyevna – dotsent, Farg‘ona politexnika instituti

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH HUDUDLARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARIDAN BIRI SIFATIDA

Annotatsiya: *Maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy omili sifatidagi ahamiyati haqidagi tushunchalar hamda xududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijalari o‘rganilgan va yanada rivojlanishini ta’minlash omillari keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, iqtisodiy erkinlik, ishbilarmonlik muhiti, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish.*

Аннотация: *В статье рассматриваются концепции о значении развития малого бизнеса и частного предпринимательства как основного фактора социально-экономического развития страны, а также результаты реализуемых мер по развитию малого бизнеса и частного предпринимательства. представлены предпринимательство в регионах и факторы обеспечения его дальнейшего развития.*

Ключевые слова: *малый бизнес, частное предпринимательство, экономическая свобода, бизнес-среда, социально-экономическое развитие, модернизация и диверсификация экономики.*

Annotation: *The article discusses concepts about the importance of the development of small business and private entrepreneurship as the main factor in the socio-economic development of the country, as well as the results of implemented measures for the development of small business and private entrepreneurship. entrepreneurship in the regions and factors ensuring its further development are presented.*

Key words: *small business, private entrepreneurship, economic freedom, business environment, socio-economic development, modernization and diversification of the economy.*

Bugun dunyodagi shiddatli globallashuv sharoitida, xalqaro maydonda turli manfaatlar to‘qnashuvi kuchayib borayotgan, jahon iqtisodiy-moliyaviy inqirozi davom etayotgan keskin bir vaziyatda O‘zbekiston iqtisodiyotini barqaror sur’atlar bilan o‘sishini ta’minlash, mamlakatimiz iqtisodiy qudratini, yurtimizda tinchlik va barqarorlik, ijtimoiy totuvlikni mustahkamlash, aholining moddiy ahvoli va farovonligini, uning hayot darajasi va sifatini oshirish hukumatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Bu kabi muhim vazifalarni hal etish uchun:

Birinchidan, iqtisodiyotimizda yuqori o‘sish sur’atlarini saqlab qolish, makroiqtisodiy barqarorlik va milliy valyutamizni yanada mustahkamlashni ta’minlash.

Ikkinchidan, mamlakatimiz hududlarini, ya’ni shahar, tuman va

mahallalarni, ayniqsa iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda nisbatan orqada qolayotgan tuman va shaharlarni kompleks va jadal rivojlantirish.

Uchinchidan, aholining real daromadlarini, turmush darajasi va sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratish[13] zarur, deb bejiz ta'kidlamadi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoev o'z ma'ruzasida. Mazkur muhim vazifalarni amalga oshirish xududlarning ichki imkoniyati, salohiyatidan samarali va optimal foydalangan holda ularni kompleks va muvozanatli ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishga imkon beradi. Zero, davlatning mintaqaviy siyosatining bosh maqsadiga aylangan mamlakat va uning xududlari iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, xududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi farqlarni kamaytirish, subventsion tuman va shaharlarni kamaytirish, mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish, sanoat va eksport salohiyatini o'stirishning muhim shartiga aylangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish galdagi muhim vazifalardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, ular xududdagi yirik va o'rta korxonalarga nisbatan iqtisodiyotni nazorat qilish uchun o'ta ijobiy muhitni yaratadi.

Shuning uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xududiy xususiyatlarini o'rganish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Viloyatda ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish, korxonalarning faoliyati bilan bog'liq tartib-taomillarning barcha turlarini qisqartirish, soddalashtirish va ochiq-oydinlik darajasini oshirish, biznesni yuritish shart-sharoitlarini baholash mezonlarining jahon amaliyotida qabul qilingan tizimini keng joriy etilmoqda.

Iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 46 350 tani tashkil etgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar sonining eng ko'pi savdo sohasida (17 375 ta), sanoat tarmoqlarida (10 988 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (2 416 ta), qurilishda (3 938 ta), yashash va ovqatlanishda (2 961 ta), tashish va saqlashda (1 860 ta)ni tashkil etgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga yaratilayotgan shart-sharoitlarning tobora yaxshilanib borayotganligi ular tomonidan mahsulot ishlab chiqarish hamda eksport hajmlarini ko'paytirish imkoniyatini yaratmoqda.

2022- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi 10 392,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Bu esa 2021- yilning mos davriga nisbatan ishlab chiqarilgan sanoat

[13] "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" nomli Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi.

mahsulotini 610,7 mlrd. so‘mga oshganini ko‘rsatdi.

2022- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushum 43 228,4 mlrd. so‘mni tashkil etgan.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushum miqdori va ulushining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘pi savdo sohasida 23 562,2 mlrd. so‘m (54,5 %), sanoat tarmoqlarida 11 618,9 mlrd. so‘m (26,9 %), qurilishda 4 587,0 mlrd. so‘m (10,6 %), boshqa turlar 1 073,7 mlrd. so‘m (2,5 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 855,4 mlrd. so‘m (2,0 %), tashish va saqlashda 818,1 mlrd. so‘m (1,9%), yashash va ovqatlanishda 375,3 mlrd. so‘m (0,9 %), Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda 216,8 mlrd. so‘m (0,5 %), axborot va aloqada 120,8 mlrd. so‘m (0,3 %) ni tashkil etgan.

2022- yil hisobot yilida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan yangi ochilgan ish o‘rinlari soni 25 311 tani tashkil etdi. Shu bilan birga hisobot yilida qisqartirilgan ish o‘rinlari soni 15 409 tani tashkil etgan.

2022- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 7 208,0 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Bu esa 2021-yilning mos davriga nisbatan investitsiyalarni 1 461,5 mlrd. so‘mga oshishini ta’minladi.

Biroq, bu sohada ushbu yutuqlar bilan birgalikda, ayrim kamchiliklar mavjudki, ularni hal etish viloyat iqtisodiyotining yana ham yuksalishini ta’minlaydi.

Ilmiy adabiyotlarda tadbirkorlik faolligi darajasiga, shu bilan birga tadbirkorlikni rivojlanish darajasiga ta’sir etuvchi quyidagi omillarni ajratib ko‘rsatishadi:

1. Iqtisodiy tsikl bosqichi.
2. Inflyatsiya.
3. Kredit uchun foiz stavkalari.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning bosh omili bo‘lib, iqtisodiy erkinlik hisoblanadi. U o‘zida xo‘jalik faoliyati, savdo, erdan foydalanishni ifodalaydi. Iqtisodiy erkinlik tadbirkor, biznesmen, shuningdek, iste’molchi uchun shaxs ijodiy faoliyati uchun muhit yaratishda muhimdir. Tadbirkorlar iqtisodiy erkinligi va iste’molchilar iqtisodiy erkinligi bir – biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular bir – birisiz mavjud bo‘la olmaydi.

Yuqorida sanab o‘tilgan omillar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni normal faoliyat olib borishi uchun umumiy muhitni yaratadi va makroiqtisodiy tavsifga egadir. Hozirgi holatda yuqorida sanab o‘tilgan omillarning mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitining rivojlanishiga ijobiy ta’sir etishdagi rolini oshirishga erishish kerak.

Nazarimizda, O‘zbekistonda va xududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishini ta’minlash uchun eng avvalo quyidagilarni amalga oshirish:

- bank tizimini liberallashtirish;

- soliq tizimi va bojxona siyosatini takomillashtirish;
- tadbirkorlik sub'ektlari huquqlarini yanada mustahkamlash;
- elektron tijorat sohasini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni «yangilash»;
- kasaba uyushmalari faoliyatini rivojlantirish, kasaba uyushmalari bilan davlat o'rtasida muloqot tizimini shakllantirish, tizimdagi loqaydlikni bartaraf etish;
- davlat va xususiy sektor o'rtasida ko'prik vazifasini bajaruvchi tuzilmani shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashurov M.S., Shakirova Yu.S. Features of use of business processes that implify the organization of the work of the enterprise. SJ..International journal of theoretical and practical research, 2022. (11), 197-208. Doi:https://dx.doi.org/10.5281/zenodo. 7391458.
2. Shakirova Yu.S. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari". FarPI ITJ 2022, maxsus son, №3, 231-235 b.
3. Shakirova Yu.S. "Kichik biznesni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash masalalarini echishdagi ahamiyati". Yengil sanoat tarmoqlari, muammolari, tahlil va echimlari" mavzusida vazirlik miqyosida ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami. FarPI,2022 yil 29 - 30 aprel, 744-749 betlar.
4. Farg'ona viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari

Шавқиев Эркин - СамИСИ иқтисодиёт фанлари номзоди, профессор в.б.

МАМЛАКАТНИ СОЦИАЛ-ИҚТИСОДИЙ ЖИҲАТДАН РИВОЖЛАНТИРИШДА САНОАТ ТАРМОҒИНИНГ ЎРНИ

Аннотация: *Ушбу тезисда саноат тармоғига мамлакатни социал-иқтисодий жиҳатдан тараққий эттиришда муҳим омил сифатида қаралган.*

Калит сўзлар: *иқтисодиёт, саноат, тадбиркорлик, корхона, фан, техника.*

Аннотация: *В данном тезисе отрасль промышленности рассматривается как важный фактор социально-экономического развития страны.*

Ключевые слова: *экономика, промышленность, предпринимательство, предприятие, наука, техника.*

Abstract: *In this thesis, the industry is considered as an important factor in the socio-economic development of the country.*

Keywords: *economics, industry, entrepreneurship, enterprise, science, technology.*

Маълумки, ҳар қандай давлатнинг иқтисодий салохияти, унинг саноат ишлаб чиқариши қай даражада ривожланганлиги билан бахоланади. Шу

сабабдан, мамлакатимизда саноатнинг барча тармоқларини ривожлантириш, уларнинг рақобатбардошлигини ошириш, бунинг учун бозор муносабатларига мос бўлган барча воситалардан, энг янги тажрибалардан ғоят самарали фойдаланиш заруриятини туғдирмоқда.

Саноат – моддий ишлаб чиқаришнинг бош тармоғи иқтисодиётнинг пойдевори, бутун ишлаб чиқаришни глобаллаштириш муаммоларини хал этишнинг калитидир.

Саноат – ўзининг қўшимча қиймат яратиши ва юқори даражага эга бўлган ишлаб чиқариш қуввати билан бошқа тармоқлардан тубдан фарқ қилади.

У мамлакатни социал-иқтисодий жиҳатдан тараққий эттириш ва шу асосда аҳолининг моддий ва маънавий фаровонлигини таъминлашда – миллий иқтисодиётнинг етакчи тармоғи бўлган саноат, мавқеи жиҳатидан, алоҳида ўрин эгаллайди.

Замонавий иқтисодиёт – кенг кўламдаги, турли тармоқларга эга бўлган, миллий иқтисодиётни тўла қамраб оладиган саноатлаштиришни талаб қилади. Узлуксиз ривожланишни таъминлай оладиган ишлаб чиқарувчи кучлар тараққиёти, замонавий техника ва технология фақат саноат тармоғи орқали яратилади. Бир сўз билан айтсак, тўла саноатлаштириш бозор муносабатлари ҳукмронлигининг моддий асоси бўлиб хизмат қилади.

Халқаро бозорга кириб бориш, мустақил равишда товарлар ва хизматлар экспорти ҳамда импортини амалга ошириш ва бунда самарадорликка эриша бориш республикада самарали бозор иқтисодиётининг шаклланишидаги муҳим босқичлардир.

Ўзбекистон иқтисодиётида саноат маҳсулотларига бўлган талаб, уларнинг ички бозордаги мавқеи ошириш ва халқаро бозорларга чиқиш стратегияси ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Сўнгги йилларда, мамлакатимизда бу масалага катта эътибор билан қаралмоқда. Чунки, миллий иқтисодиётда содир бўлаётган ижобий ўзгаришларда саноат маҳсулотларини ишлаб чиқариш ҳажмининг ўсиши, халқаро бозорларга чиқиш стратегиясининг ортиб бориши ҳал қилувчи аҳамиятга эга.

Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси – рақобатбардош, экспортбоп ҳамда импорт ўрнини босувчи, юқори қўшимча қийматга эга маҳсулотлар ишлаб чиқаришга қаратилган бўлиб, у саноатнинг барқарор ва мутаносиб равишда ўсиши ҳамда ишлаб чиқариш қувватларини модернизациялаш, техник ва технологик янгилаш асосида унинг етакчи тармоқларини ривожлантиришни кўзда тутади.

Ўзбекистон саноати олдида турган долзарб масала – ишлаб чиқарилаётган ва қазиб олинаётган хом ашёни комплекс қайта ишлаш, яъни чиқиндисиз қайта ишлаш асосида, республиканинг ўзида уни тайёр маҳсулотга айлантиришдадир.

Мамлакатимиз Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси” номли асарида қайд этилганидек: “Бутун иқтисодиёт тизимида маҳсулотлар тайёрлаш жараёнини оптималлаштириш ва ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштириш даражасини муттасил ошириш, импорт

ўрнини босиш жараёнларини янада чуқурлаштириш, 2026 йилгача саноат корхоналаридаги 51 мингдан зиёд ускуналарни замонавийларига алмаштириш ҳамда шу асосда, жумладан, қўшилган қиймат яратишнинг ягона занжирини ҳосил қилиш, мамлакатда ишлаб чиқарилаётган ип калаванинг бутун ҳажмини қайта ишлаш ҳисобидан тўқимачилик маҳсулотлари экспорти ҳажмини 7 миллиард АҚШ долларига етказиш билан боғлиқ вазифалар ўз долзарблигини сақлаб қолмоқда”[14]

Янги Ўзбекистоннинг 2022-2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегиясида, иқтисодиёт тармоқларида барқарор юқори ўсиш суръатларини таъминлаш орқали келгуси беш йилда “... даромади ўртачадан юқори бўлган давлатлар” қаторига кириш асосий мақсадлардан бири этиб белгиланган[15].

2023 йил 1 январь ҳолатига республика саноат корхоналарининг сони 105,3 мингта[16] бўлиб, уларнинг 97, 9 таси[17] кичик корхона ва микрофирмалардир. Булар иқтисодиётнинг етакчи тадбиркорлик субъектларидир.

Иқтисодиётга оид манбаларда тадбиркорлик тушунчасига турли хил таърифлар берилган. Жумладан, Ўзбекистон Республикасининг “Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонунининг 3-моддасида: “Тадбиркорлик фаолияти (тадбиркорлик) – тадбиркорлик фаолияти субъектлари томонидан қонун ҳужжатларига мувофиқ амалга ошириладиган, таваккал қилиб ва ўз мулкий жавобгарлиги остида даромад (фойда) олишга қаратилган ташаббускор фаолият”[18], дейилган.

Бизнинг назаримизда, ушбу таъриф тадбиркорлик фаолиятининг мазмун-моҳиятини тўлиқ очиб бермайди. Бунда энг муҳим жиҳат – “истеъмолчилар талабининг қондирилиши” деган тушунча эътибордан четда қолган.

Маълумки, тадбиркор истеъмолчиларга тақдим этган товар (хизмат)лар уларнинг талабини қондирган тақдирдагина даромад (фойда) олиши мумкин. Шу сабабли, тадбиркорлик категориясига таъриф берилганда истеъмолчилар нуқтаи назаридан қаралса мақсадга мувофиқ бўлади.

Юқорида келтирилган фикрлар ва ёндашувларни умумлаштирган ҳолда, биз, тадбиркорлик тушунчасига қуйидаги таърифни беришни лозим топдик: тадбиркорлик – бу таваккалчилик ва ташаббускорлик ҳамда ўз мулкий жавобгарлиги остида турли субъектлар талабини қондириш орқали фойда топишга қаратилган иқтисодий фаолиятдир.

Бугунги кунда социал-иқтисодий муаммоларнинг ечимини топишда,

---

[14] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. –Тошкент: “O’zbekiston” нашриёти, 2022, 137 бет.

[15] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги, ПФ-60-сон Фармони (1-илова, III-бўлим, 21-мақсад).

[16] O'zbekiston raqamlarda 2021-2022. − T:. O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi, 2023, 113 bet.

[17] O'sha manba, 116 bet.

[18] Ўзбекистон Республикасининг “Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни, 2000 йил 25 май,

мамлакатимизда авж олаётган кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик жуда қўл келмоқда. Уларнинг афзалликлари шуки, катта капитал ҳаражатларни талаб қилмайди.

Мамлакатимизда фаолият юритаётган хўжалик юритувчи субъектлар таркибида кичик бизнес субъектлари салмоқли ҳиссани ташкил этаётган бўлсада, миллий иқтисодиётда йирик корхоналарнинг ҳам роли беқиёс. Чунки, кичик бизнес субъектларида фойдаланиладиган ишлаб чиқариш воситалари (машина, ускуна ва ҳоказолар)нинг аксарият қисми йирик корхоналарда тайёрланади.

Мамлакатимизда ўрта ва йирик ишлаб чиқариш корхоналари ҳам юзага келмоқдаки, улар республикамиз манфаатига мос келадиган янги ишлаб чиқариш тузилишини яратишда кенг кўламли ишлар бошланганидан далолат беради. Уларнинг сони 2022 йил бошида 5,1 мингта бўлиб, 2023 йил бошида 8,0 тани ташкил этди ёки 1,6 баробарга кўпайди.

Ўрта ва йирик корхоналарда фан-техника ютуқларини ҳаётга татбиқ этиш асосида юқори сифатли маҳсулот ишлаб чиқариш ҳамда янги маҳсулот турларини ихтиро этиш нуқтаи назаридан, илмий-қидирув лабораториялари фаолиятини йўлга қўйиш имконияти мавжуд. Бу йўсиндаги ишлар, табиийки, мамлакат саноат тармоғида инновацион фаолиятнинг ривожланишига йўл очиб беради.

Ўзбекистон саноатининг инновацион ривожланиш йўлига ўтиши – жамиятимиз иқтисодиётини янги босқичга кўтариш, макроиқтисодий барқарорликни мустаҳкамлаш ва иқтисодий ўсиш суръатларини кенгайтириш имкониятларини янада оширади.

Nishonov Azamat Hakimovich – SamDAQU tayanch doktoranti.
Artikov G‘ulom Abduraxmonovich - SamDAQU t.f.n., dotsent (ilmiy rahbar)

SHAHARLARNI HUDUDLARGA BO‘LISH ORQALI ISTIQBOLLI REJASINI BASHORAT QILISH

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan ma’muriy-hududiy birliklarga bo‘linish va yer tuzish ishlari tarixini tahlili yoritilgan. Hozirgi kunda, ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibini normativ-huquqiy hujjatlarda aks ettirilishi keltirilgan. Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda zamonaviy geografik axborot texnologiyalari (GAT)dan foydalanish tavsiya etilgan.

Kalit so‘zlar: *Davlat koordinata tizimi, ma’muriy-hududiy birliklar, nuqtalarning koordinatalari, ortofotoreja, topografik elementlar va chegara chizig‘ining tavsifi, geografik axborot tizimlari (GAT), marza belgilari.*

Annotation: *The article analyzes the history of the administrative-territorial division and land management work carried out in the Republic of Uzbekistan. At present, the procedure for determining the boundaries of administrative-territorial units is reflected in the legal documents. It is recommended to use modern*

geoinformation technologies (GAT) when determining the boundaries of administrative-territorial units.

Keywords: *State coordinate system, administrative-territorial units, coordinates of points, orthophotomap, description of topographic elements and border lines, geographic information systems (GIS), boundary markers.*

Аннотация: *В статье проводится анализ истории административно-территориального деления и землеустроительных работ, проводимых в Республике Узбекистан. В настоящее время порядок определения границ административно-территориальных единиц отражен в нормативно-правовых документах. Рекомендуется использовать современные геоинформационные технологии (ГАТ) при определении границ административно-территориальных единиц.*

Ключевые слова: *Государственная система координат, административно-территориальные единицы, координаты пунктов, ортофотоплан, описание топографических элементов и линий границы, геоинформационные системы (ГИС), пограничные знаки.*

Aholisi 1 millionga etgan birinchi shahar miloddan avvalgi 133-yilda Rim bo‘lgan.

London bu ko‘rsatkichga 1810-yilda, Nyu-York 1875-yilda erishgan. Hozirda dunyoda 1 milliondan ortiq aholiga ega 548 ta shaharlar mavjud.

Jahon sivilizatsiyasining qadimiy o‘choqlaridan biri, er yuzining sayqali nomini olgan Samarqand mustaqil O‘zbekistonning yirik iqtisodiy va ilmiy-madaniy markazlaridan biri hisoblanadi.

Samarqand O‘zbekistonning janubiy-g‘arbiy qismida, Zarafshon vodiysining o‘rta qismida, Darg‘om va Siyob kanallari orasida, dengiz sathidan 725 metr balandlikda joylashgan.

Samarqand shahri 2002 yil holatiga ko‘ra Siyob tumani, Temiryo‘l tumani va Bog‘ishamol tumanlaridan iborat bo‘lgan hamda jami er maydoni 8 730 gektar va aholisi soni 386,9 ming kishini tashkil etgan. (1-rasm).



1-rasm

1-jadval

Tumanlar kesimida:

Siyob tumani - maydoni 3,63 ming gektari, aholi soni 162,5 ming kishi;

Temiryo‘l tumani - maydoni 2,4 ming gektari, aholi soni 115,2 ming kishi;

Bog‘ishamol tumani - maydoni 2,7 ming gektari, aholi soni 109,2 ming kishini tashkil etgan (1-jadval).

Shahar hududining eski ma’muriy bo‘linishi tasnifi (2002 yil holatiga)		
	Maydoni (ming, ga)	Aholisi (ming kishi)
Jami	**8,73**	**386,9**
Siyob tumani	3,63	162,5
Temiryo‘l tumani	2,4	115,2
Bog‘ishamol tumani	2,7	109,2

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoevning 2021-yil 24-sentyabrda Samarqand shahriga tashrifi chog‘ida «Samarqand, Past Darg‘om, Oqdaryo va Toyloq tumanlari hududidan 18 ming gektari Samarqand shahar tarkibiga qo‘shiladi. Davlat idoralari va ma’muriy xizmatlar tarixiy markazdan yangi hududga ko‘chiriladi”, degan edi. Shundan so‘ng, mahalliy hokimliklar va mutasaddi tashkilotlar tomonidan Samarqand shahrini keyingi ma’muriy-xududiy chegarasi bo‘yicha taklif ishlab chiqildi.

Joriy yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, Samarqand shahar aholisi soni 583 mingga yaqin, er maydoni esa 12 383 gektarni tashkil etadi.

Endilikda, Samarqand shahrini “Millionli shahar”ga aylantirish uchun, shaharga chegaradosh bo‘lgan Samarqand, Past Darg‘om, Oqdaryo va Toyloq tumanlari xududlaridan qisman er maydonlarini qo‘shish orqali, shuningdek, doimiy ro‘yxatdan o‘tmagan aholi va talabalar hisobiga shahar aholisi sonini oshirilishi belgilangan. Natijada Samarqand shahar xududida quyidagi 5 ta tuman tashkil etilishi rejalashtirilgan (2-rasm).



2-rasm

Qorasuv tumani - maydoni 7,921 ming gektari, MFYlar soni 33 ta, aholi soni 134,7 ming kishi;

Siyob tumani - maydoni 4,846 ming gektari, MFYlar soni 100 ta, aholi soni 301,3 ming kishi;

So‘g‘diyona tumani - maydoni 3,741 ming gektari, MFYlar soni 54 ta, aholi soni 184,9 ming kishi;

Bog‘ishamol tumani - maydoni 3,246 ming gektari, MFYlar soni 55 ta, aholi soni 170,5 ming kishi;

Maroqand tumani - maydoni 8,333 ming gektari, MFYlar soni 51 ta, aholi soni 226,6 ming kishi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziëevning 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasida Samarqand shahri dunë taniydigan megapolisga, xalqaro turizm va biznes markaziga aylandi. Shu bois, Samarqand shaharini alohida ma’muriy-hududiy birlik sifatida respublika bo‘ysunuviga o‘tkazishni taklif qildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi 2020-yil 28-avgustdagi O‘RQ-635-son Qonuniga ko‘ra respublika bo‘ysunuvidagi shaharlar – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari bilan aniqlanishi mumkin bo‘lgan, strategik ahamiyatga, yirik sanoat korxonalariga va rivojlangan infratuzilmaga ega, shuningdek, istiqbolli iqtisodiy va madaniy markazlar bo‘lgan aholi punktlari hisoblanadi [1].

Samarqand shahrida yangi tashkil etiladigan tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

	Ko‘rsatkich-lar	**Jami**	**Qora-suv tumani**	**Siyob tumani**	**Sug‘diyo-na tumani**	**Bog‘isha-mol tumani**	**Maro-qand tumani**
	Maydoni (gektar)	**28 087**	7 921	4 846	3 741	3 246	8 333
	Aholisi (ming kishi) shaharda doimiy ro‘yxatda bo‘lmagan fuqarolar hisobida	**1 018**	134,7	301,3	184,9	170,5	226,6
	MFYlar soni	**293**	33	100	54	55	51
	Maktablar soni	**137**	18	33	27	23	35
	MTMlar soni	**141**	12	48	28	26	27
	Tibbiyot muassasalari	**43**	7	9	11	6	7
	Yo‘llar uzunligi (km)	**1 085,8**	224	212,9	185,2	190,8	272,9

	Shundan, umumfoydalan ishdagi avtomobil yo‘llari	**89,6**	27	19,4	12	7	24,2
	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llari	**996,2**	197,3	193,5	173,2	185,5	246,7
	Aholi zichligi (1 km^2 ga kishi)	**3 625**	1 701	6 217	4 943	5 253	2 719

Samarqand shahrida 178 ta davlat tashkiloti joylashgan. Shaharni “millionli shahar”ga aylantirishda shaharsozlikning “aqlli shahar” konsepsiyasi asosida tashkil etish, zamonaviy IT-parklarda tizimlashgan texnologik jarayonlarni amalga oshirish, “ekologik toza shahar”ga aylantirish va “xavfsiz shahar” integratsiyalangan tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Buning uchun dastlab 42 ta davlat tashkiloti shahar atrofiga ko‘chirilishi rejalashtirilgan.

Qoidaga ko‘ra, “millionli shahar”lar mamlakat YaIMni o‘sishida drayver vazifasini bajaradi - ma’lum bir tarmoqlar bo‘yicha yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadi. Shu jihatdan, shaharda bo‘shagan binolarga chet ellik investorlarni jalb qilib, turizm infrastrukturasini yaratish ko‘zda tutilyapti. Bu tabiiyki, qo‘shimcha xizmatlar va yangi ish o‘rinlarini tashkil qilishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, 6 ta aholi turar maskanlariga tutash joylarda kichik sanoat zonalari va ishlab chiqarish ob’ektlari barpo etish ham ayni shu maqsadga qaratilgan.

Loyiha doirasida 7 ta markaziy chorrahalarda muayyan vaqtlarda yuzaga keladigan tirbandliklarning oldini olish uchun yo‘l o‘tkazgichlar barpo etish taklifi ishlab chiqilyapti.

Bu borada amalga oshiriladigan ishlarni quyidagi shaharsozlik norma talablari asosida, masalaga ilmiy yondoshgan holda bajarish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xususan, shahar ijtimoiy mehnat taqsimotining umumiy tizimidagi muayyan muammolarni hal qilishga mo‘ljallangan murakkab ishlab chiqarish-hududiy jamlanmasidir. Shahar o‘zining tarkibiga turli xil maqsadlar uchun mo‘ljallangan – shaharni shakllantirish, shaharni ta’minlash va shaharga xizmat ko‘rsatish obyektlarini birlashtiradi. Shaharni shakllantiruvchi – tashqi, shaharni ta’minlovchi va xizmat ko‘rsatuvchi - ichki faoliyatining nisbati, ushbu shaharning umumdavlat miqyosida iqtisodiy va ishlab chiqarish muammolarini hal qilishda tutgan o‘rnini belgilaydi. Amalga oshirilgan xizmatlar to‘plamiga ko‘ra, zamonaviy shaharlar, ayniqsa, yirik, eng yirik va o‘ta yirik shaharlar ko‘p tarmoqli hududiy-ishlab chiqarish majmualari sifatida shakllanib, rivojlanib boradi [2].

Shaharning ijtimoiy rivojlanishini bashorat qilish, uning hududiy jihatidan batafsil ishlab chiqilgan hududiy-ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy

jamlanmalarni rivojlantirishning bosh istiqbolli rejasiga asoslanadi. Bosh reja an’anasining asosi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning uzoq muddatli istiqbolli rejasidir.

Hududning bosh rejasi an’anasini shakllantirish bosqichida atrof-muhit elementidan (hududiy resurs) shaharsozlik tizimining elementiga aylanadi. Boshqacha qilib aytganda, aholi o‘z faoliyatining barcha turlari natijasida barcha foydalanish uchun hududlarning soni va sifatini belgilaydi. Hudud miqdori istiqbolga qarab ushbu faoliyat turining rejalashtirilgan hajmi bilan belgilanadi va hudud sifati mezonlari undan foydalanish turi bilan belgilanadi. Hududdan oqilona foydalanish-unda muayyan faoliyat turlarini (turar joy, iqtisodiy faoliyat, dam olish, himoya) amalga oshirish.

Aksariyat, shahar hududlari, ulardan cheklangan foydalanish bilan ajralib turadi. Ko‘pgina faoliyat turlari (masalan, aeroportlar, temir yo‘l tugunlari), ularni hududga joylashtirish uchun qat’iy cheklovlarni qo‘yadi. Boshqa faoliyat turlari (masalan, "sof ishlab chiqarish") va aholiga maishiy va madaniy xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalar, turar-joy binolari bitta massivda emas, balki boshqa turdagi obyektlar bilan birgalikda, xatto murakkab relef sharoitlariga joylashtirilishi mumkin.

Keng ko‘lamli foydalanish hududlarini shahar faoliyatining o‘ziga xos turiga birlashtirish uchun hal qiluvchi omillar tabiiy emas, balki iste’mol qiymatiga asoslangan iqtisodiy hududlar bo‘ladi. Shahar faoliyati - maqsad, vositalar, faoliyat mahsuloti, uning subyektlari va obyektlari, atrof-muhitga bo‘lgan talablari va boshqa belgilari bilan farq qiladi. Shaharning turar joy, sanoat, savdo, transport-ombor faoliyatlari an’anaviy ravishda ajratiladi.

Shunday qilib, rejalashtirish cheklovlari tuzilmasi, faoliyat va rejalashtirish tuzilmasini hamda shahar hududini oqilona bo‘laklarga taqsimlash kerakligini aniqlaydi. Shahar hududining boshqa har qanday tuzilishi endi shahar muhitini shakllantirmaydi, balki ma’lum bir belgi (ma'muriy tuzilma va boshqalar) bo‘yicha shahar hududlarini chegaralashni belgilaydi.

Uchinchidan, kadrlar seleksiyasining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ushbu jarayonni tashkil etish va boshqarishga bog‘liq. Aniq tanlash mezonlarini ishlab chiqish, baholash tizimini yaratish, shuningdek, kadrlar bo‘limi xodimlarini o‘qitish va rivojlantirish kadrlar seleksiyasini samarali boshqarish tizimining asosiy elementlari hisoblanadi.

Xullas shuni aytish mumkinki, xizmat ko‘rsatish sohasida kadrlarni tanlash samarali va professional kadrlar tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu jarayonni to‘g'ri tashkil etish va boshqarish, shuningdek, zamonaviy tanlash usullaridan foydalanish xizmat ko‘rsatish sifatini, mijozlar ehtiyojini qondirish va pirovardida tashkilotning raqobatbardoshligini oshirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Иванова М.В. «Управление персоналом: современные технологии отбора и оценки персонала». Москва: Издательство «Экономика», 2022.

2.

2. Петрова А.Н. «Психология управления: Кадровая селекция и адаптация персонала». Санкт-Петербург: Питер, 2021.

3. Смирнова Е.С. «Кадровый менеджмент в сфере обслуживания: стратегии и практики». Москва: ИНФРА-М, 2023.

Xudayberdiyev Bobur Botirovich - Jizzax Politexnika instituti mustaqil ilmiy izlanuvchisi

MARKETINGNING MOHIYATI VA UNING QURILISH ISHLAB CHIQARISHIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya: *Maqolada bozor mexanizmlaridan foydalanishga asoslangan iqtisodiy islohotlarda mahsulotlar bozorida talab va taklifga bo‘ysindirilgan marketingning mohiyati, shuningdek, har bir qurilish tashkilotining o‘z faoliyatiga doir dasturamallar asosida xususiy tamoyil, uslub va kontsepsiya ishlab chiqishi yuzasidan tavsiyalar bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Marketing, bozor mexanizmlari, marketing konseptsiyasi, bozor talablari, iste’molchi, “xarajatlar va natijalar” mezoni, ulgurji savdo.*

Аннотация: *В статье описана сущность маркетинга с учетом спроса и предложения на товарном рынке в условиях экономических реформ, основанных на использовании рыночных механизмов, а также даны рекомендации по разработке частного принципа, метода и концепции каждой строительной организации на основе программы, связанные с его деятельностью.*

Ключевые слова*: Маркетинг, рыночные механизмы, концепция маркетинга, требования рынка, потребитель, критерии «затраты и результат», оптовая торговля.*

Annotation: *The article describes the essence of marketing, taking into account supply and demand in the product market in the context of economic reforms based on the use of market mechanisms, and also provides recommendations for the development of a private principle, method and concept for each construction organization based on a program related to its activities.*

Key words: *Marketing, market mechanisms, marketing concept, market requirements, consumer, cost-result criteria, wholesale trade.*

Bozor mexanizmlaridan foydalanishga asoslangan iqtisodiy islohotlarda tub burilishning qurilmaviy dasturi marketing sohasidagi bilimlarning keng qo‘llanilishini nazarda tutadi.

Mazkur dasturamalni milliy iqtisodiyotning drayveri sanalgan qurilish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish muammolarini hal qilishda, asosan, marketing tamoyillari, usullari va uslublariga asoslangan faoliyatga o‘tish orqali osonlashtirilishi mumkin. Buning uchun esa har bir ishlab chiqaruvchi, har bir xizmat ko‘rsatuvchi sub’yekt marketing tamoyillari, usullari va uslublari, shuningdek, uning kontseptsiyasini o‘z faoliyatiga moslab ishlab chiqish darajasiga ega bo‘lmog‘i lozim.

O‘z mohiyatiga ko‘ra marketing bu xo‘jalik va menejment qarorlari asosida nafaqat ishlab chiqarish imkoniyatlari, balki ayni paytda bozor talablari, iste’molchilarning mavjud potentsial talablarini hisobga oladigan menejmentni tashkil qilish shakli hisoblanadi.

Zamonaviy marketing kontseptsiyasining esa mazmun-mohiyati shundan iboratki, korxona, tashkilotning barcha faoliyati (ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish,

qurilish, kapital qo‘yilmalar, sotish, texnik xizmat ko‘rsatish va hokazo sohalarida) iste’molchilar talabi va uning strategic faoliyatlari haqidagi bilimlarga asoslanadi. Marketingning maqsadlaridan biri, shuningdek, ishlab chiqarishni ularning ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirish uchun xaridorlarning qondirilmagan ehtiyojlarini aniqlashdir. Marketing deganda haqiqatan ham talabga javob beradigan mahsulotlarni loyihalash, ishlab chiqarish va sotish tushuniladi.

Marketing tizimi mahsulot ishlab chiqarishni va bajarilgan ishni talabga funktsional bog‘liq holda tovar (ish) ishlab chiqarishning, sotishning umumiy hajmida, ya’ni iste’mol uchun zarur bo‘lgan hajmda talab qiladi. Marketing kontseptsiyasini amalga oshirishda xo‘jalik qarorlarini qabul qilish markazi korxona va tashkilotlarning ishlab chiqarish bo‘linmalaridan “bozor holati” ni his qiladigan bo‘linmalarga o‘tkaziladi. Marketing xizmati uning fikrlash nuqtasi, nafaqat bozor uchun, balki korxonalar va tashkilotlarning ishlab chiqarish, ilmiy-texnik va moliyaviy siyosati uchun ham ma’lumot va tavsiyalar manbai sanaladi. Bu erda talabning holati va dinamikasi ishbilarmonlik muhitini atroflicha tahlil qilish asosida ma’lum bir mahsulot va ishni ishlab chiqarishning zarurligi, istiqbollari, rentabelligi masalasi nuqtai nazaridan hal qilinadi, ishlab chiqarish dasturini moddiy-texnik ta’minlash imkoniyatlari aniqlanadi. Marketing dasturlari muntazam ishlab chiqiladi va takomillashtiriladi, ya’ni ma’lum tovar, mahsulot va bajarilgan ishlar bilan ma’lum bozorlarga chiqarish rejalashtiriladi.

Shunday qilib, marketing bu ishlab chiqarilgan (ishlab chiqarilgan) mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning sotilishini ta’minlashga qaratilgan tashkilot va korxonaning tashkiliy, texnik, moliyaviy, iqtisodiy va tijorat funktsiyalari tizimidir.

Har bir korxona o‘z faoliyatiga doir quyida dasturamallar asosida xususiy tamoyil, uslub va kontsepsiya ishlab chiqishi zarur:

1) ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyatining yakuniy natijasiga, ya’ni mahsulotlarni samarali sotishga, tashqi va ichki bozorlarda ishlashga erishishga e’tibor qaratish;

2) xo‘jalik va menejment qarorlarini qabul qilishda ehtiyojlar, talabning holati va dinamikasi va bozor kon’yunkturasini diqqat bilan hisobga olish;

3) marketing vositalarining butun majmui muvaffaqiyatli ishlab chiqarish, iqtisodiy va eksport faoliyati uchun sharoit yaratib beradigan dasturiy-maqsadli usul va maqsad va vazifalarga erishishda keng qamrovli yondashuv;

4) ishlab chiqarishni bozor talablariga, talab tarkibiga yuqori darajada moslashishi uchun sharoit yaratish;

5) bozorga faol yondashuv taktikasi va strategiyasini, uning talablarini unga bir vaqtning o‘zida maqsadli ta’sir ko‘rsatishi bilan birgalikda va o‘zaro bog‘liqlikda qo‘llash;

6) bozorga, barcha mavjud vositalardan va birinchi navbatda reklama vositalaridan foydalangan holda iste’molchiga ta’siri;

7) korxonalar va tashkilotlar faoliyatini uzoq muddatli natijaga yo‘naltirish, bu istiqbolli tadqiqotlar va yangi turdagi mahsulotlar va ular asosida ishlanmalar ishlab chiqarishni, diversifikatsiyalashni taqozo etadi.

Marketing rahbarlar, mutaxassislar va xodimlardan tashabbuskor, faol va tashkilotchi bo‘lishni talab qiladi, chunki raqobatdosh bozorda samarali ishtirok

etishga ishonib bo‘lmaydi.

Marketingning ko‘rsatilgan umumiy tamoyillari qurilish ishlab chiqarish sohasida marketing faoliyatining aniq yo‘nalishlarini belgilaydi va uning quyidagi asosiy funktsiyalarini aniqlashga imkon beradi:

1) marketing maqsadlari natijalarini nazorat qilishga imkon beradigan shaklda belgilash (masalan, qurilish sanoatida yangi mahsulotlarning chiqarilishi yoki tugallangan qurilish-montaj ishlari, bozorni egallash, ma’lum miqdorda daromad olish va h.k);

2) bozorlarni har tomonlama va tizimli ravishda o‘rganish, ularning rivojlanish istiqbollari va marketingni amalga oshirish bilan bog‘liq muammolar (ilmiy-tadqiqot funktsiyasi);

3) qurilish ishlab chiqarishini iste’molchilar talablariga moslashtirish;

4) qurilish mahsulotlari turlarini rejalashtirish va eksport assortimenti iste’molchilarining talablari asosida maqbullashtirish;

5) raqobatchilar faoliyatini, ularning qurilish mahsulotlari va ishlarini, bozor strategiyasi va taktikasini (narxlar, reklama, raqobat usullari) o‘rganish;

6) savdo operatsiyalarini rejalashtirish va amalga oshirish (savdo tarmog‘ini shakllantirish, xodimlarni o‘qitish, sotishni rag‘batlantirish va boshqalar);

7) “xarajatlar va natijalar” me’zoniga asoslangan barcha marketing tadbirlarini muntazam ravishda kuzatib borish, kamchiliklarni bartaraf etish va etarlicha asoslanmagan qarorlarni tuzatish;

8) qo‘yilgan maqsad va vazifalar choralari bo‘yicha marketing faoliyatining yangi maqsadlarini aniqlash va shakllantirish.

Ushbu keltirilgan funktsiyalarning (faoliyat yo‘nalishlarining) har biri muhim ahamiyatga ega, ammo faqatgina ular ishlab chiqarish, iqtisodiy va tashqi savdo faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minlaydi.

Korxona yoki tashkilotning tashqi savdo faoliyatiga marketing yondashuvi, shuningdek, mahsulotlar bozoridagi ish maktabi, ulgurji savdoga o‘tish va milliy bozorni raqobatbardosh mahsulotlar bilan to‘ldirish sababli mahalliy korxonalar o‘rtasidagi raqobat sifatida xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.М.А.Айнакулов, Э.М.Абдухамидов. Нормативно-правовая база интеграционных отношений хозяйствующих субъектов. // «Молодой ученый». Международный научный журнал. Спецвыпуск Джизакский политехнический институт. 2016. № 7.2 (111.2) С. 48-50.

2. Aynakulov M.A. Xudayberdiyev B.B. Motivatsiya samaradorlik garovi sifatida // Ilmiy axborotnoma jurnali. Samarqand Davlat Universiteti. 2020. № 2 (120). 91-94 b.

Xudoyberdiyev Sardor Ismoilovich - SamDAQU

VAQTLI QATORLARNING MATEMATIK MODELI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘rganilayotgan obyekt va jarayonlarda omillar turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lganda qator darajalarining vaqtga bog‘liqligini o‘suvchi (kamayuvchi) tendensiya, mavsumiy tendensiya hamda tasodifiy komponentalar yordamida additiv model tuzilgan.*

Kalit so‘zlar: *suv, aholi, iste’mol, tendensiya, o‘suvchi tendensiya, mavsumiy tendensiya, tasodofiy komponenta, additiv model, korrelyatsiya, avtokorrelyatsiya, regressiya, ekonometrik model, prognoz.*

Аннотация: *В данной статье представлена аддитивная модель возрастающего (убывающего) тренда, сезонного тренда и случайных составляющих временной зависимости уровней рядов при проявлении факторов в разных формах в изучаемых в статье объектах и процессах.*

Ключевые слова: *вода, население, потребление, тренд, тренд роста, сезонный тренд, случайная составляющая, аддитивная модель, корреляция, автокорреляция, регрессия, эконометрическая модель, прогноз.*

Abstract: *This article presents an additive model of an increasing (decreasing) trend, seasonal trend and random components of the time dependence of series levels when factors manifest themselves in different forms in the objects and processes studied in the article.*

Key words: *water, population, consumption, trend, growing trend, seasonal trend, random component, additive model, correlation, autocorrelation, regression, econometric model, forecast.*

So‘nggi yillarda mamlakatimizda halq farovonligini oshirish, aholining yashash sharoitlarini yanada yaxshilash, davlat idoralari tomonidan ko‘rsatib kelinayotgan xizmatlarni yanada takomillashtirish va soddalashtirish hamda byurokratik to‘siqlarni, korrupsion holatlarni bartaraf etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar izchil amalga oshirilib kelinmoqda.

Jumladan, ichimlik va oqova suv sohasida ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash, barcha toifadagi iste’molchilar uchun qulay, soddalashtirilgan va shaffof hisoblash tizimini joriy etish bo‘yicha bir qator samarali ishlar olib borilmoqda.

Shuningdek, suv hisoblagichsiz ichimlik suvidan foydalanuvchi iste’molchilarda hovuz (basseyn), mikroiqlim yoki favvora mavjud bo‘lganda, ichimlik suv iste’moli hajmi ichimlik suv quvurining suv o‘tkazish quvvati bo‘yicha hisoblanishi yo‘lga qo‘yilgan.

Masalan shahar aholisining 12 chorakda iste’mol qilgan ichimlik suv hajmi to‘g‘risidagi statistik ma’lumot berilgan bo‘lsin (1-jadval). Bu statistik ma’lumotlar foydalanib additiv model tuzishni va additiv model bo‘yicha prognozlash imkonini berdi.

1-jadval

Shahar aholisining ichimlik suv iste'moli

t	y_t	y_{t-1}	y_{t-2}	y_{t-3}
1	119279	-	-	-
2	117364	119279	-	-
3	100715	117364	119279	-
4	96607	100715	117364	119279
5	89904	96607	100715	117364
6	75961	89904	96607	100715
7	65511	75961	89904	96607
8	63354	65511	75961	89904
9	68727	63354	65511	75961
10	75849	68727	63354	65511
11	63916	75849	68727	63354
12	59328	63916	75849	68727

jadvaldagi ma'lumotlar grafigini tasvirlaymiz (1-rasm).



1-rasm. **Shahar aholisining ichimlik suv iste'moli**

Ichimlik suv iste'moli hajmi bahorgi- yozgi davrda (II va III choraklar) qishgi- kuzgi (I va IV choraklar) davrga nisbatan yuqori. Bu hol qatorda additiv xususiyat borligidan dalolat beradi. Qatorning komponentalarini hisoblaymiz (2-jadval).

2-jadval

Additiv modelda mavsumiy komponentalarni baholash hisob-kitibi

Chorak raqami. t	**Ichimlik suv iste'moli y_t**	**Chorak bo'yicha jami**	**Chorak bo'yicha sirg'anchiq o'rtacha**	**Markazlashgan sirg'anchiq o'rtacha**	**Komponenta-larni baholash**
1	119279				
2	117364	433965	108491,25		
3	100715	404590	101147,5	104819,375	-4104,375
4	96607	363187	90796,75	95972,125	634,875
5	89904	327983	81995,75	86396,25	3507,75
6	75961	294730	73682,5	77839,125	-1878,125
7	65511	273553	68388,25	71035,375	-5524,375

8	63354	273441	68360,25	68374,25	-5020,25
9	68727	271846	67961,5	68160,875	566,125
10	75849	267820	66955	67458,25	8390,75
11	63916				
12	59328				

Qatorlarning haqiqiy darajalari bilan markazlashgan o‘rtacha orasidagi farqni hisoblash mavsumiy komponentalarini baholaymiz. Ulardan mavsumiy komponenta S larning qiymatlarini hisoblashda foydalanamiz. Buning uchun yillar bo‘yicha har bir chorak uchun o‘rtacha mavsumiy baho S_i larni 2-jadvaldan foydalanib 3-jadvalga joylashtiramiz.

3-jadval

Har bir chorak uchun o‘rtacha mavsumiy baholar

Ko‘rsatgichlar	Yil	Charaklar i			
		I	II	III	IV
	1	-	-	-4104,38	634,875
	2	3507,75	-1878,13	-5524,38	-5020,25
	3	566,125	8390,75	-	-
i charaklar bo‘yicha jami		4073,875	6512,625	-9628,75	-4385,38
i charak uchun mavsumiy komponentalari o‘rtacha bahosi $\bar{S}_i$		2036,938	3256,313	-4814,38	-2192,69
Tuzatilgan mavsumiy komponenta, S_i		2465,391	3684,766	-4385,92	-1764,23

Odatda mavsumiy komponentali (additiv) modellarda choraklar bo‘yicha mavsumiy komponentalarning yig‘indisi nolga teng yoki teng emasligi tekshiriladi. Agarda bu shart bajarilmasa tuzatish koeffitsiyentini aniqlab mavsumiy komponentalarga tuzatish kiritiladi. Ushbu model uchun mavsumiy komponentalar o‘rtacha baholarning yig‘indisi quyidagiga teng.

$$2036{,}938 + 3256{,}313 - 4814{,}38 - 2192{,}69 = -1713{,}8125$$

Yig‘indi nolga teng bo‘lmaganligi sababli tuzatish koeffitsiyenti hisoblanadi.

$$k = \frac{-1713{,}8125}{4} = -428{,}453$$

Mavsumiy komponentalarning choraklar bo‘yicha tuzilgan qiymatlarini o‘rtacha baho bilan tuzatish koeffitsiyenti (k) orasidagi farqni hisoblab topamiz, ya’ni

$$S_i = \bar{S}_i - k$$

formula yordamida topamiz, bu erda $i = 1,2,3,4$.

$$2465{,}391 + 3684{,}766 - 4385{,}92 - 1764{,}23 = 0$$

Shunday qilib, quyidagi mavsumiy komponentalar qiymatlarini olamiz:

$$I-\text{chorak: } S_1 = 2465{,}391; \quad II-\text{chorak: } S_2 = 3684{,}766;$$
$$III-\text{chorak: } S_3 = -4385{,}92; \quad IV-\text{chorak: } S_4 = -1764{,}23.$$

Trend tenglamasi –additiv modelni tuzish uchun (T+E) qator chiziqli trend yordamida analitik tekislanadi. Buning uchun **MS Exel** dasturining **“Регрессия”** buyrug‘idan foydalanib trendning analitik ifodasi parametrlarining qiymatlari aniqlanadi. Natija 2-rasmda berilgan regression tahlilning natijasiga asosan qator darajalari y ning t vaqtga bog‘lanish zichligi $r_{yt} = 0{,}54$ tenglamasi parametrlari: $a_0 = 83042{,}91;\ a_1 = -1513{,}11$ ga teng. Shunday qilib, trendning analitik ko‘rinishi quyidagicha:

$$T = 83042{,}91 - 1513{,}11 \cdot t \qquad (1)$$

Ushbu tenglamaga $t = 1{,}2, \ldots, 12$ qiymatlarni qo‘yib, har bir vaqt uchun T ning vaqt bo‘yicha qiymatlari topiladi.

Berilgan vaqtli qatorning har bir darajasidan mavsumiy komponentalarning ta‘sirini chiqarib tashlab, T+E = Y – S qiymatlarni topamiz (4-jadval). Natijada faqat tendentsiya va tasodifiy komponentalardan iborat bo‘lgan qator hosil bo‘ladi.

	A	B	C	D	E	F	G	H	I
1	ВЫВОД ИТОГОВ								
2									
3	*Регрессионная статистика*								
4	Множественный R	0,537734219							
5	R-квадрат	0,289158091							
6	Нормированный R-квадрат	0,2180739							
7	Стандартная ошибка	17942,69321							
8	Наблюдения	12							
9									
10	Дисперсионный анализ								
11		*df*	*SS*	*MS*	*F*	*Значимость F*			
12	Регрессия	1	1309596744	1309596744	4,067825588	0,071350314			
13	Остаток	10	3219402395	321940239,5					
14	Итого	11	4528999140						
15									
16		*Коэффициенты*	*Стандартная ошибка*	*t-статистика*	*P-Значение*	*Нижние 95%*	*Верхние 95%*	*Нижние 95,0%*	*Верхние 95,0%*
17	Y-пересечение	83042,91492	5179,609377	16,03265978	1,84102E-08	71502,02603	94583,8	71502,026	94583,8
18	Переменная X 1	-1513,110967	750,2216916	-2,01688512	0,071350314	-3184,709066	158,487	-3184,70907	158,487
19									
20									
21									

2-rasm. Regressiyan natijalari

jadval

Additiv modelni tuzish uchun ishchi jadval

	y_t	S_t	T+E	T	T+S	$E = y_t - (T+S)$
	119279	2465,391	116813,609	81529,8	83995,191	35283,81
	117364	3684,766	113679,234	80016,69	83701,456	33662,54
	100715	–4385,92	105100,92	78503,58	74117,66	26597,34
	96607	–1764,23	98371,23	76990,47	75226,24	21380,76
	89904	2465,391	87438,609	75477,36	77942,751	11961,25
	75961	3684,766	72276,234	73964,25	77649,016	-1688,02
	65511	–4385,92	69896,92	72451,14	68065,22	-2554,22
	63354	–1764,23	65118,23	70938,03	69173,8	-5819,8

	68727	2465,391	66261,609	69424,92	71890,311	-3163,31
0	75849	3684,766	72164,234	67911,81	71596,576	4252,424
1	63916	−4385,92	68301,92	66398,7	62012,78	1903,22
2	59328	−1764,23	61092,23	64885,59	63121,36	-3793,36

Additiv modelni qurish usuliga asosan modelning xatoligini hisoblash

$$E = Y - (T + S) \quad (2)$$

formula asosida amalga oshiriladi.

Shahar aholisining 2023 yilning II va III choraklarda iste'mol qilish mumkin bo'lgan ichimlik suv hajimlarini (F_{13} *va* F_{14}) ning mos ravishda yig'indisiga teng.

Komponentalarni aniqlash uchun trend tenglamasidan foydalanamiz.

$$T = 83042{,}91 - 1513{,}11 \cdot t$$

Prognoz qilinayotgan oylar uchun trend quydagilardan iborat.

$$T_{13} = 83042{,}91 - 1513{,}11 \cdot 13 = 63372{,}48$$
$$T_{14} = 83042{,}91 - 1513{,}11 \cdot 14 = 61859{,}37$$

Mavsumiy komponentalarning qiymatlari:

$$\text{I} - \text{chorak: } S_1 = 2465{,}391; \quad \text{II} - \text{chorak: } S_2 = 3684{,}766 \text{ edi.}$$

Shunday qilib,

$$F_{13} = T_{13} + S_1 = 63372{,}48 + 2465{,}391 = 65837{,}871$$
$$F_{14} = T_{14} + S_2 = 61859{,}37 + 3684{,}766 = 65543{,}761$$

XULOSA

Shahar aholisining 2023 yilning II va III choraklardagi iste'mol qilgan ichimlik suv hajimining prognoz qiymati $65837{,}871 + 65543{,}761 = 131381{,}632\ m^3$ ga teng.

Bundan ko'rinib turibdiki, 2023 yilning II va III choragidagi ichimlik suvi iste'moli hajmi oshgani kuzatilmoqda. Xuddi shu kabi tadqiqotlarga ko'ra, yaqin 20 yil ichida O'zbekistonda suvga bo'lgan talab sezilarli oshadi va mavjud suv resurslari keskin kamayadi, bu esa joriy suv tanqisligini besh barobargacha oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xodiyev B.Yu., Shodiyev T.Sh., Berkinov B.B. Ekonometrika: o'quv qo'llanma. –T.: IQTISODIYOT, 2018. -178 b.

2. Сафаров Р. Аддитивный процесс моделлерования и алгоритм идентификацияю СамГУ, Научный вестник. Аниқ ва табиий фанлар серияси. № 3(109), 2018.

3. Сафаров Р. Аддитивный алгоритм самоорганизвции. СамГУ, Научный вестник. Аниқ ва табиий фанлар серияси. № 3(109), 2018.

Shodiyev Bekzod - Iqtisodiyot va pedagogika universiteti “Iqtisodiyot kafedrasi” dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

QORAKO‘LCHILIKDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA RESURSTEJAMKOR ISHLANMALARNI SAMARALI JORIY QILISHNI TA’MINLASH

Annotatsiya. *Maqolada qorako‘lchilikda innovatsion texnologiyalar va resurstejamkor ishlanmalarni samarali joriy qilishni ta’minlash masalasi bayon etilgan. Maqolada qishloq xo‘jaligi korxonalari daromadini yanada oshirish bo‘yicha innovatsion fikrlar bildirilgan.*

Kalit so‘zlar: *yaylov, chorvachilik, qorako‘lchilik, ekotizim, bioxilma-xillik, iqtisodiy samara.*

Аннатоция. *В статье описан вопрос обеспечения эффективного внедрения инновационных технологий и ресурсосберегающих разработок в каракулеводстве. В статье представлены инновационные идеи по дальнейшему увеличению доходов сельскохозяйственных предприятий..*

Ключевые слова: *пастбища, животноводство, каракулеводство, экосистема, биоразнообразие, экономическая эффективность.*

Annotation. *The article describes the issue of ensuring the effective implementation of innovative technologies and resource-saving developments in karakul farming. The article presents innovative ideas to further increase the income of agricultural enterprises.*

Key words: *pastures, animal husbandry, astrakhan breeding, ecosystem, biodiversity, economic efficiency.*

Mamlakatimizda mavjud qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan erlardan, jumladan cho‘l-yaylov erlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish hajmini va qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ulushini kengaytirish hisobiga qishloq xo‘jaligi korxonalari daromadini yanada oshirish bo‘yicha katta imkoniyatlar mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 avgustdagi PQ-4420-sonli «Qorako‘lchilik tarmog‘ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori [1] ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasining 2019 yil 20 dekabrdagi 14-sonli “Qorako‘lchilik subyektlariga subsidiya berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori [2] qabul qilinib, ushbu Nizom talablari asosan 2019-2023 yillarda qorako‘l va qorako‘lcha teri etishtirib, eksportga sotadigan qorako‘lchilik subyektlariga nisbatan tatbiq etilishi belgilandi.

Bunda, qorako‘l va qorako‘lcha teri etishtirib, eksportga sotgan qorako‘lchilik subyektlariga har moliya yilida keyingi moliya yiliga qadar O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan quyidagi miqdorda:

- qorako‘lchilik subyektlarida etishtirib, eksportga sotilgan har bir dona qorako‘l terisi uchun 50 ming so‘mdan;

- qorako‘lchilik subyektlarida etishtirib, eksportga sotilgan har bir dona qorako‘lcha terisi uchun 75 ming so‘mdan bir martalik subsidiya ajratilishi belgilandi.

Ajratiladigan subsidiya qorako‘l naslchilik mas’uliyati cheklangan jamiyatlar tomonidan eksportbop qorako‘l va qorako‘lcha teri etishtirish uchun sarflangan xarajatlarining bir qismini qoplashga yo‘naltirilishi ko‘rsatildi.

Nizomga muvofiq, qorako‘l va qorako‘lcha teri etishtirib, eksportga yo‘naltiruvchi qorako‘lchilik subyektlari subsidiya oluvchilar hisoblanishi, qorako‘l va qorako‘lcha terini o‘zida etishtirmasdan aholi va boshqa qorako‘lchilik subyektlaridan xarid qilgan yoki qorako‘l va qorako‘lcha terini eksportga yo‘naltirmagan qorako‘lchilik subyektlariga subsidiya ajratilmasligi belgilandi.

Qorako‘lchilik tarmog‘ining mavjud salohiyatini har tomonlama oshirish, tarmoqdagi xo‘jaliklarning samarali faoliyatini ta’minlash, “qorako‘lchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish-tayyorlash-saralash-qayta ishlash-sotish tizimida”gi korxonalar o‘rtasida iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlash, pirovard natijada ushbu tarmoqni barqaror rivojlantirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirish maqsadida institusional islohotlarni jadallashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblandi.

Ushbu dolzarb masalalarning ijobiy echimini belgilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 sentabrdagi PF-6059-sonli “O‘zbekiston Respublikasida Pillachilik va qorako‘lchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni [3] va 2020 yil 2 sentabrdagi PQ-4817-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Pillachilik va qorako‘lchilikni rivojlantirish qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorida [4] Pillachilik va qorako‘lchilikni rivojlantirish qo‘mitasi faoliyatini samarali tashkil etish asosida qorako‘lchilik tarmog‘ida infratuzilma resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlash, nasl tozaligi va nasldorlik ko‘rsatkichlarini yaxshilash, barqaror ozuqa bazasini mustahkamlash, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan tizimli ishlarni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha faoliyatni kuchaytirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi.

Mazkur hujjatlarda belgilangan topshiriqlarning ijrosini izchil va samarali ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 10 noyabrdagi 705-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Pillachilik va qorako‘lchilikni rivojlantirish qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori [5] qabul qilinib, unga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Pillachilik va qorako‘lchilikni rivojlantirish qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlandi.

Yangidan tashkil qilingan qo‘mitaning qorako‘lchilik tarmog‘i bo‘yicha asosiy vazifalari etib:

- qorako‘lchilikni rivojlantirish tarmoqda yagona davlat siyosati amalga oshirilishini, shuningdek, ushbu tarmoqni yagona ilmiy-texnik siyosatni yuritgan holda, muvofiqlashtirilgan tarzda rivojlantirishni ta’minlash;

- yaylovlarning qat’iy hisobini yuritish va fondini o‘rganish, shuningdek, qorako‘lchilikni rivojlantirish uchun ozuqa bazasini yaxshilash;

- qorako‘l zotli qo‘ylarning yuqori darajada mahsuldor nasllarini joriy qilish;

- qorako‘l terisidan tayyor mahsulot ishlab chiqarish maqsadida xom ashyo

tayyorlash va uni qayta ishlash uchun qulay sharoitlar yaratish;

- marketing tadqiqotlarini o‘tkazish hamda qorako‘ldan tayyorlangan mahsulotlarni, eng avvalo, tashqi bozorlarda sotishga ko‘maklashish;

- qorako‘lchilik bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlariga o‘z faoliyatini kengaytirish, klasterlar tashkil etish va mahsulotni eksport qilishda har tomonlama yordam berish kabi yirik ko‘lamdagi vazifalarni amalga oshirish belgilandi.

Mamlakatimizda qorako‘lchilik tarmog‘i korxonalarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, o‘zbek qorako‘li brendini yaratish va dunyo miqyosida targ‘ib qilish, sohaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bunda mayda shoxli nasldor mollarni ko‘paytirish, shuningdek, ularni so‘yish, teri va junini qayta ishlash, go‘sht-sut mahsulotlari, yarim tayyor va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish korxonalarini tashkil qilish, tarmoqqa rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini va innovatsion texnologiyalarni joriy etish, suv bilan ta’minlanmagan yaylovlarda yangi suv inshootlarini qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish borasida bir qator tizimli muammolarning ijobiy hal qilish bilan bir vaqtda, mavjud yaylovlar hosildorligini oshirish, cho‘l ozuqa ekinarining urug‘chilik maydonlarini kengaytirish, naslchilik ishlarini yanada takomillashtirish, sohada eksportbop qorako‘l va qorako‘lcha teri etishtirish kabi masalalar eng asosiy dolzarb vazifalar sifatida yuzaga chiqmoqda edi.

Yuqoridagi vazifalarni qisqa muddatda ijobiy hal qilish, bunda qorako‘lchilik tarmog‘ini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, yaylovlardan samarali foydalanish va yaylovlardan foydalanishda soliq imtiyozlarini qo‘llash, urug‘chilik ishini yo‘lga quyish, naslchilik ishlarini takomillashtirishda subsidiya berish tartibini qo‘llash hamda sohaning ilmiy salohiyatini yanada mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 fevraldagi PQ-4984-sonli “Qorako‘lchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori [6] qabul qilindi.

Hududlarning tabiiy-iqlim sharoitlariga mos jun yo‘nalishidagi mayda shoxli mollarni ko‘paytirish, ozuqa bazasini rivojlantirish, teri va junni qayta ishlash, ulardan yarim tayyor va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash, yaylov maydonlarida tabiiy ravishda o‘suvchi kavrak plantatsiyalari zaxiralaridan barqaror foydalanish, shuningdek, pillachilik tarmog‘i ozuqa bazasini ko‘paytirish, eksportga mo‘ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 8 iyuldagi PQ-5178-sonli “Respublikada mavjud yaylovlardan unumli foydalanish, ipak va junni qayta ishlashni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori [7] qabul qilindi.

Mazkur vazifalarni qorako‘l naslchilik mas’uliyati cheklangan jamiyatlarida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi pirovard natijada qorako‘lchilik tarmog‘i joylashgan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, tarmoqni bozor tamoyillariga mos ravishda boshqarish va muvofiqlashtirish, pirovard natijada qorako‘lchilikda innovatsion texnologiyalar va resurstejamkor ishlanmalarni

barqaror samarali joriy qilishni ta’minlash imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qorako‘lchilik tamog‘ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ – 4420-sonli qarori, 16.08.2019. https://lex.uz/docs/4476585

2. O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasining “Qorako‘lchilik subyektlariga subsidiya berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori, №14, 20.11.2019. https://lex.uz/docs/4711074

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston respublikasida pillachilik va qorako‘lchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6059-sonli Farmoni, 02.09.2020. https://lex.uz/docs/4980311

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston respublikasi pillachilik va qorako‘lchilikni rivojlantirish qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-4817-sonli qarori, 02.09.2020. https://lex.uz/docs/4979915

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Pillachilik va qorako‘lchilikni rivojlantirish qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, №705, 10.11.2020. https://lex.uz/docs/5090474

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qorako‘lchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4984-sonli qarori, 09.02.2021. https://lex.uz/docs/5275644

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublikada mavjud yaylovlardan unumli foydalanish, ipak va junni qayta ishlashni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-5178-sonli qarori, 08.07.2021. https://lex.uz/ru/docs/5499558

Эргашев Ислом Исмоилович - и.ф.ф.д., СамИСИ докторанти

ХИЗМАТ КЎРСАТИШ КОРХОНАЛАРИДА ИНВЕСТИЦИОН ФАОЛИЯТНИ БОШҚАРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Аннотация: *Мақолада хизмат кўрсатиш соҳасида инвестиция фаолиятини бошқаришнинг айрим жиҳатларига тўхталиб ўтилган. Жумладан, инвестицион бошқарув қарорини амалга ошириш жараёни ва инвестицион жозибадорликни баҳолашга асосий ёндашувлар таснифи келтирилган.*

Аннотация *В статье рассмотрены некоторые аспекты управления инвестиционной деятельностью в сфере услуг. В частности, приведена схема процесса реализации инвестиционно-управленческого решения и классификация основных подходов к оценке инвестиционной*

привлекательности.

Annotation *The article discusses some aspects of managing investment activities in the service sector. In particular, a diagram of the process of implementing an investment management decision and a classification of the main approaches to assessing investment attractiveness are presented.*

Калит сўзлар: *Инвестиция, хизмат кўрсатиш, инвестицион жозибадорлик, инвестицион бошқарув қарори.*

Ключевые слова: *Инвестиция, услуги, инвестиционная привлекательность, инвестиционно-управленческое решение.*

Key words: *Investment, services, investment attractiveness, investment and management decision.*

Кучли рақобат шароитида хизмат кўрсатиш соҳасини стратегик ривожлантиришда инвестиция сиёсати муҳим аҳамият касб этади. Инвестицион сиёсат ўз ичига инвестицияларни молиялаштириш манбалари ва усулларини танлаш, уларни амалга ошириш муддатларини белгилаш ва қулай инвестиция муҳитини яратиш кабиларни қамраб олади. Инвестицион муҳит деганда инвестиция жараёнлари содир бўладиган ва инвестиция рисклари шаклланадиган молиявий муҳит тушунилади.

Соҳада вужудга келаётган инвестиция муҳитига қараб, молиявий капиталнинг кириб келиши ёки чиқиб кетишини рағбатлантирувчи инвесторларнинг инвестиция сиёсати шаклланади. Маълумки, қулай инвестиция муҳити шароитида соҳа ва тармоққа капитал оқими кириб келиши кузатилади. Бошқа томондан, ноқулай инвестиция муҳити инвестициялар самарадорлигини пасайтиради ва рискни оширади, бу эса хизмат кўрсатиш соҳаси корхоналари иқтисодиёти учун келиб чиқадиган барча салбий оқибатлари билан биргаликда соҳадан молиявий капитал чиқиб кетишига олиб келади.

Инвестицияларни бошқариш ёндашуви доирасида инвестиция киритиш қарорини қабул қилиш учун инвесторда бундай қарорни қабул қилиши учун асос бўлиб хизмат қиладиган етарли маълумотлар бўлиши керак.

Инвестиция киритишнинг мақсадга мувофиқлигини баҳолаш мезони деганда биз инвестиция қарорларини қабул қилиш ва инвестицион хоҳишларни шакллантириш омили бўлиб хизмат қилиши мумкин бўлган маълумотларни тушунамиз.

Инвесторнинг инвестиция киритиш хоҳишини шакллантириш ва унинг инвестиция қарорларини қабул қилишини таъминловчи омил бўлиши учун инвестиция қарорини қабул қилишнинг ахборот асоси қуйидаги талабларга жавоб бериши керак:

• аниқ йўналтирилганлик – қарор қабул қилиш учун фойдаланиладиган инвестиция объекти ҳақидаги маълумотлар муайян инвесторнинг индивидуал хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда тайёрланишини билдиради;

• тўлиқлик – салоҳиятли инвесторга ҳар томонлама баҳо бериш учун турли миқдорий ва сифат кўрсаткичларини киритиш имкониятини билдиради;

• аниқлик – инвестор томонидан инвестиция қарорини қабул қилишда

фойдаланиладиган маълумотлар умумий характерга эга бўлмаслиги, балки етарли даражада батафсил, алоҳида қисмларга бўлиб ёритилган бўлиши зарурлигини билдиради;

• қиёсийлик – маълум бир вақт бирлигида бир нечта инвестициялаш объектларини ёки муайян даврнинг турли нуқталарида айнан бир объектни ўзини таққослай олиш қобилиятини англатади.

Бизнинг фикримизча, инвестор томонидан инвестиция киритиш объектини танлаш масаласида ёндашув шундай бўлиши керакки, бунда инвестиция киритишнинг мақсадга мувофиқлиги тўғрисидаги қарорни қабул қилишни асословчи маълумотлар юқоридаги барча талабларга тўлиқ жавоб бериши керак.

Инвестицион бошқарув қарорини амалга оширишнинг умумий жараёни қуйидаги 1-расмда акс эттирилган.

1-расмдан кўриш мумкинки, бошқарув қарорини қабул қилиш учун ахборот асоси сифатида мутахассисларнинг тавсиялари, компаниялар рейтинглари ва реклама маълумотлари қабул қилиниши мумкин ва улар мустақил баҳолашлар гуруҳида умумлаштирилган, шунингдек, корхонанинг сифат кўрсаткичлари ва инвестицион жозибадорлигини баҳолаш эса инвесторнинг ўз баҳолашлари гуруҳига киритилган. Таъкидлаш мумкинки, фақат инвестицион жозибадорлик кўрсаткичи юқорида қўйилган барча талабларга жавоб бера олади.



1-расм. Инвестицион бошқарув қарорини амалга ошириш жараёни

Инвестицион жозибадорлик деганда биз инвестициялаш объектининг инвестор хоҳишларига мос келишини тушунамиз. Шу нуқтаи назардан, инвестицион жозибадорлик инвестор томонидан инвестицион хоҳишларни шакллантириш ва инвестиция қарорини қабул қилиш омили сифатида қабул қилиниши мумкинлигини англатади.

Тадқиқотларимиз натижасида, хизмат кўрсатиш соҳаси корхоналари инвестицион жозибадорлигини баҳолашнинг тўртта асосий ёндашувини ажратиб олдик. Улар:

1. Мослашувчанли. Муҳим кўрсаткичларни инвестор учун қулайроқ ва тушунарлироқ шаклда акс эттириш.

2. Сифатли. Баҳоланаётган объектнинг инвестор учун энг маъқул бўлган намунали объектга мувофиқлигини баҳолаш.

3. Коэффициентли. Турли кўрсаткичларни таққослаш ва нисбатини аниқлаш асосида жозибадорликни баҳолаш.

4. Интегралли. Умумий алгоритм асосида жозибадорликни миқдорий баҳосини аниқлаш.

Ҳар бир ёндашув ўзининг афзалликлари ва камчиликларига эга ҳисобланади.

Афзалликлари:

1. Ҳисоб-китобларнинг соддалиги, тадқиқотчини натижага таъсири камлиги.

2. Субъектив омилларни баҳолаш имконияти мавжудлиги.

3. Ҳисоблаш усулларининг аниқлиги ва кўрсаткичлар иқтисодий моҳиятининг тушунарлилиги.

4. Фойдаланиш қулайлиги, ҳисоб-китобларнинг расмийлиги.

Камчиликлари:

1. Таҳлилий функция бажарилмайди ва инвесторга тавсиялар берилмайди.

2. Баҳолаш мезонларини асослаш қийинлиги, якуний кўрсаткичлар қийматларини изоҳлашнинг мураккаблиги.

3. Коэффициентларнинг «оптималлиги» чегараларини аниқлаш. Коэффициентларнинг кўплиги. Миллий иқтисодиёт корхоналари ҳисоботларининг ва статистик ҳисобот шаклларининг хусусиятлари.

4. Тор йўналишли моделлар. Миллий шароитларга мослашишнинг нисбатан қийинлиги.

Ёндашувлардаги фарқлар фақатгина баҳони олиш алгоритми ва фойдаланилган кўрсаткичларда эмас, балки олинадиган натижанинг шаклида ҳам намоён бўлади: бу балл, коэффициент, рейтингдаги ўрин, турдош гуруҳ ёки инвесторга аниқ тавсиялар кўринишида бўлиши мумкин.

Шуни таъкидлаш керакки, аниқланган ҳар бир ёндашув доирасида аниқ бир натижага эришишга қаратилган бир эмас, балки бир нечта усуллар бўлиши мумкин.

Бизнинг таснифимиз доирасида битта ёндашувга киритилган услубиятлар якуний баҳони олишнинг бир хил (умумий) усулларига ва унинг

шакли яхлитлигига асосланади. Мослашувчан ёндашув инвесторнинг эътиборини истиқболли инвестицияларнинг ўта нозик ва асосий жиҳатларига қаратишга, сифатли ёндашув – асосий кўрсаткичларни муайян бир намунавий объект билан таққослашга, коэффициентли ёндашув – инвестиция объектининг хусусиятларини бир тармоқ доирасида умумэътироф этилган ва таққосланадиган кўрсаткичларда акс эттиришга, интеграл ёндашув эса баҳоланаётган корхонанинг ривожланиш истиқболларига тезкор баҳо беришга мўлжалланган.

Kamalova Mohinur Iskandarovna - Independent researcher at "Silk Road" International University of Tourism and Cultural Heritage Teacher at Samarkand State Medical University

IMPROVEMENT OF MANAGEMENT MECHANISMS TO ENSURE EFFICIENT OPERATION AND HIGH GROWTH RATES OF THE TOURISM SECTOR OF UZBEKISTAN

Annotation: *In this article, the tourism sector was analyzed as the most important factor of the economic development of our country. The problems of ensuring the high-quality implementation of tourism services were clarified and suggestions were made regarding the effective operation and development of the tourism sector.*

Key words: *tourism, tourist product, multiplier effect.*

Annotatsiya*: Ushbu maqolada turizm sohasi mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishining eng muhim omili sifatida tahlil qilindi. Turizm xizmatlarini sifatli amalga oshirishni ta'minlash muammolariga oydinlik kiritilib, turizm sohasini samarali faoliyat ko'rsatishi va rivojlantirish bo'yicha takliflar bildirildi.*

Kalit so'zlar: *turizm, turistik mahsulot, multiplikator effekti.*

Аннотация: *В данной статье проанализирована сфера туризма как важнейший фактор экономического развития нашей страны. Были разъяснены проблемы обеспечения качественной реализации туристических услуг и внесены предложения по эффективному функционированию и развитию туристической сферы.*

Ключевые слова: *туризм, туристский продукт, мультипликативный эффект.*

Introduction. Tourism has been considered one of the most profitable and rapidly developing sectors of the world economy. Tourism has a multiplier effect on employment in 53 related industries, such as hotels, transportation, agriculture, finance, and construction, so an overall decline in demand for tourism services would cause catastrophic losses in each of these industries. [26]State support for the development of tourism can be expressed in the creation of favorable economic and legal conditions for the tourism sector. In particular, creating favorable

[26] Akhremchik D.V. Turisticheskaya otrasl v novykh ekonomicheskikh usloviyax - poisk novykh vozmojnostey i napravleniy // Ekonomika, predprinimatelstvo i pravo. – 2022. – Volume 12. – No. 6. – S. 1781-1790.

conditions for the development of the tourist services market and competition. At the same time, the quality of tourist services is the most important factor in increasing the competitiveness of tourist companies. The economic importance of tourist services is determined by its production of GDP for the economy of the region and the republic, production of tourist products and services to tourists. Social importance is determined by the direct employment of the population, the dissemination of knowledge about the world through the provision of tourism services, and the quality of life. It should be noted that the quality of tourist products is necessary, but not sufficient, to ensure their high competitiveness. The quality of the tourist product should be related to its price, taking into account the different purchasing power of the customers of the tourist market. Only in this case, the optimal quality of the tourist product is determined by the ability to pay customers in the relevant market segment, which is planned to be sold.

Material and methods. In this work, we used information on tourism in Uzbekistan for 2020-2022. In this thesis, in the modern economic theory of tourism services, it is possible to create a methodological tool for such consideration in the form of the tourist multiplier effect of the multiplier effect. The tourist multiplier is the coefficient of indirect influence of tourism on the economy and social sphere at the regional level and shows how much the expenditure of each tourist increases the GDP.

Expenditure of tourists at the place of residence is the income of tourism enterprises, transport companies, trade, household services, communication, leisure and entertainment enterprises, etc.[27]Such incomes serve as additional profits, investments, wages, additional jobs. For budgets at all levels, they serve as additional taxes, fees, levies and duties, and thus the cost-revenue-cost-revenue model process is implemented.

In addition, in the next process of the circulation of funds, the additional income of the enterprise is realized as an investment in its development, in turn, this is the additional income of enterprises that supply equipment, materials, implement construction, etc.

Results. High-quality tourism is a factor of economic development and to determine the effectiveness of quality implementation of tourism services, it can be determined by the cost of each tourist during the trip in the country.

Discussion. To improve the quality of tourism services, the following is necessary:

- development of tourism industry and infrastructure of the region;
- availability of environmentally friendly tourism resources;
- developed economy of the region and its consumption sector;
- creating a high touristic image of the region;
- availability of import-substituting goods, products and services;
- active entry and exit of tourists to the region, etc.

In order to determine the indirect impact of tourism on Uzbekistan, it is possible to determine the multiplier effect based on the statistical data of the

[27] A.B. Krutik MULTIPLIKATIVNYY EFFECT V RAZVITII TEORII TURIZMA /

country (Table 1.1 and Table 1.2). To determine the multiplier effect, it is necessary to determine the propensity to consumption. That is, if the level of marginal propensity to save increases in the country, the level of marginal propensity to consume decreases and this leads to a violation of the economic process model. The multiplicative effect can be determined by the following formula:

$$multiplikativ_{samara} = \frac{1}{1 - IMM} = \frac{1}{JMM} \qquad \textbf{Formula 1.1}$$

Here

IMM- marginal propensity to consume;

JMM- marginal propensity to save;

Marginal propensity to consume is the ratio between the growth of household consumption and the growth of its disposable income (table 1.3) [28], i.e.:

$$IMM = \frac{\Delta C}{\Delta D} \qquad \textbf{Formula 1.2}$$

Here

DC- consumption level change;

DD- change in income level.

Table 1.1

Nominal income of the population (2018-2022)[29]

Income per capital, thousand soums						growth rate compared to last ear, in %				
years	2018	2019	2020	2021	2022	2018	2019	2020	2021	2022
In the Republic of Uzbekistan	9128.6	10891.3	12122.2	14869.8	17807.3	24.8	19.3	11.3	22.7	19.8

Table 1.2

Expenditure per capita (2018-2022)

Expenditure per capital , thousand soums						growth rate compared to last ear, in %				
years	2018	2019	2020	2021	2022	2018	2019	2020	2021	2022
In the Republic of Uzbekis-tan	7973.69	9205.30	10363.90	12394.0	15199.3	27.1	15.4	12.5	19.5	22.6

Taking into account the dynamics of the circulation of tourist expenses, the indirect impact of tourism can be summarized as follows:

[28] John Maynard Keynes " Employment , percentage and of money common theory "

[29] www . stat . uz \ Uzbekistan tourism

Formula 1.3

$$B_{aylanma} = I + I \times IMM + I \times IMM^2 + I \times IMM^3 + ... + I \times IMM^n$$

Formula 1.4

$$B = \frac{I}{1 - IMM}$$

Here:

Total expenses of I-tourists on tourist services in the Republic of Uzbekistan.

In this case, by investment in the economy of the Republic of Uzbekistan, we understand the general expenses of tourists and tourists. According to the given calculation, the average spending of tourists in this country for the period of 2022 is 483 US dollars [30]. Also, the marginal propensity to consume and tourist expenditures are assumed to be constant.

Table 1.3

Marginal propensity to consume (2018-2022) as a percentage

Year	Marginal propensity to consume
2018	87
2019	84
2020	85
2021	83
2022	85

The marginal propensity for average statistical consumption was equal to 85% for 2022. Based on the given data, the following calculation can be obtained:

$$B = \frac{I}{1 - IMM} = \frac{483}{1 - 0.85} = 3220$$

We determine the number of turnovers of tourist expenses in the economy of the Republic of Uzbekistan and the growth of income for each turnover.

$$Bturn = 483 + 483 \times 0.85 + 483 \times 0.83^2 + ... + 483 \times 0.85^{70} = 3220$$

Then the multiplicative effect can be calculated:

$$multiplicative_{effect} = \frac{1}{1 - IMM} = \frac{1}{0.15} = 6.66$$

this is a numerical coefficient that shows how many times the income will increase with a certain increase in investment. Thus, in this case, with the multiplier coefficient = 6.66, the spending of 483 US dollars by each tourist in the country (2022) will bring additional income to the country's economy in the amount of 3220 US dollars, that is, more than 70 transactions (operations) will be

[30] https :// uzbektourism . en / ru / news / view ? id = 2174

carried out. is increased. It should be noted that reducing the accumulation level of the population is one of the important tasks. That is, if the marginal propensity to save increases, the propensity to consume decreases, and this leads to a violation of the model of the economic process. In particular, it is important to implement measures to increase the tourist attractiveness of our country and extend the duration of tourists' trips.

Suggestions and recommendations. To improve the quality of tourism services, the following is necessary:

- development of tourism industry and infrastructure of the region;
- availability of environmentally friendly tourism resources;
- the developed economy of the region and its consumption sector;
- creating a high touristic image of the region;
- availability of import-substituting goods, products and services;
- active entry and exit of tourists to the region, etc.

Conclusion. It should be noted that reducing the accumulation level of the population is one of the important tasks. That is, if the marginal propensity to save increases, the propensity to consume decreases, and this leads to a violation of the model of the economic process. In particular, it is important to implement measures to increase the tourist attractiveness of our country and extend the duration of tourists' trips.

Literature;

1. Keynes D.M. Obshchaya theory zanyatosti, protsenta i deneg. M., 1936.

2. Kotler F.; Bowen Dj.; Maykenz Dj. Marketing hospitality, tourism. M.: "YUNITI", 1998.

3. Krutik A.B. Tourism kak otrasl ekonomi Rossii. SPb: LGU im. A.S. Pushkina, 2008

4. www.stat.uz Internet source

Норқулов Жалолиддин Салохиддинович – СамДУ Режа-молия бўлими бошлиғи

ОЛИЙ ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ СОҲАСИДА САМАРАЛИ ФАОЛИЯТНИ ТАЪМИНЛАШДА ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Аннотация: *Ушбу мақолада олий таълим хизматлари соҳасида самарали иқтисодий муносабатларни шакллантириш йўллари ҳақида фикрлар келтирилган. Ҳозирги ривожланаётган даврда таълим хизматларини кўрсатиш учун яратиладиган замонавий қулайликлар, ҳамда самарали меҳнат қиладиган мутахассислар учун ажратиладиган маблағлар таълим сифатини оширишда асосий аҳамиятга эга ҳисобланади. Бу соҳасини иқтисодий шароитларга ўз вақтида мослашиб бориши учун доимий чекловлар маълум бир қийинчиликлар келтириб чиқаради. Олий таълим хизматлари соҳасини иқтисодий ривожлантиришда ташкилий ва*

иқтисодий йўналишларда тизимли ислоҳ қилишнинг устувор йўналишлари тахлил килиниб, берилган ваколатларнинг аҳамияти тўғрисида таклифлар келтирилган.

***Калитли сўзлар**:таьлим хизматлари, иқтисодий ўсиш, самарали фаолият, муассаса,салохият,иктисодий механизм, самарали бошқарув, маблағлар, имтиезлар.*

***Abstract:** This article presents ideas about ways to form effective economic relations in the field of higher education services. In the current developing period, modern facilities for the provision of educational services, as well as funds allocated for effective working specialists, are of primary importance in improving the quality of education. Constant restrictions for this sector to adapt to economic conditions in time create certain difficulties. In the economic development of the field of higher education services, the priority directions of systematic reform in organizational and economic directions are analyzed, and suggestions are made about the importance of the given powers.*

***Key words:** educational services, economic growth, effective activity, institution, authority, economic mechanism, effective management, funds, privileges.*

***Аннотация:** В данной статье даны идеи о путях формирования эффективных экономических отношений в сфере услуг высшего образования. В нынешний развивающийся период первостепенное значение в повышении качества образования имеют современные условия оказания образовательных услуг, а также средства, выделяемые для эффективно работающих специалистов. Постоянные ограничения для своевременной адаптации этого сектора к экономическим условиям создают определенные трудности. Для экономического развития сферы услуг высшего образования анализируются приоритетные направления системного реформирования в организационном и экономическом направлениях, высказываются предложения о значимости данных полномочий.*

***Ключевые слова:** образовательные услуги**,** экономический рост, эффективная деятельность, учреждение,потенциал, зкономический механизм, эффективное управление, средства, льготы.*

Таълим-инсоният тараққиётининг муҳим жиҳати бўлиб, у одамларга иқтисодий ўсишга ва жамиятдаги маданий ва ижтимоий амалиётлар ҳақидаги тушунчаларни кенгайтиришга ёрдам беради. Таълимнинг аҳамиятини қадрламайдиган жамиятда ривожланиш бўлмайди. Қисқа қилиб айтганда таълим – ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлган инсон ривожланишининг таркибий қисмидир. Жаҳон миқёсида олий таълим тизимидаги таълим хизматларини кўрсатишда, уларнинг сифатини ошириш орқали натижадорлигини кўтариш – хизматлар кўрсатишда белгиланадиган нархларнинг ўзгаришига бир мунча таъсир қилади. Таълим хизматлари кўрсатишда яратиладиган замонавий қулайликлар учун ҳамда самарали меҳнат қиладиган мутахассислар учун ажратиладиган маблағлар таълим сифатини оширишда асосий аҳамиятга эга ҳисобланади. Бунда асосий

эътибор таълим хизматлари кўрсатиладиган муассасанинг даромадлари ва харажатларини тўғри башорат килишга боглик.

Интеллектуал, ижтимоий-маданий ҳаёт ривожланиб бораётган ҳозирги даврда олий таълимга бўлган талаб ошиб бораверади. Бу шароитда олий таълимнинг вазифаси ижтимоий ва иқтисодий эҳтиёжларга муносиб жавоб бериш, мутахассисларни касбий тайёрлаш ва қайта тайёрлашни кенгайтириш ва сифат жиҳатдан яхшилашдан иборат бўлиб бораверади. Бу иқтисодиётнинг энг муҳим ресурси – яъни шахснинг интеллектуал салоҳиятини ривожлантирувчи ва оширадиган олий таълимнинг ташкилий-иқтисодий асосларини ислоҳ қилишни назарда тутади.

Олий таълимда самарали иқтисодий муносабатларни шакллантириш йўллари, олий таълимни тизимли ислоҳ қилишнинг устувор йўналишларини белгилаш, замонавий билим ва юксак маънавий-ахлоқий фазилатларга эга, мустақил фикрлайдиган юқори малакали кадрлар тайёрлаш жараёнини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш, олий таълимни модернизация қилиш, илғор таълим технологияларига асосланган ҳолда ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқларини ривожлантириш Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон Фармони билан тасдиқланган “Ўзбекистон республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси”да тўлиқ ўз аксини топган.

Шунингдек, олий таълим муассасалари олдига қўйилган вазифаларни кўзда тутилган мақсадларга олиб чиқиш учун олий таълим тизимдаги бошқарув ва тезкор масалаларни ечиш мақсадида янги тамойиллар ишлаб чиқилиб, соҳага жорий этилиб бормоқда. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 11 июлдаги ПФ-5763-сон “Олий ва ўрта махсус таълим тизимига бошқарувнинг янги тамойилларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони, 2021 йил 24 декабрдаги ПҚ-60-сон “Давлат олий таълим муассасаларининг академик ва ташкилий-бошқарув мустақиллигини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги, ПҚ-61-сон “Давлат олий таълим муассасаларига молиявий мустақиллик бериш чора-тадбирлари тўғрисида”ги, 2023 йил 3 июлдаги ПҚ-200-сон “Маъмурий ислоҳотлар доирасида олий таълим, фан ва инновациялар соҳасида давлат бошқарувини самарали ташкил қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорларида ҳам олий таълимни ривожлантириш мақсадида кўпгина ислоҳотларни амалга ошириш назарда тутилган. Чунки, ҳар қандай соҳани ислоҳ қилмасдан туриб, уни ривожланишига шароит яратиб бўлмайди. Бундай шароитда, яъни олий таълимни ўзини-ўзи бошқариш, ўз маблағларини мустақил тасарруф этиш, йўналишларини мустақил белгилаш каби шароитлар яратилар экан, бунда кўзда тутилган барча мақсадлар билан бир қаторда иқтисодий механизмни тартибга солиш муҳим аҳамият касб этиб қолаверади.

Амалда олий таълимда бошқарув механизми асосан марказлашган тартиблар ва қоидаларга буйсунади. Бу бўйсунув ташкилий соҳада ҳам, академик соҳада ҳам ва айниқса иқтисодий соҳада ҳам амалга ошириш

мумкин бўлган истиқболли фаолиятни чеклаб туради. Чунки, бошқарувда алоҳида мақомга эга бўлган лавозимларнинг шахсий фикрлари муҳим аҳамият касб этади. Қуйи тизимда ишловчилар эса ўз фикрлари амалга ошмасликларидан чўчиб уни юзага чиқаролмайдилар. Бу ҳолат эса иқтисодий ва ижтимоий ўсишда айрим тўсиқларни юзага келтириб тураверади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 245 декабрдаги 60 ва 61-сон қарорлари билан айрим олий таълим муассасаларига молиявий мустақиллик берилиши муносабати билан, ташкилий ва академик соҳаларига бир мунча ваколатлар берилган. Жумладан:

а) академик мустақиллик соҳасида:

ўқув режалари, ўқув дастурлари, малака талабларини касбий стандартлар асосида тасдиқлаш, таълим тилини ҳамда таълим йўналишлари ва мутахассисликлари хусусиятларини инобатга олган ҳолда таълим олиш шаклини белгилаш;

бакалавриат таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликлари учун ўқиш давомийлиги муддатларини белгилаш;

докторантурада тўлов-контракт асосида ўқиш қийматини белгилаш, бюджетдан ташқари маблағлар ҳисобидан грант ажратиш орқали докторантурага танлов асосида квотага қўшимча равишда қабул қилиш;

докторант ва мустақил изланувчиларга илмий раҳбарлик қилиш тартибини тасдиқлаш;

магистратура босқичида таълимнинг сиртқи, масофавий ва кечки шаклларини жорий этиш, таълим йўналишлари ва мутахассисликлар бўйича қўш малакалар, шу жумладан амалий малакалар бериш тизимини жорий қилиш;

ўзаро келишувлар асосида олий таълим муассасалари билан академик мобилликни амалга ошириш;

олий таълим муассасаси ва унинг тузилмасидаги таълим муассасалари учун ўз грифи асосида дарсликлар ҳамда бошқа ўқув ва илмий адабиётларни яратиш ва нашр этиш;

таълим сифатини ички назорат қилиш механизмларини белгилаш ва жорий этиш;

б) ташкилий-бошқарувдаги мустақиллик соҳасида:

фаолиятининг асосий йўналиши таълим, илм-фан, унинг натижаларини жорий этиш ҳамда тижоратлаштириш билан боғлиқ бўлган, давлат бюджети маблағлари ҳисобидан молиялаштирилмайдиган таркибий тузилмалар, тижорат ва нотижорат ташкилотларни ташкил этиш;

олий таълим муассасалари учун белгиланган нормативлардан қатъи назар муассасанинг тузилмасини тасдиқлаш ва штат бирликлари сонини белгилаш;

меҳнат бозоридаги эҳтиёждан келиб чиқиб, янги таълим йўналишлари ва мутахассисликларни очиш, амалдаги таълим йўналишлари ҳамда мутахассисликларни тугатиш;

педагог ва бошқа ходимларни ишга қабул қилиш, ишдан озод этиш ва

ички ротациясига оид тартибни белгилаш;

хорижий давлат фуқароларини тўлов-контракт асосида ўқишга қабул қилиш ва масофавий таълим олиш шаклида ўқитишни ташкил этиш.

Юқорида келтирилган ваколатлар берилганлигига қарамасдан, ҳар бир босилган қадам юқори турувчи ташкилот билан келишиш шартлиги тўғрисидаги меъёрлар ўз кучини йўқотмаган ёки марказлашган бошқарувдан тўлиқ кечиб кетилмаган.

Масалан, бирор бир олий таълим муассасаси ўз ташкилий тузилмасини ўзгартирса ёки штатлар сонини мустақил белгиласа ҳам барибир юқори турувчи ташкилоти билан келшиши шарт. Агар юқори турувчи ташкилот ўз нуқтаи-назаридан келиб чиқиб буни ҳоҳламаса, берилган ваколат аҳамиятга эга бўлмай қолади.

Ёки, қайсидир мақсад учун режалаштирилган маблағларнинг иқтисод қилинган қисмини бошқа мақсад учун йўналтиришга ваколат берилган, аммо махсус электрон тизимда мужассамлаштирилган дастур орқали бундай ўзгаришларни олий таълим муассасаларининг аввал юқори турувчи ташкилотлари, ундан сўнг Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг ваколатли бўлимлари томонидан тасдиқланиши шарт. Агар юқори турувчи ташкилот ёки Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг ваколатли бўлими бошқа фикрни олға суриб, ўзгаришларни ўтказмаса, олий таълим муассасасига берилган ваколат аҳамият касб этмайди.

Бундай ҳолатда олий таълим муассасалари ижтимоий ва иқтисодий шароитларга қисқа муддатларда мослаша олишмайди. Юқори ташкилотларнинг хулосасини ёки қарорини кутгунча керакли вақт ўтиб бўлади деярли.

Олий таълим хизматлари соҳасини замонавий ривожланиб боришини таъминлаш учун:

- уларни марказдан туриб бошқариш тизимидан аста-секинлик билан воз кечиш;
- бериладиган мустақилликлар ва имтиёзларни тўлиқ эркин қилиш;
- иқтисодий ривожланиш концепцияларини мустақил яратишларига имконият бериш;
- фавқулотда иқтисодий ва ижтимоий қарорлар қабул қилишларида чекловчи меъёрий ҳужжатларни тўлиқ олиб ташлаш (умумэътироф этиладиган меъёрлардан ташқари);
- таълим натижасидан манфаат кўришларига шароитлар яратиб бериш каби ислоҳотлар амалга оширилиши лозим.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 24 декабрдаги 60-сон “Давлат олий таълим муассасаларининг академик ва ташкилий-бошқарув мустақиллигини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 24 декабрдаги 61

– сон “Давлат олий таълим муассасаларига молиявий мустақиллик бериш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.

3. Семюлетина Н.Г. “Определения понятия финансовых услуг” – М. ЕВРАЗИЙСКИЙ СОЮЗ УЧЕНЫХ https://euroasia-science.ru

4. Фогельсон Ю.Б. К вопросу о понятии «финансовые услуги». Высшая школа экономики. https://publications.hse.ru/chapters/67113371

5. https://center-yf.ru/data/Buhgalteru/vidy-finansovyh-uslug.php

6. www.uz –milliy qidiruv tizimi.

Musayeva Shoira Azimovna - SamISI professori.
F.SH.Usmanov - MI-223 guruh magistranti

“SAM ANTEP GILAM” QK MCHJ DA MARKETING BOSHQARUVINING HOLATINING TAHLILI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada korxonada ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, buyurtmachining xoxishiga qarab har qanday o‘lchamdagi gilamlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yilgangligi, tovar siyosatining yana bir jihati gilamlarning to‘qish zichligini ya’ni gilamlar mayinligi va funksional jihatlarini oshirish, gilam maxsulotlari assortimentini kengaytirish va sifatini oshirish ko‘rib chiqilgan.*

Kalitli so‘zlar: *Korxona, gilam mahsulotlari, assortiment, konsepsiya, xaridor, talab, dizayn, xizmat,tahlil.*

Аннотация: *В данной статье модернизация производства на предприятии, выпуск ковров любых размеров по желанию заказчика, еще одним аспектом продуктовой политики является увеличение плотности переплетения ковров, то есть увеличение Рассмотрены мягкость и функциональные аспекты ковров, расширение ассортимента ковровой продукции и улучшение качества.*

Ключевые слова: *Предприятие, ковровая продукция, ассортимент, концепция, покупатель, спрос, дизайн, услуга, анализ.*

Abstract: *In this article, the modernization of production at the enterprise, the production of carpets of any size according to the wishes of the customer, another aspect of the product policy is to increase the weaving density of carpets, that is, to increase the softness and functional aspects of carpets, the assortment of carpet products. expansion and quality improvement are considered.*

Key words: *Enterprise, carpet products, assortment, concept, buyer, demand, design, service, analysi*

Marketing boshqaruvining taxlili tadqiqotimizning nazariy qismida keltirilgan marketing-miks konsepsiyasiga mos ravishda o‘tkaziladi, ya’ni tovar (maxsulot assortimenti), narx (narx siyosati), joy (sotishni tashkil qilish) va siljitish (marketing kommunikatsiyalari). Bundan tashqari marketing boshqaruvini taxlil qilishda bizlar kompaniyaning xodimlarga nisbatan bo‘lgan siyosatini ham aloxida

ko‘rib chiqqanmiz.

Tovar assortimentining rivojlanishi korxona marketingining eng muhim funksiyasi hisoblanadi. U ishlab chiqaruvchining an’anaviy yoki yashirin texnikaviy va moddiy imkoniyatlarini muayyan iste’mol qiymatiga ega bo‘lgan, xaridorni qondiradigan va korxonaga foyda keltiradigan mahsulot va xizmatlarga tadbiq etishda namoyon bo‘ladi.

SAG qo‘shma korxonasi maxsulotlari assotimentiga o‘zining tarkibi, ishlab chiqarish texnologiyasi, zichligi, patining uzunligi, o‘lchami, ko‘rinishi, dizayni va boshqa texnik parametrlari bilan farqlanuvchi turli gilamlar, yo‘lakcha, kovrolin va boshqa turdagi tushamalari kiradi.

Bugungi kunda Respublika bozorlarida sotilayotgan gilam tushamalar assortimentini kengaytirish va istemolchilar talabini qondirish maqsadida SAG qo‘shma korxonasida 30 ga yaqin kolleksiya tarkibiga kirgan 3000 dan ziyod dizayndagi gilam to‘shamalar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan “Tumaris”, “Zilli”, “Rodin”, “Zara”, “Troya”, “Eron”, “SHayx”, “Pantera” “SHohsulton”, “Imperial”, “Avangard”, “Super shaggi”, “Isfaxon”, “Avangard”, “Babi”, “Imperial qahva” kolleksiyalari va boshqalar. Bu erdagi kolleksiyalar dizayni bo‘yicha turlicha. Gilamlar turli ranglarda ishlab chiqariladi, asosan 8 rangda bo‘ladi va shu orqali kolleksiyalar dizayni bir biridan farq qiladi.

Gilam to‘shamalar patining uzunligi va $1m^2$ da qancha nuqta patlar joylashishiga qarab ularning sifati belgilanadi. Hozirgi kunda “SAG”da 1 m^2 da 2 800 000 gacha patlar joylashgan gilam tushamalar mavjud bo‘lib, bu tipdagi gilamlar O‘zbekistondagi boshqa gilam ishlab chiqarish korxonasida mavjud emas.

SAG” MCHJning gilam to‘shamalari kolleksiyalari tahlilni o‘tkazish bosqichlariga utamiz:

1.Korxona taklif etadigan gilam to‘shamalari kolleksiyalari assortimentini aniqlash:

Korxona gilam to‘shamalari kolleksiyalari assortimentiga Imperial, Iran, Sheyx, Almira, Zara, Aladin, Fortuna, Super Shaggy, Troya, Imperial Grey va boshqalar kiradi.

2.Har qaysi kolleksiya bo‘yicha o‘rtacha daromad normasini hisoblash;

3.Har qaysi maxsulotning umumiy daromaddagi ulushini aniklash va o‘sish tarzida joylashtirish:

1-jadval

“Sam Antep Gilam” QK MCHJ maxsulotlarining kompaniya daromadida ishtirok etishi.

Kolleksiya nomi	Daromaddagi ulushi	O‘sish tarzida
Isfahan	19,45%	19,45%
Tumaris	18,39%	37,84%
Rodin Gray	11,40%	49,24%
Zilly	9,86%	59,1%
Emir	6,98%	66,08%
Ponte	5,24%	71,32%

Reflex	4,62%	75,94%
Therapy	4,61%	80,55%
Avangard	2,89%	83,44%
Baby	2,87%	86,31%
X(20 ta boshkalar)	13,69%	100%
Umumiy	100,00%	

2-jadval

“Sam Antep Gilam” QK MCHJ maxsulotlarining kompaniya uchun ahamiyatini baholash

Kolleksiya nomi	Daromaddagi ulushi	O‘sish tarzida	Guruxlanishi
Isfahan	19,45%	19,45%	A
Tumaris	18,39%	37,84%	A
Rodin Gray	11,40%	49,24%	A
Zilly	9,86%	59,1%	A
Emir	6,98%	66,08%	A
Ponte	5,24%	71,32%	A
Reflex	4,62%	75,94%	A
Therapy	4,61%	80,55%	B
Avangard	2,89%	83,44%	B
Baby	2,87%	86,31%	B
X(20ta boshkalar)	13,69%	100%	B-C
Umumiy	100,00%		

Bizning holatda A guruh (qonuniyat bo‘yicha 15-80%) Sheyx, Imperial, Iran, Aladin, Almira, Zara, Fortuna (assortimentning 23%i) umumiy daromadning 75,94% ini tashkil etdi, B guruh va S guruh Super Shaggy, Troya, Imperial Grey va boshka 20 ta kolleksiyalar daromadning qolgan miqdorini tashkil etdi. Bundan ko‘rinib turibdiki, korxona uchun A guruxdagi kolleksiyalar daromadning asosiy manbalari ekan.

Maxsulotlarni bunday guruhlarga ajratish orqali, korxona aynan qaysi tovarlar guruhi asosiy daromad manbai ekanligini aniqlashi to‘g‘risidagi hisobotga ega bo‘lishi mumkin.

“Sam Antep Gilam” QK MCHJ maxsulotlarining kompaniya daromadida diqqat markazida bo‘lgan yana bir yo‘nalish – bu gilamlarning shakli va ranglar uyg‘unligidir. Oxirgi yillarda bizlar buyurtmachining xoxishiga qarab har qanday o‘lchamdagi gilamlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yganmiz, ya’ni individual buyurtmalar ustida ishlashni joriy etganmiz. Bugungi kun vazifamiz turli shakldagi (aylana, oval, murakkab shakllar) gilmalar ishalb chiqarilishini joriy qilishdir. Bunda iste’molchilarning dizaynga bo‘lgan talablari to‘la qondirilishi mumkin bo‘ladi.

Tovar siyosatining yana bir jihati gilamlarning to‘qish zichligini oshirishdan iborat, ya’ni gilamlar mayinligi va funksional jihatlarini oshirishdir. Bu

yo‘nalishda korxona rahbariyati tomonidan ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga qaratilgan siyosatini qayd etish mumkin. Bugungi kunda ishlab chiqarishni yanada takomillashtirish bo‘yicha investitsion loyihalar ustida ishlamoqda. Gilamlarda qo‘llaniladigan iplarning turlarini oshirish, ranglarning mustahkamlagini ta’minlash, gilam maxsulotlari assortimentini kengaytirish kabi yo‘nalishlar ham maxsulotlarimiz sifatini oshirish siyosatining alohida jixatlari hisoblanadi.

Rivojlangan bozor munosabatlari innovatsiyalarsiz bo‘lmaydi, shuning uchun korxona ilmiy izlanishlarga katta e’tibor bilan qaraydi va ilmiy izlanishlar natijalarini joriy qilishga harakat qilib keladi.

“Sam Antep Gilam” QK MCHJ sining narx siyosati ishlab chiqariladigan maxsulotlarning funksional vazifasi hamda xarid qilish maqsadidan kelib chiqadi. Bunda kompaniya maxsulotlarining toifalarga ajratilishi ularning narxini belgilashning asosiy mezoni hisoblanadi.

3-jadval.

“Sam Antep Gilam” MCHJ gilamlarining 2022 yilning 1 aprel xolatiga bozor narxi

T/r	Kolleksiya nomi	QQS siz	QQS bilan (chakana narx)
1	Isfahan	373300	485300
2	Tumaris	324700	422050
3	Rodin Gray	243300	316250
4	Zilly	132200	158700
5	Emir	133300	160000
6	Ponte	248000	330050
7	Reflex	135600	165600
8	Therapy	243300	316250
9	Avangard	99700	119600
10	Baby	99700	119700

Kompnaniyaning narx siyosatini ishlab chiqarishda asosan raqobatchilarning narxlariga e’tibor qaratiladi, boshqa tomondan korxona respublika va xorijdagi hamkorlar bilan kelishilgan xaolda ish ko‘rishi ko‘rsatib o‘tilgan.

“SAG” MCHJ qo‘shma korxonasi gilam bozorida barcha jixatlar bo‘yicha etakchilik qilib kelmoqda. Hozirgi kunga kelib O‘zbekiston xududi bo‘ylab 500 dan ortiq savdo nuqtalarida ushbu korxonaning gilam maxsulotlari sotilmoqda.

Har bir viloyatda “SAG” qo‘shma korxonasi uzinig rasmiy dilleri va do‘konlariga ega bo‘lib, ularning soni 20 dan ortiq.(...-jadval) Dilerlar respublikaning deyarli barcha yiri shaxarlarda mavjud: Toshkent, Samarqand, Navoi, Buxoro, Urganch, Nukus, Qarshi, Termiz, Namangan, Andijon, Farg‘ona, Qo‘qon, Jizzah, Guliston.

4-jadval.

“Sam Antep Gilam” MCHJning rasmiy diller va do‘konlari

	Shahar nomi	Do‘kon nomi	Manzili
2	Toshkent	“SAG GILAMLAR DUNYOSI”	Ko‘ksaroy kuchasi, Taxta bozor
3		“SAG GILAMLARI”	TXY, Bek-tupi Savdo kompleksi
4		“SAG”	Ko‘shbegi massivi, KXY kuchasi 14
5		“SAG”	CHinobod, Bardavom kuchasi 27
6		“IDEA HOME”	TXY kuchasi, Med gorodok
		“SAG”	CHilonzor, Bogiston kuchasi 4A
	Samarqand	“SAG”	Rudaki kuchasi 229
	Navoi	“SAG”	G‘alaba shoh kuchasi, 197
	Buxoro	“SAG”	Xujanurobod kuchasi, 11
0	Urganch	“SAG”	Fidokorlar 1 uy 1
1	Nukus	“SAG”	J.Aymirzaeva, 93
2	Qarshi	“SAG”	O‘zbekiston kuchasi 405
3	Termiz	“SAG”	Tarakkiyot 47A
4	Namangan	“SAG”	Girvonsoy, 11
5	Andijon	“SAG” Kashmir do‘kon	Mustaqillik 21
6		“SAG”	Kusharik dasaxi kuchasi 1
7	Farg‘ona	“SAG”	Joydam kuchasi 24
8	Qo‘qon	“SAG”	A.Novoi kuchasi 147A
9	Jizzah	“SAG”	Orom bozor
0	Guliston	“SAG”	Mahalla massivi

“SAG” MCHJ qo‘shma korxonasining reklama va komunikatsiya siyosati iste’molchilarga ko‘proq ma’lumot etkazib berishga qaratilgan. Bunda birinchi o‘rinda elektron axborot vositalaidan foydalaniladi, kompaniyaning sayti (https://www.sag.uz/uz), telegramm, feysbuk, instagramm, tvitter ijtimoiy tarmoqlardagi saxifalar va kanllarning tashkil etilganligini ta’kidlash lozim. Kompaniya tashqi reklamaga ham katta ahamiyat berib kelmoqda. Gilam maxsulotlarining vazifalari va xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda kompaniya ulgurji xaridorlar bilan aloqalarni kengaytirishga katta e’tibor qaratib keladi. Kommunikatsion siyosat korxona marketing bo‘limining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. “SAG” MCHJ qo‘shma korxonasi xorijda savdo uylarini tashkil qilishga ham xarakat qiladi. Masalan, 2022 yil 9 martda Nyu York shahrida “SAG” o‘zbek gilamlari va “Gulnor” ipak mahsulotlari savdo uyining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. O‘zbekistonning AQSHdagi elchixonasi xabariga ko‘ra, ushbu savdo uyi AQSHdagi ikkinchi o‘zbek milliy engil sanoat mahsulotlari namoyish maydoni bo‘lib, bundan avval 2020 yilda Filadelfiya shahrida ham ana shunday savdo markazi ochilgan edi.

“SAG” MCHJ qo‘shma korxonasi personalni rivojlantirish masalasiga aloxida e’tibor qaratib keladi. Buni quyidagi jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rish mumkin (-jadval)

5-jadval

2022 yilda “Sam Antep Gilam” MCHJ qo‘shma korxonasida xodimlarni qo‘llab-quvvatlash dasturi

Xarajatlar moddalari	**Tarkibidagi chora-tadbirlar**	**Qiymati**
Seminarlar va treninglar	Xodimlarning malakasi oshirish, trening, seminarlar tashkil qilish	30 mln so‘m
Kompaniyaga sodiqlik dasturlari	10, 15, 16 yillik stajiga ega bo‘lgan xodimlarga ustamalar berish	25 mln so‘m
	KPIs Bonus	180 mln so‘m
	Sick leaves	26, 5 mln so‘m
	Maternity leaves	16,3 mln so‘m
Tibbiy xizmat	“Bionur Med Service” tibbiy markazida xodimlarni davariy ko‘rikdan o‘tkazish, sog‘ligini tiklash dasturlari.	50 mln so‘m
Ovqatlanish	Xodimlarni bepul ovqatlanishini tashkil qilish	3,5 mlrd so‘m

Transport	Xodimlarni xizmat transportida ish joylariga etkazish	500 mln so‘m
	Entertainment	95 mln so‘m
	EH&S costs	40 mln so‘m
Jami xarajatlar **Bir xodimga to‘g‘ri keladigan xarajat**		**4,462 mlrd so‘m** **4,960 mln so‘m**

Xodimlarning xavfsizligini ta’minlashda kompaniya tomonidan ma’lum choralar ko‘riladi. Masalan: Barcha ishchilar va xizmatchilar kompaniya hisobidan maxsus kiyim bilan to‘liq ta’minlalanadi; Barcha xodimlar shaxsiy himoya vositalari bilan to‘liq ta’minlanadi. Ayniqsa karantin davrida xodimlarning salomatini himoyalashga katta e’tibor qaratildi;

Ishchilarni sut va sut maxsulotlari bilan me’yorlarga asosan ta’minlab berish; Ishchi va xizmatchilarni yuvinish vositalari bilan to‘liq ta’minlash borish; Mehnat muxofazasi va xavfsizlik texnikasi xarajatlarini korxona hisobidan to‘liq qoplash va xokazo.

Bundan tashqari jamoat shartnomasida ko‘rsatilgan barcha imtiyozlar va sog‘likni tiklash choralari ham korxona tomonidan moliyalashtirib kelinmoqda.

Olib borilgan taxlillarning natijalari shuni ko‘rsatdiki “SamAntepGilam” MCHJda marketing boshqaruvini amalga oshirish bo‘yicha o‘ziga xos yondashuv shakllangan, ya’ni texnologik va texnik jixatdan raqobatchilardan o‘zib ketish va maxsulot sifatiga kafolat berishdir. Mazkur yondashuv korxona tashkil qilingan davrda yaxshi samara berganligini hisobga olgan xolda bugungi kunda ham gilam sotish bozorida korxonaning muvaffaqiyatiga salomqli xissa qo‘shib kelmoqda.

Ammo bugungi kunda milliy va xorijiy bozor kon’yunkturasida keskin o‘zgarishlar bo‘lishi va potensial iste’molchilar xulq atvorini murakkablashishi marketing faoliyatida rivojlanish zarsratini paydo qilmoqda. Bunda xaridor bilan muloqot qilish, sotish va sotishdan keyingi jarayonlariga e’tibor kuchaytirilshi talab qilinadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 apreldagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-5989-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 iyundagi “Respublikada qo‘lda to‘qilgan gilamchilik sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4759-son qarori.
3. Kotler F., Armstrong G., Vong V., Sonders Dj. Osnovы marketinga, 5-e evropeyskoe izd. Uchebnik. – M.: OOO “I.D.Vilyams, 2013. – 752 s.
4. Soliev A., Vuzrukxonov S., Marketing, bozorshunoslik. Darslik. – T.:

Iqtisod-Moliya, 2010. – 424 b.
5. Ergashxodjaeva SH.J., Qosimova M.S., YUsupov M.A. Marketing. Darslik. – T.: TDIU, 2011. – 202 b.
6. Musaeva Sh.A. Marketing tadqiqotlari. Darslik “STAR-SEL” MChJ nashriyot va ijodiy bo‘limi. Samarqand-2023
7. Musaeva Sh.A. Integrallashtirilgan marketing kommunikatsiyasiO‘quv qo‘llanma “Mahorat” nashriyoti, Samarqand – 2022
8. Musaeva Sh.A., Usmonova D.I. Innovatsion marketing “TURON EDITION” 2021 yil uchun o‘quv qo‘llanma.

М.Э.Ахтамова - PhD, и/о доцента Самаркандского института экономики и сервиса кафедры «Менеджмент»,
Р.А.Мухамадиев - студент MN-222 группы Самаркандского института экономики и сервиса

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль и тенденция развития автомобильной промышленности в экономике Республики Узбекистана, включая создание совместных предприятий с компаниями GM Daewoo и Volkswagen Group, а так же проанализированы позиции на рынке автомобилестроения отрасли способствующего привлечению инвестиций, созданию новых рабочих мест и повышению уровня жизни населения.*

Ключевые слова: *промышленность, экономика, сектор, товары, услуги, текстиль, пищевая промышленность, машиностроение, энергетика, развитие, модернизация, диверсификация, промышленные зоны, свободные экономические зоны, иностранные инвестиции, химическая промышленность, автомобилестроение, производство .*

Abstract: *This article examines the role and development trend of the automotive industry in the economy of the Republic of Uzbekistan, including the creation of joint ventures with GM Daewoo and Volkswagen Group, and also analyzes the position in the automotive market of the industry that helps attract investment, create new jobs and improve living standards population.*

Key words: *industry, economy, sector, goods, services, textiles, food industry, mechanical engineering, energy, development, modernization, diversification, industrial zones, free economic zones, foreign investment, chemical industry, automotive industry, manufacturing.*

Annotatsiya*: Ushbu maqolada avtomobilsozlik sanoatining O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi o‘rni va rivojlanish tendentsiyasi, jumladan, GM Daewoo va Volkswagen Group bilan qo‘shma korxonalar tashkil etilishi ko‘rib chiqiladi, shuningdek, ushbu sohaning avtomobil bozoridagi o‘rni tahlil qilinadi. investitsiyalarni jalb qilish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi turmush darajasini oshirish.*

Kalit so‘zlar: *sanoat, iqtisodiyot, sektor, tovarlar, xizmatlar, to‘qimachilik, oziq-ovqat sanoati, mashinasozlik, energetika, rivojlanish, modernizatsiya, diversifikatsiya, sanoat zonalari, erkin iqtisodiy zonalar, xorijiy investitsiyalar, kimyo sanoati, avtomobilsozlik, ishlab chiqarish.*

Промышленность играет важную роль в экономике Республики Узбекистан. Сектор промышленности включает в себя производство товаров и услуг, таких как текстиль, пищевая промышленность, машиностроение и энергетика. Состояние промышленности в Узбекистане можно охарактеризовать как развивающееся. В последние годы в стране были предприняты многочисленные меры по модернизации и диверсификации промышленного сектора. Были созданы промышленные зоны и свободные экономические зоны, обеспечивающие условия для привлечения иностранных инвестиций и развития отраслей, таких как химическая промышленность, автомобилестроение и производство электроники.

Развитие автомобильного строения в Узбекистане имеет свою историю и претерпело значительные изменения на протяжении последних десятилетий. Вот некоторые ключевые моменты в развитии автомобильной промышленности в Узбекистане:

1. 1960-е годы: В это время в Узбекистане начали строиться первые автомобильные заводы. В 1962 году был открыт завод "УзАвтоЗапчасть" в городе Андижан, который занимался производством автомобильных запчастей.

2. 1990-е годы: В период после распада Советского Союза Узбекистан стал стремиться к развитию собственной автомобильной промышленности. В 1992 году был создан Узбекский автомобильный завод (UzAvto). Этот завод начал производство автомобилей марки "Уз-Даевоо" (Uz-Daewoo), которые были собраны на основе комплектующих, поставляемых из Южной Кореи.

3. 2000-е годы: В 2008 году Узбекистан подписал соглашение с корейской компанией GM Daewoo (ныне GM Uzbekistan) о создании совместного предприятия для производства автомобилей в Узбекистане. Это стало началом масштабного развития автомобильной промышленности в стране. В рамках этого сотрудничества был запущен производственный комплекс в городе Асаке, где собираются автомобили марок Chevrolet и Ravon.

4. 2010-е годы: В последние годы Узбекистан продолжает развивать автомобильную промышленность. В 2018 году было объявлено о создании нового совместного предприятия между Узбекистаном и немецкой компанией Volkswagen Group для производства автомобилей Volkswagen в Узбекистане. Это сотрудничество позволяет стране привлекать инвестиции, развивать технологические навыки и создавать новые рабочие места.

Развитие автомобильного строения в Узбекистане продолжается, и страна активно работает над укреплением своей позиции на рынке автомобилестроения. Страна сосредоточена на модернизации и развитии отраслей, чтобы стать конкурентоспособной на мировом рынке и привлечь инвестиции. Промышленное развитие также способствует созданию рабочих

мест и повышению уровня жизни населения.

Таблица 1.

Производство продукции крупными предприятиями обрабатывающей промышленности.

Наименование продукции	2020г.	2021г.	Разница (+,-)
автомобиль легковой ,шт	143455	108780	-34675
автомобиль грузовой ,шт	1832	1855	23
автомобильные двигатели,шт	113,1	75,6	-37,5

Анализ представленных данных показывает следующую динамику продукции за период с 2020 по 2021 год:

Во-первых, производство легковых автомобилей в 2020 году составило 143,455 штук, а в 2021 году - 108,780 штук, то есть уменьшилась на 34,675 штук, что указывает на снижение производства легковых автомобилей на 24,1%.

Во-вторых, в 2020 году было произведено грузовых автомобилей 1,832 штук, а в 2021 году - 1,855 штук, то есть увеличилось на 23 штук, что указывает на незначительный рост производства грузовых автомобилей на 1,3%.

В-третьих, производство автомобильных двигателей в 2020 году составило 113,1 штук, а в 2021 году - 75,6 штук, разница составляет -37,5 штук, что указывает на снижение производства автомобильных двигателей на 33,2%.

Общий анализ данных показывает, что производство легковых автомобилей и автомобильных двигателей снизилось за рассматриваемый период, в то время как производство грузовых автомобилей незначительно выросло. Это может быть связано с различными факторами, такими как изменение спроса на рынке, экономическая ситуация и другие внешние факторы.

Анализ данных показывает, что промышленность в Узбекистане, в частности сектор производства автомобилей и автомобильных двигателей, сталкивается с вызовами и снижением производства. Однако, секторы текстильной и пищевой промышленности продолжают развиваться и вносить значительный вклад в экономику страны. Для дальнейшего развития промышленности необходимо провести модернизацию, техническое обновление, развитие инфраструктуры и логистики, а также привлечение инвестиций. Это поможет повысить конкурентоспособность и улучшить экономическую ситуацию в стране.

Перспективы развития машиностроения в Республике Узбекистан являются обнадёживающими и предоставляют множество возможностей для дальнейшего роста и прогресса. Страна активно работает над модернизацией и развитием своего машиностроительного сектора, с целью стать конкурентоспособной на мировом рынке. Одной из ключевых стратегий развития машиностроения в Узбекистане является привлечение иностранных

инвестиций и сотрудничество с ведущими мировыми компаниями. Подписанные соглашения о сотрудничестве с такими гигантами автомобильной промышленности, как GM Daewoo и Volkswagen Group, свидетельствуют об интересе и доверии к потенциалу машиностроения. Создание совместных предприятий с иностранными партнерами позволяет Узбекистану получить доступ к передовым технологиям, опыту и международным рынкам сбыта. Это способствует развитию технологических навыков и повышению качества производимой продукции. Кроме того, такие сотрудничества создают новые рабочие места и способствуют экономическому росту страны. Важным аспектом развития машиностроения в Узбекистане является модернизация и диверсификация производства. Страна стремится расширить ассортимент производимых товаров и услуг, включая не только автомобили, но и другие виды машиностроительной продукции, такие как сельскохозяйственная и строительная техника, электроника и прочее. Это позволит местным предприятиям быть более конкурентоспособными и разнообразить экономику страны. Кроме того, Узбекистан активно развивает инфраструктуру промышленного производства, создавая промышленные зоны и свободные экономические зоны. Эти меры предоставляют льготы и условия для привлечения инвестиций и развития машиностроительного сектора. В целом, перспективы развития машиностроения в Республике Узбекистан обнадеживающие. Страна активно работает над модернизацией и развитием своего машиностроительного сектора, привлекая иностранные инвестиции, развивая технологические навыки и расширяя ассортимент производимой продукции. Это способствует созданию новых рабочих мест, повышению уровня жизни населения и укреплению позиции Узбекистана на мировом рынке машиностроения.

Список использованных источников:

1. https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-promyshlennosti-i-eyo-rol-v-ekonomike-respubliki-uzbekistan/viewer;
2. https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://stat.uz/images/uploads/reliz-2023/press-reliz-yanvar-maj-rus sanoat 20 06 2023.
3. "Uzbekistan’s Automotive Industry: Challenges and Perspectives" - European Bank for Reconstruction and Development (https://www.ebrd.com/work-with-us/projects/psd/uzbekistans-automotive-industry-challenges-and-perspectives.html).

N.R.Murtazayev – QMI katta o‘qituvchisi

O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekistonda moliya bozorini yanada rivojlantirish, aholini sifatli moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olish ko‘lamini*

kengaytirish, sug‘urta tashkilotlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash masalalari atroflicha o‘rganilgan. Sug‘urta xizmatlari bozorining samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tahlili ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *Sug‘urta bozori, sug‘urta mukofoti, sug‘urta to‘lovi, ixtiyoriy va majburiy sug‘urta, sug‘urta brokeri, adjaster, syurveyer, aktuariy, sug‘urta agenti.*

Аннотация: *В данной статье подробно изучаются вопросы дальнейшего развития финансового рынка Узбекистана, расширения сферы охвата населения качественными финансовыми услугами, поддержки деятельности страховых организаций. Рассмотрен анализ показателей, отражающих эффективность рынка страховых услуг.*

Ключевые слова*: страховой рынок, страховая премия, страховой взнос, добровольное и обязательное страхование, страховой брокер, аджастер, сюрвер, актуарий, страховой агент.*

Abstract. *This article discusses in detail the issues of further development of the financial market of Uzbekistan, expanding the coverage of the population with high-quality financial services, and support for insurance companiesInsurance is mentioned as an effective means of protecting the property interests of individuals and legal entities at all stages of human development.*

Keywords: *Insurance market, insurance premium, insurance payments, voluntary and compulsory insurance, insurance broker, adjuster, surveyor, actuary, insurance agent.*

Kirish.

O‘zbekistonda sug‘urta xizmatlari bozorining samaradorligini oshirish yurtimizning makroiqtisodiy barqarorligi va iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishdagi eng muhim tamoqlardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 iyuldagi “Sug‘urta bozorini rivojlantirish masalalari muhokamaciga” bag‘ishlangan yig‘ilishida “Sohaga nazoratchi emas, ilg‘or va zamonaviy standartlarni joriy etadigan, barcha ishtirokchilar o‘rtasida chinakam raqobat muhitini yaratib, sug‘urta bozorini rivojlantiradigan tuzilma kerak”ligi ta’kidlab o‘tilgan[1].

Shundan kelib chiqib “sug‘urta sohasini o‘rta va uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, 2022 yilgacha aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sug‘urta mukofoti hajmini 3 baravar, sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini esa 2 baravar oshirish” sohaning ustuvor vazifasi sifatida belgilab berildi. Ushbu ustuvor vazifalarni amalga oshirilishini ta’minlashda sug‘urta kompaniyalarining xalqaro va xorij bozorlariga chiqishini ta’minlash hamda ijobiy korporativ boshqaruv tizimini amaliyotga tadbiq etish muhim hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi

«O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli Farmoni, 2019 yil 17 yanvardagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5635-sonli, 2019 yil 2 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta

bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4412-sonli Qarorlari qabul qilingan[2].Bundan tashqari “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonun O‘zbekiston Respublikasi Prezdenti tomonidan 2021 yil 25 noyabrda imzolanib, 2022 yil 25 fevraldan boshlab kuchga kirdi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan sabablarni aniqlash va vaqtida ularni bartaraf etish Prezident Sh.Mirziyoyev o‘zlarining iqtisodiy sohaga bag‘ishlangan xar bir ma’ruzalarida ta’kidlashlari asnosida mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarini yanada rivojlantirish va xalqaro reytinglarni qo‘lga kiritish ustuvor ekanligini ifodalaydi.

1-jadval

O‘zbekiston sug‘urta bozorining tuzilishi

Sug‘urta bozori tuzilishi	31.12.2020	31.12.2022	O‘zgarish +\-
Sug‘urta tashkilotining soni shu jumladan hayot sug‘urtasi bo‘yicha	40 8	42 8	+2 0
Sug‘urta tashkiotlarda umumiy ustav kapitali(mln so‘mda)	1 439 193	1 545 784	+106591
Sug‘urta brokerlar soni	5	5	0
Aktuariylar soni	5	5	0
Sug‘urta agentlar soni shu jumladan yuridik shaxslar uchun	8900 2639	9536 2774	+636 +135
To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi azolari sug‘urta tashkilotalari	19	23	+4

O‘zR Moliya vazirligining www.mf.uz internet sahifasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yildan yilga sug‘urta tashkilotlarining faoliyat doiralarini yanada kengaytirish hamda barqaror faoliyat yuritishlari uchun davlat tomonidan ularning ustav kapitallari tegishli meyoriy-huquqiy hujjatlar asosida oshirilib borilmokda. Bu kabi islohotlarni amalga oshirishdan asosiy maqsad,mamlakatimizda rivojlanayotgan sug‘urta bozorining sug‘urta maxsulotlarini assortimentini ko‘paytirish, barqarorligi ta’minlash bilan mutanosib ravishda aholida sug‘urta mahsulotlariga nisbatan madaniyatni oshirishdan iboratdir. Hozirgi kunda mamlakat sug‘urta bozorida faoliyat ko‘rsatayotgan sug‘urta kompaniyalarining aktivlari ham turlicha. Davlat sug‘urta kompaniyalarining ustav kapitallari va jami aktivlari boshqa sug‘urta kompaniyalarinikidan sezilarli darajada ko‘p, hamda ularning ta’sischilari davlat idoralari va tashkilotlari bo‘lganligi uchun ularga bo‘lgan sug‘urtalanuvchilar ishonchi yuqoridir, ular tomonidan 2022 yilda yig‘ib olingan sug‘urta mukofotlari jami sug‘urta mukofotlarining 42,3foizini tashkil etdi.Sug‘urta tizimi sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari bo‘lgan tijorat tashkilotlaridan iborat hisoblanadi. Sug‘urta bozori hayotni sug‘urta qilish va umumiy sug‘urta qilish tarmoqlarini o‘z ichiga qamrab oladi. Sug‘urta xizmatlarining umumiy tendensiyalari va rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlari, sug‘urta bozorining rivojlanishi, uning tuzilishi, bizga mamlakatimizda sug‘urta

xizmatlari samaradorligini baholash imkonini beradi.

Shu bilan birga sug‘urta bozorining rivojlanishi miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini tahlil qilish, sug‘urta munosabatlarini iqtisodiy hamda huquqiy tartibga solish darajasini baholash, sug‘urta xizmatlarining umumiy rivojlanishiga ta’siri darajasini baholash muhim hisoblanadi.

O‘zbekistonda sug‘urta bozorining tadrijiy taraqqiyotini ilmiy - nazariy jihatdan o‘rganish natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Sug‘urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning yagona siyosatini belgilash:

- sug‘urta munosabatlarini tartibga soluvchi yangi qonun hujjatlari ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirish;
- davlat, tashkilot va fuqarolarning majburiy sug‘urta sohasidagi manfaatlari sug‘urta yo‘li bilan himoyalanishini ta’minlovchi meyoriy huquqiy asosni takomillashtirish.

2. Sug‘urtaga aholining keng qatlami va mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar, korxonalar jalb qilinishini rag‘batlantiruvchi shart sharoitni yuzaga keltirish:

- tibbiy sug‘urta, uzoq muddatli hayot sug‘urtasi, pensiya sug‘urtasini rivojlantirish uchun huquqiy meyoriy asos yaratish;
- sug‘urta tashkilotlarining to‘plagan mablag‘larini investitsiyalashning samarali shakllarini ishlab chiqish orqali ularni joylashtirish, amalga oshiriladigan sug‘urta operatsiyalarining foyda keltirishini oshirish uchun qo‘shimcha kafolat yaratish.

3. Sug‘urta bozorining infratuzilmasini takomillashtirish va rivojlantirish - fuqarolar va mulkchilikning turli shakllaridagi yuridik shaxslarning manfaatlari yo‘lida sug‘urta munosabatlari jarayoniga hamroh bo‘luvchi hamda davlatning sug‘urta siyosatini amalga oshirishga yordam beruvchi sug‘urta tashkilotlari rivojlanishida ko‘maklashish.

4. Sug‘urta sohasidagi xalqaro hamkorlikni tartibga solish:

- xorijiy sug‘urtalovchilarning O‘zbekiston Respublikasi hududidagi faoliyatini tartibga solish chora tadbirlarini ishlab chiqish;
- xalqaro sug‘urta munosabatlarini (avalambor qayta sug‘urta sohasida) kengaytiruvchi meyoriy xuquqiy asosning rivojlanishini ta’minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 iyuldagi “Sug‘urta bozorini rivojlantirish masalalari”ga bag‘ishlangan ma’ruzasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF 4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

3. 2019 yil 2 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 4412-sonli Qarori.

4. Т.А.Оберемко. Роль страховых посредников. ВИИ Международная

студенческая научная конференция Студенческий научный форум – 2015 г. – С. 1-7.

5. И.Х.Абдурахмонов. “Теория и практика страхования” Ташкент. 2019 г.

Ражабалиева Ирода – ҚарМИИ магистранти

РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИ

Аннотация. *Ушбу мақолада рақамли иқтисодиёт шароитида озиқ-овқат хавфсизлиги олдида турган муаммолар ва барқарор қишлоқ хўжалигини ривожлантириш, озиқ-овқат маҳсулотларини қайта ишлаш технологияларига сармоя киритиш, соғлом озиқ-овқат танлашини тарғиб қилиш каби масалалар ёритилган.*

Калит сўзлар: *Рақамли иқтисодиёт, озиқ-овқат хавфсизлиги, барқарор қишлоқ хўжалиги, озиқ-овқат маҳсулотларини қайта ишлаш технологиялари, онлайн бозорлар, соғлом озиқ-овқат танлови.*

Аннотация*: В этой статье освещаются проблемы, с которыми сталкивается продовольственная безопасность в цифровой экономике, а также такие вопросы, как развитие устойчивого сельского хозяйства, инвестирование в технологии пищевой промышленности и продвижение выбора здорового питания.*

Ключевые слова*: цифровая экономика, безопасность пищевых продуктов, устойчивое сельское хозяйство, технологии пищевой промышленности, онлайн-рынки, выбор здоровой пищи.*

Abstract: *This article highlights the challenges facing food security in the digital economy and issues such as developing sustainable agriculture, investing in food processing technologies, and promoting healthy food choices.*

Keywords: *Digital economy, food safety, sustainable agriculture, food processing technologies, online markets, healthy food choices.*

Инсоният фан ва техника соҳасидаги янгидан-янги ютуқлар ва муваффақиятларни одатий ҳол сифатида қабул қилишга ўрганиб қолди. Халқаро миқиёсида аҳолининг ўсиши табиий ресурслар ва қишлоқ хўжалик маҳсулотларига бўлган талабни қондириш, ресурслардан оқилона фойдаланишни таъминлаш, барқарор ривожланиш шароитида илм фан ютуқлари инноватсион технологияларини жорий этган ҳолда норматив-ҳуқуқий базани шакллантириш орқали тараққиётга эришиш талаб этилади.

Шу сабабли озиқ-овқат маҳсулотларини халқаро сифат стандартлари асосида қайта ишлаш ҳажмларини ошириш, ички ҳамда ташқи бозорларда рақобатбардош бўлган маҳаллий маҳсулотлар турларини ишлаб чиқаришни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини жорий этиш асосий мақсад ҳисобланади.

Озиқ-овқат хавфсизлиги бутун дунё мамлакатлари олдида турган энг долзарб вазифалардан биридир. БМТ ҳам бугун озиқ-овқат маҳсулотларини

етиштириш ва уларни тақсимлаш бўйича ёндашувни мутлақо ўзгартириш вақти келганини таъкидлаяпти.

Президентимизнинг 2020-йил 9-сентябрдаги “Республика озиқ-овқат саноатини жадал ривожлантириш ҳамда аҳолини сифатли озиқ-овқат маҳсулотлари билан тўлақонли таъминлашга доир чора-тадбирлар тўғ‘рисида”ги қарорида айнан ушбу мақсадни амалга оширишга қаратилган эди.

Хусусан, Президентимиз Ш.Мирзиёевнинг 2023-йил 9-июн Италияга расмий ташрифи чоғида БМТ Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги ташкилоти (ФАО) бош директори Сюй Дунюй билан учрашувда айнан озиқ-овқат хавфсизлиги, фундаментал илмий тадқиқотлар, қишлоқ хўжалигини рақамлаштириш, аграр тармоқларни модернизатсия қилиш ва бошқа соҳаларда аниқ лойиҳа ва тадбирларни амалга оширишни назарда тутадиган 2030-йилга қадар ҳамкорлик бўйича кенг кўламли дастурни ишлаб чиқиш устувор йўналиш сифатида белгилаб олинди. [31]

Давлатимиз раҳбари жорий йил 7 сентябр куни Озиқ-овқат хавфсизлиги бўйича халқаро конференцияда иштирок этиш учун мамлакатида бўлиб турган БМТ Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги ташкилоти (ФАО) бош директори Сюй Дунюйни қабул қилди ва озиқ-овқат хавфсизлигига таҳдид солаётган бугунги хавф-хатарларга қарши, шу жумладан минтақа даражасида курашиш масалалари юзасидан фикр алмашилди. Ўзбекистон ва ФАО ўртасида 2030-йилга қадар мўлжалланган янги ҳамкорлик дастурига қишлоқ хўжалигини илмий тадқиқотлар ва инновациялар асосида модернизатсия қилиш, аграр соҳани рақамлаштириш, молиявий қўллаб-қувватлашнинг таъсирчан воситаларини амалга ошириш ва агроозиқ-овқат тизимини бошқаришнинг самарали механизмларини жорий этиш бўйича қўшма тадбирларни киритишга келишиб олинди.

Озиқ-овқат хавфсизлиги бу иқтисодиётнинг шундай ҳолати бўлиб, бунда жаҳон бозорлари тебранишларидан қатъий назар бир томондан, илмий асосланган кўрсаткичларга мос миқдорларда, иккинчи томондан тиббий меъёрлар даражасида истеъмолни қондириш учун шарт-шароит яратилган ҳолда аҳолини озиқ-овқат маҳсулотлари билан барқарор таъминлаш кафолатланади, ҳар доим одамларнинг овқатланиш эҳтиёжлари ва афзалликларини қондириш учун етарли, хавфсиз ва тўйимли озиқ-овқат мавжудлиги ва улардан фойдаланиш тушунилади.

Бироқ, озиқ-овқат хавфсизлиги, айниқса рақамли иқтисодиёт шароитида жуда кўп муаммоларга дуч келмоқда. Рақамли иқтисодиёт -бу товарлар ва хизматларни яратиш, сотиб олиш, сотиш ва тарқатиш учун рақамли технологиялардан фойдаланиш. Рақамли иқтисодиёт анъанавий озиқ-овқат тизимларига таъсир кўрсатди ва бу озиқ-овқат хавфсизлигида қийинчиликларга олиб келди. Ушбу мақола рақамли иқтисодиётда озиқ-овқат хавфсизлиги муаммолари ва ечимларини муҳокама қилади.

Муаммолар:

[31] Халқ сўзи online газетаси 2023 йил 20 июл №148 (8491) https://xs.uz/uz

- Озиқ-овқат одатларини ўзгартириш: Рақамли иқтисодиёт озиқ-овқат одатларининг ўзгаришига олиб келди. Одамлар озиқ-овқат маҳсулотларини сотиб олиш ва сотиш учун онлайн озиқ-овқат етказиб бериш хизматлари ва электрон тижорат платформаларига таянмоқда. Бу озиқ-овқат имтиёзларининг арзон ва қулайроқ бўлган тез овқатланиш ва қайта ишланган озиқ-овқатга ўзгаришига олиб келди. Бу озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш учун зарур бўлган соғлом ва тўйимли озиқ-овқат истеъмолининг пасайишига олиб келди.
- Анъанавий озиқ-овқат тизимларининг бузилиши: Рақамли иқтисодиёт қишлоқ хўжалиги ва озиқ-овқат маҳсулотларини қайта ишлаш каби анъанавий озиқ-овқат тизимларини бузди. Электрон тижорат платформаларининг устунлиги туфайли фермерлар ўз маҳсулотлари учун бозорларга киришда қийналмоқда. Бу озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш учун зарур бўлган соғлом ва тўйимли озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқаришнинг қисқаришига олиб келди.
- Киберхавфсизлик таҳдидлари: Рақамли иқтисодиёт, хусусан, озиқ-овқат саноатида киберхавфсизлик таҳдидларининг кучайишига олиб келди. Кибержиноятчилар озиқ-овқат ишлаб чиқариш тизимларига бузиб кириши ва озиқ-овқат етказиб бериш занжирларини бузиши мумкин. Бу озиқ-овқат танқислигига олиб келиши ва озиқ-овқат хавфсизлигига таъсир қилиши мумкин.
- Озиқ-овқат чиқиндилари: Рақамли иқтисодиёт озиқ-овқат чиқиндиларининг кўпайишига олиб келди. Электрон тижорат платформалари ва онлайн озиқ-овқат етказиб бериш хизматлари кўплаб қадоқлаш чиқиндиларини ҳосил қилади, бу эса чиқиндихоналарга тушади. Бу чиқиндилар озиқ-овқат ишлаб чиқариш ёки чорва молларини боқиш учун ишлатилиши мумкин, аксинча, атроф-муҳитни ифлослантиради.

Ечимлар:

- ✓ Барқарор қишлоқ хўжалигини ривожлантириш: Барқарор қишлоқ хўжалиги озиқ-овқат хавфсизлиги учун зарурдир. Ҳукуматлар ва хусусий ташкилотлар сўлом ва тўйимли озиқ-овқат ишлаб чиқаришни таъминлаш учун органик деҳқончилик каби барқарор қишлоқ хўжалиги амалиётларини тарғиб қилишлари керак. Бунга барқарор қишлоқ хўжалиги билан шуғулланувчи фермерларни солиқ имтиёзлари ва субсидиялар каби имтиёзлар бериш орқали эришиш мумкин.
- ✓ Озиқ-овқат маҳсулотларини қайта ишлаш технологияларига сармоя киритиш: Озиқ-овқат маҳсулотларини қайта ишлаш технологияларига сармоя киритиш озиқ-овқат сифатини яхшилаш ва озиқ-овқат чиқиндиларини камайтиришга ёрдам беради. Озиқ-овқат маҳсулотларини сақлаш, қадоқлаш ва сақлаш каби технологиялар озиқ-овқатнинг яроқлилик муддатини оширишга, бузилишини камайтиришга ва ифлосланишнинг олдини олишга ёрдам беради. Бу озиқ-овқат хавфсизлиги учун зарур бўлган озиқ-овқат мавжудлигини таъминлашга ёрдам беради.

✓ Фермерлар учун онлайн бозорларни тарғиб қилиш: Ҳукуматлар ва хусусий ташкилотлар фермерлар ўз маҳсулотларини сотишлари учун онлайн бозорларни рағбатлантиришлари керак. Бу фермерларга ўз маҳсулоти учун кенгроқ бозорга чиқиш ва даромадларини оширишга ёрдам беради. Онлайн бозорлар, шунингдек, озиқ-овқат чиқиндиларини камайтиришга ёрдам беради, бу эса барча маҳсулотларнинг бузилмаслигини та'минлайди.

✓ Соғлом озиқ-овқат танловини тарғиб қилиш: Ҳукуматлар ва хусусий ташкилотлар истеъмолчиларга таълим ва маълумот бериш орқали соғлом озиқ-овқат танловини тарғиб қилишлари керак. Бунга оммавий компаниялар, озиқ-овқат маҳсулотларини белгилаш ва таълим дастурлари орқали эришиш мумкин. Истеъмолчиларни рағбатлантириш орқали соғлом озиқ-овқат танлашга ундаш керак, масалан, соғлом озиқ-овқатга чегирмалар.

✓ Киберхавфсизликни таъминлаш: Киберхавфсизликни таъминлаш озиқ-овқат хавфсизлиги учун муҳим аҳамиятга эга. Ҳукуматлар ва хусусий ташкилотлар озиқ-овқат ишлаб чиқариш тизимлари ва озиқ-овқат таъминоти занжирларини ҳимоя қилиш учун киберхавфсизлик чораларига сармоя киритишлари керак. Бунга киберхавфсизлик протоколларини жорий этиш, мунтазам равишда киберхавфсизлик аудитини ўтказиш ва озиқ-овқат саноати ходимлари учун киберхавфсизлик бўйича тренингга сармоя киритиш орқали эришиш мумкин.

✓ Озиқ-овқат чиқиндиларини камайтириш: Озиқ-овқат чиқиндиларини камайтириш озиқ-овқат хавфсизлиги учун муҳим аҳамиятга эга. Ҳукуматлар ва хусусий ташкилотлар озиқ-овқат чиқиндиларини камайтиришни рағбатлантирадиган сиёсат ва қоидаларни амалга ошириш орқали озиқ-овқат чиқиндиларини камайтиришга ёрдам беришлари керак. Бунга озиқ-овқат чиқиндиларини камайтирувчи корхоналарни солиқ имтиёзлари ва субсидиялар каби имтиёзлар бериш орқали эришиш мумкин.

Хулоса.

Озиқ-овқат хавфсизлиги инсонлар фаровонлиги ва жамиятлар барқарорлиги учун муҳим аҳамиятга эга. Бироқ, рақамли иқтисодиёт озиқ-овқат хавфсизлиги учун озиқ-овқат одатларининг ўзгариши, киберхавфсизлик таҳдидлари ва озиқ-овқат чиқиндилари каби муаммоларни келтириб чиқарди. Ушбу муаммоларни ҳал қилиш учун барқарор қишлоқ хўжалигини ривожлантириш, озиқ-овқат маҳсулотларини қайта ишлаш технологияларига сармоя киритиш, фермерлар учун онлайн бозорларни тарғиб қилиш, соғлом озиқ-овқат танлашни тарғиб қилиш, киберхавфсизликни таъминлаш ва озиқ-овқат чиқиндиларини камайтириш каби ечимларни амалга ошириш керак. Давлат ва хусусий ташкилотлар ушбу муаммоларни ҳал қилиш ва ушбу ечимларни амалга оширишда муҳим рол ўйнайди.

Ҳукуматлар барқарор қишлоқ хўжалиги ва озиқ-овқат чиқиндиларини камайтиришни рағбатлантирадиган сиёсат ва қоидаларни тақдим

этиши мумкин, хусусий ташкилотлар эса озиқ-овқат маҳсулотларини қайта ишлашни яхшилайдиган ва озиқ-овқат чиқиндиларини камайтирадиган технологияларга сармоя киритиши мумкин. Истеъмолчилар соғлом озиқ-овқат танлаш ва озиқ-овқат чиқиндиларини камайтириш орқали озиқ-овқат хавфсизлиги муаммоларини ҳал қилишда ҳам рол ўйнайди.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, рақамли иқтисодиётда озиқ-овқат хавфсизлиги муаммоларини ҳал қилиш кўп томонлама ёндашувни талаб қилади. Ҳукуматлар, хусусий ташкилотлар ва истеъмолчилар етарли, хавфсиз ва тўйимли озиқ-овқат мавжудлиги, фойдаланиш имконияти ва улардан фойдаланишни таъминлаш учун биргаликда ҳаракат қилишлари керак. Барқарор ечимларни амалга ошириш орқали биз ҳозирги ва келажак авлодлар учун озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашимиз мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11-сентябрдаги ПФ-158-сонли Фармони "Ўзбекистон — 2030 стратегияси" www.lex.uz

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли Фармони "2022-2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси" www.lex.uz

3. Халқ сўзи online газетаси 2023 йил 20 июл №148 (8491) https://xs.uz/uz

4. Дарё расмий канал https://daryo.uz/2023/06/09/prezident-italiyada-bmt-oziq-ovqat-va-qishloq-xojaligi-tashkilotiga-bordi

5. Дарё расмий канал https://daryo.uz/2023/09/07/prezident-bmt-oziq-ovqat-va-qishloq-xojaligi-tashkiloti-bosh-direktorini-qabul-qildi

Абдувохидова Сайёра Абдухамидовна.
Научный руководитель: Арзуманян Стелла Юрьевна - к.э.н., доцент Ташкентский финансовый институт

ОРГАНИЗАЦИОННО-ФИНАНСОВЫЙ МЕХАНИЗМ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ В КОММЕРЧЕСКОМ БАНКЕ

Аннотация. *В рамках данной работы будут рассмотрены различные аспекты управления рисками, включая идентификацию, оценку, контроль и минимизацию рисков, а также механизмы компенсации и сокращения ущерба в случае их возникновения. Благодаря изучению этих механизмов будут предложены рекомендации по улучшению системы управления рисками в коммерческих банках, что повысит их стабильность и надежность.*

Ключевые слова: *коммерческие банки, риск, регулятор, финансовая устойчивость, система управления рисками, механизм управления,*

мониторинг.

Annotation. *This work will examine various aspects of risk management, including identification, assessment, control and minimization of risks, as well as mechanisms for compensation and reduction of damage if they occur. Through the study of these mechanisms, recommendations will be proposed to improve the risk management system in commercial banks, which will increase their stability and reliability.*

Key words: *commercial banks, risk, regulator, financial stability, risk management system, management mechanism, monitoring.*

Annotatsiya. *Ushbu ish xavflarni boshqarishning turli jihatlarini, jumladan, xavflarni aniqlash, baholash, nazorat qilish va minimallashtirishni, shuningdek, ular yuzaga kelgan taqdirda zararni qoplash va kamaytirish mexanizmlarini o‘rganadi. Ushbu mexanizmlarni o‘rganish orqali tijorat banklarida risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar taklif etiladi, bu esa ularning barqarorligi va ishonchliligini oshiradi.*

Kalit so‘zlar: *tijorat banklari, risk, regulyator, moliyaviy barqarorlik, risklarni boshqarish tizimi, boshqaruv mexanizmi, monitoring.*

Ключевую роль в обеспечении устойчивости банковской деятельности и минимизации потенциальных финансовых потерь играет организационно-финансовый механизм управления рисками. Организационно-финансовый механизм управления рисками представляет собой систему процессов, процедур и мер, принимаемых организацией для идентификации, анализа, оценки и управления рисками, с которыми она сталкивается. Его сущность заключается в том, чтобы обеспечить эффективное управление рисками и минимизировать потенциальные негативные последствия.

Важным моментом организационной составляющей механизма управления рисками является четкое определение ответственности и роли сотрудников, распределение обязанностей в управлении рисками. Это включает в себя установление четких целей и стратегий управления рисками, назначение ответственных лиц, разработку процедур контроля и отчетности, а также обеспечение обучения и обмена информацией о рисках внутри коммерческого банка.

Следует также отметить, что финансовая составляющая механизма управления рисками связана с определением финансовых ресурсов, необходимых для покрытия потенциальных убытков, связанных с рисками. Это включает в себя анализ и оценку финансовых последствий рисков, разработку стратегий финансирования рисков, таких как страхование или создание резервных фондов и мониторинг финансовой устойчивости организации.

Организационно-финансовый механизм управления рисками включает в себя систему контроля и оценки эффективности принятых мер, чтобы убедиться, что риски эффективно управляются и соответствуют установленным целям и стратегиям. Это может включать в себя проведение регулярных аудитов, мониторинг показателей риска и выполнение регуляторных требований.

Таким образом в целом, организационно-финансовый механизм управления рисками является неотъемлемой частью успешного функционирования банка. Он позволяет ей эффективно управлять рисками, минимизировать потенциальные убытки и обеспечить финансовую устойчивость. Правильное внедрение и функционирование этого механизма позволяет организации достигать своих целей и снижать риски.

Как известно, основные аспекты механизма управления рисками включают:

1. Идентификацию рисков, т.е. процесс определения и описания потенциальных рисков, с которыми может столкнуться банк. Это может быть связано с внешними факторами, такими как экономические или политические изменения, а также с внутренними факторами, такими как недостатки в процессах или недостаточная квалификация персонала.

2. Анализ и оценку рисков: процесс оценки вероятности возникновения рисков и их потенциальных последствий. Это позволяет организации определить приоритеты и разработать стратегии управления рисками.

3. Разработку стратегий управления рисками, т.е. на основе анализа и оценки рисков, коммерческий банк разрабатывает планы и стратегии для управления рисками. Это может включать в себя принятие мер предосторожности, создание резервных фондов, страхование рисков или принятие других мер, с целью вероятности возникновения рисков или уменьшения их воздействие.

4. Реализация мер управления рисками: этот аспект включает в себя выполнение планов и стратегий, разработанных для управления рисками. Важно, чтобы организация имела четкие процедуры и структуры, чтобы эффективно реализовывать меры управления рисками.

5. Мониторинг и контроль: регулярный мониторинг и контроль являются неотъемлемой частью механизма управления рисками. Организация должна следить за изменениями в рисковой среде, оценивать эффективность принятых мер и вносить корректировки в стратегии управления рисками при необходимости.

Управленческая структура и культура также играют важную роль в эффективном управлении рисками. Они способствуют созданию и поддержанию безопасной и ответственной среды, где риски могут быть идентифицированы, измерены, контролируемы и управляемы.

Управленческая структура определяет роли, ответственность и взаимодействие между различными уровнями руководства. В контексте управления рисками, структура должна быть такой, чтобы она могла обеспечивать эффективное управление и контроль над рисками на всех уровнях.

Кроме того, управленческая структура должна обеспечивать прозрачность и отчетность в отношении рисков. Различные отделы и подразделения должны быть включены в процесс идентификации и оценки рисков, а также в разработку и реализацию стратегий по управлению рисками. Это помогает в создании единого подхода к управлению рисками и

обеспечивает эффективное распределение ресурсов для смягчения рисков.

На наш взгляд, успешная реализация организационно-финансового механизма требует гармоничного взаимодействия всех компонентов, что позволяет банку эффективно адаптироваться к переменам в экономической среде и минимизировать риски. Все аспекты управленческой структуры должны работать вместе, чтобы обеспечить эффективное управление рисками в коммерческих банках.

Литература

1. Закон Республики Узбекистан от 25 апреля 1996 г. «О банках и банковской деятельности», Национальная база данных законодательства, № 03/19/516/2484

2. Указ Президента Республики Узбекистан от 12 мая 2020 года № УП-5992 «О стратегии реформирования банковской системы Республики Узбекистан на 2020 — 2025 годы», Национальная база данных, № 06/23/62/0232

3. Постановление правления центрального банка Республики Узбекистан «Об утверждении положения о требованиях, предъявляемых к управлению банковских рисков коммерческих банков», Национальная база данных законодательства, от 28.07.2021 г., 10/21/3313/0724-сон

УДК 391.4:736

Мирзоулугбек Юсупов - старший преподаватель.
Шанк Валентина – магистрантка Узбекско-Финдляндского педагогического института

ШИРОКОЕ ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СФЕРЕ УСЛУГ СПОРТИВНОГО МЕНЕДЖМЕНТА

Аннотация. *Широкое развитие физической культуры и спорт а в жизни современного общества осуществляется непосредственным влиянием экономических воздействий на сферу жизни, государства на некоторые локальные структурные изменения, связи способствующие увеличение прибыли и человеческого капитала. Благоприятно влияет на повышение уровня физической и экономической активной составляющей.*

Ключевые слова: *вид деятельности, сфера физической культуры и спорта, инвестирование, рынок, экономика, инвестированная привлекательность, спорт услуги, товары, спрос, платежеспособность.*

Аннотация. *Замонавий жамият ҳаётида жисмоний тарбия ва спортнинг кенг ривожланиши иқтисодий таъсирларнинг ҳаёт соҳасига, давлатга баъзи маҳаллий таркибий ўзгаришларга, фойда ва инсон капиталининг кўпайишига ёрдам берадиган алоқаларга бевосита таъсири билан амалга оширилади. Бу жисмоний ва иқтисодий фаол компонент даражасини оширишга ижобий таъсир кўрсатади.*

Калит сўзлар: *фаолият тури, жисмоний тарбия ва спорт соҳаси, инвестиция, бозор, иқтисодиёт, инвестиция жозибадорлиги, спорт хизматлари, товарлар, талаб, тўлов қобилияти.*

Annotation. *The extensive development of physical culture and sports in the modern society is achieved through direct influence of economic impacts on the sphere of life, state's local structural changes, and connections that promote the increase of profit and human capital. It has a positive effect on the improvement of the level of physical and economic active component.*

Keywords: *type of activity, sphere of physical culture and sports, investment, market, economy, investment attractiveness, sports services, goods, demand, solvency.*

Введение. Говоря о развитии спортивного менеджмента, В.И.Жолдак (**Жолдак, Владимир Иванович** (1928–2006) — выпускник Государственного центрального ордена Ленина института физической культуры (1952). Специалист в области социологии физической культуры и спорта, управления физкультурно-спортивным движением и организации производственной физической культуры. Доктор педагогических наук (1992). Профессор (1991).

Опубликовал более 400 научных работ, в том числе монографии:

«Физическая культура и научная организация труда» (1969),

«Советская система физического воспитания» (1975, соавтор),

«Основы менеджмента спорта» (1998, соавтор),

«Менеджмент» (1999, соавтор),

«Менеджмент спорта и туризма» (2000, соавтор) говорит о том, что:

1. на протяжении длительного времени (с 1950 г. по 2005 г.) сохраняется тенденция стабильного роста научного интереса к проблемам спортивного менеджмента, выраженная как количественными, так и качественными показателями (число публикаций, количество ученых, расширение круга научных исследований), причем в последнее десятилетие наблюдается стремительное их увеличение;

2. несмотря на расширение круга научных проблем, процесс становления и развития спортивного менеджмента в Узбекистане изучен недостаточно. Большая часть публикаций ограничивается постановкой вопроса о необходимости серьезных научных исследований, а не посвящена целенаправленному решению конкретных задач, связанных с научным описанием динамично развивающегося в стране профессионального коммерческого спорта и лечебно- профилактического спорта для достижения акме.

Независимо от уровня экономического развития любое государство стремится привлечь зарубежный капитал, получив прямой и косвенный эффекты от инвестиционных вложений. Наибольшую роль в привлечении инвестиций играют макроэкономические факторы, в том числе емкость внутреннего рынка, валютная , политическая стабильность, уровень развития инфраструктуры, наличие квалифицированной рабочей силы, а также эффективное применение инновационных технологий таких как : кластер

,метод Блума, диаграмма Венна, фишбоунд, которые применяется в качестве инструмента спортивного менеджмента. Существенным фактором является инвестиционная политика принимающего государства, обеспечивающая гарантии зарубежным инвесторам, эффективное и стабильное функционирование правовой системы. Инвестиционная политика определяет специфику направлений и средств регулирования допуска иностранных инвестиций в принимающую экономику, а также средств стимулирования их привлечения.

С точки зрения управления развитием спорта важными представляются следующие рекомендации:

- органы местного самоуправления создают спортивные и рекреационные центры, преследуя в первую очередь социальные цели;
- строительство и эксплуатация спортивных и рекреационных центров требуют значительных финансовых средств, в связи с чем значительная часть сооружений на различных этапах их создания и функционирования приватизируется;
- приватизация спортивных и рекреационных центров соответствует современной маркетинговой стратегии и способствует открытию новых рынков, диверсификации диапазона продукции и услуг, предлагаемых потребителю, профессионализации управления и т.п.;
- эффективная эксплуатация приватизированных спортивных и рекреационных центров может осуществляться только на принципах партнерства; "орган местного самоуправления + предприниматель" и т.д. .

Инновационные технологии используются в организации и проведении спортивных мероприятий в качестве инструмента спортивного менеджмента, включая решение логистических задач по регулированию потока спортсменов и зрителей, планирование финансовых и демографических аспектов, рекламно-информационное сопровождение спортивных событий, финансовое и юридическое делопроизводство, а также решение иных задач.



Рис. Тенденции инновационной деятельности физкультурно-спортивных услуг

Цель работы. Как было отмечено президентом Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёвым (инвестиции должны быть адресными ,экономически эффективными). Средства необходимо направлять в зависимости от потенциала районов, от того в каких предприятиях нуждается регион и привлекать инвестиции на конкретные проекты.

Постановление Кабинета Министров от 27.05.1999 г., утверждающее концепцию Государственной программы развития физкультуры и спорта в РУз. В частности, в главе 7 Конституции закрепляется принцип использования новых финансовых источников в развитии физкультуры и спорта, с учетом реалий рыночных отношений, в числе которых:

- развитие спортивного маркетинга;
- расширение спонсорства;
- использование спорта в рекламе;
- дальнейшее развитие спортивных услуг населению;
- расширение производства отечественной спортивной продукции;
- самофинансирование спортивных федераций и клубов;
- использование иностранных инвестиций, средств международных фондов и организаций;
- расширение рекламно-спортивного вещания на телевидении;
- организация спортивных шоу, использование прибыли профессионального спорта;
- широкое использование средств от проведения спортивных лотерей и др.

Этим же Постановлением на Государственный институт физической культуры возлагается ряд задач, в числе которых - подготовка специалистов по менеджменту и маркетингу в спорте.

Роль государства в формировании благополучных условий для развития инвестиционной политики- неоценима. Инвестиционная политика государства является важнейшей составной частью современного государства, она имеет приоритетное значение на развитие, привлекающие инвестиции в различных сферах услуг. Этот процесс осуществляется развитием капиталовложений как частных, а так-же государственных. Поставленная цель перед нами обсудить, как правильно привлечь финансирование и решать вопросы инвестиций в сфере услуг.

С этой целью было проведено анкетирование и опрос респондентов разного уровня начиная с учащихся школ, техникумов, высших учебных заведение и населения по месту жительства, всего опрошено было 972 респондента, из этого количество 828 из них были заинтересованы содействовать проекту, изъявили желание плотно заняться этой проблемой в сфере привлечения финансирования и инвестиций в сфере спортивно-массовых и физкультурно-оздоровительных услуг. Из имеющихся 84 субъектов предпринимательства функционировавших в сфере платных физкультурно-оздоровительных объектов, по данным изучения, исследования дел на местах следующие их 49 мини-футбольных полей с искусственным покрытием расположенных на территории города

Самарканда, суточных охват занимающихся составляет 14,2 %, из 9 атлетических и тренажерных клубов охват составил – 7,2%, в лечебно-массажных профилактических объектах ЛФК составляет- 6,8%.

Но несмотря на позитивную динамику, до сих пор актуальны проблемы, связанные с повышением двигательной активности граждан, недостаточной эффективностью использования возможностей физической культуры для целей оздоровления нации, качеством и доступностью физкультурно-оздоровительных услуг, обеспеченностью объектами спорта, прежде всего в зоне шаговой доступности требует совершенствования методическое, кадровое и медицинское обеспечение физической культуры и массового спорта

Следует отметить, что приведённые данные говорят о том, что на местах оказание услуг населению считаем малоизученным и на сегодняшний день работа проводимая в этом направлении требует пересмотрения, на компетентном уровне. По нескольким направлениям начиная с материальной базы технического оснащения и переквалификации персонала, обмен опытом аналогичных зарубежных партнеров в данной сфере.

Выводы. Развитие инновационного менеджмента как научного направления в современных условиях функционирования спортивных организаций обусловлено, с одной стороны, возникшей в результате социально-экономических преобразований в Узбекистане потребностью в новом типе управления спортивными организациями, с другой - требованиями, которые изменяющаяся социально-экономическая среда предъявляет сегодня к их конкурентоспособности.

Подводя итог, можно сделать вывод, что очевидно, внедрение инновационных технологий в спортивную жизнь Узбекистана в ближайшие годы будет активизироваться в сфере зрелищности и доступности. Сфера физкультурно-оздоровительных и спортивно-зрелищных услуг обладает значительным инновационным потенциалом. Активное внедрение инновационных технологий в деятельность спортивных организаций даст дополнительный импульс к развитию сферы услуг, росту уровня качества жизни населения.

Библиография:

1) Проект Указа Президента Республики Узбекистана «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», 2017.

2) Аббасов А.М менеджмент и финансирование Т.2012 46-55 С.

3) Жолдак, В.И. Управление в сфере физической культуры и спорта/ В.И. Жолдак. – М: Дрофа, 20183. – 165 с.

4) Герасиенко А финансовый менеджмент- это просто К 2009216 С

5) Томас Дж.Стенли Как воспитывать привычки менеджмента Грей британ 1989 г 211 С

6) Будина В.И 2009Т 2460С Менеджмент и маркетинг

7) Абдуллаева,Уразова Б.С,0 Вахидова М.Б- Т2008 Все про менеджмент

8) Юсупов М.М . Шанк В.В материалы проведенных исследовательских работ по привлечению финансирования и инвестиций в сфере физической культуры и спорта в гор.Самарканде -2022-2023гг. Тестирование, анализ, бизнес-планы.

Э.И.Носиров – Тошкент молия институти “Баҳолаш иши ва инвестициялар” кафедраси мудири, и.ф.н., доц.

“ЯШИЛ” ОБЛИГАЦИЯЛАРНИ МУОМАЛАГА ЧИҚАРИШ ХУСУСИЯТЛАРИ

Аннотация. *Мақолада “яшил” облигацияларнинг мазмун-моҳияти, “яшил” облигацияларга қўйиладиган талаблар ва уларни муомалага чиқариш тартиби, “яшил” молиялаштиришга ўтишнинг миллий ва жаҳон иқтисодиётига таъсири, “яшил” облигацияларни муомалага чиқариш амалиёти таҳлили, шунингдек, мамлакатимиз хўжалик юритувчи субъектлари томонидан “яшил” облигацияларни муомалага чиқариш юзасидан таклиф ва тавсиялар берилган.*

Калит сўзлар: *“яшил” облигациялар, “яшил” молиялаштириш, “яшил” лойиҳалар, эмитент, қимматли қоғозлар, фонд биржаси, инвестор.*

ОСОБЕННОСТИ ВЫПУСКА «ЗЕЛЕНЫХ» ОБЛИГАЦИЙ

Аннотация. *В статье описаны сущность и значение “зелёных” облигаций, требования к “зелёным” облигациям, порядок их выпуска, влияние на национальную и мировую экономику перехода к “зелёному” финансированию, анализ практики выпуска “зелёных” облигаций, а также даны предложения и рекомендации по выпуску “зелёных” облигаций экономическими субъектами страны.*

Ключевые слова: *“зелёные” облигации, “зелёное” финансирование, “зелёные” проекты, эмитент, ценные бумаги, фондовая биржа, инвестор.*

FEATURES OF ISSUING GREEN BONDS

Abstract. *The article describes the essence and significance of “green” bonds, requirements for “green” bonds, the procedure for their issuance, the impact on the national and global economy of the transition to “green” financing, an analysis of the practice of issuing “green” bonds, and also provides suggestions and recommendations for issuance of “green” bonds by economic entities of the country.*

Key words: *“green” bonds, “green” financing, “green” projects, issuer, securities, stock exchange, investor.*

Кириш

Сўнгги йилларда юз берган глобал инқирозлар, хусусан, энергетика,

озиқ-овқат хавфсизлиги, айрим давлатлар ўртасидаги сиёсий можоролар ва молиявий инқирозлар таъсирида барқарор ривожланишга эришиш масаласи янада долзарб вазифалардан бирига айланиб бормоқда. Олимлар инсонларнинг табий атроф-муҳитга таъсири сайёрамизнинг экологик чегараларидан ошиб кетаётгани ва бу ҳолат инсонлар учун яхши натижаларни олиб келмаслиги ҳақида "бонг" урмоқда.

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда бугунги кунда кўпчилик давлатлар ҳукуматлари сайёрамизда ресурслар чекланганлигини ҳисобга олиб, ўз мамлакатлари учун табиий ресурслар билан боғлиқ муаммоларни ҳал қилишнинг самарали усулларини қидирар экан, "яшил" иқтисодиётга ўтишни миллий сиёсат ва халқаро ҳамкорликни ривожлантирувчи "катализатор" сифатида қарамоқда ҳамда барқарор ривожланишга ёрдам берувчи энг мақбул бўлган восита сифатида эътироф этмоқда.

Ўз навбатида, "яшил" иқтисодиётга ўтиш катта капитал харажатларни талаб этади. Бу борада мамлакатимизда "яшил" иқтисодиётни шакллантиришда "яшил" молиялаштириш воситалари, хусусан "яшил" облигациялардан фойдаланишнинг хориж амалиёти ва тажрибасини чуқур таҳлил қилиш асосида зарур таклиф-тавсияларни ишлаб чиқиш бугунги кундаги долзарб вазифалардан бири саналади.

Таҳлил ва натижалар

"Яшил" облигациялар хусусий ташкилотлар, давлат ташкилотлари тимсолида миллий ҳукумат, маҳаллий ҳукумат ёки давлат органлари ҳамда халқаро молия институтлари масалан, Жаҳон банки, Европа инвестиция банки ва бошқалар томонидан чиқарилиши мумкин. "Яшил" облигациялар асосан АҚШ доллари ва еврода чиқарилади (эмиссиянинг 80% га яқини), уларнинг ўртача муомалада бўлиш муддати 5–10 йилни ташкил этади. "Яшил" облигациялар нафақат атроф-муҳитга эътиборли инвесторлар орасида, балки иқлим ўзгаришларининг корхоналар ва давлат сиёсатига сезиларли таъсир қилишидан хабардор бўлган инвесторлар ўртасида ҳам тобора оммалашиб, барқарор инвестиция воситасига айланиб бормоқда.

Жаҳон амалиётида "яшил" облигацияларни халқаро капитал бозорига чиқариш ва халқаро реестрга киритиш учун Капитал бозорлари халқаро Ассоциацияси (ICMA-The International Capital Market Association) ва Иқлим облигациялари ташаббуси (CBI - Climate Bond Initiative) талабларига жавоб бериши керак. Муомалага чиқарилаётган облигациялар "яшил" облигациялар сифатида тан олиниши учун юқорида қайд этиб ўтилган ташкилотлар томонидан эътироф этилган асосий тамойилларга мос келиши керак. "Яшил" облигациялар тамойиллари эмитентларни экологик хавсиз ва барқарор ривожланиш лойиҳаларини молиялаштиришни қўллаб-қувватлаш мақсади сари етаклаб, бунинг натижасида атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва зарарли чиқиндилар эмиссияси нолга тенг бўлган иқтисодиётни шакллантиришга хизмат қилади.

"Яшил" облигацияларни муомалага чиқариш қуйидаги 4 та асосий тамойилларга мос бўлиши керак:



1-расм. “Яшил” облигацияларни муомалага чиқариш тамойиллари[32]

“Яшил” облигациялар тамойиллари эмитентларга маълумотларни очиқлаш жараёнларига тўлиқ амал қилишни тавсия қилади. Сабаби бундай маълумотлар инвесторлар, тижорат банклари, андерайтерлар, битим ташкилотчилари, суғурта компаниялари ва бозорнинг бошқа иштирокчилари учун янги муомалага чиқарилаётган “яшил” облигацияларнинг хусусиятларини аниқлаб олишлари учун ўта муҳим ҳисобланади.



2-расм. Дунё миқёсида 2014-2022 йилларда муомалага чиқарилган “яшил” облигациялар қиймати (млрд. АҚШ долларида)[33]

2-расмда келтирилган маълумотлардан кўриниб турибдики, охирги йилларда дунё бўйлаб муомалага чиқарилган “яшил” облигациялар қиймати кескин ошиб бормоқда. Агар 2014 йилда дунё бўйича муомалага чиқарилган “яшил” облигациялар қиймати 36,7 млрд. АҚШ долларига тенг бўлган бўлса, 2021 йилга келиб, “яшил” облигацияларни муомалага чиқариш бўйича рекорд даражадаги қиймат, яъни 582,4 млрд. АҚШ долларига тенг бўлган натижа қайд этилди. 2022 йилда эса, 2021 йилдагига қараганда бироз камроқ, яъни 487,1 млрд. АҚШ доллари қийматидаги “яшил” облигациялар муомалага чиқарилди.

[32] Green-Bond-Principles-June-2021-140621.pdf (icmagroup.org) маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.

[33] https://www.statista.com/statistics/1289406/green-bonds-issued-worldwide/



3-расм. Дунё миқёсида 2022 йилда муомалага чиқарилган “яшил” облигациялар эмиссияси сони[34]

Юқорида келтирилган расм маълумотларига эътибор қаратадиган бўлсак, 2022 йилда дунё миқёсида жами 5166 та “яшил” облигациялар эмиссияси амалга оширилган. Агар облигациялар эмиссиясини иқтисодиёт тармоқлари бўйича таҳлил қиладиган бўлсак, 2022 йилда энг кўп, яъни 1696 та “яшил” облигациялар эмиссияси энергия самарадорлиги юқори бўлган бинолар қурилиши билан боғлиқ лойиҳаларни молиялаштириш мақсадларида чиқарилган. Сув ва оқава сувларни барқарор бошқариш ҳамда тоза ичимлик суви учун барқарор инфратузилмани яратиш мақсадларига қаратилган лойиҳаларни молиялаштириш учун 1092 та “яшил” облигациялар эмиссияси амалга оширилган. Қайта тикланадиган энергия манбаларини яратиш билан боғлиқ лойиҳаларни молиялаштириш учун 1023 та “яшил” облигациялар эмиссияси қайд қилинган. Экологик тоза транспорт тизимини йўлга қўйиш мақсадида 718 та, чиқиндиларни қайта ишлашга қаратилган 236 та, ердан фойдаланишда экологик жиҳатдан барқарор бошқариш мақсадлари йўлида 182 та, саноат миқёсида экологик барқарор маҳсулотларни ишлаб чиқариш мақсадларида 37 та, АКТ соҳасида 30 та ва иқтисодиётнинг бошқа соҳа ва тармоқларида 152 та “яшил” облигациялар эмиссияси амалга оширилган.

Хулоса ва таклифлар

1. “Яшил” иқтисодиётга ўтиш катта ҳажмдаги инвестицияларни талаб қилади. Бундай харажатларни фақат давлат бюджети маблағлари ҳисобидан амалга оширишнинг имкони йўқ ва бунга маблағ ҳам етмайди. Бу масалага ечим сифатида кам углеродли технологиялардан фойдаланишга хусусий секторни фаол жалб қилиш лозим.

2. Илғор хорижий давлатлар тажрибасига таянган ҳолда мамлакатимизда “яшил” молиялаштиришни қўллаб-қувватлаш ва бу жараёнга хусусий инвесторларни фаол жалб қилиш мақсадида “Тошкент” республика фонд биржасида “яшил” облигациялар билан савдо-сотиқ

[34] https://www.statista.com/statistics/1289406/green-bonds-issued-worldwide/

қилувчи алоҳида бўлимни ташкил этиш мақсадга мувофиқ, - деб ҳисоблаймиз. Бунинг учун аввало, тегишли қонун ва қонун ости ҳужжатларига “яшил” облигациялар тушунчаси, унинг турлари ва тамойилларига аниқлик киритиш, сўнгра фонд биржасида “яшил” облигациялар билан савдо-сотиқ учун зарур экотизимни яратиш зарур.

3. “Яшил” облигацияларни халқаро капитал бозорига чиқариш ва халқаро реестрга киритиш учун Капитал бозорлари халқаро Ассоциацияси (ICMA) ва Иқлим облигациялари ташаббуси (CBI) талабларига талабларига жавоб бериши керак. Европа Иттифоқи, Буюк Британия, Хитой ва бошқа кўплаб давлатлар “яшил” лойиҳалар таксономияси (барқарор ривожланиш ва “яшил” лойиҳаларнинг аниқ йўналишлари ва мезонлари)ни ишлаб чиққан бўлиб, таксономия ICMA ва CBI талабларига мос келади. Шунинг учун ривожланган мамлакатлар тажрибасидан келиб чиққан ҳолда мамлакатимизда ҳам “яшил” лойиҳалар таксономияси ишлаб чиқилиши мақсадга мувофиқ.

4. Корпоратив тузилмалар томонидан халқаро капитал бозорларида “яшил” облигацияларнинг муомалага чиқарилиши ҳисобига атроф-муҳит ифлосланишининг олдини олиш, табиатга зарарли чиқиндиларнинг чиқарилишини камайтириш ва барқарор ривожланиш лойиҳаларини молиялаштириш орқали мамлакатимизда “яшил” иқтисодиётни шакллантиришга хизмат қилади. Ўз навбатида, иқтисодиёт субъектлари томонидан “яшил” облигацияларни чиқариш ҳисобига “яшил” лойиҳаларни молиялаштириш кўламининг ортиши бу борада давлат бюджетидан қилинадиган харажатларни қисқаришига олиб келади. Шундан келиб чиққан ҳолда мамлакатимиздаги йирик саноат ишлаб чиқариш корхоналари биринчилар қаторида “яшил” облигацияларни муомалага чиқариш орқали халқаро капитал бозоридан маблағлар жалб қилиш ҳисобига инновацион технологияларга асосланган чиқиндисиз иқтисодиётга мослашган маҳсулотлар ишлаб чиқаришни йўлга қўйишлари мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

Р.Х.Эргашев - ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

TEMIR YO‘L KORXONALARDA MEHNAT JARAYONLARINI TASHKIL ETISH VA MEHNAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Annotatsiya: *maqolada temir yo‘l korxonalarida mehnat samaradorligini oshirish yo‘llari va investitsion-innovatsion foallikni oshirish natijasida erishilgan yutuqlar keltirib o‘tilgan.Shuningdek, temir yo‘l korxonalariga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy omillar asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *temir yo‘l korxonasi, mehnat samaradorligi, ijtimoiy omil, ishlab chiqarish*

Аннотация: *в статье упоминаются пути повышения производительности труда на железнодорожных предприятиях и*

достижения, достигнутые в результате повышения инвестиционно-инновационной активности, а также обосновываются социальные факторы, воздействующие на железнодорожные предприятия.

Ключевые слова: *железнодорожное предприятие, производительность труда, социальный фактор, производство.*

Abstract: *in the article, the ways of increasing labor efficiency in railway enterprises and the achievements achieved because of increasing investment-innovative activity are mentioned. In addition, the social factors influencing railway enterprises are based.*

Key words: *railway enterprise, labor efficiency, social factor, production*

Temir yo‘l **к**orxonalarda mehnat samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash va ta’sir darajasini tadqiq qilish asosida samaradorlikni oshirish bugungi iqtisodiyot oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi. Shu boisdan, mehnat samaradorligiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni o‘rganib chiqamiz. Bunda dissertasiya obekti sifatida tanlangan “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tasarrufidagi Qarshi lokomotiv deposining asosiy ko‘rsatkichlarini bevosita tahlil etamiz.

Qarshi lokomotiv deposi MTUning tarkibiy qismi bo‘lib, tizimli birlik maqomiga ega va o‘zining moliyaviy-ishlab chiqarish faoliyatini temir yo‘l transportida qo‘llaniladigan davlat tashkilotlari to‘g‘risidagi, mehnat jamoalari to‘g‘risidagi qonun va lokomotiv deposi hisob-kitobi to‘g‘risidagi yo‘riqnomalar asosida olib boriladi.

Qarshi lokomotiv deposi tarkibiga lokomotiv brigadalarini almashtirish va texnik xizmat ko‘rsatish punkti hamda lokomotiv depolari bilan birlashtirilgan yoqilg‘i bazalari, aylanma depo va qayta ta’mirlanadigan poyezd kiradi.

Qarshi lokomotiv deposida mehnat sharoitlarini yaxshilash,ish sifati va hajmini oshirish jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Hozirda hodimlar tarkibini optimallashtirish, Oliy ma’lumotga ega hodimlar sonini oshirish va buning natijasida personal tarkibini yahxshilash masalalari kun tartibida qolmoqda.

Qarshi lokomotiv tarmoqdagi yirik korxonalardan biri sanaladi. Hozirgi kunga kelib korxonada 756 ta ishchi-xodim o‘z ximat vazifalarini o‘tamoqda. Bunda 66 nafar ayol hamda 690 ta erkak xodimlar mavjud. Korxonada oliy ma’lumotga ega xodimlar soni ham oshib bormoqda. 2022-yilga kelib 119 ta oliy ma’lumotli, 279 ta o‘rta-maxsus hamda 358 ta kasb-hunar maktabi bitiruvchilari, o‘rta ma’lumotga ega xodimlar faoliyat yuritmoqda. Korxonada asosan Toshkent davlat transport universiteti talabalari, Toshkent, Samarqand va Qarshi transport kolleji bitiruvchilari mavjud. Bilamizki, Qarshi lokomotiv deposining asosiy faoliyati yuk va yo‘lovchilarni tashish hamda lokomotivlarni ta’mirlash hisoblanadi. Shuningdek, korxona yordamchi xo‘jalik faoliyati sifatida

teplovozlarni ijaraga berish va boshqa shkilotlarga qarashli teplovozlarni ta’mirlash bilan shug‘ullanadi.

Mehnat samaradorligiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy va iqtisodiy omillarni birma-bir qayd etib o‘tish orqali, bizning fikrimizcha ushbu omillarni to‘liq ta’sir doirasini ifoda etib bo‘lmasdan, balki mehnat samaradorligiga ta’sir etuvchi ikki-lamchi omillarni birlamchi omillar sirasida qayd etib o‘tish kabi xatolikka yo‘l qoyish mumkin. Bunday jiddiy xatolikka yo‘l qoymaslik uchun omillarning mohiyati va ta’sir doirasini chuqur tahlil qilish orqali, so‘ng ularni ta’sir doirasi boyicha sinflarga bo‘lib chiqish maqsadga muvofiq. Shuni qayd etib o‘tish lozimki, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni tahlil qilishda samaradorlikka ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa omillar guruhi bilan bog‘liq holda, o‘zaro to‘ldiruvchi hamda guruh omillari ijtimoiy-iqtisodiy omil sifatida namoyon bo‘lishligi mumkin.

Mehnat samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi iqtisodiy omillar sifatidagi mehnatga haq to‘lash **bir tomondan** iqtisodiy-ishlab chiqarish mehnat samaradorligi ko‘rsatkichining ko‘tarilishiga ta’sir ko‘rsatsa, **ikkinchi tomondan** esa, iqtisodiy-ishlab chiqarish natijalari yuqori ijtimoiy natijalarni yaratishi bilan, o‘z navbatida iqtisodiy omillar korxonaning xo‘jalik ishlab chiqarish faoliyati natijalarining bir bo‘lagi sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday jarayonda,mehnat potensiali tushunchasi ham mehnat samaradorligi oshishida o‘z o‘rniga ekanligini ko‘ramiz.

Xodimning mehnat potensiali – mehnat faoliyatida bajara olishga qurbi etadigan mehnat qobiliyati. Xodimning mehnat sohasidagi resurs imkoniyati. Mehnat potensiali inson potensialining bir bo‘lagidir, chunki u faqat mehnat sohasidagi imkoniyatni tavsiflaydi. Mehnat potensiali ishchining malaka darajasi, bilimi, saviyasi, ish tajribasi va imkoniyatlarini o‘zida ifoda etadi. Inson mehnat potensialini o‘zaro bog‘liq holdagi 3 ta komponentga: psixofiziologik potensial (qobiliyat, sog‘liq, serg‘ayratlik, serharakatlik, bardoshlilik, asab tizimi), malaka potensiali (maxsus va mehnatga oid bilim hamda ko‘nikmalarga ega bo‘lish, uni qo‘llay olish, mehnat sifatini o‘zgartira olishlik) va shaxsiy potensial (fuqarolik pozisiyasi, vaziyatni idroklay olish, to‘g‘ri va zaruriy qarorni qabul qila olish, tashkilotchilik, ijodiy yondasha olishlik) bo‘lish mumkin.

Ijtimoiy omillarni mehnat samaradorligiga ta’sir ko‘rsatish ko‘lami boyicha umumiqtisodiyot, hududiy, tarmoq, korxona va ish joyi boyicha guruhlarga bo‘lgan holda tahlil qilish, bizning fikrimizcha ushbu omillarni kengroq tushunish imkonini beradi.

Ijtimoiy omillarning umumiqtisodiyot boyicha ta’sir ko‘rsatishi, avvalo mamlakatda mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi qonun va boshqa normativ hujjatlardan tashkil topadi. Boshqa tomondan, mehnatga bo‘lgan munosabat, mehnat intensivligini oshirish, mehnat resurslari bandligini oshirishga qaratilgan

siyosatdan iboratdir. Har bir guruh omillarining ta’sir darajasi va yo‘nalishlari mavjud bo‘lishiga qaramay, bir guruh omillari boshqalari bilan bevosita bog‘liq.

Ishlab chiqarish manbalari bilan ishchi kuchining o‘zaro birgalikda harakatga kirishishi, ishchining ishlab chiqarish jarayoniga qo‘shilishini ta’minlab ish joyini yuzaga keltiradi.

Ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy omillarni mehnat potensiali komponentlari kesimida tavsiflaymiz.

Psixofiziologik potensial. Inson sog‘lig‘iga zarar etkazmaydigan, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilingan, xavfsiz, mehnat normalari asosida tashkil etilgan, mehnat faoliyatida jismoniy, aqliy va boshqa imkoiyatlari rivojlanishini ta’minlovchi holatlar majmui.

Mehnat sharoiti. Ish joyining sanitariya talablariga javob berishi va adolatli mehnat sharoitlarining yaratilishi. Mehnat sharoiti ishlab chiqarish omillari (mehnat resurslari) dan uzoq vaqt davomida yuqori mehnat qobiliyatlarini saqlagan holda aqliy va jismoniy qobiliyatlaridan samarali foydalanish imkonini beradi[35].

Ish joyini tashkil etish (ranglar ta’siri, yoritilganlik, havo harorati). Insonning psixofiziologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda normal mehnat qilishligi uchun ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan sharoit va qulayliklar holati.

Inson paydo bo‘libdiki olamni turli ranglar o‘rab turadi, ushbu ranglar inson organizmiga, nerv va oliy asab tizimiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ranglar inson organizmining psixofiziologik holatini shakllantirishga faol ta’sir ko‘rsatadi. Bu ranglar birinchi navbatda vegetativ nerv tizimiga ta’sir ko‘rsatadi. Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida aniqlandiki, ranglarning vegetativ nerv tizimiga ta’sir ko‘rsa-tishi oqibatida insonlarda ranglarni ajrata olish qobiliyati o‘zgaradi.

Malaka potensiali. Mehnat faoliyati bilan band bo‘lgan ishchi o‘zining mehnat tajribasi va bilimidan foydalangan holda turli murakkablikdagi ishlarni samarali hamda sifatli bajara olishlik imkoniyati. Malaka potensialining oshib borishi ishchining murakkab ishlarda samarali mehnat qila olish qobiliyatiga bog‘liqdir. Samarali mehnat qila olish ya’ni mehnat sifatini oshirish avvalo ishchining mahoratini, malakasini oshirish va qo‘shimcha o‘qitish imkoniyatlariga bog‘liqdir. Biroq bu imkoniyatlar ham cheklangan, chunki u qo‘shimcha vaqt va mablag‘ sarflashni (“inson kapitali”ga investisiyalarni)[36] talab qiladi.

Shaxsiy potensial. Insonning ichki imkoniyatlarini rivojlantirish va undan unumli foydalanish qobiliyati. Shaxsiy potensial insonni yaxshi yashashi, hayotda muvoffaqiyatlarga erishish va turli qiyinchiliklarda samarali yo‘l topish imkoni-

[35] Абдурахмонов О.К. “Методическое обеспечение выбора мероптиятий по улучшению условий и охраны труда на промышленном предприятии”. “Двадцать четвертые международные Плехановские чтения”. - М., 2011. – с. 60.

[36] Abduraxmanov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti:nazariya va amaliyot / Darslik. Qayta ishlangan va to’ldirilgan 3-nashri. - T.: “Fan”, 2019

yatini beradi. Mazkur potensial o‘z ichiga ichki madaniyat va qiziqish (tirishqoqlik), mas’uliyat, insonlarga nisbatan hurmat, o‘ziga ishonch, mehnatga bo‘lgan ijobiy munosabat, sarbli bo‘lish, bilim va maqsadga qat’iy intiluvchanlik yoki boshqacha aytganda shaxsning ijtimoiy-psixologik holatini qamrab oladi.

Mehnat samaradorlikka ta’sir qiluvchi mazkur omillarning ta’sir ko‘rsatish darajasi boyicha turlicha farqga ega. Ish joyiga bog‘liq bo‘lgan bu omillar mehnat samaradorligiga subektiv ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida inson idroki (ongi) va faoliyatiga bog‘liqdir. Bu albatta mehnat samaradorligini oshirishda mustahkam va o‘zaro boshqa obektiv omillar (erkinlik, boshqaruvda ishtirok etishlik, ishonchga sazovor bo‘lish, oshkoralik va so‘z erkinligi va raqobat muhiti) bilan chambarchas aloqaga kirishib ta’sir ko‘rsatadi.

Н.Р.Эргашева – ҚарМИИ “Бухгалтерия ҳисоби ва аудит” кафедраси ўқитувчиси

МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА АУТСОРСИНГ ХИЗМАТЛАРИНИ БОШҚАРИШ ҲУСУСИЯТЛАРИ

Аннотация:*Ушбу мақолада мактабгача таълим ташкилотларида аутсорсинг хизматларини бошқариш ҳусусиятлари асосида стратегик, тактик ва операцион бошқарув принципларига асосланган БББББ модели бўйича фикр юритилган.*

Калит сўзлар: *стратегик бошқарув, тактик бошқарув, операцион бошқарув, аутсорсинг, мактабгача таълим ташкилоти*

Аннотация: *Аннотация: В данной статье рассматривается модель БББББ, основанная на принципах стратегического, тактического и оперативного управления с учетом особенностей управления аутсорсинговыми услугами в дошкольных образовательных организациях.*

Ключевые слова: *стратегический менеджмент, тактический менеджмент, оперативный менеджмент, аутсорсинг, организация дошкольного образования.*

Abstract: *This article discusses the BBBB model based on the principles of strategic, tactical and operational management based on the peculiarities of managing outsourcing services in preschool educational organizations.*

Key words: *strategic management, tactical management, operational management, outsourcing, preschool education organization*

Хизматлар бозори ривожланишининг замонавий шароитида аутсорсинг хорижий мамлакатлар иқтисодиётининг кўплаб тармоқларида корхоналарнинг ҳаётий фаоллиги ва рақобатбардошлигини таъминлаш омилларидан бирига айланмоқда. Бунинг олдидан сўнгги ўн йилликларда бошқарув технологиясида содир бўлган ўзгаришлар, шунингдек, маҳаллий, тармоқ ва глобал иқтисодий инқирозлар юзага келди, бунинг натижасида бошқарув қарорларини қабул қилиш шартлари сезиларли даражада

мураккаблашди. Шу сабабли, қўлланиладиган бошқарув технологияларининг самарадорлигини доимий равишда баҳолаш ва уни яхшилаш учун янги имкониятларни излаш керак. Бунинг йўналишларидан бири бу аутсорсингдир.

Ўзбекистон ташкилотларининг аутсорсинг соҳасидаги амалиёти бошқарув томонидан самарали бошқарув модели сифатида белгиланиши учун бир қатор мезонлар бўйича ушбу хизматларнинг таснифини шакллантириш керак.

Бу охир-оқибатда Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётининг амалдаги субъектларига ўз фаолияти учун энг яхши вариантни танлаш имконини беради. Молиявий директорга компаниянинг рақобатбардошлигини ошириш ва таклиф этилаётган товарлар, ишлар ва хизматлар сифатини яхшилашга қаратилган туб ўзгаришларни амалга оширишда ёрдам бериш учун мўлжалланган турли хил аутсорсинг турлари мавжуд. Юқорилардан келиб чиқан ҳолда мактабгача таълим ташкилотларида аутсорсинг хизматларини бошқаришнинг стратегик аутсорсинг тузилишини кўриб чиқишни таклиф қиламиз.Бунда қўйидаги бошкарув ҳусусиятларига эътибор қаратишимиз лозим:

- бизнес муаммоларидан хабардорликни аутсорсинг қилиш;
- бизнесни ўзгартиришни аутсорсинг қилиш;
- бизнес жараёнларини аутсорсинг қилиш;
- бизнес жараёнарида аутсорсинг инфратузилмаси.

Ушбу **БББББ** модель мактабгача таълим ташкилотларининг қисқа муддатли харажатларни камайтиришга эмас, балки бутун бизнес самарадорлигида сезиларли ютуқларга эришишга интилишини ва жорий инвестицияларга эмас, балки узоқ муддатли натижаларга йўналтирилишини назарда тутади.

Тактик аутсорсинг. Бошқарувнинг бу турини ўрта тузилмавий-маъмурий даражадаги муаммоларни ҳал қилиш даражасида ўз-ўзидан ҳал қилиб бўлмайдиган муайян муайян муаммоларга нисбатан қўллаш мумкин.

Операцион аутсорсинг одатда мижоз ташкилоти бошқарувининг энг паст даражасида маълум бир муаммони тезроқ, кўпинча қисқа муддатли ҳал қилиш учун ишлатилади, аммо аутсорсинг компанияси билан узоқ муддатли муносабатлар ҳам мумкин.

Аутсорсинг хизматларининг ушбу таснифини «очиқ» тизим сифатида кўриб чиқиш керак, бу ўзгарувчан ташқи муҳитда турли соҳалардаги корхоналар фаолияти ва бундай турларнинг тарқалишини англатади! хизматлар пайдо бўлиши мумкин, биз аниқлаган бешдан ташқари, таснифлашнинг бошқа белгиларига бўлган эҳтиёж.

Бугунги кунда Ўзбекистонда ҳам аутсорсинг кўпроқ хусусий аҳамият касб етади, яъни айрим соҳаларгагина жадал кириб келмоқда ва ривожланмоқда ҳамда бу соҳани ривожланишига тўсиқ бўлаётган бир қатор омиллар мавжуд. Биринчи навбатда аутсорсинг хизматларини кўрсатиш бўйича мукаммал меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларнинг ёки алоҳида қонуннинг йўқлиги саналади.

Бундан ташқари, анъанавий ишлаб келаётган, яъни барча вазифаларни кўп йиллар давомида ўзи мустақил бажариб, назорат қилиб келган юртимиз корхоналари учун ески ташкилий тузилмадан аутсорсер фирма билан ҳамкорлик етувчи янги ташкилий тузилмага ўтиш, диверсификациялаш жараёнлари мураккаб кечмоқда.

Шундай бўлишига қарамасдан, Ўзбекистон шароитида бугунги кунда мактабгача таълим, халқ таълими, соғлиқни сақлаш тизими ташкилотларини аутсорсинг тизимига ўтказиш бўйича кенг қамровли ишлар амалга оширилмоқда.

Сўнгги ўн йил ичида харажатларни камайтириш ва самарадорликни оширишга қаратилган бошқарув усулларидан фойдаланган кўплаб йирик ташкилотларни санаш мумкин. Улар томонидан энг кўп ишлатиладиган элементлар бошқарув усуллари, дастурий таъминот пакетлари ва бошқарув маслаҳатчиларининг ёрдами эди. Харажатларни камайтириш ва самарадорликни ошириш бўйича лойиҳалар сони маълум даражада дастлабки мақсадларга ва танланган методология қанча вақт самарали бўлишига боғлиқ эди. Кўпинча, муваффақиятсиз лойиҳа менежерлар қийин қарорлар қабул қилишни хоҳламасликлари, улар кескин ўзгаришлар ва ходимларни қисқартириш билан боғлиқ зарбалардан қочишни хоҳлашлари билан боғлиқ.

Ўзбекистонда иқтисодиётнинг турли соҳаларида аутсорсингдан фойдаланиш амалиёти эндигина тарқала бошлади, шунинг учун бу соҳадаги тадқиқотлар учун ҳам назарий, ҳам амалий жиҳатдан фойдали ва зарур бўлади. Ушбу турдаги хизматни реал ҳаётда амалий қўллаш учун аутсорсингдан фойдаланишнинг дастлабки шартлари ва зарур шартларини тушуниш керак. Ҳозирги бозор иқтисодиёти шароитида аутсорсингнинг аҳамияти ортиб бормоқда, чунки у компанияларга янада мослашувчан бўлиш, пайдо бўлган қийинчилик ва муаммоларга ўз вақтида жавоб бериш , илғор тажрибалардан фойдаланиш, рақобатбардошликка эришиш ва корхонангизнинг ишончлилигини ошириш. Аутсорсингдан фойдаланишнинг мақсадга мувофиқлиги ҳақида гап кетганда, шуни эсда тутиш керакки, бошқа бошқарув воситаларида бўлгани каби, барча ташкилотлар учун ягона алгоритм мавжуд эмас ва ҳар бир ҳолатда ундан фойдаланиш самарадорлиги компаниянинг индивидуал хусусиятларига боғлиқ. ташкилот ва бозорда мавжуд бўлган шартлар.

Аутсорсинг - бу замонавий менежментнинг муҳим воситаси бўлиб, унинг ривожланиши ҳам «кенгликда» (кўпроқ корхоналар аутсорсинг хизматларидан фойдаланади ёки кўрсатади) ва «чуқурликда» (кўпроқ бошқарув ва ишлаб чиқариш функциялари аутсорсинг объектига айланади).

Иккинчидан, компания балансидан асосий бўлмаган активларни чиқариш ва шу билан солиқ солинадиган базани камайтириш. Ва ниҳоят, ресурсларга эгалик қилишнинг умумий қийматини камайтириш орқали аутсорсинг капитални бўшатади. асосий бизнесга қайта сармоя киритиш. Молиявий инқироз натижасида аксарият компаниялар.

Ишнинг ушбу бандини якунлаб, шуни таъкидлашни истардикки, Ўзбекистон ташкилотлари томонидан аутсорсинг хизматларидан

фойдаланишга бўлган қизиқиш ортиб бораётгани ушбу соҳада чуқур ўрганиш ва тадқиқотларни талаб қилади, чунки бошқарувда ушбу воситадан фойдаланиш. ташкилот корхоналарнинг муайян функцияларини бажариш самарадорлигини оширади; харажатларни камайтириш, товарлар, ишлар, хизматлар сифатини яхшилаш, бутун компаниянинг рақобатбардошлигини ошириш. Илмий тадқиқотнинг кейинги босқичи аутсорсинг хизматларидан фойдаланишнинг зарурий шартлари, омиллари ва шартларига бағишланади.

Ўринбоев Ғайратжон Ғофур ўғли - Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси ҳузуридаги Иқтисодий жиноятларга қарши курашиш департаменти бош тафтишчиси

ФУҚАРОЛАРНИНГ ДАВЛАТ ПЕНСИЯ ТАЪМИНОТИНИ ТИЗИМИДА МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТНИНГ ҲОЗИРГИ ҲОЛАТИ ТАҲЛИЛИ

Аннотация. *Мазкур мақолада фуқароларнинг пенсия таъминоти тизимида амалдаги молиявий назорат тизими, амалга ошириш механизмлари ва институтлари таҳлил қилинган ҳамда уни такомиллаштириш бўйича таклифлар берилган.*

Калит сўзлар: *пенсия ва ижтимоий нафақалар, давлат молиявий назорати, ички аудит, пенсия жамғармаси, ижтимоий суғурта, нодавлат пенсия жамғармаси.*

Аннотация. *В данной статье анализируется действующая система финансового контроля, механизмы и институты реализации в системе государственного пенсионного обеспечения граждан и предлагаются предложения по ее совершенствованию.*

Ключевые слова: *пенсии и социальные пособия, государственный финансовый контроль, внутренний аудит, пенсионный фонд, социальное страхование, негосударственный пенсионный фонд.*

Abstract. *This article analyzes the current system of public financial control in state pension provision of citizens and mechanisms and institutions of enhancement, as well as provides recommendations for its improvement.*

Key words: *pension and social benefits, state financial control, internal audit, pension fund, social insurance, non-state pension fund.*

Бугунги кунда жаҳондаги мураккаб геосиёсий ва иқтисодий хатарлар мавжуд бўлган шароитда мамлакат иқдисодиётини ривожлантириш учун давлат бюджетининг даромадлар ва харажатлар қисмларини шакллантириш ва улардан самарали фойдаланишга янги талабларни қўяди.

Мамлакатнинг аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш тизимида пенсия таъминоти муҳим ўрин тутади. Демографик омиллар таъсирида аҳоли таркибида пенсия ёшидагилар улушининг ортиб, меҳнатга лаёқатли аҳоли сонининг қисқариб бориши барқарор, ишончли молиявий ресурслар билан таъминланган пенсия тизимини яратишнинг мақбул моделини танлаш билан

бирга маблағлардан мақсадли ва манзилли фойдаланиш устидан мукаммал молиявий назоратни амалга оширишни тақозо этади.

Охирги йилларда мамлакатда иқтисодий ўсишни таъминлаш, аҳоли фаровонлигини ошириш, ижтимоий ҳимояни яхшилашга қаратилган сай-харакатлар, аҳолининг турмуш даражасининг яхшиланиб бораётганлиги натижаси ўлароқ ўртача умр кўриш давомийлиги ҳамда мамлакат аҳолисининг ўсиши натижасида бюджетдан пенсия ва нафақаларга ажратилаётган маблағлар миқдорлари ортиқ бормоқда. Шу билан бир қаторда, ушбу соҳада маблағларнинг мақсадсиз ва ноқонуний фойдаланиш ҳолатлари ҳам кўпаймоқда. Амалиёт шуни кўрсатмоқдаки, ушбу соҳада ҳам бошқа бюджет соҳаларидаги каби ўтказилган текширишларда аниқланган хато ва кимчиликлар йилдан йилга ортиб бормоқда.

Сўнги йилларда пенсия ва ижтимоий нафақа олувчилар сони барқарор тарзда ўсишни ташкил этиб, ушбу кўрсаткичнинг олдинги йилга нисбатан ўсиши ўртача 5,6 фоизни ташкил этгани ҳолда, пенсия ва ижтимоий нафақа харажатларининг миқдори бироз “нотурғун” шаклда олдинги йилга нисбатан ўртача 23 фоизга ўсиб, пенсия ва ижтимоий нафақа олувчилар сонига нисбатан кескин ўзгариб бормоқда.

	2018	**2019**	**2020**	**2021**	**2022**
Пенсия ва ижтимоий нафақа олувчилар сони, минг киши	3 690,3	3 878,4	4 029,3	4 253,1	4 578,1
Пенсия ва ижтимоий нафақа харажатлари, млрд сўм	21 793,1	28 139,4	34 144,4	39 674,0	49 522,2

Тахлил натижаларидан кўриш мумкинки, ушбу соҳада харажатларнинг кескин ортиб бориши ўз навбатида молиявий қонунбузилишларни ҳам ортишига таъсир этади.

Хусусан, сўнги йилларда Бюджетдан ташқари пенсия жамғармаси тизимида пенсия ва ижтимоий нафақаларни тайинлаш ва тўланишида инсон омили иштирокини камайтириш ва ушбу жараёнларни рақамлаштириш борасида амалга оширилган ишлар натижасида ушбу соҳада молиявий қонунбузилишларни камайтиришда ижобий ўзгаришлар бўлсада, фуқароларнинг иш ҳақи ва стажи маълумотларини нотўғри аниқлаш, пенсия тайинлаш тўғрисидаги қонунчиликнинг талқин қилишда янглишиш, талабларга риоя этмаслик ва бошқа кўплаб омиллар сабабли пенсия ва нафақа тўловларини кам ёки ортиқча тўланиши ва жамғарма маблағларининг

ортиқча сарфланиши ҳолатлари сақланиб қолмоқда.

Хусусан, ички аудит хизматлари томонидан соҳада 2021 йилда 5504 та ҳолатда 9,9 млрд сўмлик, 2022 йилда 3134 та ҳолатда 6,6 млрд сўмлик молиявий ҳато ва кмчиликлар аниқланган бўлса, 2023 йилнинг ўтган 9 ойи давомида 1265 та ҳолатда 4,0 млрд сўмлик молиявий хато ва қонунбузилишлар аниқланган.



1-расм. Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тизимидаги молиявий хато ва қонунбузилишлар кўрсаткичлари (млн сўмда).

Кўриниб турибдики, рақамлар тизимда пенсия ва нафақалар тайинлаш ва тўлаш борасида қонунбузилиш ҳолатлари салмоғи ортиб бораётганлигини кўрсатмоқда.

Такидлаш жоизки, 2020-2022 йиллар давомида соҳа ходимлари томонидан содир этилган коррупцион жиноятларнинг асосий қисми ёки 83 фоизи ҳам пенсия ва нафақалар тайинлаб бериш юзасидан содир этилган бўлса, 17 фоиз қисми муддатидан аввал пенсия тайинлаб бериш ва тайинланган пенсия миқдорларини ошириб бериш эвазига содир этилган.



2-расм. Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тизимида содир этилган коррупциявий ҳолатлар кўрсаткичлари.

Шунингдек, соҳада молиявий назоратнинг самарали ташкил этилмаганлиги, соҳанинг тўлиқ ахборотлаштирилмаганлиги натижасида талон-торожлик ҳамда коррупцион жиноятлар ортиб бориш тенденцияси кузатилган. Хусусан, соҳада ушбу турдаги қонунбузилишлар ва жиноятларга йўл қўйиш ҳолатлари 2022 йилда ўтган йилнинг мос даврига нисбатан 22 фоизга ортган.

2020-2022 давомида кузатилган ҳуқуқбузарлик ҳолатларининг 27 фоизи жамғарма маблағларини талон-торож қилиш билан боғлиқ ҳолатларни ташкил этса, 73 фоизи коррупцион жиноятларни ташкил этган.



1-расм. Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тизимидаги ҳуқуқбузарликлар кўрсаткичлари.

Бунга асосий сабаблардан бири молиявий операцияларда ахборот технологияларни етарли тадбиқ қилинмаганлиги, кадрларни малакасини етишмаслиги, молиявий назорат тадбирларини амалга оширишда ягона тамойилнинг мавжуд эмаслиги, давлат молиявий назоратини амалга оширувчи ташкилотларда соҳани тўлиқ қамраб олиш имкониятининг йўқлиги, мутахассисларни ойлик маоши камлиги, улар фаолияти махаллий хокимият органлари аралашуви, тўлиқ мустақил эмасликлари ва бошқа кўплаб омилларни келтириш мумкин.

Соҳада қонунбузилишлар ва коррупцион ҳолатларни олдини олиш ҳамда молиявий назоратни такомиллаштириш мақсадида соҳада барча вазирлик ва идоралар маълумотлар базалари билан интеграция қилиш, пенсиялар тўлашнинг онлайн режимда ҳисоби ҳамда назоратини юритишни автоматлаштириш ҳамда автоматлаштирилган тўлов тизимини бюджетдан ташқари Пенсия жамғармаси, барча тижорат банклари ва бошқа ихтисослашган ташкилотлар, Фуқаролик ҳолати далолатномаларини ёзиш ва «Электрон нотариус» ахборот тизимлари билан интеграция қилиш зарур.

Muxitdinov Abduvaxob Abduvaliyevich - Jizzax politexnika instituti mustaqil ilmiy izlanuvchisi

QURILISH MAJMUASIDA KLASTERNI YARATISH JIHATLARI

Annotatsiya: *Maqolada iqtisodiyotning qurilish majmuasida o‘zaro xo‘jaliklararo hamkorlikni amalga oshirish maqsadida xo‘jalik yuritish klasterining mazmun mohiyati va uning namoyon bo‘lish jihatlari bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Klaster, diversifikatsiya, kooperatsiya, real sektor, franchayzing, subpudrat, lizing, rentabellik.*

Аннотация*: В статье раскрыта сущность бизнес-кластера и его проявления в целях реализации межбизнес-кооперации в строительном комплексе экономики.*

Ключевые слова: *Кластер, диверсификация, кооперация, реальный сектор, франчайзинг, субпудрат, лизинг, рентабельность.*

Annotation: *The article reveals the essence of the business cluster and its manifestations in order to implement inter-business cooperation in the construction complex of the economy.*

Key words: *Cluster, diversification, cooperation, real sector, franchising, subcontracting, leasing, profitability.*

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda qurilish majmuasi davlatni rivojlantirish, zarur infratuzilmani yaratish va aholi bandligini ta’minlashda asosiy o‘rin tutadi. Bu boradagi ishlarni maqbullashtirish va samaradorligini oshirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri klasterlar tashkil etishdir. Klaster - bu ma’lum bir hududda faoliyat yurituvchi o‘zaro bog‘langan kompaniyalar, etkazib beruvchilar, ta’lim va tadqiqot muassasalarining geografik jihatdan to‘plangan tarmog‘idir. Qurilish sanoati sharoitida klasterlarni yaratish resurslarni integratsiyalashuviga, bilim va tajriba almashishiga, innovatsiyalarni rag‘batlantirishga yordam beradi.

Qurilish majmuasida klasterlar yaratish bir qator xususiyatlarga ega bo‘lib, maqbul geografik joylashuvni tanlash, samarali boshqaruv tuzilmasini shakllantirish, rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va klaster ishtirokchilari o‘rtasida hamkorlik qilish uchun shart-sharoit yaratish kabi turli jihatlarni hisobga olishni talab qiladi. Mintaqaviy hokimiyat organlari bilan o‘zaro hamkorlik, shuningdek, moliyaviy va infratuzilma resurslariga kirishni ta’minlash ham muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha taraqqiyot strategiyasida yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo mahalliy xom ashyo resurslarin chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot islab chiqarishni jadal rivolantirishga qaratilgan sifat jihatdan yangi bosqichga o‘tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va deversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatdosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish, prinsipial jihatdan yangi mahsulot turlarini va o‘zlashtirish, shu asosida ichki va tashqi bozorda milliy tovarlarning raqobatdoshligii ta’minlash, belgilangan.

Ammo, yanada modernizatsiya uchun bugungi kun talabi bo‘yicha yuqorida zikr etilgan ustuvor yo‘nalishlarni izchil, samarali, tizimli va jadal ravishda amalga oshirish uchun zaruriy usul va vositalar kerak bo‘ladi. Ana shunday usul va vositalardan biri – bu xo‘jalik yuritish klasteridir.

O‘z mohiyatiga ko‘ra, xo‘jalik yuritish klasteri yagona texnologik zanjirga birlashtirilgan korxonalar majmui bo‘lib, u ilm-fan, ta’lim hamda xo‘jalik yuritish kooperatsiyasini chuqurlashtirish, yangi texnologiyalarni amaliyotga jadal joriy etishni imkoniyatini o‘zida nomoyon etadi. Xo‘jalik yuritish klasterining asosiy negizini xo‘jalik yuritish kooperatsiyasi tashkil etadi. Xo‘jalik yuritish klasteri doirasidagi kooperatsion aloqalar umumiy maqsadlarga erishish (tovarlar ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish) uchun jismoniy va yuridik shaxslarnng ixtiyoriy birlashuvini yoki o‘zaro hamkorlik qilishini o‘zida aks ettiradi. O‘z navbatida, kooperatsion aloqalar hamkorlik bosqichi bo‘yicha texnologik to‘plam, texnologik bog‘lamiga aylanib xo‘jalik yuritish klasterini vujudga keltiradi.

Xo‘jalik yuritish klasterining pirovardida xom ashyo qayta ishlashning barcha bosqichidan o‘tib, eksportbop tayyor mahsulotga aylanadi. Klasterni yaratish esa olim va iqtisodchilar, qurilish-montaj tashkiloti hamda qurilish industriyasi sanoati, shuningdek, Infratuzilmaviy tashkilotlar hodimlari salohiyati, ularning ilg‘or tajribasini yagona maqsad yo‘lida birlashtirishni taqozo qiladi. Masalan, iqtisodiyotning real sektori korxonalarida (sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi) xo‘jalik yuritish kooperatsiyasi va klasterini tashkil qilish va rivojlantirish uchun keng ko‘lamli imkoniyatlar mavjud.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi kooperatsiyasi va klaster aloqalari turli xildagi shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. Bunda, bizning firimizcha, resurslar etkazib beruvchi va qayta ishlovchi, shuningdek, mahsulotni sotishga ixtisoslashgan korxonalar bilan xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar kooperatsiyasi va klasterini subpudrat asosida, texnologik uskunalar va butlovchi qismlar etkazib beruvchi korxonalar bilan – lizing asosida, mayda ulgurji tovarlar ishlab chiqaruvchi sub’yektlar bilan esa – franchayzing asosida aloqani ta’minlash maqsadga muvofiq.

Dastlabki o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiyot bazaviy tarmoqlarining xo‘jalik yurituvchi subyektlari kooperatsiyasi va klasteri jarayonlarining rivojlanishi ko‘p jihatdan ushbu korxonalarning qayta tarkiblanishi va ular ichidan mayda ulgurji va past rentabelli korxonalarning ajratilishiga va ularga moliyaviy mustaqillik va shu bilan birgalikda hamkorlik maqomining qoldirilishi bilan bog‘liq. Xo‘jalik yuritish klasteri quyidagi tamoyillar asosida barpo etiladi.

- ishlab chiqarishni uning balansida ushbu ishlab chiqarishga bevosita aloqador bo‘lmagan tuzilmalarni ushlab turishdan halos etish;

- mayda ulgurji, past rentabelli va zarar keltiruvchi ishlab chiqarishlarni kichik biznes korxonalariga topshirish yo‘li bilan tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishining texnologik tizimini ulardan xalos etish;

- davlat mulkini xususiylashtirish imkoniyatlaridan foydalanish va shu asosida kichik tadbirkorlikning yanada rivojlanishini ta’minlash.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qiladigan bo‘lsak, iqtisodiyotning qurilish sektorida, xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarning xo‘jalik yuritish kooperatsiyasi va klasteri masalalarini amaliy jihatdan hal etishda bozor infratuzilmalarining, shu jumladan, bank, marketing, konsalting, ta’minot, savdo-vositachilik, sotish va boshqa tuzilmalarning roli ortadi. Shu munosabat bilan ularning rivojlanishiga alohida e’tiborni qaratish lozim. O‘z navbatida ta’kidlash joizki, xo‘jalik yuritish kooperatsiyasi va klasteri innovatsiyaga ko‘maklashuvchi muhim vosita bo‘lib, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish hamda zamonaviy korxonalarning ko‘payishiga mustahkam zamin yaratadi. Pirovardida qo‘shimcha qiymat zanjiri yaratilib butun mahsulot yaratish texnologik zanjirida boshidan oxirigacha butun jamoa mahsulotdan keladigan nafdan bahramand bo‘loadi, ya’ni qo‘shilgan qiymat zanjirini hosil qiladi, eksport salmog‘i ko‘payadi, shuningdek, ishlab chiqarish va tender savdosi munosabatlari takomillashuvi hisobiga katta iqtisodiy samara keltiradi.

Xullas, qurilish majmuasida klasterlarni yaratish kompleks va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, kompleks yondashuv va ko‘plab omillarni hisobga olishni talab qiladi. Biroq, klasterlar to‘g‘ri tashkil etilgan va samarali boshqaruv bilan qurilish industriyasini rivojlantirishni rag‘batlantirish, raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirishning kuchli vositasiga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60 sonli Farmoni.

2. Berkinov B.B, Aynaqulov M.A. Kichik tadbirkorlik korxonalarining yirik korxonalar bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasi. Monografiya.-JizPI kichik bosmaxonasi,-2014.-114 b.

IV SHO‘BA. STANDARTLASHTIRISH VA SIFAT MENEJMENTI: XALQARO TAJRIBA VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Qilichov Bobur Xo‘jamqul o‘g‘li - SamISI, “Menejment” kafedrasi assistent-stajyori,

SUG‘URTA KLASSLARI BO‘YICHA MA’LUMOT

Annotatsiya: *Maqolada O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatini olib borayotgan sug‘urta tashkilotlarining sug‘urta klasslari bo‘yicha ma’lumotlari, sug‘urta faoliyati bilan shug‘ullanayotgan tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatini takomillashtirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Sug‘urta, Sug‘urta klassi, Sug‘urta turi, Majburiy sug‘urta, Ixtiyoriy sug‘urta, Sug‘urta summasi, Sug‘urta shartnomasi, Sug‘urta limiti, Sug‘urta himoyasi, Sug‘urtalovchi, Sug‘urta qildiruvchi, Sug‘urta guvohnomasi (polisi).*

Аннотация: *В статье приведены сведения о классах страхования страховых организаций, осуществляющих страховую деятельность в Узбекистане, рассмотрены вопросы повышения конкурентоспособности организаций, осуществляющих страховую деятельность, а также совершенствования страховой деятельности в Узбекистане.*

Ключевые слова: *Страхование, Класс страхования, Вид страхования, Обязательное страхование, Добровольное страхование, Страховая сумма, Договор страхования, Страховой лимит, Страховая защита, Суг Страховщик, Страховщик, Страховое свидетельство (полис).*

Abstract: *The article provides information on insurance classes of insurance organizations engaged in insurance activities in Uzbekistan, increasing the competitiveness of organizations engaged in insurance activities, as well as improving insurance activities in Uzbekistan. are considered.*

Keywords: *Insurance, Insurance class, Insurance type, Compulsory insurance, Voluntary insurance, Sum insured, Insurance contract, Insurance limit, Insurance protection, Insurance Insurer, Insurer, Insurance certificate (policy).*

O‘zbekiston Respublikasi moliya bozorida sug‘urta operatsiyalari hajmi va sug‘urta korxonalari investitsion faoliyati kun sayin ortib bormoqda va bu iqtisodiyotimiz uchun hizmat qilmoqda. Respublikamizda 2022 yilda 41 ta sug‘urta kompaniyasi shundan 8 ta hayotni sug‘urta qilish sohasi, 33 ta umumiy sug‘urta sohasi bo‘yicha faoliyat olib bormoqda. Biz sug‘urta kompaniyalarning yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari, sug‘urta tashkilotlari tamonidan to‘lab berilgan sug‘urta to‘lovlari va sug‘urta shartnomalari tuzish orqali olingan sug‘urta majburiyatlarining sug‘urta klasslari bo‘yicha tahlilini ko‘rishdan oldin ayrim atamalar haqida ozroq ma’lumot taqdim qilsak ya’ne

Sug‘urta – ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni manfaatdor jismoniy va yuridik shaxslar o‘rtasida qoplash.

Sug‘urta klassi - muayyan umumiy belgilar bo‘yicha birlashtirilgan sug‘urta turlari yig‘indisi.

Sug‘urta turi - sug‘urtalovchi tomonidan ishlab chiqiladigan va sug‘urta qildiruvchiga sug‘urtaning bir yoki bir nechta klassi doirasida ko‘rsatiladigan aniq sug‘urta xizmati.

Majburiy sug‘urta – sug‘urta shakllaridan biri bo‘lib, unda sug‘urtalovchi va sug‘urtalanuvchilar o‘rtasida sug‘urta munosabatlari qonun kuchida yuzaga keladi.

Ixtiyoriy sug‘urta - tomonlarning xohish-irodasiga ko‘ra amalga oshiriladigan sug‘urta munosabatlari.

Sug‘urta summasi – sug‘urta obyektini haqiqatda sug‘urtalangan qismining pul ko‘rinishidagi qiymati.

Sug‘urta shartnomasi – sug‘urtalovchi va sug‘urtalanuvchi o‘rtasidagi sug‘urta turi shartlariga mos ravishda ularning o‘zaro majburiyatlarini tartibga soluvchi kelishuv (huquqiy bitm).

Sug‘urta limiti – moddiy qiymatliklar va sug‘urtaviy mas’uliyatlarni sug‘urtalash mumkin bo‘lgan maksimal pul summasi.

Sug‘urta himoyasi – konkret obyekt tomonidan ko‘rilgan zararni bartaraf qilish yoki qoplash bo‘yicha munosabatlar.

Sug‘urtalovchi – sug‘urtani amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan tashkilot.

Sug‘urta qildiruvchi – sug‘urta badallarini to‘lovchi va konkret sug‘urta munosabatlarida qatnashuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs.

Sug‘urta guvohnomasi (polisi) – sug‘urta amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjat.

Sug‘urta klasslari haqida ma’lumot. (1-jadval)

Klass tartib raqami	**Klassning nomi**	**Mazmuni va sug‘urta qilish shartlari bo‘yicha talablar**
1-klass	**Baxtsiz hodisalar-dan ehtiyot shart sug‘urta qilish**	Quyidagi hollarda: a) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida sog‘liqning qattiq shikastlanishi, yoxud; b) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida vafot etgan taqdirda, yoxud; v) kasallik yoki muayyan turdagi kasallik natijasida mehnat qobiliyatini yo‘qotish, shu jumladan ishlab chiqarishda jarohatlanish va kasb kasalliklari, biroq 2-klass va IV klass bo‘yicha sug‘urta shartnomalarini istisno qilgan holda, sug‘urta qilingan shaxsga sug‘urta ta’minotining belgilab qo‘yilgan pul summasi

		yoki pul kompensatsiyasi to‘lanishini ta’minlovchi sug‘urta turlari jami
2-klass	**Kasallikdan ehtiyot shart sug‘urta qilish**	Sug‘urta ta’minotining belgilab qo‘yilgan pul summasi to‘lanishini yoki kasallik yoki sog‘liqning izdan chiqishi munosabati bilan sug‘urta qildiruvchining pul kompensatsiyasi (yoki uning ham, buning ham kombinatsiyasi)ni ta’minlovchi sug‘urta turlari jami, biroq hayotni sug‘urta qilish tarmoqlarining IV klassi bo‘yicha shartnomalarni istisno qilgan holda
3-klass	**Yer usti transport vositalari-ni sug‘urta qilish**	Transport vositalari, o‘zi yurar mashina va mexanizmlar, harakatlanadigan temir yo‘l tarkibi bundan mustasno, yo‘qotilganda yoki shikastlanganda sug‘urta qoplamasi to‘lanishini ta’minlovchi sug‘urta turlari jami
4-klass	**Harakatlanadigan temir yo‘l tarki-bini sug‘urta qilish**	Harakatlanadigan temir yo‘l tarkibi yo‘qotilganda yoki shikastlanganda sug‘urta qoplamasi to‘lanishini ta’minlovchi sug‘urtaning turlari jami
5-klass	**Aviatsiya sug‘urtasi**	Havo kemasi, havo kemasining mashina asbob-uskunalari, jihozlari, inventari, ehtiyot qismlari yo‘qotilganda yoki shikastlanganda sug‘urta qoplamasi to‘lanishini ta’minlovchi sug‘urtaning turlari jami
6-klass	**Dengiz sug‘urtasi**	Dengiz va ichki daryo kemalari, kemalarning mashina asbob-uskunalari, asbob-uskunalari, inventari, ehtiyot qismlari yo‘qotilganda yoki shikastlanganda sug‘urta qoplamasi to‘lanishini ta’minlovchi sug‘urtaning turlari jami
7-klass	**Yo‘ldagi mol-mulkni sug‘urta qilish**	Transportning har xil turlari bilan tashishda yuklar, bagaj va boshqa mol-mulk yo‘qotilganda yoki shikastlanganda sug‘urta qoplamasi to‘lanishini ta’minlovchi sug‘urtaning turlari jami
8-klass	**Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug‘urta qilish**	Yong‘in, portlash, bo‘ron, dovul, jala, ko‘chki, tuproqning cho‘kishi, emirilish, er osti suvlari, sel, yashin urishi, zilzila, yadro energiyasi ta’siri natijasida mol-mulk (3 va 7- klasslarda ko‘rsatilganlar bundan mustasno) yo‘qotilganda yoki shikastlanganda sug‘urta qoplamasi to‘lanishini ta’minlovchi sug‘urtaning turlari jami

9-klass	**Mol-mulkni zarardan sug‘urta qilish**	8-klassda ko‘rsatilmagan do‘l, qalin qor yog‘ishi yoki qattiq sovuq tushishi, buzib kirib o‘g‘irlik qilish va boshqa voqealar natijasida mol-mulk (3 va 7-klasslarda ko‘rsatilgandan boshqa) yo‘qotilganda yoki shikastlanganda sug‘urta qoplamasi to‘lanishini ta’minlovchi sug‘urtaning turlari jami
10-klass	**Avtofuqa-rolik javobgarli-gini sug‘urta qilish**	Yer usti transport vositalari va boshqa o‘ziyurar mashinalar va mexanizmlardan foydalanish oqibatida, tashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlaga kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar etkazilgan taqdirda sug‘urta qoplamasi to‘lanishini ta’minlovchi sug‘urta turlari jami
11-klass	**Aviatsiya sug‘urtasi doirasidagi javobgarlikni sug‘urta qilish**	Havo kemasidan foydalanish oqibatida, aviatashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlaga kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar etkazilgan taqdirda sug‘urta qoplamasi to‘lanishini ta’minlovchi sug‘urta turlari jami
12-klass	**Dengiz sug‘urtasi doirasida javobgarlikni sug‘urta qilish**	Dengiz va ichki kemalardan foydalanish oqibatida, dengiz tashuvchisining javobgarligi ham shu jumlaga kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar etkazilgan taqdirda sug‘urta qoplamasi to‘lanishini ta’minlovchi sug‘urta turlari jami
13-klass	**Umumiy fuqarolik javobgarligini sug‘urta qilish**	10, 11 va 12-klasslarda ko‘rsatilmagan tavakkalchiliklar oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar) oldida fuqarolik javobgarligi paydo bo‘lgan taqdirda sug‘urta qoplamasi to‘lanishini ta’minlovchi sug‘urta turlari jami
14-klass	**Kreditlarni sug‘urta qilish**	Sug‘urta qildiruvchining debitori nochorligi (bankrotlik) yoki debitorning sug‘urta qildiruvchi oldidagi qarzlarni qaytarish majburiyati bajarilmasligi (nochorlikdan tashqari) natijasida sug‘urta qildiruvchi zarar ko‘rganda sug‘urta qoplamasi to‘lanishini ta’minlovchi sug‘urta turlari jami
15-klass	**Kafillikni (kafolatlarni) sug‘urta qilish**	Sug‘urta qildiruvchining o‘ziga berilgan kafolatni bajarishi majburiyati natijasida sug‘urta qildiruvchi zarar ko‘rganda sug‘urta

		qoplamasi to‘lanishini ta’minlovchi sug‘urta turlari jami
16-klass	**Boshqa moliyaviy tavakkalchi-liklardan sug‘urta qilish**	Quyidagi hollarda: a) sug‘urta qildiruvchining biznesi (xo‘jalik faoliyati) uzilib qolishi yoki sug‘urta qildiruvchi tomonidan amalga oshirilayotgan biznes (xo‘jalik faoliyati) ko‘lami kamayishi natijasida sug‘urta qildiruvchi zarar ko‘rganda; b) oldindan nazarda tutilmagan xarajatlar natijasida sug‘urta qildiruvchi zarar ko‘rganda (17-klassda ko‘rsatilgandan tashqari); v) shartnomalar tuzilishi va bajarilishi bilan bog‘liq faoliyatni amalga oshirish natijasida mazkur darajaning a) va b) bandlarida ko‘rsatilgandan boshqa nobudgarchiliklarga uchraganda sug‘urta qoplamasi to‘lanishini ta’minlovchi sug‘urta turlari jami
17-klass	**Huquqiy himoya qilish bilan bog‘liq xarajatlarni sug‘urta qilish**	Sud muhokamasi bilan bog‘liq ko‘rilgan xarajatlar natijasida sug‘urta qildiruvchi zarar ko‘rganda sug‘urta qoplamasi to‘lanishini ta’minlovchi sug‘urta turlari jami
18-klass	**Tibbiy sug‘urta**	Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 80-son qarori bilan tasdiqlangan “Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to‘g‘risida”gi yagona nizomning 6-ilovasiga asosan tasdiqlangan Sug‘urta faoliyati klassifikatoriga qo‘shimcha sug‘urta klasslarini qo‘shish orqali kengaytirildi

Xulosa va takliflar.

O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatini olib borayotgan sug‘urta tashkilotlarining yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari, sug‘urta tashkilotlari tamonidan to‘lab berilgan sug‘urta to‘lovlari va sug‘urta shartnomalari tuzish orqali olingan sug‘urta majburiyatlarining sug‘urta klasslari bo‘yicha tahlilini ko‘rib chiqqanimizda Klasslar bo‘yicha tahlil qilinganda biz aynan qaysi turlar yoki klasslar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida qaysi klasslar bo‘yicha talab yuqori va qaysi klasslar bo‘yicha talab kamligini aniqlashimiz fuqorolarga qulaylik yaratish maqsadida yingiliklar berish va rivojlanmayotgan sug‘urta klasslarini rivojlantirish uchun ishlar olib borishimiz zarur

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. O‘zbekiston Respublikasining 2002 yil 28 maydagi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni (o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan);
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi farmoni;
3. www.gov.uz– O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.
4. www.lex.uz– O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
5. https://imda.uz -Moliya vazirligi huzuridagi SUG‘URTA BOZORINI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGI.

Usmanova Nasiba Akbarjanovna - PhD of the Department of Management, at the SamIES.

IMPROVING THE QUALITY MANAGEMENT SYSTEM OF HOTEL SERVICES

The rapid development of international, domestic and business tourism is leading to an increase in demand for the quality of hotel services around the world. This is of great importance in making management decisions in the first place. Today, the hotel industry in Uzbekistan includes 1,051 hotels and similar accommodation facilities, which account for 58.9% of the market of tourist accommodation facilities. The role of the hotel industry in the economy and tourism industry of our country is becoming extremely important. Today, the hotel industry is moving from large organizational structures to small structures of business organization and small hotels. This is especially true for cities with historical tourist attractions (Tashkent, Bukhara, Samarkand, Khiva).

In addition, there is a transformation of hotel farms with tourist and recreational activities. Hotel organizations are being transformed into boarding houses, holiday homes, tourist and wellness centers specializing in treatment. As a result, in recent ears, it has been observed that business and congress activities, which are within the competence of hotel service organizations, are turning into tourist activities, and consumers are not accommodated based on the purpose of the visit. As a result, intra- and inter-sectoral competition is intensifying.

The current situation in the market of tourist services is explained by the growing demand for quality services, the desire to meet it abroad. The processes taking place in the hotel industry require a new approach, effective methods and forms of management in order to increase the attractiveness of hotels for consumers, to attract them more. This increases the need to develop a theoretical and methodological framework for quality management of hotel services.

Although the research work on hotel management is sufficiently covered, the study of the quality of services provided does not pay enough attention to the specifics of the newly introduced innovative services, their role in improving quality. In this context, there is a need to develop new systems and methods of

quality management of hotel services. Finding a theoretical, methodological and practical solution to this problem in terms of service quality management will eliminate the problems of improving the hotel management system in Uzbekistan. In countries with developed market relations and competition, high quality is an imperative and the most important source of national wealth. Therefore, quality assurance and improvement in the service sector of Uzbekistan should be considered a priority.

Continuous improvement of quality – is a promising investment, which ensures the formation of a steady stream of customers. This was confirmed in the research work, where the cost of attracting a new customer is 10 times higher than the cost of reattracting a regular customer. Therefore, it is an important task to retain regular customers through quality service.

As a rule, ensuring the intended level of quality is achieved through the introduction of a quality management system that provides for the organization and implementation of measures that directly affect the changes in the quality of services and the environment in which these factors apply. The modern model of quality management of hotel services in Uzbekistan is implemented within a separate enterprise without external influences. Also, the quality management of the resources entering the system is practically non-existent, and the quality control at the exit of the system is carried out with delays on the basis of feedback.

Of the quality management functions, only control is exercised and emphasis is placed on whether the main placement tools belong to a particular category. The requirements of the international quality standards ISO 9000 provide for the systematic organization of quality management of goods and services, to meet the interests not only of service providers, but also consumers, suppliers, society and the country.

The experience of service quality management in the hospitality industry in foreign countries shows that the main focus is not on the development of functional services, but on the development of regional management systems. The study argues that the attractiveness of hotel services should be considered not only at the level of hotels, but also integrated across the region. The main focus of the work is on the analysis of the activities of 146 hotels with 15.7 thousand beds in Samarkand until 2020, and the study of the use of rooms during the ear.

According to the level of comfort, most hotels, ie 23% are 3-star, 10% are 2-star hotels, 4-star hotels are 4%. The remaining 61% belong to other categories. These hotels and uncategorized accommodation facilities are small hotels in private form.

Private small hotels and their "guest house" form have a number of advantages (flexible tariff policy, high level of individual service, compatibility of quality and price of services) and disadvantages (tax evasion, non-payment of utility bills and fees on a regular basis, violations of civil registration, non-compliance of the services provided with the standard and the established minimum requirements). This, of course, requires the development of a mechanism for the legalization of this type of activity and the creation of an effective management system.

In order to stimulate the demand of the population for tourism, most tourist and resort services companies offer non-specific services to consumers. Hotels in cities of historical significance (Tashkent, Bukhara, Samarkand and Khiva) are moving from tourist services to entertainment services. However, a reasonable approach to the issue of optimizing the type of activity of hotels is required. Some hotels offer excursions, in addition to medical treatment, others - cooking (Uzbek cuisine), and others - scientific and business forums.

When analyzing the activities of hotels in Samarkand, it was concluded that most of them artificially increase the cost of services in order to reduce costs 1 Calculated based on the author's research associated with economic activities. This does not serve to ensure price and quality matching of services. The profit-oriented focus of stimulating the relationship between producer and consumer leads to a loss of consumer attractiveness and a decline in the competitiveness of the hotel industry.

As a result, there is an incomplete system of quality management in hotels, which operates on various deviations. Due to the inseparable nature of production and consumption of hotel services, it leads to the formation in consumers of the idea of irreparable unreliability and poor quality of service in the future.

The analysis conducted in hotels allowed to divide the factors affecting the quality of services into two groups. The first group is a group of factors related to the internal environment of a particular hotel, the second is a group of factors related to the influence of the external environment. Analysis of domestic and foreign economic literature and generalization of the results allowed to develop an author's tariff for the quality of hotel services. The following features of quality were highlighted in the study: quality is a normative category, which is reflected in the standards; quality - properly understood needs of customers; quality - services provided and provided correctly; quality is determined in terms of socio-economic parameters of consumers and reflects their personal behavioral attitudes.

Quality management should be continuous, systematic and forward-looking. the analysis of the development trends of hotel enterprises allowed to develop a model of the quality management system of hotel services. Considering the quality management system of hotel services as a complex, complex and dynamic system requires thinking of the overall management of the hotel organization as an integrated system.

The study of the essential components of the system into subsystems establishes the principle of effective feedback, which allows a good study of the elements, the rational organization of communication and relationships between subsystems, as well as ensuring the effectiveness of management processes.

In order to effectively organize the impact of management in the proposed quality management system of hotel services, a corresponding management mechanism is required.

In accordance with the quality management system, such a mechanism can be considered as a set of methodological tools, management functions and forms and methods aimed at improving the process of creating hotel and resort services. The rational connection of the elements of the quality management system of hotel

services ensures that they are clearly and rationally organized in the direction of their activities, aimed at achieving a high level of quality management of hotel services.

To develop and implement a quality management system based on a process approach, it is necessary to develop a rational model of system functions, planning, budgeting, optimization of the structure of departments, the state of registration in the system, labor relations. Improving the quality of hotel services under the above system will not only increase the competitiveness of the enterprise, but also its services.

It is necessary to analyze and evaluate the services market to make management decisions. One of the difficulties in assessing the quality and competitiveness of services, as well as the organization of quality management system is the lack of information about the products of competitors, the lack of organizational and methodological support for such tasks in the enterprise. The competitiveness of hotel services is inextricably linked with the competitiveness of the enterprise, and it should be considered as an aspect of the hotels in terms of adapting to the changing competitive environment in the market, meeting consumer demand and needs for products and services.

As part of this research, a methodology is proposed to address these shortcomings. In addition, this methodology is designed to assess the competitiveness of the enterprise in terms of service quality indicators, shows the existing relationship between service quality indicators and their competitiveness in the services market and consists of several stages:

Step 1. Assess the competitiveness of the hotel business and its competitors and identify strategic factors.

Step 2. Identify the main competitors of the hotel business based on the strategic group of competitors and the creation of a competitive map.

Step 3. A map of the strategic group of services will be created based on the identification of competing services.

Step 4. The competitiveness of hotel organizations is based on the position of the organizations based on the competitive map of the market.

Step 5. Determining the level of service quality on the scale of customer satisfaction and admiration for hotel services.

Step 6. Segmentation of the hotel business market by the needs and capabilities of consumers of hotel services.

Step 7. Evaluation of the financial performance of the hotel business. In assessing the financial condition, the indicators of balance sheet liquidity and financial stability, business activity and profitability are expressed in absolute terms.

Step 8. Determining the relationship between competitiveness indicators and quality indicators.

Step 9. Comparison of the quality of services of the hotel business on limited indicators

Step 10. Determining a complex indicator of the quality of hotel services.

Step 11. Based on the importance and value of quality indicators, it is possible

to determine a complex indicator of the quality of services.

Step 12. Assessing the competitiveness of a hotel based on the criteria of the classification system of hotels and other accommodation facilities.

The stable operation of the elements of the quality management system in the hotel business, the effective implementation of goals and strategies to ensure unrestricted exchange of information between them, will increase the level of competitiveness in the services market. It is necessary to establish cooperation with organizations that provide standardization of services outside the enterprise.

Its functions include standardization of private small enterprises in accordance with applicable law, selection, recruitment and training of highly qualified personnel, certification and standardization of services, quality awards and competitions among hotels, quality control and inspection with the help of independent experts, services consumer analysis, collection and processing of questionnaire data, ensuring effective information exchange across the system, and more. For this purpose, a company to manage the quality and service of tourist services will be established.

In general, the methodology and approaches to quality management developed in the dissertation form the basis for the development of a quality management system for hotel services. The tools proposed in the study ensure the development of hotel services in a competitive environment, taking into account the socio-economic conditions in individual organizations and regions.

Raxmonova Aziza Tolibovna - SamISI tayanch doktoranti

BIZNES-INKUBATORLAR TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA YAPONIYA AMALIYOTI.

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy sharoitda mintaqa iqtisodiyotida biznes inkubatorlar va akseleratorlar tizimini rivojlanishining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Yaponiya tajribasi va undagi imkoniyatlar tahlili. O‘zbekistonda umuman innovatsion biznes ekotizimini rivojlantirish sohasidagi me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish. Mintaqada innovatsion rivojlantirish bo’yicha xorij tajribasi asosida tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *mintaqa, infratuzilma, biznes inkubator, akselerator, rivojlanish, xorijiy tajriba, iqtisodiy o’sish, innovatsiya, xususiy tadbirkorlik.*

Аннотация. *В статье освещена роль и значение развития системы бизнес-инкубаторов и акселераторов в экономике региона. Анализ опыта и возможностей Японии. Совершенствование нормативно-правовой базы в сфере развития инновационной бизнес-экосистемы в Узбекистане. Даны рекомендации по инновационному развитию региона на основе зарубежного опыта.*

Ключевые слова: *регион, инфраструктура, бизнес-инкубатор, акселератор, развитие, зарубежный опыт, экономический рост, инновации, частное предпринимательство.*

Abstract: *. The role and importance of the development of the system of business incubators and accelerators in the economy of the region is highlighted in the article. Analysis of Japan's experience and opportunities. Improving the regulatory and legal framework in the field of development of the innovative business ecosystem in Uzbekistan. Recommendations for innovative development in the region are given based on foreign experience.*

Key words: *region, infrastructure, business incubator, accelerator, development, foreign experience, economic growth, innovation, private entrepreneurship.*

Bugungi kunda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ko`pgina rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirish ustuvor yo‘nalishlardan hisoblanadi. O‘zbekistonning jahondagi iqtisodiy mavqeini yuksaltirish va raqobatbardosh ilm-fanni talab qiluvchi mahsulotlar ishlab chiqarish orqali iqtisodiyotni yoshartirishda qulay bo‘lgan va sifatli hizmat ko‘rsatishga asoslangan imfratuzilmani shakillantirishga bog‘liq.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning samaradorligini oshirishda xorij tajribalaridan foydalanar ekanmiz, eng avvalo barcha rivojlangan mamlakatlarga xos bo`lgan umumiy tamoyillarni hisobga olish zarur.[37] Ular quyidagicha: Ko`pgina rivojlangan xorij mamlakatlari oyoqqa turayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikga maxsus imtiyozli soliqlar joriy qiladi. Juda ko`p rivojlangan mamlakatlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida, eng avvalo uning huquqiy asoslarini mustahkamlaydi, ya`ni qonun va me`yoriy hujjatlar qabul qilib, hayotga tatbiq etadi. Natijada zamonaviy infratuzilmani yaratish, biznes inkubatorlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish bilan tadbirkorlar qo‘llab-qo‘vvatlanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning joriy yil 10-may kuni kambag‘allikni qisqartirish hamda mahalliy budjet daromadlarini ko‘paytirish, aynan imtiyozli resurslarning etib borishini osonlashtirish bo‘yicha chora tadbirlari e’lon qilindi. Jumladan endi hokim yordamchilari o‘zini o‘zi band qilganlarning kichik va o‘rta biznesga o‘tishiga ko‘maklashadi buning uchun Yaponiyaning kichik va o‘rta biznesni qo‘llab qo‘vvatlash tashkiloti ekspertlari yordamida Yaponiya tajribasi asosida hududlarda biznes incubator va akseleratorlar tizimi joriy etiladi.

Biznes inkubator — kichik va o‘rta biznesni yuritish malakalari berish va tadbirkorlik madaniyatini tarbiyalash bilan shugullanadigan ixtisoslashgan muassasa. Biznes inkubator, asosan, xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarga dastlabki faoliyatida bozor iqgisodiyoti bo‘yicha zarur bilimlarni o‘rgatish, biznes reja tuzish, mablag‘lar topish, xalqaro grantlar olishda ko‘maklashish, tadbirkorlik g‘oyalarini amaliy loyihalarga aylantirish va joriy etish, shuningdek kichik va o‘rta korxonalarga menejment va marketing xizmatlari, tashkiliy, texnikaviy, iqtisodiy yo‘sindagi xizmatlar ko‘rsatish kabi vazifalarni bajaradi. Biznes inkubator tadbirkorlik malakalarini rivojlantirish va mahalliy ishbilarmonlarni, shu jumladan

[37] Maier L. 2019. Innovation incubators - entities of support of small and mediumsized enterprises' competitiveness in the modern economy/ Economy and sociology.

yoshlar, ayollar va aholining boshqa guruhlarini xalq xo‘jaligiga jalb etishni kuchaytirish muammolarini echishga xizmat ko‘rsatadi. Biznes inkubator faoliyat turiga ko‘ra korxona inkubatorlari, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash markazlari, innovatsiya va menejment markazlariga bo‘linadi. Dastlabki Biznes inkubator lar 20-asrning 70 —80 yil lari da AQSH da paydo bo‘ldi. Keyinchalik jahondagi boshqa mamlakatlarda ham keng tarqala boshladi. Hozirgi paytda dunyo bo‘yicha 2000 dan ortiq yirik Biznes inkubator lar ish olib boradi. O‘zbekistonda birinchi Biznes inkubator 1995-yilda BMTning YUNIDO tashkiloti va O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo‘mitasining hamkorliqdagi "O‘zbekistonda biznes inkubatorlar tarmog‘ini shakllantirish va rivojlantirish" loyihasi asosida tashkil etilgan.

Shaxarlarda tuman markazlarida bunday faoliyatni yo‘lga qo‘yish qiyinchilik to‘g‘dirmaydi lekin olis hududlarda, qishloq joylarda misol uchun o‘z oilaviy korxonasiga asos solgan kichikroq sex yoki aholiga xizmat ko‘rsatish shaxobchalari faoliyatini yo‘lga qo‘ygan, tijoratda muayyan tajribaga ega bo‘lgn yurtdoshlarimiz boshqalarga anashunday uztozlik vazifasini o‘tashlari mumkin. biznes inkubatordan keying yo‘qori bosqich bu akseleratorlik bo‘lib, internetda biznes akseleratsiya oily matematekaga qiyoslanadi shundan ham bilish mumkinki bu tizim oyoqqa turib olgan va o‘z biznesini kengaytirish yangi pog‘onaga olib chiqishni ko‘zlaganlar uchun mo‘ljallangan biznes akselerator katta tajribaga ega bo‘lgan mutaxasislar yordamida sizning korxonangizni jadal rivojlantirish va istiqbolli bozorlarga kirib boorish bo‘yicha maslahatlar beradi moliyaviy qo‘llab-qo‘vvatlaydi buning evaziga ba’zihollarda o‘sha kompaniyaning bir qism ulushini olishi mumkin.

So‘nggi 2-3 yil ichida Yaponiyada yuzlab IT kompaniyalari paydo bo‘lishi tufayli ekotizimning xususan venchur fondlari, biznes inkubatorlar, startap akseleratorlarni rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Hatto mamlakatning etakchi universitetlari ham startaperlarni tayyorlashga qaratilgan yangi o‘quv dasturlari va yo‘nalishlarini ishlab chiqmoqda. Mamlakat hukumati iqtisodiyotni jadallashtirish va uni yoshartirishni maqsad qilgan. Shu tariqa tadbirkorlarga mijozlar va invesroelarni toppish ancha osonlashdi. Ammo asosiy maqsad iqtisodiyotni yoshartirishning o‘zi emas, balku uni avvalo davlat tomonidan har tomonlama qo‘llab-qo‘vvatlashdir.

Hozirgi kunda Yaponiyada 3.6 mln kichik va o‘rta biznes subektlari mavjud bo‘lib, bu umumiy korxonalar sonining 99.7 % ni tashkil etadi. Sohada 40 mln kishi ya’ni mamlakat aholisining 70 % ish bilan ta’minlangan. Ular mehnati bilan YIM ning qariyb 55 %, capital quyilmalarning qariyib 40 % va barcha yapon mahsulotlari eksportining 15 % ni shakillantiradi. Xususan markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlari kredit kafolatlari, soliq imtiyozlari, subsidiyalar va qarz berish orqali kichik biznesning rivojlanishi va shakillanishi rag‘batlantirilmoqda. Yana bir jihat, mamlakatda kichik biznes sib’ektlarining kreditlarini kafolatlash va sug‘urta qilish bo‘yicha ham tegishli davlat tuzilmalari yaratilgan. Agar tadbirkor kreditni to‘lay olmasa, maxsus davlat korporatsiyasi kreditor zararining bir qismini qoplashga tayyor. Bundan tashqari, keng ko‘lamli texnik va konsalting yordami axborot va kompyuter xizmatlari ko‘rsatilmoqda. Kadirlar tayyorlash xizmati ham

yaratilgan.

Yaponiyada intiyozli qarzlar asosan yangi avlod texnalogiyalar va mahsulot turlarini ishlab chiqish, hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishga hizmat qiladigan kichik biznesni shakillantirish shunindek ishbilarmonlar o‘rtasida koperatsiyani rivojlantirish maqsadlarida beriladi. Umuman kichik va o‘rta biznesga hizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan axborot tarmoqlarini yaratishada davlatning o‘rni katta. Shunday qilib Yaponiyada davlat tomonidan qo‘llab-qo‘vvatlash tizimi shakillantirilgan bo‘lib, u doimiy ravishda takomillashmoqda.

Bugungi kunda Yaponya Respublikasi dunyo iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish darajasini baholab, ko‘plab xalqaro reytinglarda etakchi o‘rinni egallab turibdi. Shu munosabat bilan, Yaponyaning yuksak tajribasini hisobga olgan holda, Respublikamizda biznes inkubatsiya tizimini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarnini amalga oshirish, xorijiy davlatlar bilan manfaatli kelishuvlarga erishish va biznesni kengaytirishni rag‘batlantirishga, qo‘shimcha qiymat yaratishning yaxlit zanjirlarini shakllantirishga, zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirishga, eksportni ko‘paytirishga, doimiy ish o‘rinlarini yaratishga yo‘naltirilgan natijaga qaratilgan vositalarni joriy etish kerak.

Taklif va tavsiyalar. Yangi ish boshlagan tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning faoliyatini rivojlantirishni rag‘batlantirish, shuningdek, O‘zbekistonda umuman innovatsion biznes ekotizimini rivojlantirish sohasidagi me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, yoshlar va xotin qizlar tadbirkorligini rivojlantirishni rag‘batlantirishga qaratilgan tashkilotlarning institutsional rivojlanishiga ko‘maklashish, Yaponya Respublikasida o‘quv amaliyotini tashkil etish orqali kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bilan shug‘ullanuvchi idora va tashkilotlar xodimlarining malakasini oshirish, o‘z biznesini tashkil etish va yuritish to‘g‘risidagi barcha zaruriy ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan yaxlit axborot tizimini yaratish bilan doimiy uzluksiz daromad manbayini hosil qilishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori Koreya Respublikasi hukumatining grant mablag‘larini jalb etgan holda “O‘zbekistonda biznes inkubatorlarni yaratish va tadbirkorlikni o‘sishini rag‘batlantirish” loihasini amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida 16561.

2. Anderton D. 2018. Science in the city region: establishing Liverpool's life science ecology/ Regional Studies, Regional Science.

2. Батирова Н. Ш. "МИНТАҚА САНОАТИНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШ БЎЙИЧА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ" Экономика и финансы (Узбекистан), no. 4 (136), 2020, pp. 161-169.

3. Ishmuhamedov A.E., Raximova M.R. Mintaqaviy iqtisodiyot: Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2010.

4. Maier L. 2019. Innovation incubators - entities of support of small and mediumsized enterprises' competitiveness in the modern economy/ Economy and sociology.

5. Миндич Д. Запустить инновацию в регион // http://expert.ru/expert/2011/27/zapustit-innovatsiyu-v-region/

6. Reveiu A. 2019. The role of universities in innovative regional clusters. Empirical Evidence from Romania/ Procedia - Social and Behavioral Sciences 93.

7. Romanovskii M., Shkuta D. 2020. Creation of the institutional innovation infrastructure of clusters as a mechanism of the providing innovation development of Russia/ Regional formation and development studies.

8. Soumitra Dutta, Bruno Lanvin, and Sacha Wunsch-Vincent. 2021. The Global Innovation Index 2021. Winning with Global Innovation.

9. Особенности функционирования высокотехнологичных кластеров в Китае и Японии А.А. Лавров// http://sun.tsu.ru/mminfo/000063105/329/image/329-182.pdf

Samiyeva Gulnoza Tokhirovna – Associate Professor of the Department of "Innovative Economics" of the Karshi Engineering and Economic Institute

IMPORTANT ASPECTS OF THE FOREIGN EXPERIENCE IN GROWING AGRICULTURAL PRODUCTS

Annotation. *This article describes the foreign experience of agricultural production in Germany, USA and the European Union. The article reflects the main factors of the effective organization of farms in Germany, USA and the European Union.*

Keywords: *agriculture, agrarian relations, cooperative relations, foreign experience, subsidy, state support.*

Аннотация. *В данной статье описан зарубежный опыт сельскохозяйственного производства Германии, США и Евросоюза. В статье отражены основные факторы эффективной организации фермерских хозяйств в Германии, США и Евросоюзе.*

Ключевые слова: *сельское хозяйство, аграрные отношения, кооперативные отношения, зарубежный опыт, субсидия, государственная поддержка.*

Annotatsiya. *Ushbu maqola Germaniya, AQSh va Yevropa Ittifoqida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha xorijiy tajriba tasvirlangan. Maqola Germaniya, AQSh va Yevropa Ittifoqidagi dehqon xo'jaliklarini samarali tashkil etishning asosiy omillarini aks ettiradi.*

Kalit so'zlar: *qishloq xo'jaligi, qishloq xo'jaligi aloqalari, agrar munosabatlar, xorijiy tajriba, subsidiya, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.*

The effective organization of peasant farms, acting as the main economic entity of agricultural production in the Republic of Uzbekistan, and their development on an innovative basis requires studying the experience of developed countries in this direction and introducing its significant aspects into the economy of our republic.

In particular, it is important to study the experience of the German state

among developed countries. Because Germany is one of the countries that plays a leading role in the production and export of food in the world. As a result of the government's financial policy, known as the Green Plan, which supports and encourages farmers and peasant farms, 85 percent of the country's food needs are met by agricultural cooperatives. But on the basis of these agricultural cooperatives, peasant (dekhkan) farms operate.

Agriculture in Germany is considered an important sector of the country's economy and ranks second in Europe after France. It supplies 100% of the domestic market demand for milk, 90% of the demand for meat, 85% of the demand for sugar and 80% of the demand for wheat.

Agricultural production in this country is based on small and medium-sized family farms, and as of 2021 there were 292.7 thousand peasant farms operating.

It is appropriate to recognize the following as the main factors for the effective organization of agricultural activities in Germany:

Firstly, in the direction of stimulating the economy by the state:

One of the types of state support in Germany is the introduction of a mechanism for subsidizing the cultivation of these farms. For example, a benefit of 500-550 euros per hectare of arable land cultivated by the farm every ear. Funds allocated for state support are transferred to household accounts. This is considered 70% of their income from product sales.

Since milk production in Germany is considered low-profit, the government allocates premium funds to support the domestic market. For example, in Bavaria this amount averages 50-60 euros per cow. There is also scope to increase this amount depending on the improved level of care for each cow.

This approach allows to increase reproduction and adequately maintain the efficiency of milk production. Also worthy of attention is the introduction of mechanisms for economic stimulation of farms that organized production based on the use of alternative energy sources and effectively used agricultural land, preserved and improved their reclamation condition.

Secondly, in the direction of specialization and cooperation in the production of agricultural products:

It is known that Germany has preserved traditions of specialization for a certain type of product, based on the natural and economic conditions of the regions. Thanks to these traditions, agriculture remains one of the strongest sectors of the German economy.

In particular, in the city of Mutterstadt there are 1,500 members of peasant farms specializing in vegetable growing, which are known throughout the country as the “Vegetable Garden of Germany” or “German Garden”.

In this country there are cooperatives engaged in winemaking, grain growing, livestock farming, vegetable growing, purchasing and processing of meat.

Also, 90 percent of peasants are members of the German Peasants' Union, which allows farmers to effectively interact with government bodies at the regional and federal levels and participate in legislative relations. In particular, district associations are recognized as an important link in the system of the German Peasants' Union. For example, in the Fuld-Hünfeld district alone, 2,424 farms are

united in the union; they are provided with various services by 12 employees equipped with modern equipment.

This union is headed by a director who is elected by the congress and reports to it. Activities are financed through membership fees and paid services. In Germany, thematic clubs for new peasants are being organized to prevent the collapse of peasant farms and to awaken interest in farming among young people. The main objective of such clubs or associations is to inform youth about the positive benefits of becoming farmers.

Thirdly, the secret of the success of German agriculture is its cooperation. It turns the united peasantry into one of the powerful sectors of the economy. Without it, even numerous small and medium-sized farms would not be able to manage alone. In Germany, there are cooperatives involved in winemaking, grain production, livestock farming, vegetable growing, purchasing and cutting of meat.

Fourthly, the secret of success is the ability of German peasants to self-organize, their well-being and provision with modern equipment and technology, and the ability to combine personal and collective interests.

The size of cultivated fields in the partnership ranges from 0.5 hectares or more. Cereals, potatoes, and sugar beets are grown on them. There is a full range of modern equipment stored in hangars. For example, before the start of harvesting, a special quality campaign takes samples from the field of peasants or farmers and examines them in the laboratory. Within 48 hours, permission is given to supply vegetables to the cooperative. Fresh vegetables are constantly refrigerated before sale. This ensures their high quality from field to counter.

Assessing the reports of the US Department of Agriculture and the European Union, it becomes obvious that high-quality development of rural areas is impossible without a developed farming sector. Also, without small and medium-sized enterprises that produce agricultural products. Official publications state that family farming includes all types of family agricultural activities and covers several areas of rural development. Family farming is a way of organizing agricultural, forestry, fisheries, pastoral, and aquaculture production, carried out and managed by a family and relying primarily on the labor of family members, both women and men.

US agricultural policy today is formed from a whole system of legislative acts. Every five ears, Congress debates and passes the Farm Bill. This bill is a consolidated multi-year law governing a variety of agricultural and food programs.

It is family farms that are today the main subject of cooperation in the US agri-food complex. The USDA Economic Research Service (ERS) defines family farms as groups of people related to the farm's main farm worker by blood or marriage. They must own the majority of the farm. The head worker is the person who is responsible for making operational production decisions on the farm.

As of 2022, 88% of US farms, which belong to the type of small farms in the agricultural sector, manage almost 46% of all land and own 49% of the value of farm real estate (buildings and structures). They account for 20% of agricultural sales. They stock 40% livestock and 80% horses.

In the United States, farms are classified into unique categories depending on

certain criteria: whether the business itself is owned by the main employee or his relatives (whether the farm is family), whether agriculture is the main activity, primary employment and source of the main gross income of the farm (gross cash farm income - GCFI).

B.Z. Arzimatov - Farg‘ona Politexnika instituti assistenti
R.N. Asqarova - Farg‘ona Politexnika instituti talabasi

MAHSULOT SIFATIDA STANDARTLASHTIRSH VA UNING HOZIRGI KUNDAGI ROLI

Annotatsiya. *Mahsulot sifatiga bo‘lgan extiyoj vaqt o‘tishi bilan sezilarli darajada oshdi. Maxsulotlarni standartlashtirish va ularni xalqaro bozorga olib chiqish imkoniyati tug‘ildi.*

Kalit so‘zlar: *mahsulot sifati, ISO, standartlash, sifat nazorat, raqobatbardoshlilik qobiliyati, texnologiya cloud-based, boshqarish tizimi.*

Аннотация. *Спрос на качественную продукцию с течением времени значительно возрос. Появилась возможность стандартизировать продукцию и вывести ее на международный рынок.*

Ключевые слова: *качество продукции, ISO, стандартизация, контроль качества, конкурентоспособность, технология cloud, система управления.*

Annotation*. Demand for product quality has increased significantly over time. There was an opportunity to standardize products and bring them to the international market.*

Keywords: *product quality, ISO, standardization, quality control, competitiveness, technology cloud-based, management system.*

Sifat va unga bo‘lgan munosabat asrlar davomida o‘zgarib borgan. Sifat ishlab chiqarishning va ehtiyojlarning o‘sishi natijasida rivojlangan. XIX asrlarda ishlab chiqaruvchilar o‘zlarining mahsulotlariga tegishli tamg‘a urib, ishlab chiqargan mahsulotlarining sifatini kafolatlay boshlashadi va shundan keyin sifat masalasiga ahamiyat kuchayib borgan.

Vaqt o‘tishi bilan sifatning mohiyati, unga bo‘lgan talablar va yondashuvlar keskin o‘zgardi. Sababi, ehtiyoj oshgani qadar taklif ham kuchaydi. Natijada, ishlab chiqaruvchilar orasida raqobat paydo bo‘ldi. Raqobat esa konkurentlarning yangi innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishga turtki bo‘ldi. Bundan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, bozorga iste’molchidan ko‘ra raqobat ko‘proq ta’sir qiladi. Aynan shunday raqobat rivojlangan davlatlarda mahsulot sifatini oshirish muhim o‘rinda turadi.

Standartlashtirish va sifat menejmenti iqtisodiyotning bir qator soha va tarmoqlaridagi ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini va ularni iste’molchilar sog‘ligi uchun

xavfsizligini ta’minlash hamda bu jarayonda jahon standartlariga javob beradigan usullardan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

20-asrning oxirigacha individual nazorat mavjud edi. Har bir ishlab chiqaruvchi o‘z mahsulotini asl namunaga yoki loyihaga muvofiqligini mustaqil ravishda baholadi. 20-asrning boshlariga kelib, mas'uliyatni taqsimlash zarurati ayon bo‘ldi. Shunday qilib, do‘kon nazorati paydo bo‘ladi, bu ishchilarning har biriga tayinlashni nazarda tutadi individual zona mas'uliyat. Keyingi qadam sifat menejmenti jarayonlarida yuqori boshqaruvning bevosita ishtirokini nazarda tutuvchi ma'muriy nazoratning paydo bo‘lishi haqida gapirish mumkin. Ishlab chiqarish ko‘lamining o‘sishi bilan korxonada alohida xizmatlarni yaratish zarurati tug'iladi texnik nazorat, bu nafaqat yakuniy mahsulotning standartlarga muvofiqligini baholaydi, balki butun ishlab chiqarish jarayonini nazorat qiladi. Ishlab chiqarish natijalarini sifat va miqdoriy baholash zarurati yuzaga kelganligi sababli, statistik usullar qo‘llanila boshlandi. Universal nazorat tizimi joriy etilmoqda. Bu sifatni boshqarishga barcha darajadagi xodimlarni jalb qilishni nazarda tutadi. 21-asr boshlarida xalqaro tashkilot mahsulotlarni standartlashtirish va sertifikatlash bilan shug'ullanadigan ISO xalqaro standartlashtirish tashkilotiga asos solindi.

ISO xalqaro standartlari talablari asosida sifat menejment tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish va ularni sertifikatlashtirish hamda kelgusida sifat menejmenti tizimlarini natijaviyligi va samaradorlinigi tahlil qilish orqali korxonaning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini baholash qulay afzalliklarni yuzaga keltiradi.

ISO xalqaro standartlari mahsulotlar va xizmatlar xavfsiz, ishonchli va sifatli bo‘lishini ta'minlaydi. Biznes sohasida esa ular chiqindilarni va xatolarni minimallashtirish va samaradorlikni oshirish orqali xarajatlarni kamaytiradigan strategik vositalardir. Ular kompaniyalarga jahon bozoriga chiqishda, rivojlanayotgan davlatlar uchun erkin va adolatli global savdoda yordam beradi. ISO standartlarining 1000 ga yaqini qishloq xo‘jaligini ishlab chiqaruvchilardan tortib, oziq-ovqat mahsulotlari, transport, logistika, etiketka, qadoqlash va saqlash kabilarga taqdim etilgan.

Mijozlar ehtiyojlarining oshishi mahsulot va sifatlarning yuqori sifatini talab qiladi. Bu esa sifat menejmenti tashkilotlar uchun qanchalik muhimliligini aniqlashda asosiy omil bo‘ladi. Bundan kelib chiqib, sifat menejmentining so‘nggi tendensiyalarini o‘rganish – bozor iqtisodiyotida mahsulot sifatini standartlashtirish uchun o‘rinlidir.

Bugungi kunda jahon bozorida 2024 yil kutilayotgan sifat menejmentining so‘nggi 10 tendensiyasini ko‘rib chiqamiz. Immersive texnologiylar, Kompyuter, Sifat nazorati, Blokcheyn, Robotli jarayonlarni avtomatlashtirish, Texnologiyaga asoslangan doimiy takomillashtirish, Ma’lumotlar bazasi va tahlillar, Cloud-based sifat menejmenti standartlari, Raqamli o‘xshashliklar, Chiqindilarsiz strategiyalar shular jumlasidan.

Mahsulot sifatini oshirishda standartlashtirish faoliyatining roli kattadir, chunki har qanday texnologik jarayonlarni bir me'yorda ishlashi, ularni har bir bosqichida me'yoriy hujjatlarning bajralishiga qanchalik rioya qilinishi, jamoaning

mehnat va texnologik intizomi hal qiluvchi rol o`ynaydi. Vazifa sifatli mahsulot ishlab chiqarish, uni sifatini turg`unlashtirish, yangiliklarni tinmay joriy qilish, yangi bozorlarni izlab topish va uni o`rganish bularning hammasi mahsulotni dunyo bozoriga olib chiqishga, uni raqobatbardoshlilik qobiliyatini oshirishga va korxonaning iqtisodiy faoliyatini yaxshilashga imkon beradi, demak korxona o`z navbatida sifatli mahsulot ishlab chiqarishga kafolat oladi. Har bir korxona standartlashirish me'yor va talablariga rioya etib mahsulot ishlab chiqarsa albatta kutilgan natija iste'molchi talabi qondiriladi va bu korxonani o'z bozordagi mavqeyini yuksalishiga asosiy faktorlardan biriga aylanadi.

Adabiyotlar:

1. Mutaliyev, N. N. M. (2020). Ishlab chiqarish korxonalarida sifat tizimini tashkil etish. Science and Education, 1(9), 215-218.
2. Arzimatov BZ Article, European Multidisciplinary journal of modern science "Management system improvement trends" Germany, Berlin, 2022. 403-408p.
3. Arzimatov B.Z, Askarova R.N. Experience of foreign countries in relationships between manager and employee //Current approaches and new research in modern sciences. - 2023. - T. 2. – No. 9. - S. 36-39.
4. Arzimatov B., Kholmatov B. Small business and entrepreneurship development-a main criteria of the country's economic growth //Archivarius. - 2021. - T. 7. – no. 2 (56). - S. 60-62.

Акбаров Бобуржон Собиржон ўғли - НамМТИ "Маркетинг"кафедраси ассистенти

ОРГАНИК ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ МАҲСУЛОТЛАРИ БОЗОРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ БЎЙИЧА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ

Аннотация:*Мақолада, жаҳон мамлакатларида "Organic" қишлоқ хўжалиги махсулотлари етиштириш тажрибаси ёритилган. Жахон Organic махсулотлари бозорида етакчи мамлакатлар; АҚШ, Германия, Франция ва Хитойнинг улуши юқорилиги. Осиё, Африка, Лотин Америкаси давлатларида хам кейинги йилларда Organic маҳсулотлар экспорти ўсиб бораётгани аниқланган. "Organic" қишлоқ хўжалиги учун мамлакатларда йилдан-йилга кўпроқ ер майдонлари ажратилаётгани; Organic маҳсулотлар стандартлари ва уларнинг олиш бўйича қўйилган талаблар ёритилган.*

Аннотация: *В статье исследовании опыт ведущих стран мира по производству органической сельхоз продукты; определена доля отдельных стран в производству мировой торговле экспорте и импорте органической продукции проанализирован размер земельной площади выделенных для производства органической продукции. Изучены стандарты органической продукции и требования по их получению.*

Annatation: *The article studies the experience of the world's leading countries in the production of organic agricultural products; the share of*

individual countries in the production of world trade, exports and imports of organic products is determined; the size of the land area allocated for the production of organic products is analyzed. Studied the standards of organic products and requirements for their receipt

Таянч сўзлар: *Organic ва Global G.A.P., organic озиқ-овқат бозори, Organic қишлоқ хўжалиги тадқиқотлари институти (FiBL), Organic қишлоқ хўжалиги харакати бўйича Халқаро Федерацияси (IFOAM), маркетинг тадқиқотлари, "Organic" қишлоқ хўжалиги махсулотлари стандартлари ва бошқалар.*

Ключевые слова: *Organic and Global G.A.P., рынок органических продуктов питания, Институт органических сельскохозяйственных исследований (FiBL), Международная федерация движения за органическое сельское хозяйство (IFOAM), маркетинговые исследования, Стандарты органической сельсхоз продуктов и другие.*

Keywords: *Organic and Global G.A.P., Organic Food Market, Institute for Organic Agricultural Research (FiBL), International Federation of Organic Agriculture Movement (IFOAM), Marketing Research, Organic Agricultural Product Standards and others.*

Кириш

Янги Ўзбекистонни барпо этиш жараёнида амалга оширилаётган ислоҳотлар таркибида саноат ва қишлоқ хўжалиги фаолиятини, жумладан, уларнинг мижозлар билан муносабатларини институционал ва функционал механизмлари такомилаштириш борасида кенг қамровли чора тадбирлар амалга оширилмоқда. Жумладан Ўзбекистон республикасининг "2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси" да Озиқ-овқат саноатини ривожлантириш дастурини амалга ошириш бўйича озиқ-овқат хом ашё бозорини кенгайтириш "Органик махсулотлар хажмини босқичма босқич ошириш дастурини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш" белгиланган. Шу сабабли "Органик махсулотлар"ни етиштириш ва уни бозорини тахлил этиш янги йўналиш бўлганлиги сабабли хориж тажрибасини ўрганиш ва улардан фойдаланиш ўта долзарб масала хисобланади.[38]

Органик қишлоқ хўжалиги - бу анъанавий ва илмий билимлардан фойдаланадиган агроекотизимларни бошқариш ёндашувига асосланган ишлаб чиқариш тизимидир.[39]

Органик қишлоқ хўжалиги ривожланаётган мамлакатларга кенг кўламли иқтисодий, экологик, ижтимоий ва маданий имтиёзларни таклиф этади. FIBL статистик маълумотларига кўра, органик озиқ-овқат ва

[38] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-йилда 28-январдаги "2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сонли Фармони// www.lex.uz

[39] Prepared under the CBTF Project "Promoting Production and Trading Opportunities for Organic Agricultural Products in East Africa" United Nations New York and Geneva, 2008

ичимликлар савдоси сўнги йилларда тез ўсди ва 2020-йилда 120,0 миллиард евродан 2021-йилга келиб 125,0 миллиард еврога етди[40].

Ривожланаётган мамлакатларда органик қишлоқ хўжалиги деҳқонларнинг анъанавий билимлари ва анъанавий қишлоқ хўжалиги навлари бўйича бой меросига асосланади. Органик деҳқончилик ҳамжамиятларни мустаҳкамлаши, деҳқончиликни давом эттиришга ундаш, қишлоқдан шаҳарга миграцияни камайтиришга хисса қўшади. Бу далиллар органик қишлоқ хўжалигини барқарор ривожлантириш имконияти беради.

Органик қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш, сақлаш, қайта ишлаш, сотиш ва бозорини ривожантириш бўйича жахон мамлакатларида жуда катта ишлар олиб борилмоқда. Хусусан **Дания** давлатида 1987 йилда ўзининг органик секторини биринчи марта тартибга солган мамлакатлардан бири бўлиб, 1992 йилдан бошлаб Европа Иттифоқининг 2092/91 регламенти қўлланилган. Ҳукумат томонидан органик ишлаб чиқаришни тўғридан-тўғри қўллаб-қувватлашнинг турли шакллари, масалан, ҳудудий тўловлар мавжуд эди, аммо бозорни ривожлантириш чора-тадбирлари учун истеъмолчиларни ўқитишдан тортиб, мактаб ошхоналари томонидан органик озиқ-овқат маҳсулотларини харид қилишни қўллаб-қувватлаш ва экспортга катта маблағлар ажратиш каби рағбатлантиришлар қўлланилди. Сектор ва Ҳукумат ўртасидаги ҳамкорлик интенсив бўлиб, сектор ҳукумат томонидан қўллаб-қувватланадиган кўплаб дастурларни амалга оширди. Органик озиқ-овқат кенгаши орқали сектор ва ҳукумат ўртасидаги сиёсий мулоқот институционализация қилинди. Бундан ташқари **Коста-Рика** давлатида кўпгина бошқа мамлакатларда бўлгани каби, органик қишлоқ хўжалигини ривожлантириш учун ички ва экспорт бозорини ривожлантириш, озиқ-овқат маҳсулотларини қайта ишлаш, кредит хизматларини кўпайтиришни қўллаб-қувватлайди. Миллий органик қишлоқ хўжалиги дастури 1999-йилда ташкил этилган бўлиб, агентлик сектор билан ҳамкорликда маслаҳатлашувлар асосида органик ишлаб чиқариш бўйича миллий стратегияни ишлаб чиқди.

Чили давлатида эса органик маҳсулотлар ихтисослаштирилган дўконларда, супермаркетларда ва тўғридан-тўғри савдо орқали сотилади. Органик маҳсулотлар учун ҳукуматнинг бевосита ташаббуслари кўп эмас, лекин кўпчилик умумий дастурлар ва муассасалар органик ишлаб чиқарувчиларга ҳам хизмат қилади. Ҳукумат томонидан ҳомийлик қилинадиган ПроЧиле дастури органик маҳсулотлар экспорт бозорини ривожлантиришни қўллаб-қувватлайди. 1999 йилда Чилида органик ишлаб чиқариш бўйича ҳукумат стандарти ва 2006 йилда органик маҳсулотларни мажбурий тартибга солиш тизими ишлаб чиқилди. Сектор ва ҳукумат ўртасидаги ҳамкорлик етарли даражада ривожланган.

Европада олиб борилган тадқиқотлар органик бозорларни ривожлантириш учун олтита муҳим шартни яратди[41]

[40] Source: FiBL survey 2023, based on national data sources, data from certifiers and IFOAM – Organics International

[41] Hamm U and Michelsen J (2000). Analysis of the organic food markets in Europe. In *Proceedings of*

- Кучли истеъмол талаби;
- Озиқ-овқат компанияларининг юқори даражадаги иштироки;
- Оддий супермаркетлар орқали сотиш;
- Ўртача (50 фоиздан кам) органик нархлардаги мукофотлар;
- Бир доминант ёрлиғ
- Бутун мамлакат бўйлаб касбий тарғибот.

Бундан ташқари Осиё мамлакатларида хам органик секторни ривожлантириш учун қуйидаги дастурлар амалга оширилди. Хусусан, **Миср**да органик қишлоқ хўжалиги махсулотларини тахминан 40 % и ички бозорда сотилади қолган 60 % и экспорт қилинмоқда. Ҳукуматнинг соҳадаги иштироки анча паст асосий муассаса органик қишлоқ хўжалиги бўйича марказий лаборатория. Умумий сиёсат пестицидлардан фойдаланишни камайтиришни қўллаб-қувватлайди ва бешта соҳада пестицидлардан фойдаланиш бутунлай тақиқланган. Бундан ташқари **Таиланд** давлатида аксарият органик маҳсулотлар, айниқса гуруч, асосан Европага экспорт қилинади. Сабзавотларнинг аксарияти маҳаллий шароитда сотилади. Кўплаб органик брендлар кичик дўконларда ва асосий супермаркетларда, хусусан, маҳаллий ишлаб чиқарилган ва импорт қилинадиган кенг ассортимент мавжуд бўлган Бангкокда фаолият олиб бормоқда. Хусусий секторни сертификатлаш бўйича

дастлабки органдан ташқари, қишлоқ хўжалиги департаменти агентлик орқали бепул сертификатлашни ҳам таклиф қилади. Ишлаб чиқарувчиларнинг ярми хорижий сертификатлаштириш органлари томонидан сертификатланган. Органик ишлаб чиқариш учун ихтиёрий давлат стандарти ва сертификатлаштириш органларини аккредитация қилиш бўйича давлат дастури мавжуд. Марказий ҳукумат яқинда органик ривожланиш дастурини қабул қилди, жумладан биоўғитлар ишлаб чиқаришга катта инвестициялар киритган. Қироллик оиласи ўзини ўзи таъминлайдиган барқарор қишлоқ хўжалигини тарғиб қилди ва органик қишлоқ хўжалигини ривожлантириш учун Қироллик лойиҳасини эълон қилди. Бу лойиха органик қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқаришни бошлади.

Юқоридаги давлатлар тажрибаларидан кўриниб турибдики Органик секторни ривожлантириш учун жуда катта ишлар амалга оширилган, маркетинг тадқиқотлари ўтказилган. Бизнинг юртимизда эса, ораник қишлоқ хўжалигини ривожлантириш учун 2020-йил 18-майда ПФ-5995 сонли президент Фармони **“Ўзбекисотн Республикасида органик қишлоқ хўжалиги ва органик озиқ-овқат маҳсулотларини ривожлантириш консепсияси”** ишлаб чиқилди. Бу консепсия органик маҳсулотлар ишлаб чиқариш учун асос бўлди. Бундан ташқари сохани ривожлантириш учун турли хил қонун ва қонун ости хужжатлари ишлаб чиқилди. Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан 2022 йилнинг 25 апрель куни “Органик

---

the 13th International Scientific Conference, IFOAM & FIBL. Basel, Switzerland, pp. 507-510.

маҳсулотлар тўғрисида”ги **ЎРҚ-766-сон** Қонуни имзоланди.

Сохани ривожлантириш учун бугунги кунга қадар қишлоқ хўжалиги ва озиқ-овқат саноати соҳасида халқаро стандартлар талабларини жорий қилиш юзасидан **900 дан** ортиқ мутахассислар ўқитилди.

Хулоса ва таклифлар

Юқорида амалга оширилган ишлардан келиб чиқиб, сохани ривожлантириш учун қуйидаги илмий-амалий таклифларни беришимиз мумкин.

Хорижий давлатлар тажрибаларидан кўриниб турибдики хар бир сохани ривожланишида ўша сохани мутухассисларига эхтиёж сезилади. Шунинг учун бизни шу сохадаги мутахассисларни чет эл давлатларига бориб тажриба олмашинишларини йулга қўйиш.

- Соҳани ривожлантириш учун аввало аҳоли ва фермерларни ўқитиш бўйича курсларни ташкил этиш
- Ахоли ва фермерларни ўқитиш учун ўқув қўлланмалани ишлаб чиқиш. Бунинг учун давлат томонидан давлат грантларини жорий этиш лозим деб хисоблаймиз.
- Органик маҳсулотларнинг давлат харидларини, шу жумладан муҳим оммавий тадбирларда органик озиқ-овқат маҳсулотларини кўрсатишни рағбатлантириш керак.
- Ички бозорни ривожлантириш стратегияси талаб ва таклиф қоидаларига, шу жумладан импортнинг ролига қаратилган чора-тадбирларни ўз ичига олиши керак.
- Фермерларни маркетинг, биргаликда тарқатиш ва сақлаш бўйича ташкил этиш қўллаб-қувватлаш.
- Бозорларда маркетинг ахборот тизимларини яратиш ўта долзарб масала деб ҳисоблаймиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-йилда 28-январдаги “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони// www.lex.uz

2. Prepared under the CBTF Project “Promoting Production and Trading Opportunities for Organic Agricultural Products in East Africa” United Nations New York and Geneva, 2008

3. Source: FiBL survey 2023, based on national data sources, data from certifiers and IFOAM – Organics International

4. Hamm U and Michelsen J (2000). Analysis of the organic food markets in Europe. In Proceedings of the 13th International Scientific Conference, IFOAM & FIBL. Basel, Switzerland, pp. 507-510.

Газиев Хайдарали Ортиқович - Фарғона политехника институти доценти, и.ф.н.
Мухаммадалиева Рухсора, Жўрабоев Абдусалом - 69-22 РИ гр. талабалари

МАҲСУЛОТ СИФАТИНИ БОШҚАРИШДА ХАЛҚАРО ТАЖРИБАЛАРНИ ЎРГАНИШ ХАҚИДА

Аннотация. *Мақола тезисида маҳсулот сифати хизматини чет эл тажрибаларини ўрганиш орқали ташкиллаш, уни назарий ва амалий жиҳатдан қўллаш кераклиги ёритилган.*

Калит сўзлар. *Сифат, маҳсулот, харидор, бозор, сифатни бошқариш, хизмат кўрсатиш, таҳлил.*

Аннотация. *В тезисе рассматриваются теоретические и практические работы службы качества и ее организации. Рассматриваются вопросы организации этой работы предприятиями зарубежных стран.*

Ключевые слова: *качества, продукт, покупатель, рынок, управления качеством, обслуживание, анализ.*

Annotation. *The thesis examines the theoretical and practical work of the quality service and its organization. The issues of organizing this work by enterprises of foreign countries are considered.*

Keywords: *quality, product, buyer, market, quality management, service, analysis.*

Маҳсулотнинг сифати деганда, унинг мўлжалланган мақсадда фойдаланишга яроқли хусусиятларининг мажмуаси тушунилади. Юқори сифатли маҳсулот фақат истеъмолчиларнинг эҳтиёжларини тўла-тўкис қондирибгина қолмай, балки бундай маҳсулот кўп хизмат қилади, кам кўстсиз, нуқсонсиз бўлади, кўриниши чиройли ва кишида эстетик завқ туғдиради. Саноат маҳсулотининг сифати корхона фаолиятига бахо берувчи энг муҳим сифат кўрсаткичларидан биридир. Маҳсулот сифатини белгиловчи энг муҳим кўрсаткичлардан бири ишлаб чиқаришда йўл қўйилган яроқсиз маҳсулотнинг даражаси ҳисобланиб, у бракка чиқарилган маҳсулот суммасини товар маҳсулотининг ишлаб чиқариш таннархига нисбати орқали аниқланади.

Бозор иқтисодиёти шароитида ҳар қандай ташкилот ва корхонанинг асосий эътибори сифатни бошқаришга қаратилган бўлмоғи керак, чунки айнан шу йўл билан улар барча рақобатчиларга қарши кураша оладилар ва истеъмолчиларнинг ҳар қандай талабларига тўла жавоб берадилар. Юқори сифатли маҳсулот ва хизматлар рақобатбардошликда энг асосий кўрсаткич ҳисобланади. Сифатни самарали таъминлаш учун юқори рахбарлик қуйидаги бўлимларни: илмий тадкикот, режалаштириш, ихтирочилик, ишлаб чиқариш, сотиш ва хизмат кўрсатишларни ўз ичига олган қаттиқ сиёсатни белгилаш керак.

Сифат тизимлари яратилиши ва фаолияти қуйидаги мақсадларга

эришиш учун зарур:

- сифатни таъминлаш;
- сифатни бошқариш;
- сифатни яхшилаш.

Сифатни бошқаришда рахбарлар ва ходимларни ушбу сохадаги билимларини оширишга ундай билиш зарур. Бошқарув тизими корхоналарни биринчи рахбарига боғлиқ ва шунга кўра тизимни қўллаб- қувватлашга жалб этиш унинг ривожини таьминлайди.

- **Корхонани ривожлантириш стратегияси ва ИСО 9001 талаблари буйича.**

- СМТ нинг асосий қонун - қоидаларини амалга ошириш;
- жароёнли ёндошувни ўзига хослиги;
- корхона жараёнларининг фойдалилиги ва самарадорлиги;
- жараёнлар мониторинги;
- юқори рахбарият ва турли даражадаги рахбарларнинг
- корхоналар СМТ нинг ривожлантиришдаги роли;
- корхоналар СМТ нинг такомиллаштиришга амалий ёндошувлар;
- сифат менижменти бўйича халқаро тажриба;

Одатда, Европа, АҚШ, Канададаги давлатлар ривожланган мамлакат ҳисобланади ва шунга кўра ҳамма айнан шу мамлакатда билим олиш ва тажриба орттиришга интилади. Бизнинг маданиятимиз, менталитетимиз ва ресурсларимиз бу минтақалардан анчагина фарқ қилади. Малайзия Европа мамлакати эмас, лекин шунга қарамай, у кейинги йилларда кескин ўзгарди ва жахон молиявий ва ишлаб чиқариш марказларидан бирига айланди. Бугун Малайзия жахонга маълум ва машхур бўлган Сонй, Панасоник, Асер, ИБМ каби юқори сифатли электрон, компютер хамда уй – рўзғор техникалари ишлаб чиқарувчи етакчи мамлакатлардан бири ҳисобланади. Малайзияда Форд, Ниссан, Тойота автомабиллари ишлаб чиқарилади.

Японияда сифатни бошқаришнинг ўзига хослиги — фирманинг барча ходимлари бу ишда қатнашишининг ихтиёрийлиги. Сифатни бошқаришга бундай ёндашиш "умумий сифат бошқариши" деган ном олди. Унинг мохияти қуйидагича:

- маҳсулот сифатини яхшилашда "сифат тўгаракларига" бирлашиб, фирманинг барча ходимлари қатнашиши шарт;

- ҳамма иш ўринларида назоратнинг статистик усуллари қўлланиши керак;

- доим сифатни назорат қилиш усулларини барча даражаларда миллий миқёсда ўргатиш лозим;

- сифатни назорат қилиш усулларини татбиқ этиш ҳаракати бутун мамлакатни қамраб олиши керак.

Бош йўналиш — "сифат — ҳамма нарсадан устун".

Хозирги кунда республикамизда маҳсулот сифатини яхшилаш ва унинг рақобатбардошлигини ошириш борасида олиб борилаётган ишлар, турли соха вакилларини, шу жумладан ишбилармон кишиларни ва корхона

рахбарини ишлаб чиқараётган маҳсулотлари юқори сифатли ва рақобатбардошлигига эришишга, уларнинг бу соҳада олиб бораётган ишлари давлатнинг экспорт салоҳиятини оширишга қаратилишини тақазо қилмоқда.

Корхонада маҳсулот сифатини самаралий бошқаришда ўз тасирини кўрсатадиган сифатни бошқариш механизмларини такомиллаштиришга ёрдам берадиган **бир неча таклифларни** киритишимиз мумкин:

1. Инсон омили яъни энг илғор технологияни ҳам инсон бошқаради.
2. Корхоналарни техникавий қайта қуроллантириш, иннавацион технологоялардан фойдаланиш.
3. Бошқарувни илмий ташкил этиш.
4. Ҳодимларни ўз малакаларидан келиб чиққан ҳолда иш жойларига жойлаштириш .
5. Япон корхоналарининг асосий ютуқларидан бири бўлган корхонада “Сифат тўгараклари”ни ташкил қилиш.
6. Сифатни бошқаришда корхонанинг барча деректордан тортиб оддий хизматчисигача маҳсулот сифатида жавобганлик ҳисси сингдириш.

Сифатни бошқариш механизмларини такомиллаштириш ва улардан маҳсулот сифатини оширишда муваффақиятга эришиш, унинг асосий вазифалари бажарилиши амалда сифат бўйича маҳсус дастурларни тайёрлаш ва уларни жорий этишни таъминлаш билан боғлиқ. Бу эса корхонанинг фойдасини янада кўпайтирувчи омил ҳисобланади.

Маҳсулот сифатини назорат қилишни ташкил этиш ва бошқариш жуда катта масъулият талаб қиладиган вазифа ҳисобланади, чунки корхона маҳсулот сифатига корханадаги барча сабаблар таъсир этади ва хўжалик фаолиятини тўғри йўлга қўйган корхоналаргина бунга эришадилар.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, маҳсулот ишлаб чиқаришни токамиллаштириш, маҳсулот сифатини ошириш бўйича ҳали ўрганилмаган имкониятлари кўп ва уларни қидириб топиш бизнинг зиммамиздаги вазифадир. Маҳсулот сифати паслиги фақат сезиларли иқтисодий талофатларгина эмас балки салбий оқибатларга ҳам олиб келишини унутмаслигимиз керак.

Х.М.Мисиров - ТДИУ “Бухгалтерия ҳисоби” кафедраси мустақил изланувчиси

ТЕМИР ЙЎЛ КОРХОНАЛАРИДА ДАРОМАДЛАР ВА ХАРАЖАТЛАР ҲИСОБИНИ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР АСОСИДА ЮРИТИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ.

Аннотация: *Республикамизда молиявий ҳисобнинг халқаро стандартлари жорий этилиши туфайли иқтисодий кўркаткичлар сезиларли даражада ижобий томонга ўзгарди. Жумладан, “Ўзбекистон темир йўллари” АЖ корхоналарида МҲХС асосида юритилаётган ҳисоботларда даромадлар ва харажатлар ҳисобини такомиллаштириш ҳамда бу ҳисоботларда темир йўл корхоналарининг молиявий ҳолати ва унинг*

молиявий натижалари тўғрисида ишончли маълумотларни яратишга имкон беради.

Калит сўзлар: *темир йўл корхоналари, МҲХС, даромадлар ва харажатлар, тартибга солиш, фаолият, бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботлар.*

Аннотация:*Благодаря внедрению международных стандартов финансового учета в нашей республике экономические показатели существенно изменились в положительную сторону. В частности, это позволяет улучшить учет доходов и расходов в отчетах, проводимых на базе МСФО на предприятиях АО «Узбекские железные дороги», и создать в них достоверную информацию о финансовом состоянии железнодорожных предприятий и их финансовых результатах отчеты.*

Ключевые слова: *железнодорожные предприятия, МСФО, доходы и расходы, договоренность, активность, учет и отчетность.*

Annotation: *Due to the introduction of international standards of financial accounting in our republic, economic indicators have significantly changed in a positive direction. In particular, it allows to improve the accounting of income and expenses in the reports conducted on the basis of IFRS in the enterprises of JSC "Uzbekistan Railways" and to create reliable information about the financial condition of the railway enterprises and its financial results in these reports.*

Keywords: *railway enterprises, IFRS, revenues and expenses, arrangement, activity, accounting and reporting.*

Кириш. Жаҳонда иқтисодий муносабатлар ривожланиб бораётган бир пайтда, иқтисодиётнинг барча соҳа ва тармоқларида самарали фаолият ва юқори ўсиш суратларини таъминлашда, бошқарув механизмларини такомиллаштиришда, хизмат кўрсатиш ва ишлаб чиқариш соҳалари алоҳида ўрин эгаллайди.

Ҳозирги рақамли иқтисодиётни ривожлантириш шароитида хизмат кўрсатиш ва ишлаб чиқариш соҳалари турлари кўпаймоқда, бу эса даромад олишга қаратилган мақсадли фаолиятларнинг амалга оширилиши, доимий самарадорликка эришишга бўлган интилишларни юзага келтиради.

Бу борада Ўзбекистон Республикасида ҳам рақамли иқтисодиётни ривожлантириш шароитида, иқтисодий барқарорликка эришишда кўплаб қонунлар, фармонлар қабул қилинмоқда ҳамда ижобий ишлар амалга оширилмоқда. Масалан “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги Қонуннинг янги таҳрири (13.04.2016 йилдаги ЎРҚ-404 сон қарор) [1] ва Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги ПҚ-4611-сонли “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори [2].

Бу иқтисодий ўзгаришларни янада такомиллаштиришда ва барқарорликка эришишда, ўзининг ҳиссасини қўшиб келаётган транспорт соҳаларида ҳам туб иқтисодий ўзгаришлар қилиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 10 январдаги — “Аҳолига транспорт хизмати кўрсатиш ҳамда шаҳарлар ва қишлоқларда йўловчилар ташиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2724-сонли [3] қарори, 2019 йил 6 мартдаги “Юк ва йўловчи ташиш тизимини

тубдан такомиллаштириш чора - тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4230-сонли [4] қарори ҳамда 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли [5] фармони қабул қилинди. Юқоридаги қарорлар, фармонлар ва бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар асосида белгиланган вазифалар ижросини таъминлаш мақсадида “Ўзбекистон темир йўллари” АЖ корхоналарининг иқтисодий фаолиятидаги кўрсатгичлар самарадорлигини кўпайтириш, қолаверса иқтисодий фаолиятидаги камчиликларни бартараф этиш, юритилаётган ҳисоботларда даромадлар ва харажатларни тўғри тақсимлашга, шаффофликка ёрдам беради.

“Ўзбекистон темир йўллари” АЖ корхоналарида иқтисодий жиҳатдан яхшиланиш ҳамда барча соҳа ва тармоқларида самарали фаолият ва юқори ўсиш суратларини таъминлашда бошқарув механизмларини такомиллаштириш учун харажатларни пасайтириш ҳамда даромадларни оширишга бўлган интилишлари иқтисодий ривожланишнинг энг муҳим талабидир.

Мазкур талаблар орқали “Ўзбекистон темир йўллари” АЖ корхоналарда даромадларни кенгайтириш, харажатларни оптималлаштириш ва пасайтиришга олиб келиш мақсадида кўплаб изланишлар олиб борилмоқда.

Тадқиқот методологияси: Мақолада анализ ва синтез, гуруҳлаш, таққослаш, индукция ва дедукция, монография, кузатиш ва бошқа таҳлил усулларидан кенг фойдаланилган.

Тадқиқотнинг асосий масаласи МҲХС асосида тузилган ҳисоботлардаги даромад ва харажатлар шаклини тузишда юзага келадиган ташкилий, методологик ва дастурий-техник муаммоларни бартараф этиш йўналишларини ишлаб чиқиш ҳисобланади ва улар натижасида ишлаб чиқилган тавсияларда даромад ва харажатлар ҳисоботларда тўғри акс эттириш ҳамда харажатларни қисқартириш, даромадга эришиш ва рентабеллик даражасини ошириш имконини беради.

Адабиётлар шарҳи:

«Даромад ва харажат» иқтисодий таълимотларда ва амалиётда энг кўп учрайдиган ва кенг қўлланиладиган тушунчалардан бири ҳисобланади. Шу сабабли, иқтисодиёт назариясида ва амалий фаолиятда даромадлар ва харажатлар муҳим кўрсаткичларидан бири сифатида эътироф этилади. “Ўзбекистон темир йўллари” АЖ корхоналарининг фаолиятида ҳам даромадлар ва харажатлар ҳисоби энг муҳим кўрсатгичларидан биридир. Рақамли иқтисодиётни ривожланиш шароитида иқтисодиётнинг барча иштирокчилари (давлатлар, хусусий тадбиркорлар,ташкилотлар) ҳамда темир йўл корхоналари ҳам ўз фаолиятларидан кўпроқ даромад олишга, харажатларни камайтиришга интиладилар. Даромадларни кўпайтириш, харажатларни камайтириш ҳар қандай давлат, корхоналар, хусусий тадбиркорликни узлуксиз ривожланишининг энг асосий омилларидан биридир.

Ҳозирги вақтда норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ва иқтисодий адабиётларда даромадлар-харажатларнинг моҳиятини очиб беришга оид

кўплаб қарашлар мавжуд.

Шу билан бирга, қонунчиликдаги доимий ўзгаришлар ҳамда халқаро ва миллий бухгалтерия ҳисоби стандартларининг номувофиқлиги даромадлар ва харажатларнинг бухгалтерия ҳисобида акс эттирилишини ва корхона ҳисоботидаги маълумотларнинг ишончлилигини яхшилаш учун бухгалтерия ҳисоби объектини доимий равишда ўрганиб бориш лозим.

Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, бугунги кунда корхона даромадлар ва харажатларнинг иқтисодий мазмуни, таснифланиши, таркиби, ҳисобга олиниши, шаклланиши ва тақсимланиш тартиби меъёрий ҳужжатлар ва иқтисодий адабиётларда турлича ёритилмоқда.

Жумладан: **Ф.А. Брокгауз ва И.А.Ефрон** энциклопедик луғатида келтиришича, **Даромад** - давлат, жисмоний ёки юридик шахс томонидан маълум вақт давомида ҳар қандай фаолият натижасида олинган маблағлар ёки моддий бойликлардир[7].

МҲХСнинг тамойилларига кўра, даромадлар - бу ҳисоб давридаги иқтисодий фойданинг ўсишини ифодалайди, бу активларнинг кириб келиши ёки кўпайиши ҳамда мажбуриятларнинг камайиши шаклида содир бўлади, бу эса акциядорларнинг улушлари билан боғлиқ бўлмаган капиталнинг кўпайиши натижасида юзага келади[3].

Иқтисодчи олимларнинг фикрича **В. И. Видяпина, А. И. Добрынина, Г. П. Журавлёвой, Л. С. Тарасев**ича **даромад** - бу жуда кенг қўлланишга эга бўлган атама. Ушбу атама турли маъноларда қўлланилади, бу сўзнинг энг кенг тарқалган маъноси қуйидагилардан иборат - фаолият натижасида маблағлар, мажбуриятлар, моддий ва номоддий активларнинг келиб тушишидир. [8].

Иқтисодчи олим А.Н.Азрилиян раҳбарлигида чоп этилган «Большой бухгалтерский словарь»да даромадга қуйидагича таъриф берилган: «Даромад - бу (1) бирор фаолият натижасида тушган пул ёки бошқа бойликлар, (2) ишлаб чиқариш – хўжалик фаолияти натижаси бўлиб, у сотилган маҳсулот ва хизмат қиймати ва уларга қилинган ҳаражатлар ўртасидаги фарқдан ташкил топади[9].

Маҳаллий иқтисодчи олимларнинг даромад бўйича илмий изланишларида қуйидагича тарифлар бериб ўтилган.

Иқтисодчи олим Ю.Додобоев ва А.Худойбердиевлар корхона даромадларига қуйидагича таъриф берадилар: «Корхонанинг ялпи даромади моддий харажатлар чиқариб ташлангандан сўнг иш ҳақи ва фойдани ўз ичига олган маҳсулот сотишдан тушган тушумдир»[10].

Иқтисодчи олим Э.Шавқиев корхона даромадига «… маълум бир даврда бутунлай янгитдан яратилган қийматдир», деб таъриф беради[11].

Бизнинг фикримизча: «**Даромад**[42] – бу муайян вақт оралиғидан унумли фойдаланиш натижасида, хизмат кўрсатиш фаолияти жараёнида олинган пул маблағлардир».

Иқтисодий ислоҳотларни амалга ошириш шароитида ҳар бир хўжалик

[42] Муаллиф фикри

юритувчи субъектлар олдига қўйган асосий мақсади бу фойда олиш ҳамда харажатларни камайтиришдир.

Хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятида харажатларни камайтириш иқтисодий ҳаракатнинг зарурий шарти мақсади сифатида қаралади. Жаҳон амалиётида харажат дейилганда, кўпинча бизнес самарадорлигининг пасайиши воситаси сифатида қаралади.

Иқтисодчи олим А.С. Нешитойнинг фикрича харажатлар - бу ташкилотлар, корхоналар ва тадбиркорлар томонидан пул шаклида ифодаланган харажатлардир. Ташкилотнинг харажатлари - бу ташкилот эгаларининг қарори билан бадалларнинг камайиши бундан мустасно, активларни тасарруф етиш ва (ёки) ушбу ташкилот капиталининг пасайишига олиб келадиган мажбуриятларнинг пайдо бўлиши натижасида иқтисодий фойданинг камайишидир[12].

Иқтисодчи олим Едвард Лоренз, Бенгт-Аке Лундвалл фикрича харажатлар – бу ҳисобот даврида иқтисодий фойданинг активларнинг чиқиб кетиши ёки улардан фойдаланиш шаклида камайиши, шунингдек , қатнашчилар ўртасида капиталнинг камайишига олиб келувчи мажбуриятларнинг юзага келишидир[13].

А.Х.Азларовнинг фикрича “...тармоқда умумишлаб чиқариш харажатлари хар бир маҳсулотнинг турига асосий ишлаб чиқаришдаги ишчиларнинг меҳнат хақига нисбатан мутоносиб тақсимланмоқда. Бу эса қўл меҳнати юқори бўлган корхоналарда таннархнинг ошиб кетишига сабаб бўлмоқда...” [14].

Профессор М.Б.Калонов харажатлар ҳисобини янада такомиллаштириш юзасидан ўз фикрларини қўйидагича келтирган: [15] “...Корхона харажатлари ҳисобини ҳам даромадлар билан бир хил услубиёт асосида юритиш, харажат турлари тўғрисидаги маълумотларни ҳисоб ва ҳисоботдан аниқ олиш имкониятини яратиш, даромад ва харажатлар ўртасидаги қиёсланувчанликни таъминлаш мақсадида корхона харажатларини — “Фаолият билан боғлиқ харажатлар” ва — “Бошқа харажатлар ва зарарларга ажратиш” ва “...бухгалтерия ҳисобида харажатлар ҳисобини юритишда ва ҳисоботда акс эттиришда қуйидаги мақсадлар доимо асос қилиб олиниши лозим:

1. Хўжалик юритувчи субъект рентабеллигини аниқлаш;
2. Субъектнинг бозор рақобатбардошлигини аниқлаш;

3. Солиқ солинадиган базани аниқлаш. Аммо амалдаги услубиёт асосида ҳисоб юритиш ва мазкур ҳисоб юритиш асосида шакллантирилган ҳисоботлар рентабеллик, субъектнинг бозор рақобатбардошлигини ҳамда рентабелликни тўғри ҳисоблаш имконини бермаслиги асосланган” лигини илмий жиҳатдан исботлаб берганлар.

Профессор А.З.Авлақуловнинг таъкидлашича “Ахборотларнинг шаффофлиги иқтисодий категорияларнинг тўғри қўлланилишига боғлиқ. “Чиқим”, “сарф” ва “харажат” категорияларини чуқур таҳлил қилиш бухгалтерия ҳисобида муҳим масалалардан биридир. Чунки ушбу категориялар хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятининг асосий кўрсаткичларидан бири бўлган маҳсулот таннархининг тўғри шаклланишида

муҳим аҳамият касб этади” харажатларга алоҳида тўхталиб ўтганлар, яъни, “...харажатлар- иқтисодий асосланган ва ҳужжат билан тасдиқланган сарфлар бўлиб, муайян давр оралиғида активларнинг камайиши ёки мажбуриятларнинг кўпайишига олиб келади” [16].

Ш.А.Пардаева томонидан харажатларни ҳисобга олишни такомиллаштириш бўйича қўйидаги таклифлар олдинга сурилган “... “Таргет-костинг” ҳисоб тизимини трансформация қилиш натижасида “Баҳо - Фойда = Таннарх” модели орқали ёндашиш натижасида харажатларни нафақат келгуси истиқболда, балки маҳсулотни ишлаб чиқаришини лойиҳалаштириш пайтидаёқ кўра билиш, ҳисобга олиш ва назорат қилиш имкониятини яратди:

- энг аввало ва доимий тарзда бозор ва харидор талабига мослашиш;
- бозордаги ҳолатдан келиб чиқиб белгиланган фойда миқдорига эга бўлиш учун маҳсулотнинг таннархини калькуляция қилиш;
- маҳсулот таннархини калькуляция қилишда унинг сифатига харидор томонидан қўйиладиган талабларни тўлиқ сингдиришга” [17] эришилиши алоҳида таъкидлаб ўтилган.

Бизнинг фикримизча: **Харажатлар**[43] бу - ташкилотлар ва корхоналар, хамда тадбиркорлар олиб бораётган фаолияти натижасида юзага келадиган пул шаклида ифодаланадиган харажатлардир.

Юқоридаги фикр ва мулоҳазаларга қўшилган ҳолда, жаҳондаги барча мамлакатлар ўзининг иқтисодий ривожланишига ҳамда барча соҳа ва тармоқларида, шу жумладан темир йўл корхоналарининг самарали фаолият олиб боришида, аҳоли турмуш фаровонлигини оширишни таъминлашга қаратилган иқтисодий ислоҳатларнинг негизида даромадларини кўпайтириш, харажатларни камайтириш асосида уларнинг молиявий ҳамда иқтисодий барқарорлигини мустаҳкамлаш масалалари туради.

Таҳлил ва натижалар.

Даромадлар ва харажатларни тармоқлар бўйича ўзига хос хусусиятларининг борлиги рақамли иқтисодиётни ривожлантириш шароитида айниқса, ҳисоб юритишда янада аниқлик ва шаффофликни талаб қилади. Шу нуқтаи назардан келиб чиқиб, “Ўзбекистон темир йўллари” АЖ корхоналарида даромадлар ва харажатлар ҳисобини МҲХС асосида юритиш ва такомиллаштиришни амалга ошириш муҳим масалалардан бири ҳисобланади.

“Ўзбекистон темир йўллари” АЖ корхоналарида даромадлар ва уларнинг манбаларини кенгайтиришга, одатдаги фаолиятдан ташқари инвестицион ва бошқа фаолият даромад турларининг пайдо бўлиши, мазкур фаолиятларда даромад ва харажатларини ҳисобда акс эттириш лозимлигини келтириб чиқармоқда.

Выводы и предложения: Политика Республики Узбекистан в области развития инновационной системы базируется на равноправном государственно-частном партнерстве и направлена на объединение усилий и ресурсов государства и предпринимателей страны для активизации инновационной деятельности. «Главная цель инновационного развития нашей страны – это развитие человеческого капитала; до 2030 года Узбекистан в Глобальном инновационном индексе в рейтинге передовых стран должен занять 50 –е место».[4]. Главным ориентиром для нас должно быть непрерывное технологическое и техническое обновление производства, а также постоянный поиск внешних и внутренних резервов, осуществление глубоких структурных преобразований в экономике, модернизации и диверсификации промышленности..

Исходя из стратегических направлений перехода на инновационный путь развития, мы считаем необходимым:

- создание целостной концепции инновационного развития на долгосрочную и среднесрочную перспективу, причем использовать систему стратегического планирования, позволяющей формировать будущие модели инновационного развития приоритетных сфер и отраслей на основе долгосрочных сценариев повышения интеллектуального и технологического потенциала страны;
- использовать экономический механизм внедрения инновационных форм государственного управления, обеспечивающих оптимизацию и упрощение процедур оказания государственных услуг, повышение эффективности деятельности органов государственного управления;
- расширить условия для привлечения инвестиций в сферу разработки и внедрения инновационных идей и технологий, совершенствование нормативно-правовой базы, обеспечивающей их дальнейшее развитие;
- поддерживать и стимулировать научно-исследовательскую и инновационную деятельности, прежде всего творческих идей и разработок

молодого поколения, а также создание благоприятных условий для активного участия талантливой молодежи в данной деятельности;

- создать эффективные механизмы продвижения и внедрения перспективных отечественных достижений научно-исследовательской и инновационной деятельности, включая организацию и укрепление материально-технической базы научно-экспериментальных специализированных лабораторий, центров высоких технологий, технопарков и других инновационно - ориентированных структур, в том числе с участием иностранных инвесторов.

Литература:

1.Стратегия Нового Узбекистана на 2022-20216 годы-Lex uz

2. Указ Президента РУ « О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан».- Народное слово, 8.02.2017

3. www.spot uz

4. Указ Президента РУ «О стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2019-2021 годы». – Народное слово, 22.09.2018.

Абдувоҳидова Гулшан Акмаловна – СамИСИ ”Менеджмент " кафедраси ассистент-стажери

АҲОЛИНИНГ ИШ БИЛАН БАНДЛИГИ ДАРАЖАСИНИ ОШИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ВА ОМИЛЛАРИ

Аннотация. *Ушбу мақолада аҳолининг бандлик даражасини оширишда иш билан таъминлашнинг самарали шакллари ва усларини жорий этиш, норасмий бандликни методологик-услубий ва амалий ёндашувларни такомиллаштириш асосида қисқартириш, демографик ностандарт шароитларда аҳолини қисқа муддатли иш билан таъминлаш бўйича илмий фикрлар келтириб ўтилган.*

Калит сўзлар*: аҳолини иш билан таъминлаш даражасини ошириш, норасмий бандликни қисқартириш, демографик ностандарт, меҳнатга лаёқатли инсонлар, меҳнат муносабатлари, самарали бандлик.*

Аннотация. В данной статье представлены научные мнения о внедрении эффективных форм и методов занятости для повышения уровня занятости населения, сокращения неформальной занятости на основе совершенствования методических, методических и практических подходов, краткосрочной занятости населения в непрофильных отраслях. - представлены стандартные демографические условия.

Ключевые слова: *повышение уровня занятости населения, сокращение неформальной занятости, нестандартная демография, трудоспособное население, трудовые отношения, эффективная занятость.*

Annotation. *This article presents scientific opinions on the introduction of effective forms and methods of employment to increase the level of employment of*

the population, reduce informal employment based on improving methodological, methodological and practical approaches, short-term employment of the population in non-core industries. - standard demographic conditions are presented.

***Keywords**: increasing the level of employment of the population, reducing informal employment, non-standard demography, able-bodied population, labor relations, effective employment.*

Жаҳон иқтисодиётининг технологик ривожланиш даражаси шиддат билан ошиб бориши ва демографик ўзгаришлар шароитида аҳоли бандлигини таъминлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда. “Дунёда аёллар бандлиги 2021 йилда 2020 йилга нисбатан 4,2 фоизга камайиб, 54 миллион ишсизликни, эркаклар кесимида мазкур кўрсаткичлар мос равишда 3 фоиз ва 60 миллион иш жойини ташкил этмоқда”[55]. Европа Иттифоқи мамлакатларида[56] пандемия шароитида ишсизлик даражасининг кескин ошгани муносабати билан қисқа муддатли иш билан бандлик даражасини ошириш дастури доирасида 100 миллиард евро ажратилди. Мазкур жараёнда аҳолини иш билан таъминлаш даражасини ошириш, норасмий бандликни қисқартириш ва демографик масалаларни оптимал ҳал этиш долзарб муаммо сифатида сақланиб қолмоқда.

Жаҳонда аҳолининг бандлик даражасини оширишда иш билан таъминлашнинг самарали шакллари ва услларини жорий этиш, норамий бандликни методологик-услубий ва амалий ёндашувларни такомиллаштириш асосида қисқартириш, демографик ностандарт шароитларда аҳолини қисқа муддатли иш билан таъминлаш бўйича мақсадли дастурларни асослаш каби йўналишларда илмий-тадқиотларга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бу борада аҳолининг ижтимоий-демографик гуруҳлари эҳтиёжларини хисобга олиш, иш билан бандликнинг инновацион турларини кенгайтириш, демографик ўсиш ва иқтисодий ривожланишнинг ўзаро алоқадорлигини асослаш каби илмий йўналишлар илмий асосларини такомиллаштиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Янги Ўзбекистонда аҳолининг турмуш сифатини яхшилаш, доимий иш билан бандликни таъминлаш, янги иш ўринларини яратиш каби масалалар устувор аҳамият касб этмоқда “Ҳудудларда аҳолининг турмуш даражаси ва сифатини яхшилаш, хусусан камбағалликни қисқартириш вазифалари кўп жиҳатдан иқтисодиётнинг барча тармоқ ва соҳаларининг рақобатбардошлигини ошириш ҳамда тадбиркорликни ривожлантириш учун фундаментал шароитларни яратиб бериш ҳисобига янги ва барқарор иш ўринларини ташкил этиш билан бевосита боғлиқдир”[57]. Бу вазифаларни ҳал этишда меҳнатга лаёқатли ёшгача бўлган меҳнат қилаётганни ижтимоий

[55] Безработица в Европе: кто заплатит за карантин. ru.euronews.com

[56] Халқаро Меҳнат Ташкилотининг маълумотлари. https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---dgreports/---dcomm/---publ/documents/publication/wcms_734455.pdf

[57] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 мартдаги “Иқтисодиётни ривожлантириш ва камбағалликни қисқартиришга оид давлат сиёсатини тубдан янгилаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5975-сонли Фармони//https://lex.uz/docs/4776669

эҳтиёжманд қатлам вакиллари таркибига киритиш, иқтисодиёт тармоқлари, соҳалари ва ижтимоий-демографик хусусият-лари, бандлик жараёни давомийлигини ошириш, аҳолини иш билан бандлик даражасининг ошиб бориши шароитида демографик жараёнларни прогнозлашнинг аниқлик даражасини ошириш каби йўналишларда тадқиқот ишларини чуқурлаштириш мақсадга мувофиқдир.

Бугунги кундаги глобал пандемия шароитида мамлакатларнинг олдида турган энг муҳим устувор вазифаларидан бири иқтисодиётда фаол ижтимоий-иқтисодий сиёсатни самарали амалга ошириш бўлиб ҳисобланади. Бу эса аҳолининг иш билан бандлиги даражасини янада ошириш асосида аҳолининг ишсиз қатламини иш билан таъминлаш, аҳоли даромадларини пандемиядан олдинги меъёрларда сақлаб қолиш, ўз иш ўринларини йўқотаёган аҳоли қатламларини иш билан бандлик даражасини янада ошириш бўйича муаммоларини ҳал қилиш билан изоҳланади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиеёвнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 75-сессиясида сўзлаган нутқида “қашшоқликни тугатиш ва камбағалликка қарши курашишни Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеяси навбатдаги сессиясининг асосий мавзуларидан бири сифатида белгилаш ҳамда ушбу масалаларга бағишланган глобал саммитни ўтказишни таклиф этамиз.”[58],- деб таъкидлаб ўтганликлари ҳам ушбу масаланинг нақадар муҳим аҳамиятга эга эканлигидан далолат беради. Мазкур соҳани ривожлантириш фақатгина иқтисодий масала бўлибгина қолмай, балки у мамлакатимиздаги демографик вазиятдан келиб чиқиб жамиятнинг ижтимоий-сиёсий ҳаётида ҳам асосий ўрин эгалловчи аҳолининг иш билан бандлиги даражасини янада оширишда муҳим аҳамиятга эга омил ҳисобланади.

Иш билан бандлик тушунчасига нисбатан турли ёндашувлар мавжуд бўлиб, жумладан, россиялик иқтисодчи олим А.И.Рофе ушбу тушунчага қуйдагича муносабат билдиради- “Аҳолининг иш билан бандлиги - бу аҳоли иқтисодий фаол қисмининг бандлик ҳолати бўлиб, у одамлар учун иш жойлари мавжудлиги билан тавсифланади, яъни амалдаги қонунчиликка зид бўлмаган, даромадли машғулот билан банд бўлишидир. Бошқача қилиб айтганда, иш билан бандлик - бу одамларга иш ҳақи, меҳнат даромади келтирадиган ижтимоий зарур меҳнат билан таъминлаш демакдир.”[59]

Шунингдек, етук иқтисодчи олимлардан И.М.Алиев, Н.А.Горелов, Л.О.Ильиналар ушбу тушунчага: “Иш билан бандлик ижтимоий-иқтисодий ҳодиса сифатида фуқароларнинг шахсий ва ижтимоий эҳтиёжларини қондириш билан боғлиқ ҳамда меҳнатдан даромад (иш ҳақи) келтирувчи ижтимоий фойдали меҳнат сифатида намоён бўлиши мумкин”[60]- деб таъриф берганлар.

---

[58] http://ngo.uz/uz/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-birlashgan-millatlar-tashkiloti-bosh-assambleyasining-75-sessiyasidagi-nutqi.

[59] Экономика труда: Конспект лекций: учебное пособие /А.И.Рофе.-Москва.:КНОРУС, 2017. с. 90.

[60] Экономика труда. В 2 ч. Часть 1 : учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры / И. М. Алиев, Н. А. Горелов, Л. О. Ильина. — 3-е изд., перераб. и доп. — М. : Издательство Юрайт, 2016. — 74 с.

Мазкур таърифлардан фарқли ўлароқ, бизнинг фикримизча, иш билан бандлик муносабатлари меҳнатга лаёқатли инсонларнинг қанчаси ва қай даражада ижтимоий фойдали меҳнатда катнашишини кўрсатадиган ижтимоий- иқтисодий кўрсаткичдир. Аҳолининг иш билан бандлиги меҳнат унумдорлигининг ошишига ва ўз навбатида, миллий бойликнинг ҳам ўсишига хизмат қилади, айни пайтда ишсизликнинг салбий оқибатлари шундаки, у нафақат ишлаб чиқаришнинг пасайишига, балки пировардида қашшоқликнинг бошланишига ҳам олиб келиши мумкин.

Бизнинг фикримизча иш билан бандлик инсоннинг меҳнат қилишдаги мутлақ ҳуқуққа эга эканлигини ифода этадиган қонуний фаолияти ҳамдир. Шу билан бирга меҳнат ресурслари таклифининг унга бўлган талаби орқали қондирилиши ҳамдир. Юқоридаги таърифга асосан иш билан бандликнинг расмий ва норасмий турлари инобатга олинмаган.

Маҳаллий олимларимиз томонидан билдирилган фикрлар, жумладан академик Қ.Х.Абдураҳмонов томонидан “Иш билан бандлик муносабатлари иқтисодий, демографик ва ижтимоий жараёнлар билан боғлиқ”. Иш билан бандликнинг иқтисодий мазмуни ходимнинг ўз меҳнати билан ўзига муносиб ҳаёт кечиришни таъминлаш билан бир қаторда ижтимоий ишлаб чиқаришни ривожлантиришни ҳам ифодалайди.

Иш билан бандлик мақоми ижтимоий фойдали фаолиятда иштирок этувчи меҳнат ресурсларининг бир қисми учун белгиланади. Булар даромад олиш мақсадида товарлар ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш учун иш кучини таклиф қиладиган кишилар гуруҳи, шунингдек, ижтимоий фойдали фаолиятда иштирок этса ҳам, бевосита пул даромади келтирмайдиган “аҳоли гуруҳи ёҳуд неъматлар ишлаб чиқариш ва хизматлар кўрсатиш билан бевосита боғлиқ даромад келтирадиган кишилар гуруҳларидан ташкил топади”[61]-деб таъкидланади.

Бизнингча, иқтисодиётнинг норасмий секторидаги аҳолининг иш билан бандлигини ҳисобга олишда белгиланган муддатдаги даромад миқдори ва қонуний жиҳатдан тақиқланмаган фаолият тури сифатида киритилиши лозим. Чунки белгиланган давр мобайнида норасмий секторда иш билан банд бўлган шахсларнинг оладиган даромади энг кам ойлик иш ҳақидан ёки истеъмол савотчаси миқдоридан кам бўлганда ушбу шахсга нисбатан банд бўлиш атамасини қўллаш бизнингча, ноўрин. Бугунги пандемия шароитида иқтисодиётнинг норасмий секторида банд бўлган шахслар меҳнат фаолиятини ва уларнинг даромадларини қонунийлаштириш муҳим аҳамият касб этади. Мазкур секторда меҳнат фаолиятини олиб бораётган ва даромад топаётган шахслар учун бошланғич давр учун имтиёзли дарвлар ташкил этиш ва кейинги муддатда босқичма-босқич ушбу сектор вакиллари манфаатларини ҳисобга олинган ҳолда расмий секторга ўтказиш чора-тадбирларини амалда жорий этиш лозим.

[61] Қ.Абдураҳмонов. Меҳнат иқтисодиёти: Назария ва амалиёт / Дарслик. Қайтаишланганватўлдирилган3-нашри. Т.: Ўзбекистон РеспубликасиФанлар академияси«FAN» нашриёт давлат корхонаси, Т.: 2019. – 262-264 б.

Дунё миқёсидаги айрим мамлакатларнинг аҳолининг иш билан бандлиги ва демографик ривожланиш кўрсаткичларини ўрганадиган бўлсак, Ўзбекистон Республикаси аҳолининг табиий кўпайиш коэффициенти бўйича юқори кўрсаткига эга мамлакатлар қаторига киради (1-жадвал).

1-жадвал

Айрим дунё мамлакатларининг аҳолининг иш билан бандлиги ва демографик ривожланиш кўрсаткичлари[62]

	Давлатлар номи	**2017 йилда аҳолининг ўртача йиллик сони** (млн.киши)	**2016 йилда аҳолининг ўртача умр кўриш давомийлиги** (йил)	**Дунё мамлакатларидаги аҳолининг миграцион ўсиш коэффициенти** (ҳар 1000 кишиганисбатан/йил)	**Дунё мамлакатларибўйича умумий аҳоли сонида, 65 ва ундан юқори ёшдагиларнинг улуши** (фоизда/йил)	**2017 йилда дунё мамлакатларида бандлар сони** (млн.киши/ жами аҳолига нисбатан фоизда)
	Россия	146,8	71,9	1,4/2017 йил	14,2 /2017 йил	72,1/49,1
	АҚШ	325,7	78,5	2,2/2011 йил	15,2 /2016 йил	153,3/47,1
	Япония	126,8	84,2	-0,6/2011 йил	27,1 /2016 йил	65,3/51,5
	Туркия	80,3	76,4	2,3/2016 йил	8,2 /2016 йил	28,2/35,1
	Қозоғистон	18,0	72,9/2017 йил	-1,2/2017 йил	7,3 /2018 йил	8,6/47,8
	Тожикистон	8,8	74,9 /2017 йил	-0,4/2017 йил	3,3 /2018 йил	2,4/27,3
	Ўзбекистон	32,4	73,8	-0,6/2017 йил	7,1 /2017 йил	13,5/41,7

Ўзбекистондаги табиий кўпайиш кўрсаткичи 2016 йилда 17,9 промиллега тенг бўлган бўлса, Россияда бу кўрсаткич -0,01 промиллега, Японияда -2,6 промиллега тенг бўлганлигини кўришимиз мумкин. Шу билан бирга аҳолининг ўртача умр кўриш давомийлиги бўйича Япония энг юқори кўрсаткичга эга бўлиб 84,2 йилга тенг, Ўзбекистон эса нисбатан паст кўрсаткичга эга бўлиб 73,8 йилга тенг. Ушбу жадвалдан яна шуни кўриш

[62] Россия и страны мира. 2018 Статистический сборник.– 377 с.Манба:”Россия и страны мира. 2018 Статистический сборник.” Маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

мумкинки, дунё мамлакатларидаги аҳолининг миграцион ўсиш коэффициенти Туркияда 2,3 промиллега, АҚШда 2,2, Россияда 1,4, Тожикистонда -0,4 промиллега, Ўзбекистон ва Японияда -0,6 промиллега ва Қозоғистонда -1,2 промиллега тенг бўлганлигини кўришимиз мумкин. Тожикистон, Ўзбекистон, Япония ва Қозоғистон давлатларидаги кўрсаткич манфий бўлиб, бу ушбу мамлакатлардан кўчиб кетувчилар сони кўп эканлиги билан изоҳланади.

Дунё мамлакатлари бўйича умумий аҳоли сонида 65 ва ундан юқори ёшдагиларнинг улуши бўйича Ўзбекистон ижобий кўрсаткичга эга бўлиб 7,1 фоизни ташкил этмоқда. Японияда ушбу кўрсаткич 27,1 фоизга тенг. 2017 йилда дунё мамлакатлари бўйича иш билан банд бўлганлар улуши ҳам ушбу жадвалда келтирилган бўлиб, жами аҳолига нисбатан бу кўрсаткич Ўзбекистонда 41,7 фоизга тенг, Туркияда 35,1 фоиз, Тожикистонда 27,3 фоиз, Россияда эса ушбу кўрсаткич 49,1 фоизга тенг. Мазкур жадвал маълумотларини таҳлил қилиш натижасида шундай хулосага келиш мумкинки, Ўзбекистон демографик ривожланиш кўрсаткичлари ва бандлик кўрсаткичлари бўйича ҳам барқарор ривожланишга эга. Бу эса яқин 15 йил ичида меҳнат ресурсларига бўлган танқисликка дуч келмаслиги билан изоҳланади.

Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 20 октябрдаги ЎРҚ-642-сонли“ Аҳоли бандлиги тўғрисида”ги янги қонунига асосан «Бандлик фуқароларнинг қонун ҳужжатларида тақиқланмаган, ўз шахсий ва ижтимоий эҳтиёжларини қаноатлантириш билан боғлиқ бўлган, уларга иш ҳақи (меҳнат даромади) келтирадиган фаолиятидир”[63] деб таъриф берилган.

Шунингдек, фуқароларга ўзининг ишлаб чиқаришга ва ижодий меҳнатга доир қобилиятларидан фойдаланиш ҳамда қонун ҳужжатларида тақиқланмаган, шу жумладан, ҳақ тўланадиган ишни бажариш билан боғлиқ бўлмаган ҳар қандай фаолиятни амалга ошириш бўйича мутлақ ҳуқуқ тегишлидир»[64] деб таъкидланган.

Юқоридаги келтирилган таърифлардан хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, бизнингча, инсон ўзининг меҳнат қилиш қобилияти – меҳнат ресурсларини ўзи тасарруф этиши билан бирга меҳнат қилганлик учун олинадиган меҳнат даромади (иш ҳақи)ни тасарруф этишда мутлақ ҳуқуққа эга бўлиши мақсадга мувофиқ. Бу эса унинг шахсий даромади ва шу билан бирга ушбу шахсий даромад ҳисобидан шаклланадиган мулк “шахсий мулк” мақомига эга бўлиши унинг иқтисодий мазмунига кўра тўла мос келади, деб ҳисоблаймиз.

Бизнинг фикримизча, иш билан бандлик инсоннинг ўз шахсий ва ижтимоий эҳтиёжларини қондириш йўлидаги қонуний фаолияти ва белгиланган (энг кам иш ҳақидан кам бўлмаган) меҳнат даромади келтирадиган фаолиятдир.

[63] 2020 йил 20 октябрдаги ЎРҚ-642-сонли“қарори.

[64] Ўзбекистон Республикасининг “Аҳоли бандлиги тўғрисида”ги қонуни. 2020 йил 20 октябрь, ЎРҚ-642-сон, 4-модда.

Маълумки, меҳнат ресурслари бу ишчи кучига эга бўлган аҳоли, аммо фақатгина ишчи кучининг ўзи эмас. Аксарият адабиётларда бу икки тушунча бир ўринда ишлатилади. Аммо «Ишчи кучи, оддий қилиб айтганда, инсоннинг меҳнат қобилиятилари йиғиндиси, меҳнат ресурслари эса шу қобилиятларга эга бўлган кишилар йиғиндисидан иборат».

Меҳнат лаёқатига эга бўлмаган ва меҳнатга лаёқат ёшидан катталар иқтисодий фаол бўлмаган аҳолини ташкил этади. Лекин бу гуруҳлар орасида ҳам ишлаш қобилиятига эга бўлганлар мавжуд бўлиб, биз уларни иқтисодий фаол аҳоли таркибига киритишга ҳақлимиз. Чунки уларни исталган пайтда ижтимоий ишлаб чиқаришга жалб қилиш мумкин. Глобаллашув шароитида бундай муаммоларни ҳал этиш республиканинг олдида турган долзарб масалалардан ҳисобланади.

Бунинг учун бозор ва кўчаларда фаолият кўрсатаётган «яширин тадбиркорлар»ни тегишли ташкилотлар томонидан расмийлаштириш, мардикор бозорларини маданийлаштирилган тарзда меҳнат биржаларининг фаолият соҳасидан бирига айлантириш ва давлат томонидан рағбатлантириш талаб этилади. Шунингдек, мулкчиликнинг турли шаклларини (айниқса, нодавлат секторида) ривожлантириш, иш ҳақини кўпайтириш орқали иш қидириш ва бандликни оширишда очиқ меҳнат бозори ролини абсолютлаштириш ҳам юқоридаги муаммоларни ҳал этишда муҳим аҳамият касб этади. Иш билан бандлик ижтимоий-иқтисодий категория сифатида ижтимоий меҳнат муносабатларининг турли туман шаклларидан иборат. Иш билан бандлик товар кўринишидаги ишчи кучи меҳнат бозорини тарк этганда ва уни истеъмол қилиш бошланганда вужудга келади. Бунда Президентимизнинг таклифлари билан жорий этилган ва ҳозирги пайтда яхши натижалар бераётган “Темир дафтарлар”, “Хотин қизлар” “Ёшларни иш билан таъминлаш” бўйича очилган темир дафтарлар самарали натижалар бермоқда.

Бугунги кунда иш билан бандлик мунтазам ва мосланувчан ёки ноанъанавий бандлик шаклларига ижтимоий ишлаб чиқаришда иш билан банд бўлган ҳолда ўриндошлик тартибида бошқа фаолият билан шуғулланаётган ишчиходимлар, ўқувчиталабалар, қарилик нафақасига чиқиб ишлаётганлар ҳамда уй ва шахсий томорқа хўжалиги юритувчилар кабилар киритилади. Шу ўринда бу тушунчанинг мазмунига эътибор қилсак, у бежизга тадқиқотчиларнинг жиддий норозилигига сабаб бўлмаганлигининг гувоҳи бўламиз.

Мосланувчан бандлик ҳам тўлиқсиз, вақтинчалик ва касаначилик каби турларга бўлинади. Аммо улар мавсумий ва қисман ишсизлик характерига эга. Мавсумий ишсизликда ишчи кучи маълум даврда иш билан банд бўлиб, қолган пайт ишсиз қолади. Қисман ишсизликда эса у куннинг муайян соатларида ёки ҳафтанинг айрим кунларида меҳнат қилиш имкониятига эга бўлади холос. Кўриниб турибдики, ҳар иккаласида ҳам бандлик нисбий бўлиб, бунинг ортида ишчилар маълум вақт бекор туриб қоладилар.

Республикамиз иқтисодиётида иш билан бандларнинг 63 фоизи моддий ишлаб чиқаришда, 37 фоизи эса хизмат кўрсатиш соҳаларида меҳнат

қилишади. Моддий ишлаб чиқариш соҳалари техникавий қуролланиш даражасининг пастлиги, мавжуд технологияларнинг маънавий эскирганлиги, ишчилар касб даражасининг замонавий талабларга жавоб бермаслиги ва бошқа омиллар бу соҳада иш билан бандлар орасидаги келиб чиқаётган муаммолардан бири десак бўлади. Ваҳоланки, ривожланган мамлакатларда бунинг аксини кўришимиз мумкин.

Демак, бозор муносабатлари шароитида иқтисодиётда таркибий ўзгартиришларни амалга ошириш, хизмат кўрсатиш ва моддий ишлаб чиқариш соҳаларини мувофиқлаштириш, меҳнат унумдорлигининг ўсиши, ишчиларнинг моддий ишлаб чиқариш соҳасидан хизмат кўрсатиш соҳаларига кўчиб ўтиши орқали самарали бандликни таъминлашга имкон беради.

Самарали бандлик эса шахснинг муносиб даромади, саломатлиги ва ривожланишини, шунингдек, ижтимоий меҳнат унумдорлиги ошиши асосида жамиятнинг ҳар бир аъзоси учун таълим ва касб даражасининг ўсишини таъминлайди. Самарали бандлик табиий равишда эришилган тўлиқ иш билан бандликни тўлдирувчи жараён бўлиб, иккаласининг мувофиқ келиши, (бирга рўй бериши) иқтисодиёт учун ижобий ҳол ҳисобланади. Иш билан тўлиқ бандлик аҳолининг 100 фоиз иш билан таъминланганлигини эмас, балки ишга эҳтиёж сезадиган ва ишлашни хоҳлайдиганларнинг иш билан таъминланганлигини англатади. Шундай қилиб, тўлиқ иш билан бандлик миқдор томонидан аҳолини иш билан бандлигини таърифласа, самарали бандлик сифат жиҳатини тавсифлайди.

Менинг фикримча, аҳолининг иш билан бандлигини янада ошириш биринчи навбатда, унга таъсир этувчи омиллар самарадарлигини оширишга боғлиқ ҳисобланади. Аҳолининг иш билан бандлигини оширишга таъсир этувчи омилларни аниқлаш ва ҳисобга олиш аҳолининг меҳнат билан бандлигини амалий жиҳатдан оширишнинг энг муҳим муаммоларидан биридир. Аҳолининг иш билан бандлигини оширишга тизимли ёндашувни татбиқ этиш жараёнида кўпгина тадқиқотчилар ташқи муҳит билан боғлиқлик мезонларга кўра икки гуруҳга - ташқи ва ички гуруҳларга ажратадилар. Ташқи гуруҳ омилларига қуйидагилар киритилади: сиёсий, иқтисодий, технологик (инновацион) ва ижтимоий ва бошқалар.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 мартдаги “Иқтисодиётни ривожлантириш ва камбағалликни қисқартиришга оид давлат сиёсатини тубдан янгилаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5975-сонли Фармони//https://lex.uz/docs/4776669

2. Ўзбекистон Республикасининг “Аҳоли бандлиги тўғрисида”ги қонуни. 2020 йил 20 октябрь, ЎРҚ-642-сон, 4-модда.

3. Қ.Абдураҳмонов. Меҳнат иқтисодиёти: Назария ва амалиёт / Дарслик. Қайтаишланганватўлдирилган3-нашри. Т.: Ўзбекистон РеспубликасиФанлар академияси«FAN» нашриёт давлат корхонаси, Т.: 2019. – 262-264 б.

4. Экономика труда. В 2 ч. Часть 1 : учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры / И. М. Алиев, Н. А. Горелов, Л. О. Ильина. — 3-е изд., перераб. и доп. — М. : Издательство Юрайт, 2016. — 74 с.
5. Халқаро Меҳнат Ташкилотининг маълумотлари. https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---dgreports/---dcomm/---publ/documents/publication/wcms_734455.pdf
6. http://ngo.uz/uz/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-birlashgan-millatlar-tashkiloti-bosh-assambleyasining-75-sessiyasidagi-nutqi.

Sh.F.Umirzakova - TDIU Samarqand filiali, “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasi assistenti

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLIYATINI MOHIYATI VA SHAKLLARI

Annotatsiya: *Maqolada tijorat banklarining investisiya investitsion faoliyati, investitsion portfellarni shakllantirish tamoyillari va turlari o`rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *investitsiya, investitsiya portfeli, obligatsiya, qimmatli qog‘oz, likvidlik, broker, diler.*

Аннотация: *В статье рассмотрена инвестиционная деятельность коммерческих банков, принципы и виды формирования инвестиционных портфелей.*

Ключевые слова: *инвестиции, инвестиционный портфель, Облигация, ценная бумага, ликвидность, брокер, дилер.*

Abstract: *The article examines the investment activity of commercial banks, the principles and types of formation of investment portfolios.*

Keywords: *investments, investment portfolio, bond, security, liquidity, broker, dealer.*

Tijorat banklarning investitsiya faoliyati – bu bank investor sifatida daromad olish hamda aktivlarining diversifikatsiyasini ta’minlash maqsadida moliyaviy aktivlarni sotib olishi, real aktivlarni yaratishi va tashkil qilishi uchun mablag‘larni joylashtirishi bilan bog‘liq faoliyatidir. Tijorat banklarning investitsiya faoliyatini boshqa investorlar faoliyatidan farqli tomoni shundaki, ular investitsiyani jalb qilingan mablag‘lar evaziga amalga oshiradilar. Shuning uchun ham bank bir tomondan investor sifatida bozorda paydo bo‘lsa, boshqa tomondan esa u mijozlari oldida qarzdordir. Ushbu holat banklar uchun likvidlilikni muhim masala qilib qo‘yadi, ular jalb qilingan depozitlar va ajratilgan kreditlar hamda investitsiyalarning muddati, hajmi va foiz stavkalari bo‘yicha mutanosib boshqarishni taqozo etadi.

Tijorat banklarining investitsion kreditlar berish salohiyati, birinchi navbatda, ularning resurs bazasi etarliligi bilan belgilanadi. Mamlakatimiz tijorat banklari resurs bazasining birinchi qismi kapitaldan iborat bo‘lsa, ikkinchi qismi esa depozitlardan iborat. So‘nggi yillarda tijorat banklari kapital bazalarining ham,

depozit bazalarining ham o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lganlar. Shuni ta’kidlash joizki, respublikamiz tijorat banklarida depozit mablag‘lari umumiy o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lsa-da, ularning bazasini uzoq muddatli depozitlar hisobiga yanada mustahkamlash kerak.

Banklarning investitsiya faoliyatini ikki turdagi xizmatlar ko‘rsatish biznesi sifatida ko‘rish mumkin:

- qimmatli qog‘ozlarni chiqarish yoki ularning birlamchi bozoriga joylashtirish orqali naqd pul mablag‘larining o‘sishi;

- ikkilamchi bozorda qimmatli qog‘ozlarni sotuvchilar va haridorlarning broker yoki diler sifatida bog‘lanishi.

Mablag‘lar real iqtisodiy aktivlarga yoki moliyaviy aktivlarga investitsiya qilinishi mumkin.

Investitsiyalar maqsadiga ko‘ra bank investitsiyalari quyidagilarga bo‘linadi:

- to‘g‘ridan-to‘g‘ri, investitsiya ob’ektini boshqarishni ta’minlashga qaratilgan;

- ob’ektni to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqarish maqsadini ko‘zlamaydigan, faqat foizlar va dividendlar shaklida yoki aktivlarning bozor qiymati oshganidan keyin daromad olish uchun mo‘ljallangan portfel.

Investitsiyalar maqsadiga ko‘ra tashkilotlarni tashkil etish va rivojlantirishga qo‘yilgan investitsiyalar va banklarning iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki bilan bog‘liq bo‘lmagan investitsiyalar ajratiladi.

Bankning investitsion portfeli - bu bank tomonidan foyda olish va risklarni diversifikatsiya qilish maqsadida amalga oshirilgan investitsiyalar yig‘indisidir.

Investorlarning xulq-atvoriga qarab, investitsiya portfeli quyidagi turlarda bo‘lishi mumkin:

- agressiv (xavf) - birinchi navbatda qimmatli qog‘ozlar portfeliga kiruvchi qimmatli qog‘ozlar (asosan aksiyalar) bozor qiymatini oshirishdan daromad olishga qaratilgan. Bunday portfelning egasi yuqori darajadagi xavfga moyil. Bunday investor imkon qadar ko‘proq daromad olishga intiladi va riskli qimmatli qog‘ozlarga mablag‘ qo‘yadi;

- o‘rtacha (bozor) - daromad bozor qiymatining o‘sishi, daromadli davlat obligatsiyalari bo‘yicha foizlar, shuningdek dividendlar to‘lash hisobiga shakllanadi. Asosiy ustuvorlik sifatida mo‘’tadil strategiyaga ega bo‘lgan investorlar investitsiya davrining qattiq doirasi bilan cheklanib qolmasdan, daromad miqdorini tanlaydilar;

- konservativ portfel davlat obligatsiyalaridan shakllanadi. Investor kamroq xavfga duchor bo‘ladi. Konservativ portfelni boshqarish strategiyasiga rioya qilgan investor uzoq vaqt davomida barqaror daromad olishdan manfaatdor. Shuning uchun u qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha foizlarni to‘lash shaklidagi to‘lovlarning uzluksiz oqimini afzal ko‘radi. U kamroq rentabellikdan mamnun, bu daromadning yuqori ishonchliligi bilan qoplanadi.

Bank investitsion portfellari turli mezonlarga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Investitsiya maqsadlarida portfellar quyidagilarga ajratiladi: foyda olish; kapitalni saqlash; zahiralarni ta’minlash; likvidlikni ta’minlash; ta’sir doirasini

kengaytirish.

2. Investitsion maqsadlarga erishish darajasiga ko‘ra quyidagilar ajratiladi: investitsion portfel rentabelligi; investitsiya portfelining o‘sishi; venchur investitsiya portfeli; balanslangan investitsiya portfeli; kafolatlangan investitsiya portfeli; balanslanmagan investitsiya portfeli.

3. Investitsiya vositalarining turlariga ko‘ra: qimmatli qog‘ozlar portfeli; real investitsiyalar portfeli; depozitariy portfeli; ipoteka portfeli; kredit portfeli; valyuta portfeli; birlashtirilgan portfel.

4. Moliyaviy vositalarning tavakkalchilik darajasiga ko‘ra investitsion portfellar quyidagilarga bo‘linadi: xavfli emas; minimal xavf bilan; o‘rtacha xavf bilan; yuqori xavf.

Banklarning investitsiya faoliyatini yanada rivojlantirish uchun banklar nafaqat qimmatli qog`ozlar bozoridagi investor sifatidagi rolini balki, rivojlangan mamlakatlar bank tizimida keng qo`llanilayotgan korporativ moliyalash hamda loyihaviy moliyalash kabi investitsiya xizmat turlarini ham rivojlantirishga katta e`tibor qaratishlari lozim. Bu esa o`z navbatida banklar investitsiya faoliyatini yanada rivojlanishiga va foiz ko`rinishidagi hamda komission ko`rinishdagi qo`shimcha daromad olish imkonini beradi.

Tijorat banklari investitsiya portfeli - bu likvidlilikni ta`minlash va daromad olish maqsadida yig`ilgan mavjud qimmatli qog`ozlar majmuidir. Ushbu portfelni boshqarishdan maqsad portfelning investitsiya xususiyatini saqlab qolishdir. Banklar investitsya portfelini boshqarishda qimmatli qog`ozlarni optimal tuzilmasini aniqlashi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizov U.O`, Qoraliev T.M. va boshqalar. “Bank ishi”, T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2016. – 640 b.

2. Банковский менеджмент. Под ред. Проф. О.И. Лаврушина. Учебник. - М.КНОРУС, 2016. - 414 с.

3. Колесов П. Ф. Роль инвестиционной деятельности в повышении конкурентных преимуществ банка // Гуманитарные научные исследования. - 2012. - №11,12.

4. Игонина Л.Л. Инвестиции: Учеб. пособие / Л.Л. Игонина. М.: Альфа, 2009. - 364 с.

5. Воробьев П. В., Лялин В. А. Ценные бумаги и фондовая биржа / Воробьев П. В., Лялин В. А.. - М.: Филинъ, 2009. - 329 с.

6. Мазурина Т.Ю. Банковское инвестиционное кредитование: современное состояние, проблемы и перспективы развития // Деньги и кредит. 2017, №4. 28-33 с.

Н.В.Калимулина – Урганч Давлат Университети мустақил тадқиқотчиси

КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ВА ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Аннотация: *Иқтисодиётда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлаш борасида яратилаётган имкониятлар ва муаммолар ўрганилган.*

Калит сўзлар: *тадбиркорлик, кичик бизнес, барқарор иқтисодий ўсиш, инвестиция дастурлари, рақобатбардош маҳсулот.*

Аннотация: *Изучены возможности и проблемы, создаваемые в экономике в части поддержки малого бизнеса и частного предпринимательства.*

Ключевые слова: *предпринимательство, малый бизнес, устойчивый экономический рост, инвестиционные программы, конкурентоспособный продукт.*

Abstract: *The opportunities and problems created in the economy in terms of supporting small businesses and private entrepreneurship were studied.*

Key words: *entrepreneurship, small business, sustainable economic growth, investment programs, competitive product.*

Мамлакатимизда кейинги етти йилда иқтисодиётнинг хусусий секторни рағбатлантириш ва қўллаб-қувватлаш бўйича бир қатор салмоқли ишлар амалга оширилди. Сўнгги йилларда хусусий тадбиркорлар учун қулай шарт-шароит яратиш мақсадида мингга яқин қонун ҳужжатлари, Президентнинг Қарор ва Фармонлари, Ҳукуматнинг расмий ҳужжатлари қабул қилинди. КБХТни қўллаб-қувватлаш бўйича аниқ натижалар тадбиркорлик соҳасида талаб қилинадиган 114 турдаги лицензия, рухсатномалар бекор қилиниб, уларнинг 33 тури ўрнига хабар бериш тартиби жорий этилганлиги, тадбиркорлик субъектларини расмий рўйхатдан ўтказиш ва рухсат бериш тартиб-тамойиллари 2 марта қисқартирилганлиги, назорат ва текширувларнинг барча турлари бекор қилинганлиги, солиқлар сони 13 тадан 9 тагача қисқартирилганлиги, ҚҚС, ижтимоий солиқ ставкалари пасайтирилганлиги ҳамда янги рўйхатдан ўтган якка тартибдаги ва оилавий тадбиркорлар учун юридик шахс ташкил этмасдан микрокредитлар ажратиш механизми яратилганлиги, махсус молиявий ёрдам давлат жамғармаси ташкил этилганлигида, 2019–2023 йиллар мобайнида фаол тадбиркорлар сони 358,8 мингдан 592,9 минггача ёки 1,6 мартага ошганлигида намоён бўлади[65].

[65] Ўзбекистоннинг 2030 йилгача барқарор ривожланиш соҳасидаги миллий мақсад ва вазифаларни амалга ошириш тўғрисида ихтиёрий миллий ҳисоботи (иккинчи) https://api.mf.uz/media/document _files /Ikkinchi_ milliy.pdf



1-расм. Ўзбекистон Республикасида 2014-2023 йилларда КБХТ субъектлари фаоллиги кўрсаткичлари динамикаси[66]

Расмга кўра, республикамизда рўйхатдан ўтган КБХТ субъектлари сони 2014 йилда 213,6 мингани ташкил қилган бўлса, ўтган 10 йил мобайнида уларнинг сони қарийб 556 мингтага етди ёки КБХТ субъектлари сони 2,6 мартага кўпайди. Худди шунингдек, республикамизда фаолият юритаётган КБХТ субъектлари сони 2014 йилда 189,8 мингтани ташкил қилган бўлса, 2023 йилга келиб 523,5 мингтани ташкил қилди ёки қарийб 2,75 мартагача ошди.

2014-2023 йиллар мобайнида рўйхат ўтиб, фаолият юритмаётган КБХТ субъектлари динамикасини кўрадиган бўлсак, 2014 йилда 23776 та КБХТ субъекти ёки рўйхатдан ўтган 213,6 минг КБХТ субъектларнинг қарийб 9.0 фоизи фаолият кўрсатмаган бўлса, 2023 йилга келиб эса 32415 та КБХТ субъектлари ёки рўйхатдан ўтган 555,9 минг КБХТ субъектларининг 5,8 фоизи фаолият кўрсатмаган. Бу дегани ўтган 10 йил ичида КБХТ фаоллиги, ривожланиши кўрсаткичлари бўйича Ўзбекистон Республикасида ижобий динамика ёки тенденция кузатилган.

Таъкидлаш жоиз, сўнги 3 йилда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 20 августни “Ўзбекистонда тадбиркорлар куни” қилиб белгилаганлиги ва мамлакатимиз тадбиркорлари билан изчил равишда очиқ мулоқот ўтказиб келаётганлиги ҳам КБХТ ривожланишида алоҳида муҳим қадам бўлди. Чунки, КБХТни ривожлантириш юзасидан 2021 йилда бўлиб ўтган очиқ мулоқот натижалари бўйича 57 та, 2022 йилда эса 55 та ташаббус илгари сурилиб, улар мамлакатимиз иқтисодиётига бир қатор ижобий таъсир кўрсатди. Жумладан:

Биринчидан, тадбирколик субъектлари микро, кичик, ўрта ва йирик тоифаларга бўлинди ва уларнинг ҳар бири билан алоҳида индивидуал ёндашувлар асосида ишлаш тизими йўлга қўйилди. Бундан ташқари, туман ва шаҳарлар ҳам 5 та тоифага ажратилиб, 60 та туманга алоҳида солиқ, кредит ва

[66] Ўзбекистон Давлат статистика агентлиги маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси

молиявий ёрдам режимлари жорий қилинди ва натижада бу туманлардаги тадбиркорлар ўтган 6 ойда қарийб 1 трлн.сўмлик имтиёзлардан фойдаланиши эвазига 20 та тумандаги тадбиркорларнинг даромади 2021 йилга нисбатан 1,5-2 мартага ёки 2023 йилнинг 6 ойида 7 трлн.сўмдан 11,5 трлн.сўмга кўпайган.

Иккинчидан, ҚҚСни қайтариш муддати қисқартирилиб, 2022 йил 1 августдан 2023 йил 1 августгача – 6 мингта корхонага 20 трлн.сўм қайтариб берилди. Айниқса, экспортдан валюта тушумини кутмасдан, ҚҚСни интизомли экспортчи корхоналарга қайтариб бериш тартиби жорий этилиши натижасида 2 мингдан зиёд тадбиркорларнинг ҳисоб рақамига 7 трлн.сўм келиб тушди. Энг муҳими, ҚҚС ставкасини 12 фоизга пасайгани эвазига қўшилган қиймат занжири субъектларининг 26 мингтаси "соядан" чиқиб, ҚҚС тўловчилари 184 мингга етди. Самарасиз солиқ механизмларини қўллаш оқибатида вужудга келган солиқ қарздорлигидан воз кечганимиз эвазига бизнес ихтиёрида 2 трлн.сўм қолди.

Учинчидан, кредит беришда айланмадаги товарлар, экспорт шартномалари, аккредитивлар ва келгуси тушумлардан ҳам гаров таъминоти сифатида фойдаланиш тизими яратилганлиги ҳисобига тадбиркорларимизга 1 млрд.доллар кредитлар берилди. Шунингдек, микро-молия ташкилотларини очиш тартибини осонлаштирилганлиги натижасида мамлакатимизда банкларга муқобил кредитлар бозоридаги ташкилотлар сони 1,5 марта, улар ажратган кредит миқдори эса 3 мартага ошиб, 2022 йилда нобанк ташкилотлар 3 трлн.сўм кредит берган.

Ислоҳотларнинг давоми ўлароқ, божхона ҳудудида қайта ишлаш тизимини соддалашганлиги боис, ушбу божхона режимидан фойдаланувчи тадбиркорлар сони 2 мартага ошиб, бир йилда ушбу имконият орқали 455 млн. Доллар-лик маҳсулот экспорт қилиниб, 110 млн.долларлик қўшилган қиймат яратилди.

Тўртинчидан, аввал янги тадбиркорлар учун "кириш қийин бўлган" 119 та фаолият бўйича лицензия ва рухсатномалар бекор қилиниб, хабардор қилиш шаклига ўтказилганлиги натижасида биргина автомобилда юк ташиш фаолияти бўйича лицензияларни бекор қилиш эвазига юк ташиш ҳажми 1,5 мартага ошди.

Бешинчидан, 2023 йилнинг олти ойида текширишлар ўтган йилнинг мос даврига нисбатан 40 фоиз ёки 104 мингтадан 64 мингтага камайганлиги, тўғри ишлаш "сояда" ишлашдан кўра афзал эканлигини тадбиркорлар тушуниб, 2022 йилда КБХТ субъектлари сони 40 мингтага ошиб, 490 мингга, ўрта тадбиркорлар сони 2 мингтага ошиб, 10 мингга, йирик корхоналар сони эса 400 тага кўпайиб, 1,5 мингта бўлди. Шунингдек, имтиёзлардан фойдаланиб, бир йилда 155 та корхонанинг йиллик айланмаси 100 млн.доллардан ошиб, киритилган йиллик хорижий сармоялар ҳажми эса илк бор 10 млрд.долларга етди ва бу эса 2017 йилга нисбатан 3 марта кўп ҳисобланади. Бундан ташқари, 2022-2023 йилларда КБХТ субъектлари томонидан 25 млрд.долларлик маҳсулотлар экспорт қилиниб, аввал импорт қилинган 10 млрд.долларлик маҳсулотни ўзлаштириш йўлга қўйилди.

Тадбиркорларни қийнаётган асосий муаммолар мурожаатлардан аён

бўлиб, келиб тушган 6 мингта мурожаатнинг 26 фоизини – кредит ва молиявий ёрдамни кенгайтириш, 21 фоизини бизнесни жой ва инфратузилма билан таъминлаш, 10 фоизини солиқ тизимини соддалаштириш ва 8 фоизини текширишлар ва ортиқча бюрократияни кескин қисқартириш билан боғлиқ масалалар ташкил қилади.

Давлат раҳбари томонидан очиқ мулоқотда қуйидаги муҳим ташаббуслар кўтарилиб, яқин истиқболдаги мамлакатимизда КБХТ ривожлантириш стратегиясининг устувор йўналишлари белгилаб берилди. Хусусан:

Биринчи йўналиш – кичик бизнес учун янги имкониятлар яратиш бўлиб, ***биринчидан,*** иш ўринларининг 70-80 фоизи шу соҳа вакиллари томонидан яратилаётганлиги боис, ҳар йили микро-бизнесни молиявий қўллаб-қувватлашга 1 млрд.доллардан зиёд маблағ йўналтирилади.

Шунингдек, кичик тадбиркорларнинг “оёққа туриб олиши” ва фаолиятини кенгайтириши учун мутлақо янги ёндашувларни жорий этилиб, соҳа вакилларини тадбиркорликка ўқитиш, уларга лойиҳа тайёрлаб бериш, молиялаштириш, маҳсулотига бозор, бизнесига шерик топиш бўйича яхлит эко-тизим яратилади.

Иккинчидан, жойлардаги кичик бизнес марказларида ўқиган тадбиркорларнинг лойиҳаларини энг қулай шартларда молиялаштириш йўлга қўйилади, яъни бизнес лойиҳасининг 10 фоизига тадбиркор инвестиция қилса, 45 фоизига “Бизнесни ривожлантириш банки”нинг ўзи, қолган 45 фоизи учун давлат ресурс йўналтиради. Бунда бир “тадбиркорлик йили”да банкнинг ўзи 500 млн.доллар олиб келади, давлат яна шунча миқдорда маблағ ажратади ва кредитлар 5-7 йил муддатга имтиёзли шартларда берилади. Энг эътиборлиси, “кредит ва солиқ тарихи” тоза бўлган тадбиркорларга фаолиятини янги босқичга олиб чиқиш учун кредит олишда гаров талаби 50 фоизга камайтирилади.

Учинчидан, Кичик бизнес марказлари кўмагида лойиҳа ташаббускори ва йирик давлат корхоналари билан кооперация алоқалари ўрнатилиб, янги корхоналарда замонавий технологияларни жорий қилиш, ходимлар малакасини ошириш ва маҳсулотини сотишга Марказлар кўмаклашади ҳамда бу корхоналарга давлат харидлари тизимида ўзи ишлаб чиқарган маҳсулотларни 2 йил давомида тўғридан-тўғри шартнома билан сотишга рухсат берилди.

Тўртинчидан, Кичик бизнес марказларини бошқаришга хусусий шериклар жалб этилиб ва уларга “Бизнесни ривожлантириш банки”га ҳиссадор бўлиб кириш ҳуқуқи берилади. Шунингдек, марказларга бизнес-консультант, муҳандис-технолог, дизайнер, меҳмонхона бошқарувчиси, маркетолог, агроном, ветеринар, уруғшунос каби хориждан жалб этилган мутахассисларга Ўзбекистонда ишлаш учун рухсатнома бериш муддати 1 йилдан 3 йилга узайтирилди.

Бешинчидан, янги тизимни жорий этиш бўйича алоҳида қонун ҳам қабул қилиниб, марказ билан ҳамкорликда кичик бизнес лойиҳаларини амалга ошириш билан боғлиқ барча жараёнлар соддалашган тартибда белгиланади.

Иккинчи йўналиш – ўрта бизнесни барқарор иқтисодий ўсиш гарови сифатида қўллаб-қувватлаш.

Биринчидан, “драйвер” тармоқларда истиқболли лойиҳаларни амалга ошириш учун Саноатни ривожлантириш жамғармасини ташкил этилиб, дастлабки босқичда унга 200 миллион доллар ажратилди ва 2023 йил жамғарма-дан 1 сентябрдан бошлаб, янги лойиҳаларни молиялаштириш учун хорижий валютада 5 фоиз, миллий валютада 10 фоиз ставкада 10 йил муддатга кредитлар ажратила бошланди, саноат корхоналарига эса 1 йил муддатгача хорижий валютада 4 фоиз, миллий валютада 10 фоиз ставкада айланма маблағлар тақдим этилаяпти.

Иккинчидан, саноат ипотекаси тизими йўлга қўйилиб, тадбиркорларга “тайёр бизнес” шаклида ишлаб чиқариш майдонлари қуриб берилади. Ҳар бир вилоятда камида 3 тадан янги саноат зонаси ташкил этилади.

Учинчидан, охирги йилларда катта-катта инвестиция дастурларини амалга ошириш ҳисобидан мамлакатимизда 20 мингга яқин замонавий ускуналарга эга корхоналар барпо этилди. Буларнинг ярми – ўрта корхоналардир.

Тўртинчидан, Тадбиркорлик жамғармаси иқтисодиётимизнинг яна бир драйвери бўлган хизматлар соҳасига масъул бўлади.Жамғармага салоҳиятли ўрта бизнес корхоналарига ҳиссадор бўлиб кириш ваколати берилади. Бунинг учун жорий йилда Жамғармага қўшимча 25 миллион доллар, келгуси йилда яна 100 миллион доллар ажратилади.

Учинчи йўналиш – янги бозорларга сифатли ва рақобатбардош маҳсулот билан кириш. Умуман, экспортни қўллаб-қувватлаш ҳисобидан сўнгги 4 йилда бундай корхоналар сони 4,5 мингдан 7,2 мингтага кўпайди, четга сотилаётган маҳсулот турлари 1,5 мингдан 3 мингтага ошиб, географияси 139 та мамлакатдан 164 тага кенгайди, ташқи бозорларга тайёр маҳсулот сотиш ҳажми 2 марта, товарлар экспортидаги улуши эса 50 фоиздан 65 фоизга ошди.

Иккинчидан, маҳаллий корхоналардаги ишчиларга муносиб меҳнат шароитларини яратиб берилади.

Учинчидан, брендларнинг маҳсулотларини олиб кириш ва экспорт қилиш учун қулай божхона режимини жорий қилинади.

Тўртинчи йўналиш – юқори даромадли корхоналарни кўпайтириш

Бешинчи йўналиш – содда солиқ маъмурчилиги ва бюрократиясиз қулай муҳит. 2023 йил 1 октябрдан бошлаб ҚҚСни қайтаришда солиқ узилиши коэффициентини қўллаш амалиётини, яъни “tax-gap”ни бекор қилинди.

биринчидан, камерал назорат “солиқчининг қуроли” эмас, балки тадбиркорга хатосини кўрсатиб, уни тўғирлашга ёрдам берадиган жараён сифатида талқин қилинади.

иккинчидан, ҳозирги вақтда солиққа оид битта ҳуқуқбузарлик учун тадбиркор сифатида молиявий жарима, жисмоний шахс сифатида маъмурий жарима қўлланмоқда.

учинчидан, тадбиркорнинг солиқ идоралари билан бўладиган барча низоларини маъмурий суд ваколатига ўтказиляпти. Солиқ бўйича

тадбиркорларга нисбатан даъво киритиш муддати ҳозирги 5 йилдан 3 йилга туширилиб, солиқ ёки кредит қарзини ундириш бўйича суд қарори чиқарилганида, пеня ва фоизлар ҳисоблаш тўхтатилади.

тўртинчидан, 2024 йил 1 январдан бошлаб бир-бирини такрорловчи ва эскирган ҳисоботлар тугатилади, барча ҳисоботларни ягона электрон тизим орқали тақдим этиш йўлга қўйилиб, уларнинг қоғоз шакли бекор қилинади.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
“MENEJMENT” KAFEDRASI

“IQTISODIY TARAQQIYOT VA SAMARALI BOSHQARUV: XALQARO TAJRIBA, TENDENSIYALAR VA DOLZARB MASALALAR”

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI

(III qism)

(2023 yil 10 - 11 noyabr)

SAMARQAND – 2023